

LACETTI

**Avtomobildan
foydalanish qo'llanmasi**

FAQAT ISHLAB CHIQUARUVCHI TOMONIDAN TAVSIYA ETILGAN YONILG'I TURLARIDAN FOYDALANING!



Sizning avtomobilingizda avtomobillar sohasidagi fan-texnikaning oxirgi yutuqlariga muvofiq loyihalashtirilgan va tayyorlangan dvigatel o'rnatilgan. Bu tejamkor, texnik takomillashtirilgan va atrof muhitni himoya qilish talablariga mos keladigan modeldir.

Dvigatelning kerakli darajada ishlashi uchun, faqat Ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan, modelning turiga mos keluvchi oktan soniga ega bo'lgan yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish lozim.

«DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH VA AVTOMOBILNI BOSHQARISH - Yonilg'i» bobiga qarang (3-4 bet).

Yonilg'ining boshqa turlaridan foydalanish avtomobilning foydalanish xususiyatlari yomonlashuviga olib kelishi, va kafolat bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin!

SO'Z BOSHI

Mazkur Qo'llanma avtomobil egasini «UzAuto MOTORS» AJ da ishlab chiqarilgan avtomobilning tuzilishi, ishlashi va unga texnik xizmat ko'rsatilishi bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma avtomobildan xavfsiz va uzoq muddatli foydalanish qoidalari haqidagi muhim axborotni o'z ichiga oladi. Biz Sizga mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'rganib chiqib, unda keltirilgan barcha tavsiyalarga amal qilishni qat'iy ravishda maslahat qilamiz. Chunki bu umuman avtomobilning, uning agregatlari va tizimlarining butun xizmat qilish muddati davomida xavfsiz, ishonchli xizmat qilishini ta'minlaydi.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalariga murojaat qilishni tavsiya etamiz, ularning malakali xodimlari va texnologik jihoz-uskunalari barcha texnik xizmat ko'rsatish amallarining tegishli darajada bajarilishini ta'minlay oladi. «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalarida Siz o'zingizga va avtomobilingizga o'ta e'tiborli va qiziquvchan munosabatning guvohi bo'lasiz.

Shuningdek, paytdan foydalanib, tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. «UzAuto MOTORS» AJ keyinchalik ham tanlovingizni oqlash uchun nimaiki mumkin bo'lsa, barcha ishlarni bajarishga intiladi.

Mazkur Qo'llanmani avtomobilning ichida, agar unga zarurat tug'iladigan bo'lsa, u doimo qo'lingiz yonida bo'ladigan qilib saqlashni tavsiya etamiz. Avtomobilni sotgan holda Qo'llanmani uning yangi egasiga berishni unutmang!



AVTOMOBIL EGASINING DIQQATIGA

Avtomobildan foydalanishni boshlashdan avval mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va uning barcha tavsiyalariga qat'iy ravishda amal qiling.

Avtomobilning egasi uchun eng muhim axborotni ajratib ko'rsatish uchun Qo'llanmada og'ma harflar bilan yozilgan **DIQQAT**, **OGOHLANTIRISH** va **ESLATMA** maxsus so'zlari ishlatiladi.

Ushbu axborotga alohida e'tibor bering va o'z xavfsizligingiz choralaringa oid eng muhim ma'lumotlarni eslab qolishga harakat qiling.

DIQQAT!

Yo'l-yo'riqlar va ogohlantirishlar Sizga har xil turdagi jarohatlarni olish xavf-xatarini kamaytirish yoki ehtimolining oldini olish imkonini beradi. Jarohatlanishga (shu jumladan yo'lovchilar jarohatlanishiga) yo'l qo'ymaslik uchun albatta avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishda xavfsizlik qoidalariga amal qiling!

OGOHLANTIRISH!

Ushbu xabarlar ba'zi texnik xizmat ko'rsatish amallarini bajarishning o'ziga xos xususiyatlariga, nosozliklarni bartaraf etish usullariga, to'g'ri yo'llariga va hokazolarga tegishli bo'ladi. Bu tavsiyalarga amal qilish Sizga avtomobil shikastlanishi va ishdan chiqishining oldini olishga yordam beradi.

ESLATMA

Qo'shimcha izohlash axboroti, u avtomobildan foydalanish va uning tuzilishiga oid mazkur Qo'llanmadagi ba'zi tavsiyalarini ko'proq tushunarli va aniq qiladi. Ushbu ma'lumot Sizga avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va uni parvarish qilishni osonlashtirishga yordam beradi.

Avtomobildan foydalanish va uning tuzilishiga oid Qo'llanma nashr etilgan paytiga kelib avtomobilning konstruksiyasiga kiritilgan barcha oxirgi o'zgarishlar va takomillashtirishlarni hisobga olgan holda tayyorlangan.

«UzAuto MOTORS» AJ ishlab chiqariladigan avtomobillarning konstruksiyasiga yoki texnik xususiyatlariga avvaldan ogohlantirmagan holda o'zgartirishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bir qator hollarda avtomobil ba'zi davlatlarda amal qiladigan standartlarga va qoidalarga mos kelmasligi mumkin.

Avtomobilni ro'yxatdan o'tkazishdan avval, uning mahalliy me'yorlar va qoidalarining talablariga to'liq mos kelishiga ishonch hosil qiling. Zarur bo'lganda avtomobilni ushbu talablarga mos holga keltiring. Ushbu ishlar yuzasidan «UzAuto MOTORS» AJ ning dileri bilan maslahatlashing.

Mazkur kitobda xaridorning maxsus buyurtmasiga ko'ra o'rnatiladigan qo'shimcha jihoz-uskunalar va «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan Qo'llanma nashr

etilgan sanasiga kelib, taklif etiladigan avtomobil salonining jihozlanishi ta'riflanadi. Shuning uchun avtomobilingizda bu yerda tilga olingan qo'shimcha jihoz-uskunalar yoki salon jihozlanishining ba'zi jihatlari bo'lmasligi mumkin. Avtomobilga radio va orqa ko'rish kamerasi bo'lmasligi mumkin. Zarur bo'lganda «UzAuto MOTORS» AJ ning dileriga taklif etiladigan qo'shimcha jihoz-uskunalar hamda salonning jihozlanishi va pardozlanishi darajasi yuzasidan to'liq axborot olish uchun murojaat qiling.

* Mazkur Qo'llanmada asosiy to'plamiga kirmaydigan va avtomobilingizda bo'lmasligi mumkin bo'lgan jihoz-uskunalar yulduzcha bilan qayd etilgan.

Ushbu jihoz-uskunalar maxsus buyurtma asosida o'rnatiladi yoki faqat avtomobillarning ayrim butlanishi turlari uchun ko'zda tutilgan bo'ladi. Masalan: kattaroq quvvatli dvigatel bilan jihozlanadigan, yoki ba'zi jahon davlatlariga eksport qilinadigan avtomobillar.

Shuni ko'zda tutish lozimki, boshqa firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan va belgilab berilgan sinovlardan o'tmagan ehtiyot qismlari va anjomlar avtomobillarimizda qo'llanishi mumkin emas.

«UzAuto MOTORS» AJ tavsiya etilgan moslamalardan farq qiluvchi ehtiyot qismlari va moslamalarning qo'llanishi tufayli yuzaga kelgan avtomobilning har qanday shikastlanishlari uchun javobgar bo'lmaydi.

«DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH VA AVTOMOBILNI BOSHQARISH» (3-4 bet) bo'limidagi ishlatiladigan yonilg'ining turiga alohida e'tibor bering

MUNDARIJA

- 1. O'rindiqlar va passiv himoyalash tizimlari** **1-1**
(Avtomobilni ko'zdan kechirish, eshiklarning qulflari, oyna ko'targichlar, orqaga qarash ko'zgulari, o'rindiqlari va xavfsizlik kamarlariga oid axborot)
- 2. Asboblar va boshqarish organlari**..... **2-1**
(Avtomobilingizdan qanday foydalanish kerakligi haqidagi axborot)
- 3. Avtomobilni boshqarish**..... **3-1**
(Asboblar paneli, o'lchov asboblari va avtomobilni boshqarish vositalariga oid axborot)
- 4. Avtomobil salonida iqlimni boshqarish**..... **4-1**
(Salonni shamollatish, isitish va havoni konditsionerlashdan qanday foydalanish kerak)
- 5. Audiotizim *** **5-1**
(Audiotizimdan qanday foydalanish kerak)
- 6. Amaliy maslahatlar** **6-1**
(Avtomobilni parvarish qilish yuzasidan muhim axborot va harakat paytida muammolarga duch kelgan bo'lsangiz, nima qilish lozimligi haqidagi axborot)
- 7. Texnik xizmat ko'rsatish** **7-1**
(Avtomobilingizga qanday qilib to'g'ri xizmat ko'rsatish kerakligi haqidagi axborot)
- 8. Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti** **8-1**
(Texnik xizmat ko'rsatishni qachon o'tkazish lozimligi va texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalari haqidagi axborot)
- 9. Texnik ma'lumot**..... **9-1**
(Avtomobilning texnik tavsiflari, uning moylanishi va boshqa foydali axborot)
- 10. Gaz-ballon asbob-uskunalari *** **10-1**
(Gaz-ballon asbob-uskunalari xaqida malumotlar)

1

O'RINDIQLAR VA PASSIV HIMOYALASH TIZIMLARI

- XAVFSIZLIK KAMARLARI 1-2
- HAYDOVCHI VA YO'LOVCHI 1-5
- UCH NUQTALI MAHKAMLANUVCHI XAVFSIZLIK
KAMARLARI 1-5
- BOLALAR XAVFSIZ O'RINDIG'I 1-10
- BOSH TAGLIKLARI 1-12
- O'RINDIQLAR 1-13
- XAVFSIZLIK YOSTIQCHALARI 1-15
- ESLATMALAR 1-22

XAVFSIZLIK KAMARLARI

Uzoq yillar davomida ko'pgina ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining davlat va korporativ dasturlari haydovchining va yo'lovchilarning xavfsizligiga qaratilgan edi.

Avtomobilning faqatgina avariya paytida haydovchini va yo'lovchilarni himoya qilish uchun mo'ljallangan ikkita tarkibiy qismi, har bir o'rindiqda ko'zda tutilgan xavfsizlik kamarlari, va qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimi - haydovchi va oldingi yo'lovchi uchun xavfsizlik yostiqlari hisoblanadi.

Xavfsizlik kamarlari faqat taqilgan holatida haydovchini va yo'lovchilarni himoya qilishni ta'minlaydi. Xavfsizlik yostiqlari qo'shimcha himoya vositasi bo'lib, u faqat xavfsizlik kamarlaridan foydalanganda samarali bo'ladi.

Xavfsizlik kamarlari qanday ishlaydi?

Xavfsizlik kamarlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Haydovchini va yo'lovchilarni to'qnashuvlar paytida ushlab qolishni ta'minlaydi.

2. Tortilishi hisobiga xavfsizlik kamarlari to'qnashuv paytida inersiyaviy harakatlanishni sekinlashtiradi va konstruksiya elementlarining deformatsiyalanishi yo'li bilan avtomobilning oldingi qismi zarbaning energiyasini yutishi davomida, inson tanasining oldinga harakatlanishini kamaytiradi.

3. To'qnashuvlar paytida haydovchining holatini tutib turadi, ma'lum favqulodda yo'l vaziyatlarida avtomobilni boshqarishni tiklash imkoniyatini ta'minlaydi.

4. Qolgan yo'lovchilarning va haydovchining jarohatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun, yo'lovchilarning o'z joylaridan otilib ketishining oldini oladi.

OGOHLANTIRISH!

- Faqat xavfsizlik kamarlari avtomobil avariylarida jarohatlardan va o'limdan himoyalashning oddiy va samarali vositasi sifatida o'zini ko'rsatgan!
- Avtomobilning egasi va haydovchi sifatida, Siz barcha yo'lovchilar o'z xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqqanligiga ishonch hosil qilishingiz lozim.
- Homilador ayollar, jarohatlari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan kishilar ham xavfsizlik kamarlarini taqishi kerak. Ushbu talablarga rioya qilinmaganda, bunday yo'lovchilar avariya paytida og'ir jarohatlar olishi va o'lishining ehtimoli eng ko'p bo'ladi.
- Homilani xavfsiz saqlashning eng yaxshi yo'li – homilador ayolni himoya qilish.
- Ushbu bobda xavfsizlik kamarlarining ishlash tamoyili va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek o'rindiqlarni sozlash tartibi ta'riflangan. Barcha taqdim etilgan

OGOHLANTIRISH!

ma'lumotlarni o'qib chiqing, va avtomobilning xavfsizlik tizimlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlash uchun, ushbu yo'l-yo'riqlarga va ogohlantirishlarga albatta amal qiling.

Xavfsizlik kamarlarining ishlash tamoyili

Faqat to'g'ri taqilgan xavfsizlik kamarlari himoyalashni ta'minlaydi.

Inson tanasiga ma'lum darajadan ko'proq kuch ta'sir etganda, avtomobildagi kishilar jarohatlar olishi mumkin.

Avtomobilning tezligi keskin pasayganda insonning tanasiga katta kuch ta'sir etishi yuzaga keladi, lekin agar uning tanasi oldinga harakatlanishini sekinlashtirish ta'minlansa, bu kuch ta'siri ancha kamayadi. Shunday qilib, insonni to'qnashuv paytida jarohatlardan himoyalash uchun, uning tanasi oldinga harakatlanishi to'xtaguncha maksimal vaqtni va masofani ta'minlash asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

25 km/soat tezlikda yugurib ketayotgan va beton devorga urilgan kishini tasavvur qilaylik. Xuddi shunday, **25** km/soat tezlikda yugurib ketayotgan va **90** sm qalinlikdagi shakli o'zgaradigan oraliq bilan qoplangan beton devorga urilgan ikkinchi kishini ham tasavvur qilamiz.

Birinchi holatda kishi og'ir jarohatlar olishi yoki hatto o'lishi mumkin.

Ikkinchi holatda kishi jarohat olmasligi ehtimoli ko'proq. Nega? Birinchi holatda inson tanasi elastik bo'lmagan qattiq beton yuzasiga uriladi va darhol to'xtaydi. Yugurish davomida yig'ilgan butun energiya qattiq beton yuzasiga emas, balki inson tanasiga ta'sir etadi.

Ikkinchi misolda inson tanasi birinchi misoldagi kabi kinetik energiyaga ega bo'ladi. Lekin bu holatda inson tanasi oldinga harakatlanganda, ushbu qoplama tufayli, qoplama shakli o'zgarib borayotganda yugurayotgan kishining energiyasi qoplama bilan yutilishi hisobiga, tana to'xtashi uchun qo'shimcha vaqt va masofa ta'minlanadi.

Avtomobil beton devor bilan 50 km/soat tezlikda to'qnashganda, avtomobilning oldingi bamperi darhol to'xtaydi, lekin avtomobil karkasining oldingi elementlari shakli o'zgarishi hisobiga salon sekinroq to'xtaydi. Xavfsizlik kamari taqilgan kishi o'z joyida qoladi va «qoplama» bilan himoyalanaadi, avtomobilning oldingi qismining shakli o'zgarishi va xavfsizlik kamarlarining tortilishi shunday qoplama vazifasini bajaradi.

Kamari taqilgan inson tanasi tezligining 50 km/soatdan nolgacha kamayishi 90-120 sm lik masofaga harakatlanishi davomida yuz beradi. Bundan tashqari, kamari taqilgan kishi o'z joyida qoladi, shuning uchun, agar frontal to'qnashuvda xavfsizlik yostiqlari ishlab ketsa, avtomobilning qattiq elementlariga urilishdan saqlanishi mumkin. Kamari taqilmagan kishi bunday himoyalanaadi.

Uning avtomobildagi holati mahkamlanmagan, shuning uchun uning tanasi to'qnashuvdan avval bo'lgan 50 km/soat tezlikda harakatlanishni davom ettiradi, va 50 km/soatga yaqin tezlikda biror-bir qattiq ob'ekt bilan to'qnashib, darhol to'xtaydi.

Shunday qilib, hatto frontal to'qnashuvda xavfsizlik yostiqlari ishlab ketsa ham, kamari taqilmagan oldingi yo'lovchi kamari to'g'ri taqilgan kishiga nisbatan ancha ko'proq darajada og'ir jarohat yoki o'lim xavfida qoladi. («QO'SHIMCHA PASSIV XAVFSIZLIK TIZIMI» bo'limiga qarang)

OGOHLANTIRISH!

XAVFSIZLIK KAMARLARI HIMOYALASHNI TA'MINLAYDI

Avtomobil avariylarining statistikasi shuni ko'rsatadiki, xavfsizlik kamarlari to'g'ri taqilgan haydovchilar va yo'lovchilar avariya paytida kamroq jarohatlanish xavfida qolib, ko'proq tirk qolish ehtimoliga ega bo'ladi. Shuning uchun ko'pchilik davlatlarda avtomobildan foydalanish paytida xavfsizlik kamarlarini taqish talablarini o'z ichiga oladi.

OGOHLANTIRISH!

XAVFSIZLIK KAMARLARIDAN FOYDALANISH

Avtomobilning oldingi o'rindiqlari va orqa o'rindiqning yon joylari uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan.

Oldingi o'rindiqlar va orqa o'rindiqning yon joylaridagi xavfsizlik kamarlari inertsiyaviy g'altak mexanizmi bilan ichiga tortiladi va mahkamlanadi. Normal taqilgan holatida uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamari uzunligini sozlash talab etilmaydi, va u avtomobilning doimiy harakat tezligida harakatlanish erkinligini ta'minlaydi.

To'satdan yoki keskin to'xtaganda, yoxud juda tez tezlashuvda yoki sekinlashishda xavfsizlik kamari inson tanasini ushlab qolishni ta'minlab, avtomatik tarzda bloklanadi.

Himoyalashning barcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun xavfsizlik kamari to'g'ri taqilgan bo'lishi, inson esa quyidagi talablarga muvofiq to'g'ri holatda bo'lishi lozim:

- O'rindiqning orqasi vertikal holatda (og'ishsiz, to'qnashuv paytida xavfsizlik kamari ostiga «sho'ng'ishi» yoki siljib

▲ OGOHLANTIRISH!

kirishi, hamda tananing zaifroq qismlari jarohatlanishining oldini olish uchun) bo'lishi kerak.

- Inson to'g'ri o'tirishi (oldinga egilmasligi, to'qnashuv paytida kamarning bel va yelka qismlari maksimal ushlab qolish kuchini ta'minlay olishi hamda tananing yumshoq va zaifroq qismlarining jarohatlarini mumkin qadar kamaytirishi uchun) kerak.
- Yopish skobasi xavfsizlik kamarining qulfi ichiga tiqillamaguncha, ishonchli kiritilgan bo'lishi kerak (agar xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, u hech qanday himoyalashni ta'minlamaydi; mahkamlashning ishonchligini teshirish uchun kamarni tortib ko'ring)
- Xavfsizlik kamarining bel qismi pastda o'tadi va tananing tos-son qismiga yopishib turadi (qorin bo'shlig'i emas, chunki bu yerda kamarning tortilishi to'qnashuv paytida og'ir jarohatga olib kelishi mumkin)

– BU HOMILADOR AYOLLAR UCHUN AYNIQSAMUHIM)

- Xavfsizlik kamarining yelka qismi eshikka yaqin bo'lgan yelkadan o'tadi va ko'krakni aylanib o'tadi (qo'l ostida, bo'yin atrofida, eshikdan uzoqroq yelka bo'ylab yoki bel orqasidan o'tmaydi, to'qnashuv paytida inson tanasining oldinga ortiqcha siljishini

▲ OGOHLANTIRISH!

va jarohat olishini istisno etish uchun, kamar bo'shshib turmasligi lozim)

- Tizzasi «oldinga to'g'ri» qo'yilgan holatida (haydovchining tomonidan tizza buferlari to'qnashuv paytida xavfsizlik kamari ostiga «sho'ng'ishiga» to'sqinlik qilishi uchun)
- Shaxsiy xavfsizlik kamari (xavfsizlik kamari bitta kishiga mo'ljallangan, shuning uchun bitta xavfsizlik kamaridan bir nechta kishi foydalanishi to'qnashuv paytida jarohatga sabab bo'lishi mumkin.)
- Bolalar o'rindiqlarida (to'qnashuv paytida katta kuchlar yuzaga keladi, shuning uchun katta yoshli kishi u bilan birga bitta xavfsizlik kamari taqilgan bolani ushlab qola olmaydi.)
- Haydovchi va barcha yo'lovchilar kamarlari taqilgan (kamari taqilmagan kishilar o'zi jarohat olishi va avtomobildagi qolgan kishilarga jarohat yetkazishi mumkin, chunki to'qnashuv paytida ular mahkamlanmagan holatda bo'ladi.)
- Xavfsizlik kamarlari ortiqcha buralmasligi lozim (o'ta buralgan xavfsizlik kamarlari erkin harakatlanishi mumkin emas va tegishli ushlab qolishni ta'minlay olmaydi; yuklanishni bir tekisda taqsimlash o'rniga ular inson tanasiga kirib ketishi, va

▲ OGOHLANTIRISH!

jarohat olish va o'lim xavfini oshirishi mumkin.)

- Eshiklarni yoping (to'qnashuv paytida yopilmagan eshiklar tashqi zarba ta'siri yoki avtomobildan otilib chiqishi tufayli jarohat olish va o'lim xavfini oshirishi mumkin.)
- Vaqt-vaqti bilan kamarlarni tekshiring (avtomobildan foydalanish paytida vaqt-vaqti bilan xavfsizlik kamarining bel qismi sonlarga zich yopishib turishi va belga siljib ketmasligini, yelka qismi esa yelkaning o'rtasidan va ko'krakdan o'tishini tekshiring. Kamarning to'g'ri holati tananing yelka qismi va sonlarning kamardan tushgan yuklanishni yutishini ta'minlaydi, lekin kamarning noto'g'ri holati bo'yin yoki qorin bo'shlig'i organlarining jarohatlariga olib kelishi mumkin.)
- Xavfsizlik kamari va tana qismlari orasida hech qanday qattiq va sinadigan buyumlar bo'lmasligi kerak (cho'ntaklarda yoki kiyimning ustida sharikli ruchkalar, ko'zoynak va hokazolar kabi buyumlar, to'qnashuv holatida og'ir jarohatlarga olib kelishi mumkin).

**OGOHLANTIRISH!**

Agar xavfsizlik kamari tirsakqo'ygichning ustidan o'tsa (agar u ko'zda tutilgan bo'lsa), to'qnashuv paytida xavfsizlik kamarining bel qismi tananing tos-son qismiga emas, qorin bo'shlig'iga bosib qisadi.

- Xavfsizlik kamarlari tirsakqo'ygichlar tagidan o'tishini nazorat qiling. Ushbu talabni bajarmaslik to'qnashuv holatida jarohatlarga yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.

HAYDOVCHI VA YO'LOVCHI**Oldingi yo'lovchilar**

Oldingi o'rindiqlar balandligi sozlanadigan bosh tagliklari, uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlari bo'lgan sozlanadigan o'rindiqlar va o'rindiqli orqalari bilan, hamda qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimi (xavfsizlik yostiqliklari) bilan jihozlangan.

Orqa yo'lovchilar

Ikkita yon va bitta markaziy o'rni bo'lgan orqa o'rindiqli uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan. Yon joylari bolalar o'rindig'ini mahkamlash pastki moslamalari bilan jihozlangan. (Batafsilroq ma'lumotni «BOLALAR O'RINDIG'INI MAHKAMLASH PASTKI MOSLAMALARI» bo'limida qarang.)

UCH NUQTALI MAHKAMLANUVCHI XAVFSIZLIK KAMARLARI

To'qnashuvlar va keskin harakat o'zgarishlari paytida jarohatlanish xavfini kamaytirish uchun, Sizning avtomobilingiz uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan.

Ikkala oldingi o'rindiqlar, orqa o'rindiqdagi ikkala chetdagi joylar va markaziy joy uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan. Ushbu xavfsizlik kamarlari uch nuqtada mahkamlanadi va kamari taqilgan, o'rindiqlarda to'g'ri holatda o'tirgan haydovchini va yo'lovchilarni ushlab qolishni ta'minlaydi.

Inersiyaviy g'altagi bo'lgan uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarining uzunligini sozlash talab etilmaydi va u avtomobilning doimiy harakatlanish tezligida harakat erkinligini ta'minlaydi.


Shunga qaramay, to'satdan yoki keskin to'xtaganda, yoxud juda tez tezlashuvda yoki sekinlashishda xavfsizlik kamari inson tanasini ushlab qolishni ta'minlab, avtomatik tarzda bloklanadi.

Xavfsizlik kamarlarini albatta tegishli tarzda taqib yuring:

1. Eshiklarni yoping va qulflang.
 2. O'rindiqliqning orqasini vertikal holatga keltiring.
 3. Xavfsizlik kamarining yopish skobasini oling va kamarni o'z ustingizdan o'tkazing. Kamar o'ta buralmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Agar xavfsizlik kamari tortib chiqarishda bloklansa, uning g'altakka tortilishini kutib turing. Xavfsizlik kamarini yana uning zich

yopishishini ta'minlaydigan qulay uzunligiga tortib chiqaring.

4. Yelka kamari yelka o'rtasida va ko'krak orqali o'tishi kerak. Yelka kamari zinhor bo'ynidan o'tmasligi lozim. To'qnashuv holatida bu kamarning to'g'ri holati yuklanishning yelkalarga taqsimlanishini ta'minlaydi va qovurg'alarga va bo'yinga kuch ta'sir etishini istisno etib, ichki to'qimalar va a'zolarning og'ir jarohatlanishining oldini oladi.



5. Bel kamari pastdan o'tishi va belga siljimagan holda sonlarga zich yopishib turishi kerak. To'qnashuv holatida bu kamarning to'g'ri holati yuklanishning inson tanasining tos-son qismiga taqsimlanishini ta'minlaydi va qorin bo'shlig'iga kuch ta'sir etishini istisno etib, ichki to'qimalar va a'zolarning og'ir jarohatlanishining oldini oladi.

6. Kamarning yopish skobasini qulf ichiga mahkamlash mexanizmi taqalmagunicha zich

kiriting. Kamar o'z qulfiga taqilganligiga ishonch hosil qiling. Qulfdagi ochish tugmasi zarur bo'lganda kamarni tez yechib olish mumkinligini ta'minlaydigan qilib joylashgan bo'lishi lozim.

7. Mahkamlash ishonchligini tekshirish uchun, kamarning to'xtatish skobasini tortib ko'ring. Xavfsizlik kamarini yechib olish uchun qulfdagi yechib olish tugmasini bosing. Kamar avtomatik tarzda tortib kiritiladi. Kamar tortib kiritilganda, to'xtatuvchi skoba bilan salondagi yuzalar shikastlanishi yoki kishilarning jarohatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun, kamarni ushlab turing.



Xavfsizlik kamarlarini parvarish qilish:

1. Barcha xavfsizlik kamarlarini, tegishli detallar va tarmoqlarni vaqt-vaqti bilan tekshiring. Xavfsizlik kamarlari, tegishli detallar va

tarmoqlar shikastlangan holda, ularni vakolatlangan dilerda almashtiring.

2. Avariya paytida tortilib ketgan yoki shikastlangan barcha xavfsizlik kamarlari va tegishli detallarni, hatto agar tortilib ketganligi yoki shikastlanishi ko'z bilan ko'rinmaganda ham, almashtirish kerak. Tortilib ketgan kamarlar va shikastlangan detallar samarali himoyalashni ta'minlamaydi. Almashtirishda yangi xavfsizlik kamarlaridan foydalanish kerak.

3. YTH dan keyin xavfsizlik kamaralarini va ularning mahkamlashlarini to'liq almashtiring. Agar malakali mutaxassis xavfsizlik kamarlarining shikastlanishlarini aniqlamasa va ularning normal ish holatini tasdiqlasa, ularni almashtirish zarur bo'lmaydi. Vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

4. Shikastlangan xavfsizlik kamarlari va tegishli detallar bilan avtomobilda yurish xavfli bo'ladi.


Taqilmagan xavfsizlik kamarining ovoqli signalizatori

Agar xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, o't oldirish yoqilganda, taqilmagan xavfsizlik kamarining ovoqli signalizatori 6 soniyaga yoqiladi. Bu holda harakatni boshlashdan avval haydovchining xavfsizlik kamari bilan mahkamlanishi ishonchligini tekshiring.


Markaziy orqa bel xavfsizlik kamari

Orqa bel xavfsizlik kamarini mastahkamlash:

1. Kamarining metall tilchasini kamarga nisbatan 90-gradus burchakda ushlab turing va kamarni pastga, son orqali torting.
2. Kamarining metall tilchasini kamar to'qasiga kiriting.



3. Kamarining bo'sh uchini lo'kidon tilchasidan kamarni tortib mahkamlash uchun, torting.
 4. Tortilishini mahkamlash uchun, kamarining qisqichini torting.
- Bel kamarini yechish uchun, to'qasidagi fiksator tugmasini bosing.



⚠ OGOHLANTIRISH!

- Avariya dan keyin barcha xavfsizlik kamarlarini va tegishli qismlarini yeyilib eskirishi va shikastlanishi jihatidan tekshirish kerak. Sizning vakolatlangan dilingizga shikastlangan qismlarini almashtirish uchun murojaat qiling.
- Shikastlangan xavfsizlik kamarlari yoki boshqa qismlari bo'lgan avtomobildan foydalanish xavflidir.

Kamarlarning tegishli ta'mirlanmaganligi jarohatlarga yoki Sizning avtomobilingiz qo'shimcha shikastlanishiga olib kelishi mumkin.


Orqa markaziy xavfsizlik kamari (faqat sedan uchun)

Orqa markaziy xavfsizlik kamarining tizimi inertsiyaviy xavfsizlik kamari, qora yechib olish

tugmasi bo'lgan qulfdan va „CENTER“ belgisi bo'lgan qizil yechib olish tugmasi bo'lgan qulfdan iborat.

Orqa markaziy xavfsizlik kamarlari qulflarining konstruksiyasi yopish skobasining noto'g'ri kiritilishiga imkon bermaydi.


Orqa o'rindiqning orqasi vertikal holatda bo'lganda, yopish skobasini qulfnig ichida qora tugma bilan yoping. Yopish skobasini faqat orqa o'rindiqning orqasini taxlashdan avval chiqarib oling.



Orqa markaziy kamarni taqqishdan avval, qora tugmaning yordamida xavfsizlik kamarining uchidagi yopish skobasini (1) qulfnig ichiga kiriting va kamar o'ta buralib ketmasligini tekshiring.

Kamarni taqqish uchun o'rindiqning orqasiga tayanib, to'g'ri o'tiring, yopish skobasini (A) o'zingiz ustidan tortib, qulfnig (B) ichiga tiqqillamaguncha kiriting.


Kamarni yechib olish uchun qulf ustida **(B)** qizil tugmani bosing, va kamar avtomatik tarzda tortib kiritiladi.



Orqa o'rindiqning orqasini taxlashda, kamar tortib kiritilishi uchun qulfdagi qora tugmani **(1)** bosing. Orqa o'rindiqning orqasi normal holatga qaytarilganidan keyin qora tugmaning yordamida xavfsizlik kamarining uchidagi yopish skobasini **(1)** qulfnig ichiga kiriting va kamar o'ta buralib ketmasligini tekshiring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

To'qnashuv holatida og'ir jarohatlar olish yoki o'lim xavfini mumkin qadar kamaytirish uchun, albatta xavfsizlik kamarini ikkala qulfiga taqib oling.



Xavfsizlik kamarining tortish moslamasi

Avtomobilning haydovchisi va oldingi yo'lovchining joylari xavfsizlik kamarlarining tortish moslamalari tizimi bilan jihozlangan.

Tortish moslamalari bilan jihozlangan xavfsizlik kamarlaridan, xuddi oddiy xavfsizlik kamarlari kabi foydalanish mumkin.

Xavfsizlik kamarlarining tortish moslamalari tizimining yoqilishi ortiqcha yuklanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, xavfsizlik kamarlarining tortish moslamalarini sekinlashish datchiklari va puflanadigan xavfsizlik yostiqlarining tizimini boshqaruvchi elektron blok boshqaradi. Tortish moslamasi oldingi xavfsizlik kamarlarining har bir tortilishi joyida joylashgan.

Tortish moslamasi xavfsizlik kamarini frontal to'qnashuvda kamar inson tanasiga zichroq yopishadigan qilib tortadi.



Tortish moslamalari yoqilganidan keyin xavfsizlik kamarlarining tortish joyi bloklangan bo'lib qoladi. Tortish moslamalari yoqilganda ozgina shovqin va ma'lum miqdorda tutun chiqadi. Bu holatlar zarar yetkazmaydi va avtomobilda alanga borligini bildirmaydi.

To'qnashuv holatida og'ir jarohatlar yoki o'limning xavfini kamaytirish uchun, oldingi o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari tizimida tortish moslamalari bor-yo'qligidan qat'iy nazar, haydovchi va yo'lovchilarning xavfsizlik kamarlari doimo taqilgan bo'lishi kerak. O'rindiqqa to'liq o'tiring; to'g'ri o'tiring; oldinga yoki yon tomonga egilmang. Kamarni uning pastki tomoni bel emas, tos sohasida yotadigan qilib sozlab oling.

Tortish moslamalari faqat jiddiy frontal to'qnashuvlar holatida yoqilishiga e'tibor bering. Ular orqa yoki yon zarbalar urilganda, avtomobil ag'darilganda yoki kichik frontal to'qnashuvlarda yoqilishi uchun mo'ljallanmagan.

Tortish moslamalari faqat bir marta yoqiladi. Tortish moslamalari yoqilganidan keyin, tortish moslamalari tizimiga xizmat ko'rsatish uchun vakolatlangan dilerga zudlik bilan murojaat qilish lozim.

Agar xavfsizlik yostiqlarining nosozligi signalizatori yonib-o'chib turmasa yoki o't oldirish yoqilganda qisqa vaqtga yonsa, 10 soniyadan ortiq yonib tursa yoki harakatlanish paytida yonsa, ehtimol, tortish moslamalari yoki xavfsizlik yostiqlarining tizimi nosoz bo'lishi mumkin. Ikkala tizim imkoni boricha tezroq vakolatlangan diler tomonidan tekshirilishi lozim.

Tortish moslamalari tizimining komponentlariga yoki uning elektr simlariga xizmat ko'rsatish faqat vakolatlangan diler tomonidan bajarilishi kerak.

Malakasiz xizmat ko'rsatish tortish moslamalarining kutilmaganda yoqilishiga yoki ularning nosozligiga olib kelishi mumkin. Bu ikkala holat jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.


Xavfsizlik kamarining balandligini sozlash

Xavfsizlik kamarining yuqori mahkamlash nuqtasi balandligini sozlash uchun quyidagilarni bajaring:

1. Xavfsizlik kamarini tortib chiqaring.
2. Xavfsizlik kamarining balandligini sozlash moslamasini rasmda o'q bilan ko'rsatilgan joyda bosang.
3. Xavfsizlik kamarining balandligini kamar eshikka yaqinroq yelkaning o'rtasidan o'tadigan qilib sozlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik kamarining balandligini noto'g'ri sozlash to'qnashuv paytida xavfsizlik kamarining samarali ishlashi kamayishiga olib keladi.



⚠ OGOHLANTIRISH!

Hech qachon noto'g'ri sozlangan xavfsizlik kamari bilan yurmang.

Jarohatlarning oldini olish uchun quyidagi qoidalarga qat'iy amal qiling:

- Yurishni boshlashdan avval xavfsizlik kamarining balandligini sozlang.
- Yelka kamari yelkaning o'rtasidan o'tishi kerak.
- Xavfsizlik kamarining mahkamlash tarmog'ini mahkamlang.

Bu qoidalarga amal qilmaslik to'qnashuv holatida jarohatlarga yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Homilador ayollarning xavfsizlik kamaridan foydalanishi

Xavfsizlik kamarlari hamma uchun, shu jumladan homilador ayollar uchun mo'ljallangan. Qolgan kishilardan farqli ravishda, homilador ayollar to'qnashuv paytida, agar xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, og'ir jarohatlar olish ehtimoli eng ko'p bo'ladi. Bundan tashqari, to'g'ri taqilgan xavfsizlik kamari to'qnashuv paytida ayol homilasining xavfsizligini ta'minlaydi.

Himoyalashning maksimal darajasini ta'minlash uchun, homilador ayol uch nuqtali mahkamlanadigan xavfsizlik kamaridan foydalanishi kerak.

BOLALAR XAVFSIZ O'RINDIG'I

Homilador ayolda xavfsizlik kamarining bel qismi imkoni boricha pastroq o'tishi kerak.

OGOHLANTIRISH!

Turli-tuman o'lchamlardagi va konstruksiyadagi bolalar o'rindiqlari taklif qilinadi. Salon va o'rindiqlarning shakli va o'lchamiga qarab, Sizning avtomobilingizga faqat ma'lum turdagi bolalar xavfsiz o'rindiqlari mos keladi.

Siz o'zingiz bolalar xavfsiz o'rindig'ini to'g'ri tanlash va uni avtomobilida tegishli mahkamlash uchun javobgar bo'lasiz, unda buning uchun xavfsizlik kamarlari va bolalar o'rindig'ini mahkamlash tizimi ko'zda tutilgan.

O'lchami ushbu avtomobilga to'g'ri kelmaydigan bolalar xavfsiz o'rindig'idan foydalanish, yoki o'rindiqni avtomobilida noto'g'ri mahkamlash to'qnashuv paytida bolaning va avtomobildagi qolgan kishilarning og'ir jarohatlar olishiga olib kelishi mumkin.

Bola uchun bolalar xavfsiz o'rindig'ini sotib olishdan keyin, ishlab chiqaruvchining ushbu tizimni o'rnatish va foydalanishga oid yo'riqnomalarini o'qib chiqing va ularga qat'iy rioya qiling.

Bolalar xavfsiz o'rindig'i bolaning yoshiga, bo'yi va vazniga mos kelishi, muayyan avtomobilga mos kelishi va unga ishonchli o'rnatilishi kerak. Avtomobilning xavfsizlik kamarlari tizimlaridan xavfsiz foydalanish uchun yetarli bo'yi va vazniga yetguncha, bolalarning barcha

ko'rsatkichlari uchun mos keladigan bolalar o'rindiqlari tizimlarining har xil turlari bor.

Barcha bolalar o'rindiqlari tizimlari o'rindiqlarda bel kamari yoki bel-yelka kamarining bel qismi yordamida himoyalash uchun loyihalashtirilgan. Agar bolalar o'rindig'i avtomobilida tegishli tarzda mahkamlanmagan bo'lsa, to'qnashuv paytida bolalar jarohat olishi mumkin.

Avtomobil avariylarining statistikasi bolalar uchun oldingi emas, orqa o'rindiq eng xavfsiz ekanligini ko'rsatadi.

Bolalar xavfsiz o'rindig'i mos kelmaydigan katta yoshdagi bolalar orqa o'rindiqda o'tirishi va kamarning yelka qismi bo'ynidan imkoni boricha uzoqroq o'tadigan, bel qismi esa pastda o'tib, soniga zich yopishib turadigan qilib xavfsizlik kamarini taqishi lozim.

OGOHLANTIRISH!

Chaqaloqlar va bolalarning xavfsizligi maqsadida quyidagi tavsiyalarga qat'iy amal qiling:

- Ularni bolalar o'rindiqlari yordamida xavfsiz holatga qo'ymaguncha, ularni avtomobilida tashish taqiqlanadi.
- Xavfsizlik talablariga mos keladigan bolalar o'rindiqlaridan foydalaning.
- Ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalariga rioya qiling.

Kamarning xavfsizlikni ta'minlaydigan holatini vaqt-vaqti bilan tekshiring.

Agar bola oldingi o'rindiqda o'tirsa, yelka kamari bolaning bo'yni va boshi orqali o'tmasligini nazorat qiling.

Buning uchun xavfsizlik kamari bolaning yelkasi orqali o'tadigan qilib, bolani avtomobilning o'rtasiga yaqinroq siljitish talab etilishi mumkin.

Yurish davomida bolaga o'rindiq ustida yoki avtomobilning boshqa joylarida o'z oyog'ida yoki tizzasida turishga ruxsat bermang. Agar Siz bolalar o'rindig'idan foydalanmasangiz, uni xavfsizlik kamari bilan mahkamlang yoki avtomobildan olib tashlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Hech qachon avtomobilda yurganda bolani qo'lingizda ushlab turmang. Chaqaloqlar va kichik yoshli bolalar ularga mos keladigan bolalar xavfsiz o'rindig'ida o'tirishi kerak.
- To'qnashuv paytida yuzaga keladigan yuklanish kuchlari tufayli bolani qo'lda ushlab qolish mumkin bo'lmaydi.
- Masalan, bor-yo'g'i 40 km/soat tezlikdagi to'qnashuv paytida 5,5 kg vaznli boladan qo'lga tushadigan yuklanish 110 kg ga yetadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Chaqaloqlar va kichik yoshli bolalar ularga mos keladigan bolalar xavfsiz o'rindig'idan foydalanishi haqidagi talabga rioya qilmaslik to'qnashuv paytida jarohatlarga yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.
- Yo'l hodisalarining statistikasi, agar bola oldingi o'rindiqlarda emas, orqa o'rindiqda to'g'ri mahkamlangan bo'lsa, ko'proq xavfsizlikda bo'lishdan dalolat beradi.
- Agar avtomobil tegishli yon xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlangan bo'lsa, bolalar xavfsiz o'rindig'ini oldingi yo'lovchining o'rindig'iga o'rnatish taqiqlanadi. Batafsilroq ma'lumot «YON XAVFSIZLIK YOSTIQCHALARI» bo'limida keltirilgan.
- Juda xavfli! Orqasi oldinga qarab o'rnatiladigan bolalar xavfsiz o'rindig'idan, uning oldida xavfsizlik yostiqchasi ko'zda tutilgan o'rindiqda foydalanish taqiqlanadi! Orqasi oldinga qarab o'rnatiladigan bolalar xavfsiz o'rindig'i faqat orqa o'rindiqqa mahkamlanadi.



Bolalarni ushlab turuvchi mahkamlash moslamasi


Bolalarni mahkamlovchi ankerlar trosarlari quyida ko'rsatilganidek, uchta orqa o'tirish

o'rindiqlariga mos joylarda o'rnatilgan:

Markazida anker nuqtasi o'rnatilgan, moslamada yig'ilgan anker bolti avvalroq o'rnatilgan.

ESLATMA

Bolalar o'rindig'ini mahkamlash tarmoqlaridan faqat maqsadiga muvofiq foydalaning.



Mahkamlash uchun ankerlar joylari orqa o'rindiqning orqasida, markaziy do'ng ustida joylashgan.

BOSH TAGLIKLARI

Bosh tagliklari to'qnashuv holatida bo'ynining jarohatlanishi xavfini kamaytirish uchun mo'ljallangan.

Maksimal himoyalashni ta'minlash uchun bosh tagligini tepaga yoki pastga, bosh tagligining ustki qismi quloqning pastki qismi darajasida bo'ladigan qilib siljiting.

Oldingi va orqa o'rindiqlarning bosh tagliklarini sozlash uchun, ochish tugmasini bosib, bosh tagligini ko'taring yoki tushiring.

⚠ OGOHLANTIRISH!


Bosh tagliklarini yechib olish yoki noto'g'ri sozlash to'qnashuv holatida boshi va bo'ynining og'ir jarohatlariga olib kelishi mumkin.

Agar biror-bir sababga ko'ra bosh tagligini yechib olish kerak bo'lsa, quyidagilarni bajaring:

1. Bosh tagligini tiralguncha tepaga torting.
2. Ochish tugmasini bosib, bosh tagligini yo'naltiruvchi vtulkalarning ichidan tortib oling.
3. Yurishni boshlashdan avval, bosh tagligini joyiga o'rnatib va mos qilib sozlab oling.


⚠ OGOHLANTIRISH!

Yurishni boshlashdan avval, bosh tagligini joyiga o'rnatib va mos qilib sozlab oling.



Oldingi o'rindiqlarning bosh tagliklarini oldinga egish uchun*


1. Ularni vertikal holatga o'tkazing, oldinga to tiralguncha o'tkazing va qo'yib yuboring.
2. Bosh tagligini oldinga, kerakli holatni egallamaguncha ehtiyot bo'lib o'tkazing.



Oldingi o'rindiqning bo'y lama holatini sozlash

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Haydovchining o'rindig'ini harakatlanish paytida sozlash taqiqlanadi. Haydovchi avtomobilni boshqarish imkoniyatini yo'qotishi mumkin, bu esa jarohatlarga yoki moddiy zarar yetishiga olib keladi.



O'RINDIQLAR**Oldingi o'rindiqlar**

Oldingi o'rindiqni oldinga yoki orqaga siljitish uchun, quyidagilarni bajaring:


1. Oldinda, oldingi o'rindiq ostida joylashgan dastakni tepaga torting va ushlab turing.
2. O'rindiqni qulay holatga siljitib o'tkazing.
3. Dastakni qo'yib yuboring.

**Oldingi o'rindiqning orqasi og'ishini sozlash**

Oldinga yoki orqaga og'ishi uchun, o'rindiq orqasining tashqi tomonidagi g'ildirakchani burab, uni qulay holatga o'rnatang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

• Haydovchining o'rindig'ini harakatlanish paytida sozlash taqiqlanadi. Haydovchi avtomobilni boshqarish imkoniyatini yo'qotishi mumkin, bu esa jarohatlarga yoki moddiy zarar yetishiga olib keladi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

To'qnashuv paytida orqalari orqaga yotqizilgan oldingi o'rindiqlarda o'tirgan kishilar uchun, kamar ostidan sirg'alib ketishi yoki xavfsizlik kamarining noqulay bosishi tufayli, o'rindiq orqasi va xavfsizlik kamarlari bilan tegishlicha himoyalash ta'minlanmasligi mumkin.

• Avtomobilning harakatlanishi paytida oldingi o'rindiqlarning orqalarini orqaga yotqizish taqiqlanadi.


⚠ OGOHLANTIRISH!

Bu og'ir jarohatlarga, o'limga yoki avtomobilidan o'tilib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Haydovchining o'rindig'i balandligini sozlash

Haydovchi o'rindig'ining yostig'i holatini sozlash uchun o'rindiq yostig'ining tashqi tomonidagi g'ildirakchani burab, yostiqni balandligi qulay bo'lgan holatga o'tkazing.

O'rindiqning oldingi yostig'ining qismini balandligini uchun oldingi g'ildirakchani, orqa qismini sozlash uchun orqa g'ildirakchani burang.




Oldingi o'rindiqlarning bel tirgagini sozlash*

Oldingi o'rindiqlarning bel tirgagini sozlash uchun, o'rindiq orqasining tashqarisidagi dastakni bel tirgagi kerakli holatga o'rnatilmaguncha tepaga yoki pastga torting.


O'rindiq orqasining pastki qismi tirgagini sozlash uchun, dastakni pastga torting.


Tirgakni boshlang'ich holatiga qaytarish uchun, dastakni tepaga torting.



Oldingi o'rindiqlarning isitgichlari *

Agar Sizning avtomobilingizda ushbu opsiya bo'lsa, isitgichni sozlash konsolning markazida joylashgan. Isitgichlarni yoqish uchun dvigatelni ishga tushirish kerak.

O'rindiqlarning yostig'ini va orasini isitish uchun  bosing.



⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar Siz harorat o'zgarishini sezmaydigan bo'lsangiz, yoki qizdirayotganini sezsangiz, o'rindiqdagi isitgich kuydirishi mumkin. Kuyishdard ehtimolini kamaytirish maqsadida, kishilar bunday sharoitda o'rindiqlarning isitgichidan foydalanganda, ayniqsa uzoq foydalanishda ehtiyot bo'lishi kerak.

Isitgich izolyatsiyalanishiga olib keluvchi ko'rpa, yostiqlar, g'illoflar yoki boshqa buyumlarni o'rindiqqa qo'yish taqiqlanadi. Bu isitgichning o'ta qizib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'ta qizigan holatdagi isitgich kuyishlarga yoki o'rindiq shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Orqa o'rindiq

Orqa o'rindiqlarning orqasini taxlash


⚠ OGOHLANTIRISH!

- Yuklarni yoki boshqa buyumlarni oldingi o'rindiqlarning sathidan yuqoriroq qo'ymang.
- Avtomobil harakatlenganda yo'lovchilarga o'rindiqlarning taxlangan orqalarida o'tirishga ruxsat bermang.
- Avtomobilda yukni va yo'lovchilarni tashish uchun maxsus joylar ko'zda tutilgan.
- Mahkamlanmagan yuk yoki o'rindiqlarning taxlangan orqalarida o'tirgan yo'lovchilar to'satdan to'xtash yoki to'qnashuv paytida o'z joyidan yoki avtomobildan o'tilib ketishi mumkin.

Bu og'ir jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Orqa o'rindiqlarning orqasini taxlash uchun quyidagilarni bajaring:

1. Orqa o'rindiqlarning orqasi tepasida joylashgan ochish tugmasini tepaga torting.

XAVFSIZLIK YOSTIQCHALARI

2. Orqa o'rindiqning orqasini oldinga va pastga taxlang.

Orqa o'rindiqning orqasini boshlang'ich holatga qaytarish uchun:

1. Orqa o'rindiqning orqasini ko'taring va boshlang'ich holatga qaytaring. Xavfsizlik kamarlari qulflarga ilashmasligini tekshiring.
2. O'rindiq orqasini tepadagi tugmani bosib, joyida mahkamlang.
3. Ishonchli mahkamlanganligini tekshirish uchun, o'rindiq orqasini oldinga tortib ko'ring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Orqa o'rindiqdagi yo'lovchilar bilan yurishni boshlashdan avval, orqa o'rindiqning orqalari to'liq orqaga ochilgani va mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Avtomobilning harakatlanishi paytida o'rindiq orqasining tepasidagi ochish tugmalarini bosish taqiqlanadi Avtomobilning harakatlanishi paytida jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Sizning avtomobilingiz to'g'ri holatida o'tirgan va mos holda kamarlari taqilgan haydovchini va oldingi yo'lovchini himoyalash uchun mo'ljallangan qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimining (SRS) xavfsizlik yostiqchalari bilan jihozlangan.


Haydovchining va oldingi yo'lovchining o'rindiqlari, uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlariga va boshqa xavfsizlik elementlariga qo'shimcha tarzda, xavfsizlik yostiqchalari va yon yostiqchalar bilan (agar bu ko'zda tutilgan bo'lsa) jihozlangan. Har bir xavfsizlik yostiqchasi maxsus modulning ichiga o'ralgan, u haydovchining va yo'lovchilarning og'ir jarohatlar olishi yoki o'limining yuqori darajadagi xavfi bo'lgan avtomobil to'qnashuvlarining ma'lum turlari holatidagina, o'ta yuqori tezlikda va kuch bilan shu moduldan chiqadi va ochiladi.

Haydovchining xavfsizlik yostiqchasi

Haydovchining xavfsizlik yostiqchasi moduli rul g'ildiragining markazida joylashgan.

Oldingi yo'lovchining xavfsizlik yostiqchasi (optsiya)

Oldingi yo'lovchining xavfsizlik yostiqchasi moduli asboblar panelida qo'lqop yashigi ustida joylashgan.



⚠ OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqlikchalari faqat qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimi bo'lib, xavfsizlik kamarlari bilan birgalikda eng samarali bo'ladi.

To'qnashuv holatida og'ir jarohatlar olishi yoki o'limining xavfini imkoni boricha kamaytirish uchun haydovchi va barcha yo'lovchilar, ushbu joyda xavfsizlik yostiqlikchasi ko'zda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'iy nazar, xavfsizlik kamarlarini taqishi lozim.

- Frontal xavfsizlik yostiqlikchalari yon va orqa tomonidan zarbalar urilganda ishlab ketmaydi. Xavfsizlik kamarlari taqilmagan haydovchi va yo'lovchilar uchun hech qanday xavfsizlik tizimlari himoyalashni ta'minlay olmaydi, shuning uchun bunday

⚠ OGOHLANTIRISH!

turdagi to'qnashuvlarda ular og'ir jarohatlar olishi yoki o'lishi mumkin.

- Xavfsizlik kamarlari to'g'ri taqilmagan haydovchi va yo'lovchilar to'qnashuvdan avval tormozlash paytida harakatlanish yo'nalishida oldinga otilib ketishi va xavfsizlik yostiqlikchalarining modullari yonida yoki modullarning o'zi ustida bo'lib qolishi mumkin.

Bu esa ochilayotgan xavfsizlik yostiqlikchasining urilishidan og'ir jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlikchalarining ishlash tamoyili


Xavfsizlik yostiqlikchalari frontal to'qnashuvda boshi, bo'yni va ko'krak qafasini asboblar paneliga, rul g'ildiragiga yoki old oynaga urilishidan himoyalash uchun mo'ljallangan.

Ular orqadan urilganda, ag'darilishda va yon tomonidan urilishining ko'p holatlarida ishlab ketmaydi.

Xavfsizlik yostiqlikchalari avtomobilning **15 dan 23 km/soatgacha** tezlikdagi deformatsiyalanmaydigan qo'zg'almas devor bilan to'qnashuvi paytidagi yuklanishiga ekvivalent bo'lgan yoki undan ortiq yuklanishlar yuzaga keladigan to'qnashuvlar paytida ishlab ketishiga mo'ljallangan.

Xavfsizlik yostiqlikchalarining tizimi yoki og'ir

frontal to'qnashuvlarda, yoki urilish burchagi to'g'ri chiziqdan **30°** dan ko'proq og'ib ketmaganda ishlab ketadi.



Avtomobillar uchun xavfsizlik yostiqlikchasi ochiladigan yuklanish darajasi, statistika ma'lumotlariga ko'ra frontal to'qnashuv paytida o'lim xavfi borligi aniqlangan darajasidan yuqori bo'lmagan yuklanish darajasida uning ishlab ketishini ta'minlaydi.

Amalda avtomobillar qo'zg'almas devorlarga kamdan-kam to'qnashadi.

Xavfsizlik yostiqlikchalari ko'p hollarda avtomobillar bir-biri bilan to'qnashgan paytida ochiladi. Xavfsizlik yostiqlikchalari ishlab ketadigan real tezlik amalda yuqoriroq bo'lishi mumkin, chunki real avariya odatda bir nechta avtomobillarning murakkabroq, turli burchaklar ostida, va to'liq frontal bo'lmagan

to'qnashuvlari bilan bog'liq (masalan, ishqalanib tegish), to'qnashuvlar obyektlari esa odatda harakatsiz bo'lmaydi.

▲ OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqlari to'qnashuvlarsiz, o'rtacha va yuqori yuklanishlarda ham (masalan, avtomobilning shassi va boshqa qattiq komponentlari yo'ldagi chuqurga tushganda), agar sekinlashish datchiklari 15 dan 23 km/soatgacha tezlikda qattiq qo'zg'almas to'siq bilan to'qnashuv signaliga ekvivalent bo'lgan signalni yuborsa, ishlab ketishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari, agar datchik xavfsizlik yostiqlarining ochilishi uchun yetarli yuklanishi bo'lgan frontal to'qnashuvni qayd etsa, ishlab ketadi. Bu holda sekinlashish datchigi xavfsizlik yostiqlarining ochilishi signalini yuboradi.

Yonuvchan modda yondiriladi va xavfsizlik yostiqlari modulining ichida tez yonib ketadi, xavfsizlik yostiqlarining ochilishi uchun azotning yetarli miqdorini ajratib chiqaradi. Bu kimyoviy jarayon va gazsimon azotning o'zi avtomobilidagi kishilar uchun zararsizdir. To'qnashuv aniqlanganidan keyin **0,045** soniya ichida xavfsizlik yostiqlarining ochilish bosimi modulning plastmassa panelini yorib ochadi, u esa o'z navbatida rul g'ildiragining o'qi ustidagi qoplaman yoki yo'lovchining tomonida asboblarni ochadi.

Xavfsizlik yostiqlari to'liq ochiladi, va inson boshi va tanasining tepa qismi oldinga harakatlanishini to'xtatadigan yuzasini shakllantiradi. Inson xavfsizlik yostiqlariga tekkan gaz yostiqlardan asosidagi tirishlar orqali chiqib ketadi, va inson harakatlanishidan tushadigan yuklanishning ta'siri amortizatsiyalanadi.

ESLATMA

Xavfsizlik yostiqlari nafasni olishga to'sqinlik qilmaydi va harakat erkinligini cheklamaydi. Xavfsizlik yostiqlarida amortizatsiyadan keyin darhol gaz chiqib ketadigan tirishlar bor.

Bütün jarayon, boshlang'ich tegishdan boshlab, yostiqlar ochilishi va gaz chiqarilishigacha, **0,2** soniyaga yaqin davom etadi - Siz ko'z yumishga ulgurmaydiz. To'qnashuv bir soniya ham davom etmaydi, to'qnashgan avtomobillar esa boshlang'ich tegishdan keyin faqat bir-ikki soniya o'tganda to'liq to'xtaydi. Shuning uchun, haydovchini va yo'lovchilarni himoyalash uchun qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimi deyarli bir onda to'qnashuvni qayd etishi va xavfsizlik yostiqlarini ochishi kerak.

Xavfsizlik yostiqlarining ochilishidan keyin

Xavfsizlik yostiqlari ishlab ketganidan keyin Siz avtomobilning salonida yonish hidini sezishingiz, tutun va oq kukunni ko'rishingiz mumkin. Bu normal holat. Yonish hidi xavfsizlik yostiqlarining ochilishi uchun maxsus modda yonishi davomida paydo bo'ladi. Oq kukun – puflanadigan xavfsizlik yostiqlarining uning saqlanishi va puflanishi paytida ishqalanishini kamaytirish uchun qoplanadigan talk yoki soda asosidagi modda bo'lib. Ushbu moddalar terining achishishini keltirib chiqarishi mumkin, lekin ular zaharli emas.

SRS tizimiga texnik xizmat ko'rsatish

Nazariy jihatdan fikr yuritganda, xavfsizlik yostiqlarini tizimi (SRS) texnik xizmat ko'rsatishga muhtoj emas.

Lekin quyidagi holatlarda SRS tizimiga xizmat ko'rsatish uchun o'z vakolatlangan dileringizga murojaat qilishingiz kerak.

- Tizimning istalgan komponentining ishlab ketishi: biror-bir xavfsizlik yostiqlarining ochilishi yoki xavfsizlik kamarining tortish moslamasi ishlab ketishi.
- Xavfsizlik yostiqlarining signalizatori nosozlik borligini ko'rsatadi. Qarang «XAVFSIZLIK YOSTIQLARINING SIGNALCHIROG'I».

ESLATMA

Agar avtomobil yon xavfsizlik yostiqliklari bilan jihozlangan bo'lsa, yon tomondagi xavfsizlik yostiqlikchasi ochilganidan keyin yig'ilgan holdagi oldingi o'rindiqni almashtirish kerak bo'ladi.
Qo'shimcha ma'lumot uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Bir yoki bir nechta xavfsizlik yostiqlikchasi yoki xavfsizlik kamarlarining tortish moslamalari ishlab ketgandan keyin avtomobilidan foydalanish taqiqlanadi.
- Xavfsizlik yostiqliklarini mustaqil ta'mirlash, tuzilishiga aralashish yoki avtomobilidan olib tashlashga urinmang.
- Xavfsizlik yostiqliklarining tizimiga quvvsiz aralashuv bo'lganda ular portlashdan xavfli tarzda ishlab ketishi mumkin, bu esa og'ir jarohatlarga va o'limga olib kelishi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqliklarining ochilishi, avtomobilning xavfsizlik yostiqliklari modullaridan birining zonasida yoki uning yonida shikastlanishi holatida, shuningdek xavfsizlik yostiqliklaridan birining nosozligi belgilari aniqlanganda, zudlik bilan dilerga murojaat qilish lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqliklari ishlab ketganidan keyin vakolatlangan stansiyada texnik xizmat ko'rsatish bajarilmagan holda avtomobilda yurish og'ir jarohatlarga va o'limga olib kelishi mumkin.

Haydovchini va oldingi yo'lovchini xavfsizlik yostiqliklari bilan himoyalash

Haydovchilar va yo'lovchilarning to'qnashuv paytida jarohatlanishi odatda ularning qo'zg'almas obyektlarga urilishiga bog'liq bo'ladi.

Avtomobilning ichida bular rul g'ildiragi, asboblar paneli yoki old oyna, avtomobilidan otilib chiqib ketganda – yo'l yuzasi yoki daraxt bo'lishi mumkin.

Og'ir jarohatlar shuningdek to'qnashuv paytida yuzaga keladigan zarbaviy yuklanishlari tufayli, hatto inson tanasi qo'zg'almas obyekt yoki yuzaga tegmaganda ham, kelib chiqishi mumkin. Barcha bunday jarohatlar to'qnashuv paytida avtomobilning keskin to'xtagani sababli yuzaga keladigan zarbaviy yuklanishlari tufayli kelib chiqadi. Avtomobilga sekinlashish yoki to'xtash uchun zarur bo'ladigan vaqt va masofa ham ko'p jihatdan haydovchi va yo'lovchilar uchun to'qnashuv oqibatlarining og'irligi darajasini belgilab beradi. Masalan, avtomobil svetoforming qizil signali oldida tormozlashi paytida haydovchining va yo'lovchilarning tanalari inertsia tufayli oldinga siljiydi. Bu tormozlashdan avval avtomobil va kishilar bir

tezlikda harakatlanganligiga bog'liqdir. Tormozlash paytida avtomobil sekinlashadi, va kishilar inertsia ta'sirida ma'lum vaqt oldinga harakatlanishda davom etadi.

Lekin kamari taqilgan, o'rindiqlarda to'g'ri holatda o'tirgan haydovchi va yo'lovchilar, to'satdan to'xtash yoki keskin tormozlash paytida amalda jarohatlar olmaydi. Hatto keskin tormozlashda ham avtomobilning to'xtashi uchun yetarlicha vaqt va masofa qoladi.

Xavfsizlik kamarlari odatda tormozlash paytida paydo bo'ladigan ortiqcha yuklanishga ishonchli qarshi ta'sir ko'rsatilishini ta'minlaydi. Avtomobilning yuqori tezlikda to'qnashuvi paytida to'liq to'xtaguncha vaqti soniyaning kichik bir ulushi, masofa esa **30** sm dan kamroq bo'ladi. To'xtashgacha juda kam vaqt va masofa bo'lishi kishilarga ta'sir etuvchi ortiqcha yuklanish kuchlarini ancha oshiradi.

Inson tanasi bunday ortiqcha yuklanishga chiday olmaydi. Hatto xavfsizlik kamari taqilgan, o'rindiqlarda to'g'ri holatda o'tirgan kishilarda ham, boshi, tanasining tepa qismi, qo'llari va sonining oldinga harakatlanishining tezligi avtomobilning to'qnashuvdan avvalgi tezligiga teng bo'ladi. O'rtacha va kuchli frontal to'qnashuvlarda kamari taqilgan kishilar, hatto boshi yoki ko'kragi bilan qo'zg'almas obyektlarga va yuzalarga urilmagan bo'lsa ham, ichki a'zolari va to'qimalarining jarohatlanishi xavfiga duch keladi.

Xavfsizlik yostiqlchalari o'rtacha va katta kuchli frontal to'qnashuvlarda yoki frontalga yaqin to'qnashuvlarda haydovchining va oldingi yo'lovchining boshi va tanasining tepa qismi uchun to'xtashi paytigacha qo'shimcha vaqt va masofa yaratib beradi. Ushbu qo'shimcha vaqt va masofa ularning hayotini saqlab qolishi va og'ir jarohatlarning oldini olishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlchalaridan foydalanish qoidalariga amal qiling!

Hayotni saqlab qolishni ta'minlaydigan xavfsizlik yostiqlchalari tizimining ishlashi ba'zi ehtimoliy xavflar bilan bog'liq. Xavfsizlik yostiqlchasi ochilishining jarayoni katta kuch, tezlik va to'satdan boshlanishi xususiyatiga ega bo'ladi, shuning uchun qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimining xavfsizlik yostiqlchalarining ishlashi, agar avtomobildagi kishilar o'rindiqlarda to'g'ri holatda o'tirgan bo'lsa, ko'proq samarali va xavfsiz bo'ladi.

OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqlchalaridan foydalanishning asosiy qoidalari:

- Oldingi o'rindiqlarda orqasini oldinga qaratib o'rnatiladigan bolalar xavfsiz o'rindig'ini joylashtirish taqiqlanadi.
- 12 yoshgacha bo'lgan bolalar imkoni boricha orqa o'rindiqlarda joylashtirilishi kerak.

OGOHLANTIRISH!

- Hatto agar avtomobil xavfsizlik yostiqlchalari bilan jihozlangan bo'lsa ham, albatta xavfsizlik kamarlarini taqib oling.
- O'rindiqlarning orqasini orqa tomonga, qulay va xavfsiz holatiga imkoni boricha ko'proq siljiting, uni ozgina og'diring va o'rindiq orqasiga belingiz bilan tayanib o'tiring.
- Xavfsizlik yostiqlchalarining modullarida, shuningdek ularning yonida yoki ustida biror-bir buyumlarni joylashtirish taqiqlanadi. Ushbu buyumlar xavfsizlik yostiqlchalari ochilganda orqaga otilib, og'ir jarohatlarni yetkazishi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqlchalari modullarining panellariga tayanish va tirsagini qo'yish taqiqlanadi.
- Agar rul kolonkasi eng chetdagi vertikal holatda joylashgan bo'lsa, avtomobilni boshqarish kerak emas.

Xavfsizlik yostiqlchalaridan foydalanishning ushbu qoidalariga amal qilmaslik og'ir jarohatlarga va o'limga olib kelishi mumkin.

Orqasi oldinga qaratib o'rnatiladigan bolalar xavfsiz o'rindig'ini albatta mahkamlang.

Oldingi o'rindiqlarda orqasi oldinga qaratib o'rnatiladigan bolalar xavfsiz o'rindig'ini joylashtirish taqiqlanadi. Xavfsizlik yostiqlchasining ochilishi oldingi o'rindiqlarda

orqasi oldinga qaratib o'rnatiladigan bolalar xavfsiz o'rindig'ida joylashtirilgan bolaning og'ir jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Bolalarni joylashtirish uchun orqa o'rindiq mo'ljallangan.

Avtomobil avariylarining statistikasi xavfsizlik kamarlari to'g'ri taqilgan 12 yoshgacha bolalar uchun, orqa o'rindiq oldingi o'rindiqlardan xavfsizroq ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun bolalar imkoni boricha orqa o'rindiqlarda joylashtirilishi kerak.

Bu faqatgina xavfsizlik yostiqlchalari ochilishidagi jarohatlanish xavfiga bog'liq bo'lmaydi. Tadqiqotlar bolalar uchun orqa o'rindiq oldingi o'rindiqlardan hatto xavfsizlik yostiqlchalari bo'lmaganda ham xavfsizroq ekanligini ko'rsatdi.

Kattalar va o'smirlarning to'g'ri holati.

Haydovchining va oldingi yo'lovchining o'rindiqlaridagi kattalar va o'smirlar ham, to'g'ri holatda o'tirib, o'z xavfsizligini va xavfsizlik yostiqlchalarining samaradorligini oshirishi mumkin.

Kattalar va o'smirlarning eng yaxshi holatini ta'minlash uchun:

- **Uch nuqtali mahkamlanuvchi xavfsizlik kamarlari doimiy taqilgan bo'lishi lozim.**

To'qnashuv holatida og'ir jarohatlar olishi yoki o'liminig xavfini imkoni boricha kamaytirish uchun, haydovchi va barcha yo'lovchilar bu joyda xavfsizlik yostiqtchasi ko'zda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'iy nazar, xavfsizlik kamarlarini taqishi shart.

Xavfsizlik yostiqtchalari yon tomondan va orqadan zarbalar urilganda ishlab ketmaydi. Xavfsizlik kamarlari taqilmagan haydovchi va yo'lovchilar uchun hech qanday xavfsizlik tizimlari himoyalashni ta'minlay olmaydi, shuning uchun bunday turdagi to'qnashuvlarda ular og'ir jarohatlar olishi yoki o'lishi mumkin.

Xavfsizlik kamarlari to'g'ri taqilmagan haydovchi va yo'lovchilar to'qnashuvdan avval tormozlash paytida harakatlanish yo'nalishida oldinga otilib ketishi va xavfsizlik yostiqtchalarining modullari yonida yoki modullarning o'zi ustida bo'lib qolishi mumkin.

Bu esa ochilayotgan xavfsizlik yostiqtchasining urilishidan og'ir jarohatlarga olib kelishi mumkin.

• O'rindiqning orqasini orqa tomonga, qulay va xavfsiz holatiga imkoni boricha ko'proq siljiting.

O'rindiqni xavfsizlik yostiqtchasining modulidan orqaroq siljitish uning samaraliligini kamaytirmaydi. Xavfsizlik yostiqtchasining moduligacha masofani oshirish ochilayotgan xavfsizlik yostiqtchasidan yo'nalgan kuch ta'sir etishidan xavfsizlik ortishiga yordam beradi. Rul g'ildiragi, pedallar va boshqa asboblari va boshqarish organlari bilan ishlash qulayligi

darajasini yomonlashtirmaslik uchun, haydovchi o'rindiqning orqasini o'ta uzoq siljitmang.

• Xavfsizlik kamarini sal siljiting va oldinga egilmang.

O'rindiqning orqasini sal egib, o'rindiqning orqasiga belingiz bilan suyanib, o'rindiqqa o'tiring. Oldinga egilmang va xavfsizlik yostiqtchasining moduliga 15 sm dan yaqinroq yaqinlashmang. Xavfsizlik yostiqtchasining modulidan plastmassa paneliga yoki uning yonidagi yuzalarga (rul g'ildiragining o'qiga yoki yo'lovchining tomonidagi qo'lqop yashigi ustida asboblari paneli yuzasiga) tayanish taqiqlanadi. Boshingiz va tanangiz xavfsizlik yostiqtchasidan kamida 25 - 30 sm bo'ladigan qilib o'tirishga harakat qiling.

Qancha uzoq bo'lsa – shunchalik xavfsiz bo'ladi.

OGOHLANTIRISH!

Himoyalash samaradorligini ta'minlash uchun, xavfsizlik yostiqtchasi tez ochilishi kerak. Maksimal kuch xavfsizlik yostiqtchasi o'z qopqog'ini yorib chiqishidan va ochilishi boshlanganidan keyin birinchi 5-8 sm larda yuzaga keladi.

Xavfsizlik yostiqtchasi o'z qopqog'ini yorib chiqishidan va ochilishi boshlanganidan keyin birinchi o'tiladigan 5–8sm xavfli zona bo'ladi.

• Agar xavfsizlik yostiqtchasi ochilishi paytida ushbu xavfli zonada kishi joylashgan

OGOHLANTIRISH!

bo'lsa, bu og'ir jarohatlarga yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.

- Modulning qopqog'idan masofa ortib borishi bilan, ochilayotgan xavfsizlik yostiqtchasining kuchi kamayib boradi.
- Xavfsizlik yostiqtchasining modulidan masofaning ortib borishi ochilayotgan xavfsizlik yostiqtchasining kuchi ta'sir etishidan xavfsizlik ortib borishini bildiradi.

• Siz va xavfsizlik yostiqtchasining moduli orasida hech qanday buyumlar, bolalar va hayvonlar bo'lmasligi lozim.

Sizning avtomobilingizdagi xavfsizlik yostiqtchalari modullari rul g'ildiragida va asboblari panelida, qo'lqop yashigining ustida joylashgan. Xavfsizlik yostiqtchalarining modullari plastmassa qopqoqlarining ustida, shuningdek yonida yoki ularning ustida biror-bir buyumlarni joylashtirish taqiqlanadi. Xavfsizlik yostiqtchalari ochilganda ushbu buyumlar Sizning yuzingiz yoki tanangizga qarab otilib ketishi va og'ir jarohatlar yetkazishi mumkin. Oldingi yo'lovchining tizzasida bolalar va hayvonlar bo'lmasligi lozim. Oldingi yo'lovchining tizzasida xavfsizlik yostiqtchasi pufkanib ochilganda jarohat yetkazishi mumkin bo'lgan buyumlar joylashishi taqiqlanadi.

• **Xavfsizlik yostiqchasi ochilganda boshingiz yoki bo'yningizga emas, ko'kragingizga qarab yo'nalishi uchun, rul g'ildiragini pastga (agar bu ko'zda tutilgan bo'lsa) tushiring.**

Rul g'ildiragini eng ustki holatiga o'rnatish taqiqlanadi. Bu holatdan faqatgina haydovchining o'tirishini va avtomobildan chiqishini osonlashtirish uchun foydalanish kerak. Yurishni boshlashdan avval rul g'ildiragini pastga tushiring. Bu haydovchining zaifroq joylari bo'lgan boshi va bo'yniga qarab emas, ko'kragiga qarab ochilishi yo'nalishini ta'minlaydi.

ESLATMA

Avtomobilning to'qnashuv paytida shikastlanishining darajasi va xavfsizlik yostiqchalari tizimining elementlari (oldingi, yon tomondagi xavfsizlik yostiqchalari, xavfsizlik kamarlarining tortish moslamalari) ishlab ketishi bir-biriga bog'liq emas.


Tizimning ishlab ketishi mezonni avtomobilning shikastlanishi emas, eng katta tezlashuvlari hisoblanadi. Xavfsizlik yostiqchalari tizimining elementlari ishlab ketishining zaruriyatini shikastlangan avtomobilni ko'zdan kechirish yo'li bilan aniqlash to'g'ri bo'lmaydi.

2

ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLARI

- ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLARI 2-2
- BORT KOMPYUTERI 2-13
- YOQISH MOSLAMALARI VA BOSHQARISH ORGANLARI 2-14
- KALITLAR VA ESHIK QULFLARI 2-20


ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLARI



1. Haydovchining xavfsizlik yostiqchasi
2. Oldingi yo'lovchining xavfsizlik yostiqchasi
3. Audiotizim *
4. Markaziy shamollatish panjaralari
5. Yon shamollatish panjaralari
6. Boshqarish paneli
7. Iqlim nazorati tizimini boshqarish

8. Avariya yorug'lik signalizatsiyasining tugmasi
9. Qo'lqop qutisi
10. Tangalar uchun tutqich
11. Kapotni ochish dastasi
12. Raqamli soat
13. Sigaret tutatgich* \ Shtepsel rozetkasi*


14. Kuldon
15. Akselerator pedali
16. Tormoz pedali
17. Ilashish muftasining pedali



1. Taxometr
2. Spidometr
3. Harorat ko'rsatkichi
4. Yonilg'i sathining ko'rsatkichi
5. Buriilish ko'rsatkichlari / avariya yorug'lik signalizatsiyasining indikatorlari
6. Sirg'alishga qarshi tizimning signalizatori *
7. ABT nosozligining signalizatori
8. Qishki rejim signalizatori *
9. Ochilgan eshik signalizatori
10. Taqilmagan xavfsizlik kamarining signalizatori

11. Akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimi nosozligining signalizatori
12. Tormoz tizimi nosozligining signalizatori
13. Odometr
14. Avtomatik uzatmalar qutisining selektori holatining indikatorlari*
15. Odometr rejimlarining o'tkazgichi
16. Yonilg'ining minimal zaxirasi signalizatori
17. Dvigatel tizimlari nosozligining signalizatori



18. Dvigatelni moylash tizimida bosim pasayganligi signalizatori
19. Xavfsizlik yostiqchalarining tizimi nosozligining signalizatori
20. Oldingi tumanga qarshi faralarning indikatorlari *
21. Faralarning uzoqni yoritish indikatorlari
22. Orqa tumanga qarshi chiroqning indikatorlari
23. Yukxonaning qopqog'i ochilganligining signalizatori *



- | | | |
|---|---|--|
| <p>1. Taxometr</p> <p>2. Spidometr</p> <p>3. Yonilg'i sathining ko'rsatkichi</p> <p>4. Harorat ko'rsatkichi</p> <p>5. Burilish ko'rsatkichlari / avariya yorug'lik signalizatsiyasining indikatorlari</p> <p>6. ABT nosozligining signalizatori</p> <p>7. Qishki rejim signalizatori *</p> <p>8. Ochilgan eshik signalizatori</p> <p>9. Taqilmagan xavfsizlik kamarining signalizatori</p> <p>10. Akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimi nosozligining signalizatori</p> | <p>11. Tormoz tizimi nosozligining signalizatori</p> <p>12. Bort kompyuteri</p> <p>13. Odometr rejimlarining o'tkazgichi</p> <p>14. Yonilg'ining minimal zaxirasi signalizatori</p> <p>15. Dvigatel tizimlari nosozligining signalizatori</p> <p>16. Dvigatelni moylash tizimida bosim pasayganligi signalizatori</p> <p>17. Xavfsizlik yostiqlarining tizimi nosozligining signalizatori</p> | <p>18. Oldingi tumanga qarshi faralarning indikatorlari *</p> <p>19. Uzoqni yoritish faralarining indikatorlari</p> <p>20. Orqa tumanga qarshi chiroqning indikatorlari</p> <p>21. Yukxonaning qopqog'i ochilganligining signalizatori *</p> |
|---|---|--|

Spidometr

Spidometr avtomobilning tezligini soatiga kilometrlarda ko'rsatadi (**km/soat**).


Tip 1**Tip 2****Odometr / yo'l hisoblagichi**

Odometr avtomobilning jami o'tilgan yo'lini kilometrlarda ko'rsatadi.

Ikkita mustaqil o'tilgan yo'l hisoblagichlari bor, ular hisoblagichning avvalgi nolga keltirilgan paytidan boshlab o'tilgan yo'lni ko'rsatadi.

Istalgan yo'l hisoblagini nolga keltirish uchun rejimni tanlash tugmasini bosib va ushlab turing.

Rejimni tanlash tugmasi **A** va **B** o'tilgan yo'l hisoblagichlari orasida o'tishga imkon beradi.

Tip 1**Tip 2**

ODO **999999** km

Taxometr


Taxometr dvigatelning tirsak valining aylanishi chastotasini, bir daqiqada aylanishlar sonini ko'rsatadi (**ayl/daq**). Yonilg'ini maksimal tejjash uchun avtomobilni dvigatel aylanishlarning pastroq diapazonida ishlaydigan qilib boshqarishga harakat qiling: **2000** dan **3000** ayl/daq gacha. Dvigatelning aylanishlari sonini taxometrning o'qi qizil zonaga o'tadigan qilib oshirmang.

⚠ OGOHLANTIRISH!


Dvigatelning tirsak valining aylanishi chastotasini o'ta kuchli oshirish dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Dvigatelning aylanishlari soni taxometrning o'qi qizil zonaga o'tadigan darajada yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymang. Aks holda ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplab berilmaydigan qimmat turuvchi ta'mirlash talab etilishi mumkin.

Tip 1



Tip 2



Yonilg'i sathining ko'rsatkichi


Yonilg'i bakidagi yonilg'ining qolgan miqdorini ko'rsatadi.

Yonilg'ini quyish va dvigatelni ishga tushirishdan keyin, yonilg'i sathi ko'rsatkichining o'qi asta-sekin uning yangi sathiga mos keladigan holatga o'tadi.


Yonilg'ining sathi ko'rsatkichining o'qi tormozlash, tezlashish va burilishlardan o'tish paytida yonilg'ining bak ichida chayqalishi tufayli siljib turishi mumkin. Yonilg'i sathining ko'rsatkichi yonilg'ining bakdagi miqdorini taxminiy baholash uchun xizmat qiladi va undan aniq asbob sifatida foydalanish mumkin emas.

• Yonilg'i bakining sig'imi: 60 litr.

Tip 1



Tip 2



Harorat ko'rsatkichi


O't oldirish yoqilganda dvigatelning sovituvchi suyuqligining haroratini ko'rsatadi. Ko'rsatkich haydovchiga harorat rejimi haqida umumiy axborot berish uchun xizmat qiladi va undan aniq asbob sifatida foydalanish mumkin emas.

⚠ DIQQAT!


- Agar dvigatelning sovituvchi suyuqligi haroratining ko'rsatkich o'qi qizil zonaga o'tgan bo'lsa, harakatni davom ettirish taqiqlanadi. Bu dvigatelning o'ta qizishidan dalolat beradi.

O'ta qizigan dvigatel bilan harakatlanish Sizing avtomobilingizning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. «O'TA QIZIB KETISH» bo'limiga qarang.

Tip 1



Tip 2



Vizual indikatorlar va signalizatorlar

Yonilg'ining minimal zaxirasi signalizatori

Yonilg'ining minimal zaxirasi signalizatori yonilg'i bakiining ichida 7,5 litrga yaqin yonilg'i qolganda, yonadi.

⚠ **DIQQAT!**

• Yonilg'ining to'liq sarflanishiga yo'l qo'ymang.

Bu katalitik neytralizatorning shikastlanishiga, shuningdek avtomobilning boshqa shikastlanishlariga olib kelishi mumkin, bunday holatda ularni ta'mirlash ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Agar signalizator yonsa, imkoni boricha tezroq bakka yonilg'ini to'ldirib quyung.
«YONILG'I» bo'limiga qarang.



ABT nosozligining signalizatori (Agar mavjud bo'lsa)

ABT signalizatori o't oldirish yoqilganda qisqa vaqtga yonadi. Shu tarzda u tizimning o'z-o'zini tekshirishi va signalizator chirog'ining ishlashi haqida signal beradi.

Signalizator taxminan 3 soniyadan keyin o'chishi kerak.

Agar ABT nosozligining signalizatori quyidagicha ishlasa, vakolatlangan dilerga ta'mirlash uchun murojaat qiling:

- O't oldirish yoqilganda yonmasa.
- O'chmay tursa.
- Yurish paytida yonib qolsa.



⚠ **OGOHLANTIRISH!**

- Agar ABT signalizatori yonib tursa, avtomobilning keyingi harakatlanishi taqiqlanadi.
- Yonib turgan ABT signalizatori tormoz tizimida nosozlik borligining belgisi bo'lishi mumkin.

Sizning avtomobilingizning tormozlarini tegishli ish holatida saqlab turish yuzasidan talablarga rioya qilmaslik bo'yicha avariya olib kelishi mumkin, u esa jarohatlarga, avtomobilning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.

Agar ABT signalizatori harakatlanish paytida yonsa, ABT tizimida nosozlik bo'lishi mumkin. Tizimni tekshirish va ta'mirlashni bajarish uchun, imkoni boricha tezroq vakolatlangan dilerga murojaat qilish kerak.

«ANTIBLOKLASH TORMOZ TIZIMI» bo'limiga qarang.

Xavfsizlik yostiqlari nosozligining signalizatori

Xavfsizlik yostiqlarining tizimi nosozligining signalizatori o't oldirish yoqilganda bir necha marta yonib-o'chib turadi. Shu tarzda u xavfsizlik yostiqlari tizimining va signalizatorining normal ish holati haqida signal beradi.



OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqlari tizimining signalizatori tizimda nosozlik yuz berganda doimiy yonib turadi.

- Agar xavfsizlik yostiqlari nosozligining signalizatori yonib tursa, avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.

Imkoni boricha tezroq ushbu tizimni tekshirish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Nosoz xavfsizlik yostiqlarining tizimi bilan harakatlanish avariya holatida jarohatlarga yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlarining tizimida nosozlik bo'lganda, signalizator:

- O't oldirish yoqilganda yonib-o'chib turmaydi.
- Bir necha marta yonib-o'chganidan keyin yonib turadi.
- Avtomobilning harakatlanishi paytida yonib-o'chib turadi.
- Harakatlanish paytida doimiy yonib turadi.
- Xavfsizlik yostiqlari tizimining va boshqa passiv xavfsizlik tizimlarining ta'rifini 1-bo'limda qarang.


Tormoz tizimining nosozligining signalizatori

Tormoz tizimining nosozligining signalizatori o't oldirish yoqilganda, dvigatelni ishga tushirishdan avval yonadi.

Bu signalizator normal ishlayotganligini bildiradi. Signalizator dvigatelni ishga tushirishdan keyin o'chishi kerak.

Tormoz tizimining nosozligining signalizatori shuningdek to'xtab turish tormozi yoqilganda yonadi. To'xtab turish tormozi qo'yib yuborilganidan keyin signalizator o'chadi.

Joyidan qo'zg'alishdan avval, to'xtab turish tormozi to'liq qo'yib yuborilganligiga ishonch hosil qiling.



DIQQAT!

- Agar tormoz tizimi nosozligining signalizatori yonib tursa, harakatlanish taqiqlanadi.
- Bu signalizatorning yonishi tormoz tizimining nosozligini bildirishi mumkin.
- Tormoz tizimining nosozligi to'qnashuvga olib kelishi va jarohatlarga, Sizning avtomobilingiz shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararlarga sabab bo'lishi mumkin.

Agar to'xtab turish tormozi to'liq qo'yib yuborilganidan keyin tormoz tizimi nosozligining signalizatori yonishda davom etsa, bu tormoz gidroyuritmasi bakidagi tormoz suyuqligining past sathini ko'rsatishi mumkin. Bu holda quyidagilarni bajaring:

1. Yo'ning harakat qismidan ehtiyot bo'lib chiqing va to'xtang.
2. Tormoz gidroyuritmasi bakidagi suyuqliqning sathini tekshiring.
3. Tavsiya etiladigan tormoz suyuqligining sathini **MAX** belgisigacha yetkazish uchun uni to'ldirib quying.

Qarang «TORMOZ/ILASHISH MUFTASINING TIZIMIGA SUYUQLIKNI TO'LDIRIB QUYISH». 4. Quyidagi holatlar bo'lganda, xavfsiz tezlikda va ehtiyot choralariga amal qilgan holda

tormozlarni tekshirish uchun vakolatlangan dilerga borish kerak:

- Tormozlar normal ishlaydi.
 - Tashqi belgilariga ko'ra tormoz tizimi avtomobilning xavfsizligini ta'minlaydi.
5. Quyidagi holatlar bo'lganda, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun vakolatlangan dilerning oldiga olib borish lozim:
- Tormoz tizimida oqib ketishlar aniqlangan.
 - Tormoz tizimi nosozligining signalizatori chirog'i yonib turadi.
 - Tormozlar tegishli tarzda ishlamaydi.

⚠️ DIQQAT!

- Agar tormoz tizimi nosozligining signalizatori to'xtab turish tormozi yoqilganda va o't oldirish yoqilgan holda yonmasa, avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.
 - Signalizator chirog'ining sozligiga ishonch hosil qiling. Agar tormoz tizimi nosozligining signalizatori to'xtab turish tormozi yoqilganda va o't oldirish yoqilgan holda yonmasa, hatto agar signalizatorning chirog'i soz bo'lganda, tormoz tizimini tekshirish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qilish lozim.
- Quyidagi belgilar avtomobilning tormoz tizimidagi nosozlikdan dalolat berishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

Sizning avtomobilingizning tormozlarini tegishli ish holatida saqlab turish yuzasidan talablarga rioya qilmaslik jarohatlarga, avtomobilning shikastlanishiga sabab bo'lishi yoki boshqa moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan avariya olib kelishi mumkin.

Akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimi nosozligining signalizatori

Akkumulyator batareyasining zaryadsizlanganligi haqida signal beradi. Signalizator o't oldirish yoqilganda yonishi kerak. Signalizator dvigatelni ishg'a tushirishdan keyin o'chishi lozim.

⚠️ DIQQAT!

Ushbu signalizator akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimida nosozlik yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

- Akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimi nosozligining signalizatori yonib turganda avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.

Nosoz zaryadlash tizimi bilan harakatlanish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.



Agar akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimi nosozligining signalizatori harakatlanish paytida yonib qolsa, quyidagilarni bajaring:

1. Yo'ning harakat qismidan ehtiyot bo'lib chiqing.
2. Avtomobilni to'xtating.
3. Yuritma kamari bo'shshab ketmagan va yirtilmaganligiga ishonch hosil qiling. «YURITMA KAMARI» bo'limiga qarang.

⚠️ DIQQAT!


Bo'shshab ketgan yoki yirtilgan yuritma kamari dvigatelning o'ta qizib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Yuritma kamari bo'shshab ketgan yoki yirtilgan avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.
- Dvigatelning o'ta qizib ketishi avtomobilning shikastlanishiga va qimmat turuvchi ta'mirlashga olib kelishi mumkin.

4. Agar yuritma kamari normal ish holatida bo'lsa, lekin akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimi nosozligining signalizatori yonishda davom etsa, bu zaryadlash tizimidagi nosozlik borligini ko'rsatishi mumkin. Imkoni boricha tezroq ushbu tizimni ta'mirlash uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Dvigatelni moylash tizimida bosim pasayganligi signalizatori

O't oldirish yoqilganda, dvigatelni ishga tushirishdan avval qisqa vaqtga yonadi. Bu ushbu indikatorning chirog'i normal ishlayotganligini bildiradi. Signalizator dvigatelni ishga tushirishdan keyin o'chishi lozim. Agar ushbu signalizator harakatlanish paytida yonib tursa, bu dvigatelni moylash tizimida bosimning xavfli darajada pasayganligini bildirishi mumkin. Zudlik bilan dvigatelni o'chiring va dvigateldagi moyning sathini tekshiring. Tekshirish tartibi haqida axborot olish uchun «DVIGATELDA MOY SATHINI TEKSHIRISH» bo'limiga qarang.



⚠️ DIQQAT!

Dvigatelni moylash tizimida bosim pasayganligi xavfli bo'lishi mumkin.

- Dvigatelni moylash tizimida bosim pasayganligi signalizatori yonib turganda, avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.

Avtomobilning past moy bosimi bilan harakatlanishi avtomobilning jiddiy shikastlanishiga va keyinchalik qimmat turuvchi, ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlarini bilan qoplanmaydigan ta'mirlanishiga olib kelishi mumkin.

Moy bosimi past bo'lganda tavsiya etilgan sifati va quyishqoqligiga ega bo'lgan motor moyini tegishli sathigacha to'ldirib quyung. «MOTOR MOYINI VA MOY FILTRINI ALMASHTIRISH» bo'limiga qarang.


Agar moy darajasi me'yorida bo'lsa, dvigatelni moylash tizimini tekshirish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Dvigatelnining tizimlari nosozligining signalizatori

O't oldirish yoqilganda, dvigatelni ishga tushirishdan avval qisqa vaqtga yonadi.

Bu ushbu indikatorning chirog'i normal ishlayotganligini bildiradi.

Signalizator dvigatelni ishga tushirishdan keyin o'chishi lozim.



⚠️ DIQQAT!

- Dvigatelnining tizimlari nosozligining signalizatori yonib turganda avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.

Ushbu signalizatorning yonishi unga e'tibor berilishi lozim bo'lgan muammo borligidan dalolat beradi. Nosozlik signalizatori yonib turganda harakatlanish ishlangan gazlar zaharililigini kamaytirish tizimining shikastlanishiga olib kelishi va avtomobilning

⚠️ DIQQAT!

yonilg'i tejamkorligiga va dinamik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Imkoni boricha tezroq ushbu nosozlikni bartaraf etish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Ushbu nosozlikning signalizatori (MIL) ishlangan gazlar zaharililigini kamaytirish tizimining va u bilan bog'liq ost tizimlarning komponentlari nosoz bo'lganda yonadi.

Ushbu signalizator elektron boshqarish bloki (ECM) nosozlikni qayd etib turgan davrda, shuningdek ushbu nosozlik bartaraf etilishidan keyin ma'lum vaqt davomida yonib turadi.

Bu ma'lum vaqt oralig'ining davomiyligi atrof muhitni himoyalashga oid qonunchilikning talablari bilan belgilanadi. O't oldirishning jiddiy to'xtab qolishlari aniqlanganda, MIL signalizatori doimiy yonib-o'chib turadi.

MIL chirog'i yonib-o'chib turganda, harakatlanishda davom etish katalitik neytralizatorning shikastlanishiga va keyinchalik qimmat turuvchi, ishlab chiqaruvchining kafolatlarini bilan qoplanmaydigan ta'mirlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar akselerator pedalini yonib-o'chishi to'xtaydigan, va MIL indikator doimiy yonish rejimiga o'tadigan darajasigacha qo'yib yuborsangiz, avtomobilning shikastlanishi xavfi bo'lmagan holda harakatlanishni davom ettirish mumkin.

Zudlik bilan muammoni bartaraf etish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Agar MIL signalizatori dvigatelni ishga tushirishda qisqa vaqtga yonsa, keyin esa yana o'chsa, demak, tizim normal ishlaydi va uning nosozliklari yo'q. Agar avtomobil avtomatik uzatmalar qutisi bilan jihozlangan bo'lsa, «AVTOMATIK UZATMALAR QUTISINI AVARIYALI O'TKAZISH DASTURI» bo'limiga qarang.

Eshik ochilganligi signalizatori

Biror-bir eshik ochiq bo'lganda yoki zich yopilmaganda yonadi.



Qishki rejim signalizatori*

Qishki rejimni yoqish moslamasi bosilganda yonadi.


Ushbu rejimdan sirpanchiq va muz bilan qoplangan yo'lda yurish uchun foydalaning. Bu rejimni o'chirish uchun tugmasini yana bosing.

«Qishki rejim signalizatori» bo'limiga qarang.

WINTER

Diapazonlar selektori holatining indikatori (avtomatik uzatmalar qutisi)*

Uzatmalar qutisining diapazonlari selektorining holatini ko'rsatadi.



TCS sirg'alishga qarshi tizimining signalizatori*

Dvigatel yoqilganda yonadi va 3 soniya ichida, ABT nosozligining signalizatori bilan birgalikda o'chadi.

TCS signalizatori ilashish muftasi ishlaganda, yonib-o'chib turadi.

Agar TCS signalizatori yurish paytida yonib tursa, Sizing vakolatlangan dileringizga murojaat qiling.

«Sirg'alishga qarshi tizimning signalizatori» bo'limiga qarang.



ESLATMA

Agar avtomobilning tormozlari o'ta qizib ketsa, tormozlar sovimaguncha, TCS tizimi Sizing tormoz tizimingizni himoyalash uchun ishlaymaydi va TCS chirog'i yonib turadi.

Oldingi tumanga qarshi faralar yoqilganligining indikatori*

Oldingi tumanga qarshi faralar yoqilganda yonadi. «OLDINGI TUMANGA QARSHI FARALAR» bo'limiga qarang.



Orqa tumanga qarshi chiroq yoqilganligining indikatori*

Orqa tumanga qarshi chiroqlar yoqilganda yonadi.

«ORQA TUMANGA QARSHI CHIROQ» bo'limiga qarang.



Taqilmagan xavfsizlik kamarining signalizatori

Agar o't oldirish yoqilganda haydovchining xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, quyidagilar yuz beradi:

- Taqilmagan xavfsizlik kamarining signalizatori yonadi.
- Taqilmagan xavfsizlik kamarining ovoqli signalizatori 6 soniyaga yoqiladi.



Burilish ko'rsatkichlari / avariya yorug'lik signalizatsiyasi indikatorlari

Burilish ko'rsatkichlari/avariya yorug'lik signalizatsiyasi indikatorlari burilish ko'rsatkichlari yoki avariya yorug'lik signalizatsiyasining sozligini ko'rsatadi.

Agar burilish ko'rsatkichlarini boshqaruvchi rul ostidagi dastak yoki avariya yorug'lik signalizatsiyasining tugmasi bosilganda, yashil o'q yonib-o'chib turmasa, burilish ko'rsatkichlarining eruvchan saqlagichini va chirog'ini tekshiring. Zarur bo'lganda, saqlagichni yoki chiroqni almashtiring.



ESLATMA

Indikatorlarning yuqori tezlikda yonib-o'chishi burilish ko'rsatkichlarining chirog'i kuyganligini va uni almashtirish zarurligini ko'rsatadi.

⚠ **DIQQAT!**

Ushbu indikatorlar harakat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'ladi.

- Zudlik bilan burilish ko'rsatkichlari va avariya yorug'lik signalizatsiyasi indikatorlarining kuygan chiroqlarini almashtiring.

Ushbu indikatorlarning nosozligi to'qnashuvga olib kelishi va jarohatlarga, avtomobilning shikastlanishi yoki boshqa moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Faralarning uzoqni yoritish indikatorlari

Faralarning uzoqni yoritish indikatorlari faralarning uzoqni yoritishi yoqilganda yonadi.



Yukxonaning qopqog'i ochiqligining signalizatori* (faqat sedan uchun)


Yukxonaning qopqog'i ochilganda yoki zich yopilmaganda yonadi.



Xavfsizlik signalizatori *

Indikator harakatsizlantirish moslamasi tizimining holatini aks ettiradi. Indikator xavfsizlik tizimi yoqilganda yonadi.

Xavfsizlik indikatorlari eshiklar kalit yordamida ochilganda, o'chadi. «Harakatsizlantirish moslamasi» bo'limiga qarang.



BORT KOMPYUTERI


Bort kompyuteri haydovchini transport vositasining o'rtacha yoqilg'i sarfi, joriy yoqilg'i sarfi, o'rtacha tezligi, odometrga ko'ra qancha yo'l bosib o'tilgani, atrof muhit harorati, yoqilg'i bo'yicha qolgan masofa kabi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Bort kompyuterining tugmasi har safar bosilganda displeydagi ko'rsatkichlar quyidagi tartibda o'zgaradi: o'rtacha yoqilg'i sarfi → joriy yoqilg'i sarfi, → o'rtacha tezligi, odometrga ko'ra qancha yo'l bosib o'tilgani, → atrof muhit harorati, → yoqilg'i bo'yicha qolgan masofa → shinalardagi bosim → shinalardagi bosim ko'rsatkichini moslashtirish.

Bort kompyuterining tugmasi spidometrning pastki chap qismida joylashgan.


O'rtacha yoqilg'i sarfi

Bu displey har 100 km yo'lga litrda taxminan qancha yoqilg'i sarflanayotganini ko'rsatadi (l/100 km). Bu miqdor ko'rsatkichlar so'nggi marta nolga tushirilgandan so'ng l/100 km qiymati asosida hisoblanadi. O'rtacha yoqilg'i sarfi ko'rsatkichini nolga tushirish uchun bort kompyuteridagi tugmani bir soniyadan ortiq vaqt bosib turing.



Joriy yoqilg'i sarfi

Bu displey joriy yoqilg'i sarfini ko'rsatadi (l/100km).



Transport vositasining o'rtacha tezligi


Bu displey avtomobilning o'rtacha tezligini ko'rsatadi. O'rtacha tezlik ko'rsatkichini nolga tenglashtirish uchun bort kompyuteridagi tugmani bir soniyadan ortiq vaqt bosib turing.



Odometr bo'yicha bosib o'tilgan yo'l

Bu displey ko'rsatkichlar so'nggi marta nolga tenglashtirilgandan so'ng bosib o'tilgan masofani ko'rsatadi.

Odometr bo'yicha bosib o'tilgan yo'l hisoblagichini nolga tenglashtirish uchun bort kompyuteridagi tugmani bir soniyadan ortiq vaqt bosib turing.



Yoqilg'i bo'yicha qolgan masofa

Bu rejimda yoqilg'i baki butkul bo'shamaguncha avtomobil qancha yo'l bosib o'tishi mumkinligi taxminan ko'rsatiladi.

ESLATMA

- Harakat sharoitiga qarab qolgan yoqilg'i da avtomobil qancha masofa bosib o'tishi ko'rsatkichdagidan farq qilishi mumkin.
- Qolgan yoqilg'i da avtomobil bosib o'tishi mumkin bo'lgan masofa harakat sharoitiga, yurish tarziga va avtomobilning tezligiga qarab o'zgaradi.




**YOQISH MOSLAMALARI
VA BOSHQARISH ORGANLARI**


Yoritishni markaziy yoqish moslamasi

Faralarni, orqa gabarit yoki to'xtab turish chiroqlarini yoqish yoki o'chirish uchun rul kolonkasidagi ko'p vazifali dastaxtning kallagini burang.


Yoritishning markaziy yoqish moslamasi uchun quyidagi funksiyalarni ishga tushiradigan uchta holati ko'zda tutilgan:

OFF: Barcha tashqi yoritish asboblarni o'chirish.

 : Oldingi va orqa gabarit chiroqlari, davlat raqami belgisini va asboblarni yoritish yoqilgan.


 : Faralarning yaqin yoritish chiroqlari va barcha yuqoridagi chiroqlar yoqilgan.

Faralar o't oldirish kalitining **LOCK** yoki **ACC** holatiga burilishida avtomatik tarzda o'chiriladi.




Akkumulyator batareyasini zaryadsizlanishdan himoyalash moslamasi

Ushbu moslama akkumulyator batareyasini zaryadsizlanishdan ximoya qiladi.

Agar yoritishning markaziy yoqish moslamasini «-D-Q-» yoki «» holatida qoldirib, o't oldirish kalitini chiqarib olsangiz va haydovchining eshigini ochsangiz, yoritish asboblari avtomatik tarzda o'chiriladi.

ESLATMA

Agar salonning ustki plafoni yoqilgan bo'lsa, agar o't oldirish kalitini chiqarib olsangiz va haydovchining eshigini ochsangiz, u avtomatik tarzda o'chirilmaydi. Yoqilgan plafon avtomobil to'xtab turganda akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin.



Faralarning uzoqni yoritish chirog'ini yoqish moslamasi

Faralarning uzoqni yoritish chirog'ini yoqish uchun quyidagilarni bajaring:


- Faralarning yaqin yoritish chirog'i yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
- Ko'p vazifali boshqarish dastagini asboblarning panelining tomoniga qarab bosing.

Faralarning uzoqni yoritishi yoqilganda faralarning uzoqni yoritish indikator yonadi.

Faralarni uzoqni yoritishdan yaqin yoritishga o'tkazish uchun, ko'p vazifali boshqarish dastagini normal holatiga qaytguncha o'zingizga qaratib toring.

⚠️ DIQQAT!

- Oldinda ketayotgan avtomobillar bilan yaqinlashganda, albatta faralarni uzoq yoritishdan yaqin yoritishga o'tkazing. Faralarning uzoq yoritish chirog'i boshqa haydovchilarning ko'zini qamashtirishi mumkin, bu esa to'qnashuvga sabab bo'lishi mumkin.



Faralarning uzoq yoritish chirog'i bilan signal berish

Faralarning uzoq yoritish chirog'i bilan signal berish uchun, ko'p vazifali boshqarish dastagini o'zingizga qaratib toring va qo'yib yuboring.

Qo'yib yuborganda dastagi qaytadi normal holatiga.

Faralarning uzoq yoritishi to ko'p vazifali boshqarish dastagi tortilgan holatida ushlab turilguncha, yonib turadi.


Burilish ko'rsatkichlarini boshqarish dastagi

O'NGGA burilish: Burilish ko'rsatkichlarini boshqarish dastagini tepaga o'tkazing.

CHAPGA burilish: Burilish ko'rsatkichlarini boshqarish dastagini pastga o'tkazing.

Burilish yakunlanganidan keyin burilish ko'rsatkichi avtomatik tarzda o'chiriladi va dastak o'z normal holatiga qaytadi.

Yo'l harakati tasmasini o'zgartirish paytida burilish ko'rsatkichlarini boshqarish dastagini qisman o'tkazib turing va ushlab turing. Qo'yib yuborganda dastak normal holatiga qaytadi.





Oldingi tumanga qarshi faralarni yoqish moslamasi*

Tumanga qarshi faralar quyidagilarni ta'minlaydi:

- Avtomobilning oldida yo'ning yon zonalarini qo'shimcha yoritish.
- Tumanli va qorli ob-havo bo'lganda yaxshiroq ko'rish imkoniyati.


Tumanga qarshi faralarni yoqish uchun quyidagilarni bajaring:

- Yoritishni markaziy yoqish moslamasi «» yoki «» holatida joylashganligiga ishonch hosil qiling.

- Ko'p vazifali boshqarish dastagidagi halqali o'tkazgichni **ON** holatiga burang.

Tumanga qarshi faralar yoqilganda, asboblarning panelida tumanga qarshi faralarning indikator yonadi.

Tumanga qarshi faralarni o'chirish uchun, halqali o'tkazgichni **OFF** holatiga burab o'tkazing.




Orqa tumanga qarshi chiroqni yoqish moslamasi

Orqa tumanga qarshi chiroqni yoqish uchun, yaqin yoritish yoqilganda old oynaning tozalagichi/oyna yuvish moslamasi dastagining uchini burang.

Orqa tumanga qarshi chiroq yoqilganda, asboblarning panelida tegishli indikator yonadi.

Orqa tumanga qarshi chiroqni o'chirish uchun, old oynaning tozalagichi/oyna yuvish moslamasi dastagining uchini yana burang.



Old oyna tozalagichi

DIQQAT!

- Haydovchida atrofni normal ko'rish imkoniyatining yo'qligi to'qnashuvga va jarohatlarga olib kelishi, avtomobilning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar oyna quruq bo'lsa yoki old oynadagi cho'tkalarni ishlashi, masalan, qor yoki muz yopishganligi tufayli qiyinlashgan bo'lsa, tozalagichni yoqmag. Old oynada to'sqinlik qiladigan narsalar bo'lganda oyna tozalagichning ishlashi tozalagichning cho'tkalari va elektr dvigateli, shuningdek oynaning yuzasi shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Sovuq ob-havo bo'lganda tozalagichni yoqishdan avval cho'tkalar oynaga yopishib qolmaganligini tekshiring.


⚠️ DIQQAT!

Cho'tkalari oynaga muzlab yopishib qolganda tozalagichni yoqish tozalagichning cho'tkalari, elektr dvigateli va oynaning yuzasi shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu shikastlanishlar ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Tozalagichni yoqish uchun o't oldirishni yoqing va old oynaning tozalagichi/oyna yuvish moslamasi dastagini tepaga o'tkazing.

Old oynaning tozalagichini o'tkazish dastagi to'rtta holatiga ega:

- **OFF** holati: Tizim o'chirilgan. Standart holati.
 - **INT** holati: Uzilishli rejim (kerakli tezlikni tanlash uchun dastakni bir daraja tepaga yoki pastga o'tkazing).
- Dastak bir darajaga tepaga o'tkazilgan.
- **LO** holati: Uzluksiz rejim, past tezlik. Dastak ikki darajaga tepaga o'tkazilgan.
 - **HI** holati: Uzluksiz rejim, yuqori tezlik. Dastak uch darajaga tepaga o'tkazilgan.

**ESLATMA**

Oyna tozalagichning cho'tkalari eskirgani sari, oynani tegishli tarzda tozalash imkoniyati yo'qoladi va oldingi atrofni ko'rish imkoniyati yomonlashadi.

- Oyna tozalagichning eskirgan cho'tkalarini almashtiring.

Qisqa vaqtga yoqish

Ozgina yomg'ir yoqqanda yoki tuman holatida oyna tozalagichlarni yoqish uchun, old oynaning tozalagichi/oyna yuvish moslamasi dastagini **INT** holatiga qarab sal siljiting va qo'yib yuboring.


Qo'yib yuborganda dastak avtomatik tarzda normal holatiga qaytadi.

Bu holatda cho'tkalar bir sikl ishlaydi.

Old oynaning oynaga yuvish moslamasi**⚠️ DIQQAT!**

- Haydovchida atrofni normal ko'rish imkoniyatining yo'qligi to'qnashuvga va jarohatlarga olib kelishi, avtomobilning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.
- Ob-havo juda sovuq bo'lganda oynaga yuvish moslamasining suyuqligini old oynaga sepmang.
- Oyna yuvish moslamasini yoqishdan avval old oynani isiting.

Oyna yuvish moslamasining suyuqligi old oynada muzlab qolishi va oldingi atrofni ko'rish imkoniyatini yomonlashtirishi mumkin.



Yuvadigan suyuqlikning oqimini old oynaga sepish uchun quyidagilarni bajaring:

- O't oldirishni yoqing.
- Old oynaning tozalagichi/oyna yuvish moslamasi dastagini o'zingizga qaratib torting.

Agar dastakni **0,6** soniyadan kamroq ushlab tursangiz, quyidagilar yuz beradi:

- Oyna yuvish moslamasining suyuqligi old oynaga sepiladi. (Oyna tozalagichning cho'tkalari ishlamaydi).

Agar dastakni **0,6** soniyadan ko'proq ushlab tursangiz, quyidagilar yuz beradi:

- Oyna yuvish moslamasining suyuqligi old oynaga sepiladi.
- Tozalagichning cho'tkalari uch sikl ishlaydi yoki dastakni qo'yib yuborganda to'xtaydi.

DIQQAT!

- Old oynaning oyna yuvish moslamasining 10 soniyadan ko'proq ishlashiga, shuningdek oyna yuvish moslamasining baki bo'sh bo'lganda ishlashiga yo'l qo'ymang.

Bu oyna yuvish moslamasining elektr dvigateli o'ta qizib ketishiga va qimmat turuvchi ta'mirlashga olib kelishi mumkin. «O'TAQIZIB KETISH» bo'limiga qarang.

Oyna yuvish moslamasining bakiga suyuqlik quyish. Oyna yuvish moslamasining bakiga suyuqlikni to'ldirib quyishning tavsiya etilgan amallarining ta'rifi «OYNA YUVISH MOSLAMASINING BAKINI TO'LDIRIB QUYISH» bo'limida keltirilgan.

Avariya yorug'lik signalizatsiyasining tugmasi


Avariya yorug'lik signalizatsiyasi quyidagi holatlarda foydalaniladi:

- Yo'l harakatining qolgan ishtirokchilarini favqulodda vaziyat haqida ogohlantirish uchun.
- Yo'l ustida xavf yuzaga kelganda.

Avariya yorug'lik signalizatsiyasini o'tildirish yoqilganda ham, o'chirilganda ham yoqish mumkin.

Avariya yorug'lik signalizatsiyasini yoqish uchun, uning tugmasini bosing.

Avariya signalizatsiyani o'chirish uchun, ushbu tugmani yana bosing.




Orqa, oldingi va yon oynalarning isitgichlari tugmasi

DIQQAT!

Quyidagi holatlarda oynalarning isitgichini yoqmag:

- Dvigatel ishlamaydi.
- Dvigatelni ishga tushirishdan keyin qisqa vaqt ichida.
- Agar orqa oynada qor yoki muz bo'lsa.

Bunday sharoitlarda oynalarning isitgichidan foydalanish akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida avtomobilning shikastlanishiga va ba'zi qismlarni almashtirish zarurligiga olib kelishi mumkin.



Isitgichni yoqish uchun o't oldirishni yoqing va oynalarning isitgichlari tugmasini bosing.

Tugmaning ustida yorug'lik indikatori yonadi. Isitgich taxminan **10** daqiqadan keyin avtomatik tarzda o'chiriladi. Isitgichni o'chirish uchun ushbu tugmani yana bosib. Oynalar yuzalari toza bo'lganda, isitgichning o'chirilishini nazorat qiling.

⚠ DIQQAT!

Tegishli parvarish qilish qoidalarini bajarmaslik isitgichning o'tkazgichlari shikastlanishiga yoki oyna ustida tinalishlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.


- Orqa oynani tozalash uchun o'tkir asboblardan yoki oynalar uchun abraziv tozalash vositalaridan foydalanmang.
- Oynalarni tozalashda yoki orqa oynaning yonida ishlarni bajarish paytida isitgichning o'tkazgichlarini tirnamaslik va shikastlanish uchun ehtiyot bo'ling. Isitgichning o'tkazgichlari tashqi ta'sirlar natijasida shikastlanishlarini ta'mirlash ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydi.

Haydovchida atrofni normal ko'rish imkoniyatining yo'qligi to'qnashuvga va jarohatlarga olib kelishi, Sizning avtomobilingizning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.

Faralarning yaqinni yoritish yorug'lik nurining og'ish burchagini sozlash

Faralarning yaqin yoritish chirog'ini yoqing va avtomobilning yuklanishiga muvofiq yorug'lik nurlarining yo'nalishini sozlang.

- 0** = Oldingi o'rindiqlar band;
1 = Barcha o'rindiqlar band;
2 = Haydovchi va yukxona bo'limida yuk bor.
3 = Barcha o'rindiqlar band va yukxona bo'limida yuk bor;




Faralarning kunduzgi yoritish funksiyasi*

Agar ushbu opsiya Sizning avtomobilingizda bo'lsa, kunduzgi yoritish faralari dvigatel yoqilganda, avtomatik tarzda yoqiladi.

Kunduzgi yoritish faralari quyidagi holatlarda o'chiriladi:

- Agar dvigatel o'chirilsa;
 - Agar uzoq yoritish faralari yoqilgan bo'lsa;
 - Agar yaqin yoritish faralari yoqilgan bo'lsa.
- Gabarit chiroqlari yoqilganda kunduzgi yoritish faralari o'chiriladi.

Asboblari paneli yorug'ligining yorqinligini boshqarish



Asboblari paneli displeyi, axborot-ko'ngilochoq va uni boshqarish tizimi displeyi va boshqa yoritish bilan ta'minlangan aboblarning yorqinligini boshqarish mumkin.

Asboblari panelida rul chamberagi yonida joylashgan dasta yoritishning yorqinligini rostdlashga xizmat qiladi.

Yorqinlikni oshirish yoki kamaytirish uchun dastani yuqoriga yoki pastga aylantiring.

KALITLAR VA ESHIK QULFLARI

Kalitlar

Yangi avtomobilning to'plamiga ikkita kalit kiradi.

Bitta kalitni zaxira kaliti sifatida saqlash tavsiya etiladi. Kalitning raqami maxsus birkada o'yib yozilgan. Xavfsizlik maqsadida kalitning raqam birkasini avtomobildan tashqaridagi ishonchli joyda saqlang. Bundan tashqari, kalitning raqamini yozib olish va uni ham avtomobildan tashqaridagi ishonchli joyda saqlash kerak. Bu kalit dublikatining Siz ruxsat bermagan holda yasalishi ehtimolini kamaytiradi.

OGOHLANTIRISH!

- Kalitni avtomobilda qoldirmang.
- Avtomobilning qulflarini yoping.
 - Kalitni o'zingiz bilan olib yuring.

Kalit raqami bo'lgan birka



ESLATMA

Kalit yo'qolgan holda, Siz kalitni almashtirish uchun Sizing vakolatlangan dileringizga murojaat qilishingiz mumkin, bunda kalitning murojaat qilishingiz mumkin, bunda kalitning raqamini va avtomobilning identifikatsiyalash raqamini (VIN) ko'rsatishingiz kerak.

VIN ni topish uchun «Identifikatsiyalash raqamlari» ga qarang.

Sizing avtomobilingizni o'g'irlashdan himoyalash maqsadida, Sizing avtomobilingizda elektron harakatsizlantirish tizimi o'rnatilgan. Sizing avtomobilingizni faqat to'g'ri elektron kodi bo'lgan kalit bilan o't oldirish mumkin. Hatto agar kalitning profili to'g'ri bo'lsa ham, to'g'ri elektron kodsiz dvigatel ishga tushirilmaydi. Doimo faqat vakolatlangan dilerdan qo'shimcha kalitni oling yoki kalitni almashtiring. «Harakatsizlantirish tizimi» bo'limiga qarang.

Eshik qulflari

OGOHLANTIRISH!

Avtomobilning salonida harorat juda tez ko'tariladi, va tashqaridagi haroratdan ancha yuqori bo'lib ketishi mumkin.

- Avtomobilda bolalarni va hayvonlarni qarovsiz qoldirish taqiqlanadi.
- Bu ularning sog'lig'iga jiddiy zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

OGOHLANTIRISH!

Bolalar elektr oyna ko'targichlarni va boshqa boshqarish organlarini yoqishi yoki avtomobilni joydan qo'zg'atishi mumkin.


- Kalitni avtomobilda, bolalar ichida qolganda, qoldirmang.
- Bu og'ir jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Eshiklarni kalit bilan tashqaridan yopish uchun kalitni qulf ichiga kiriting va soat milining yo'nalishida burang.

Eshikni ochish uchun kalitni soat miliga qarshi yo'nalishda burang.

ESLATMA

Agar avtomobilning eshigi ob-havo sovuqligi uchun ochilmasa, kalitning uyasini tiqilatis bo'ring yoki kalitni isiting.



Eshikni ichidan yopish uchun eshik qulfini bloklash tugmasini bosing. Eshikni ichidan ochish uchun eshik qulfini bloklash tugmasini tepaga torting.


ESLATMA

Agar haydovchining eshigi ochilgan bo'lsa, eshik qulfini bloklash tugmasi bosilmaydi. Bu esa, kalit avtomobilning salonida qolganda, haydovchining eshigi qulflanib qolishining oldini oladi.

⚠️ DIQQAT!

- Avtomobilni qarovsiz qoldirganda, barcha eshiklarni yoping va kalitni o'zingiz bilan olib keting.

Eshiklar yopilmay qolib ketganda, avtomobilga begona kishilar kirishi mumkin.




Haydovchining eshigi qoplamasi ustidagi eshiklar qulflarini bloklash o'tkazgichi yordamida ham eshiklarni yopish va ochish mumkin.

Eshiklarni yopish uchun o'tkazgichning chap tomonini bosing.

Eshiklarni ochish uchun o'tkazgichning o'ng tomonini bosing.

Eshiklarni markaziy bloklash tizimi*


Eshiklarni markaziy bloklash tizimi haydovchining eshigi panelida ishga tushiriladi. Ushbu tizim kalitdan, masofadan boshqarish pult (tashqaridan turib) yoki eshikning qulfini bloklash tugmasidan (ichidan turib) foydalanib, haydovchining eshigi panelidan barcha eshiklarni ochish va yopish imkonini beradi.



Eshikni ochish uchun eshikning dastasini torting.

ESLATMA

Eshikni ochish va yopish paytida yoki harakatlanish paytida shovqin bo'lganda, prujinalarni, eshiklarning lo'kidonlarini va oshiq-moshiqlarini moylash kerak.



Eshiklarni bolalar ochib-yopishidan bloklash


Sizning avtomobilingizda ikkala orqa eshik uchun qulfni bolalardan bloklash imkoniyati ko'zda tutilgan. U yo'lovchilar, ayniqsa bolalar, dastani tortib orqa yon eshiklarni tasodifan ochma olmasligi uchun xizmat qiladi.

⚠️ DIQQAT!

- Eshiklarning qulflarini bolalardan bloklash «LOCK» holatiga o'tkazilganda, ichki eshik dastasini tortmang.

⚠ DIQQAT!

Bu ichki eshik dastasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.




Eshiklarning qulflarini bolalardan bloklashni ishga tushirish uchun, quyidagilarni bajaring:

1. Bloklash kerak bo'lgan orqa eshikni oching.
2. Eshiklarning qulflarini bolalardan bloklash dastakchasi eshikning yon chetining o'rtasida joylashgan.
3. Dastakchani «**LOCK**» holatiga o'tkazing.

ESLATMA

Har bir orqa eshik uchun o'z bloklash moslamasi ko'zda tutilgan. Eshiklarning qulflarini bolalardan bloklash har bir eshik uchun alohida, qo'lda ishga tushiriladi.

Eshiklarning qulflarini bolalardan bloklash yoqilganda, orqa eshikni ochish uchun, ichidan uning qulfini oching va tashqaridan dasta bilan oching. Uni blokdan chiqarish uchun bloklash dastakchasini «**UNLOCK**» holatiga o'tkazing.



Elektr oyna ko'targichlari *

Elektr oyna ko'targichlarni yoqish o't oldirish yoqilganda, har bir eshikning panelida joylashgan yoqish moslamalari yordamida bajariladi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Bola tasodifan elektr oyna ko'targichni yoqishi va oyna bilan qisilib qolishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Avtomobilda kalitlarni yoki bolalarni qarovsiz qoldirish taqiqlanadi. Bolaning elektr oyna ko'targichlarni yoqishi og'ir jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.


Oynani ko'tarish uchun yoqish moslamasini tepaga ko'taring. Oynani pastga tushirish uchun yoqish moslamasini bosing. Oynani kerakli holatida qoldirish uchun yoqish moslamasini qo'yib yuboring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Oynadan boshi, qo'llari va hokazolarni chiqarib turganda, jarohatlarni olish mumkin.
- Tananing barcha qismlari salonning ichida bo'lishini nazorat qiling.


ESLATMA

Orqa eshiklarning oynalari oxirigacha tushmaydi.



Oynani avtomatik tushirish

Haydovchining oynasi uchun avtomatik pastga tushirish funksiyasi ko'zda tutilgan. Oynani pastga tushirish uchun yoqish moslamasini oxirigacha bosing, keyin qo'yib yuboring. Oyna avtomatik tarzda to'liq pastga tushadi. Oyna tushishini to'xtatish uchun yoqish moslamasini yana bosing. Oynani ko'tarish uchun yoqish moslamasini tepaga ko'taring va ushlab turing. Oynani to'xtatish uchun yoqish moslamasini pastga tushiring.




Elektr oyna ko'targichlarni bloklash tugmasi

Elektr oyna ko'targichlarni bloklash tugmasi oldingi va orqa yo'lovchilarning eshiklari uchun oyna ko'targichlarni yoqish tugmasini bloklashga imkon beradi. Oldingi va orqa yo'lovchilarning eshiklari uchun bloklash yoqilganda, oyna ko'targichlarni boshqarish faqat haydovchining eshigi panelidan bajarilishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Bola tasodifan elektr oyna ko'targichni yoqishi va oyna bilan qisilib qolishi mumkin. Bu og'ir jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

- Agar orqa o'rindiqda bolalar bo'lsa, elektr oyna ko'targichlarni bloklashni yoqing.




Yukxonaning qopqog'ini ochish uchun kalitni qulfning ichiga kiriting va uni soat milining yo'nalishida burang. Yukxonaning qopqog'ini ko'taring.

Uni yopish uchun yukxonaning qopqog'ini tushiring va qattiqroq yoping. Qopqog'ini avtomatik tarzda qulflanadi.

Yukxonaning qopqog'ini yopganda, qopqoqning yo'lida qo'lingiz va tanangizning boshqa qismlari bo'lmasligi uchun ehtiyot bo'ling.

⚠ DIQQAT!

Yukxonaning qopqog'ini ochishdan avval to'siqlar, masalan, turgan kishilar yoki devorning yo'qligiga ishonch hosil qiling.



Yukxonaning qopqog'i


Yukxonaning qopqog'ini ochish tugmasi

Yukxonaning qopqog'ini shuningdek haydovchining eshigi panelida joylashgan yukxonaning qopqog'ini ochish tugmasini bosib, ochish mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Harakatlanish paytida yukxonaning qopqog'ini ochish tugmasiga tegish taqiqlanadi.
- Yukxonaning qopqog'i ochiq bo'lganda harakatlanish taqiqlanadi.

Yukxonaning ochilgan qopqog'i orqa ko'rish imkoniyatini yopib qo'yadi. Orqa ko'rish imkoniyati cheklangan holda harakatlanish to'qnashuvga olib kelishi va Sizning avtomobilingiz shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga olib kelishi, shuningdek kishilarning jarohatlanishi yoki hatto o'limiga sabab bo'lishi mumkin.



⚠ OGOHLANTIRISH!


Yukxonaning qopqog'i ochiq bo'lganda harakatlanishda, salonga ishlangan gazlar kirishi mumkin.

• Yukxonaning qopqog'i ochiq bo'lganda harakatlanish taqiqlanadi. Yukxona ochiq bo'lganda harakatlanish zarur bo'lganda, oynalarni yoping, shamollatishni «TOZA HAVO REJIMI» ga o'tkazing va shamollatgichni maksimal tezlikda yoqing. («SHAMOLLATISH» bo'limiga qarang.) Ishlangan gazlar zaharlidir, ular kishilarning zaharlanishiga va o'limiga sabab bo'lishi mumkin.


Kapot

Kapotni ochish uchun quyidagilarni bajaring:


1. Asboblar panelining chap pastki tomonida joylashgan kapotni ochish dastasini torting.



2. Kapotning oldingi cheti ostidagi qo'shimcha lo'kidon dastasini tepaga torting va kapotni ko'taring.




3. Kapotning tirgagini ushlab turuvchi qisqichdan bo'shatib oling. Tirgakni tepaga burab ko'taring va bo'sh uchi bilan kapot qopqog'ining pastidagi uyasining ichiga ishonchli tarzda mahkam kiriting.



Kapotni yopish uchun quyidagilarni bajaring:

1. Kapot tushib ketmasligi uchun uni ushlab turib, tirgakni uyasidan chiqarib oling va joyiga, ushlab turuvchi qisqichga zich kiriting.
2. Kapotni yopganda, Siz yoki boshqa kishilarning qo'llari yoki tanasining boshqa qismlari kapotning qopqog'i ostida qolmasligi uchun, ehtiyot bo'ling.
3. Kapotni **30** sm ga yaqin balandlikda qo'yib yuborib, yoping.
4. Kapotning zich yopilganligiga ishonch hosil qiling.



⚠ OGOHLANTIRISH!

Albatta quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling:

- Harakatni boshlashdan avval, kapotning oldingi chetini tortib, kapotning ishonchli yopilganligini tekshiring.
- Avtomobilning harakatlanishi paytida kapotni ochish dastasini tortish taqiqlanadi.
- Avtomobilning kapot ochiq bo'lganda harakatlanishi taqiqlanadi. Ochilgan kapot oldingi atrofnı ko'rish imkoniyatini yopib turadi.

Oldingi atrofnı ko'rish imkoniyati cheklangan holda harakatlanish to'qnashuvga olib kelishi va Sizning avtomobilingiz shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga olib kelishi, shuningdek kishilarning jarohatlanishi yoki hatto o'limiga sabab bo'lishi mumkin.


Salonning yoritish plafonlari

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Qorong'i paytda yurganda, ustki plafon va kichik yoritish plafonlarini yoqmaslikka harakat qiling. Qorong'i paytda salonnı yoritish ko'rish imkoniyatini yomonlashtiradi va to'qnashuvga olib kelishi mumkin.

Kichik yoritish chirog'i

Oldingi kichik yoritish chirog'ini yoqish uchun uning tugmasini bosing. Uni o'chirish uchun tugmani yana bir marta bosing.



Ustki plafon


Ustki markaziy plafon uchun uchta ishlash rejimi ko'zda tutilgan:

- **ON** holati: Plafon yoqiladi va qo'lda o'chiriladigan paytigacha yonib turadi.

MARKAZIY: Plafon eshiklar ochilganda yoqiladi. Barcha eshiklar yopilganidan keyin plafon o'chadi.

Plafon eshiklar ochilganda yoqiladi va yopilganidan keyin o'chiriladi.

OFF holati: Plafon hatto eshiklar ochilganda yoqilmaydi.



Elektr yuritmalı shamollatısh tuynugi *

Tomdagi tuynukning elektr yuritmasi o't oldirish yoqilganda yoqiladi.

⚠ DIQQAT!

Albatta quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling:

- Tuynukning tirqishi orqali tashqariga chiqish va biror-bir buyumlarni chiqarish taqiqlanadi.
- Tuynukni ochish va yopishdan avval ichkarida va tashqarida to'siqlarning yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Tuynukning ustiga yoki uning yonida og'ir buyumlarni qo'ymang.
- Tuynukning ustki yuzasini tozalab turing.
- Avtomobildan chiqib ketganda, tuynukni zich yoping.

Haydovchi va yo'lovchilar, tomdagi tuynuk ochiq yoki yopiq bo'lganidan qat'iy nazar, albatta xavfsizlik kamarlarini taqishi lozim.

Ushbu ehtiyot choralariga rioya qilmaslik jarohatlarga yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.


Tomdagi tuynukni ochish

• Tomdagi tuynukni ochish uchun yoqish moslamasining orqa qismini bosing.

Tuynuk, to'yoqish moslamasining oldingi yoki orqa qismi yana bosilmaguncha, avtomatik tarzda ochiladi.

• Tuynukni yopish uchun yoqish moslamasining oldingi qismini bosing va ushlab turing.

Tuynukni kerakli holatida mahkamlash uchun yoqish moslamasini qo'yib yuboring.




Tomdagi tuynukning og'ishi

• Tomdagi tuynukning qopqog'ini tepaga og'dirish uchun yoqish moslamasining oldingi qismini tepaga bosing.

• Tuynukni boshlang'ich holatiga qaytarish uchun yoqish moslamasining orqa qismini bosing va ushlab turing.

Tuynukni kerakli holatida mahkamlash uchun yoqish moslamasini qo'yib yuboring.



Raqamli vaqt ko'rsatiladigan soat

Raqamli vaqt ko'rsatiladigan soat o't oldirish kaliti **ACC** yoki **ON** holatida joylashganda vaqtni ko'rsatadi. Soatda uchta qiymatni belgilash tugmasi bor.

H: Soatda vaqtni belgilash tugmasi.

- Soatni **1** soatga oldinga o'tkazish uchun **H** tugmasini bosing.
- Soatni **1** soatdan ortiqroq oldinga o'tkazish uchun **H** tugmasini bosing va kerakli qiymati belgilanguncha ushlab turing.

M: Daqiqalarda vaqtni belgilash tugmasi.

- Soatni **1** daqiqaga oldinga o'tkazish uchun **M** tugmasini bosing.
- Soatni **1** daqiqadan ortiqroq oldinga o'tkazish uchun **M** tugmasini bosing va kerakli qiymati belgilanguncha ushlab turing.



S: Vaqtni belgilash tugmasi.

- Vaqtni eng yaqin soatga belgilash uchun **S** tugmasini bosing.
- Agar **S** tugmasi, masalan, vaqt **8:00** dan **8:29** gacha oralg'ida bo'lganda bosilsa, vaqt **8:00** ga belgilanadi.
 - Agar **S** tugmasi, masalan, vaqt **08:30** dan **08:59** gacha oralg'ida bo'lganda bosilsa, vaqt **9:00** ga belgilanadi.

ESLATMA

Akkumulyator batareyasini ajratib olishda va keyingi ulashda, va eruvchan saqlagichlarni almashtirishda, soatdagi vaqtni belgilashni unutmang.

Sigaret tutatgich (Agar jihozlangan bo'lsa)

▲ DIQQAT!

Yoqilgan sigaret tutatgich korpusining silindrik qismi kuchli qiziydi.


- Yoqilgan sigaret tutatgich korpusining silindrik qismiga tegmang va bolalarga sigaret tutatgichni yoqishga ruxsat bermang.

▲ DIQQAT!

Qizigan metall kuyishlarga, Sizning avtomobilingizning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.

Sigaret tutatgichni yoqish uchun quyidagilarni bajaring:

- O't oldirish kalitini **ACC** yoki **ON** holatiga burang.
 - Sigaret tutatgichni oxirigacha bosing.
- Kerakli haroratgacha qiziganidan keyin sigaret tutatgich boshlang'ich holatiga avtomatik tarzda qaytadi.



▲ DIQQAT!

Sigaret tutatgichning o'ta qizib ketishi isituvchi elementi va sigaret tutatgichning o'zi shikastlanishiga olib kelishi mumkin.


- Sigaret tutatgichni qidirish paytida bosilgan holda ushlab turmang.
- Bu sigaret tutatgichning o'ta qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

▲ DIQQAT!

Nosoz sigaret tutatgichni yoqish xavfli bo'ladi.

- Agar sigaret tutatgich 30 soniya davomida boshlang'ich holatiga qaytmasa, uni o'z joyidan chiqarib olish va ta'mirlash uchun vakolatlangan dilerga murojaat qilish lozim.
- Nosoz sigaret tutatgich jarohatlarga va avtomobilning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Shtepsel rozetkasi
(Agar jihozlangan bo'lsa)**



Old konsolda 12 V li elektr rozetka joylashtirilgan.

- Maksimal sarflanadigan quvvat 150 Vt dan oshmasligi lozim.
- Rozetka kalitning ACC holatida ishlaydi. Agar ACC holatida uzoq vaqt foydalansangiz, iltimos batareyaning zaryadsizlanishidan himoya qilish uchun avtomobil dvigatelinii ishga tushiring.
- O't oldirilmaganda rozetka ta'minoti o'chgan bo'ladi. Shuningdek, rozetka ta'minoti akkumulyator batareyasi zaryadi past bo'lganda ham o'chib qoladi.
- Unga hech qanday tok tutuvchi moslamalar, masalan, elektr zaryadlovchi qurilma yoki batareykalarni ulamang.
- Mos kelmaydigan shtekerlardan foydalanib rozetkaga zarar yetkazmang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Tutatgich rozetkasidan faqat belgilangan maqsadlar bo'yicha foydalaning. Tutatgich rozetkasiga boshqa 12V tok iste'molchilari shtekeri ulangan holatlarda saqlagichning kuyishi yoki qizib ketishi natijasida boshqa ziyonlar yetkazilishi mumkin.

Kuldonlar

⚠ DIQQAT!

Sigaret tutatgichning uyasi faqat sigaret tutatgich uchun ishlatilishi kerak. Agar sigaret tutatgichning uyasiga boshqa ta'minot manbalari o'rnatiladigan bo'lsa, saqlagich ishdan chiqishi yoki yonib ketish yuz berishi mumkin.

Sigaretlar va boshqa yonib turgan materiallar yonib ketishga sabab bo'lishi mumkin.

- Kuldonlarga qog'ozni va boshqa oson yonuvchan materiallarni solish taqiqlanadi. Kuldonidagi yonib ketish jarohatlarga, Sizning avtomobilingiz shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.


Oldingi kuldon

Oldingi kuldonni ochish uchun uni o'zingizga qarab torting.

Oldingi kuldonni yopish uchun uni oxirigacha yoping.

Oldingi kuldonni bo'shatish uchun quyidagilarni bajaring:

1. Oldingi kuldonni o'zingizga qarab oxirigacha torting.
2. Uning ichki qismini tepaga ko'taring va tortib oling.



Orqa kuldon*

Markaziy konsolining orqa qismida o'rnatilgan. Qopqoqning ustki qismini pastga tushirib, oching.


Foydalanishdan keyin kuldonni zich yoping.

Kuldonni bo'shatish uchun:

1. Kuldonni to'liq oching.
2. Prujinali fiksatorni bosing.
3. Kuldonni ilib olib, tortib chiqaring.


Kuldonni o'rnatish uchun:

1. Kuldonni joyiga kiriting.
2. Kuldonni joyiga mahkamlanguncha qattiq bosing.



Ovozli signal

Ovozli signalni berish uchun rul g'ildiragining markaziy qoplamasining u yoki bu tomonidan signal belgisini bosing. Ovozli signal o't oldirish kalitining holatidan qat'iy nazar yoqiladi.




Stakan tutqichlar

Stakan tutqichlar markaziy konsolda va markaziy orqa o'rindiqning tirsakqo'ygichida joylashgan.

Oldingi stakan tutqichdan shuningdek ichki tayanchini oldinga yoki orqaga surib, foydalanish mumkin.

Orqa stakan tutqichdan foydalanish uchun markaziy orqa o'rindiqning tirsakqo'ygichini tepaga oching.



Qo'lqop yashigi

Qo'lqop yashigini ochish uchun eshikcha dastasining pastki qismini tepaga torting – qo'lqop yashigining yoritish chirog'i yonadi.

Qo'lqop yashigini yopish uchun eshikchasini zich yoping - qo'lqop yashigining yoritish chirog'i o'chadi.

Qo'lqop yashigining eshikchasini qulflab yopish uchun o't oldirish kalitini qulfining og'ziga kiriting va soat milining yo'nalishida burang. Eshikchani ochish uchun kalitni soat miliga qarshi yo'nalishda burang.


DIQQAT!

To'qnashuv holatida yoki to'satdan to'xtaganda ochilgan qo'lqop yashigi xavfli bo'ladi.

- Qo'lqop yashigi ochiq bo'lganda avtomobilning harakatlanishi taqiqlanadi.


⚠️ DIQQAT!

Ochilgan qo'lqop yashigi to'qnashuv holatida jarohatlarga yoki avtomobilning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.



Qo'lqop yashigini sovutish*


Havo konditsioneri yoqilganda qo'lqop yashigiga tuynuk orqali sovutilgan havo kiradi. Agar qo'lqop yashigini sovutish talab etilmaydigan bo'lsa, sozlash halqasini soat milining yo'nalishida burang.



Katta buyumlarni joylashtirish uchun ichki oraliq devorini olib tashlash mumkin. Echib olgandan keyin, ichki oraliq devorini chap tomondagi tirqishga kiriting.


ESLATMA

Ob-havo sovuq bo'lganda, agar tashqi havo resirkulyatsiyasi rejimi o'rnatilgan bo'lsa, tirqish orqali salonga sovuq havo kiradi. Sozlash halqasini soat milining yo'nalishida burang




Tangalar uchun tutqich

Tangalar uchun tutqichni ochish uchun tutqichning eshikchasidagi dastani o'zingizga qaratib torting. Uni yopish uchun tutqichning qopqog'ini zich yoping.




Konsoldagi yukxona bo'limi

Konsoldagi yukxona bo'limini ochish uchun dastakni torting va uning qopqog'ini ko'taring. Konsoldagi yukxona bo'limini yopish uchun qopqoqni tushiring va dastakni tiqillamaguncha bosing.




O'rindiqlarning orqasidagi yuk uchun ilmoq

Ikkala oldingi o'rindiqlar ularning orqasida joylashgan yuk ilmoqlari bilan jihozlangan. Bu ilmoqlarga xaridlar solingan paketlarni yoki boshqa buyumlarni osish qulay bo'ladi.



Oldingi yo'lovchining o'rindig'idagi pastki lotok *


Oldingi yo'lovchining o'rindig'idagi pastki lotokdan foydalanish uchun lotokning uchini asboblar panelining tomoniga torting.



Quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak g'ilofi *

Haydovchining eshigi tepasida joylashgan quyoshdan himoya qiluvchi ko'zoynak g'ilofini ochish uchun, qopqog'ining ustki qismini pastga siljiting.

Qo'yib yuborilganidan keyin qopqoq avtomatik tarzda yopiladi.




Quyoshdan ximoya qiluvchi soyabonlar

Haydovchini va yo'lovchilarni quyoshning to'g'ri nurlaridan himoyalash uchun avtomobilda quyoshdan himoya qiluvchi yumshoq soyabonlar bor.

Quyoshdan himoya qiluvchi soyabonlarni tepaga, pastga va chetga burish mumkin.

Quyoshdan himoya qiluvchi soyabonning orqa tomonida aksessuar ko'zgusi va haydovchi guvoynomasi uchun tutqich joylashgan.




Kiyim ilgichli tutqich

Oldingi va orqa yo'lovchilar eshiklarining ustida tutqichlar joylashgan. Orqa eshiklarning tutqichlarida kiyim ilgichlar ko'zda tutilgan.

Tutqichdan foydalanish uchun uni pastga torting va ushlab turing. Qo'yib yuborilganidan keyin tutqich avtomatik tarzda tepaga qaytadi.

Yo'lovchilar avtomobildan chiqishda va o'tirishda tutqichlardan foydalanishi yoki dinamik tarzda harakatlenganda, ularni ushlab turishi mumkin.



⚠️ DIQQAT!

Tutqichlar ustida osilib turgan buyumlar haydovchi uchun ko'rish imkoniyatini yomonlashtirishi mumkin.

- Kiyim ilgich bilan jihozlanmagan tutqichlar ustiga biror-bir buyumlarni osish taqiqlanadi.

Haydovchining atrofni ko'rish imkoniyatining cheklanishi to'qnashuvga olib kelishi va jarohatlarga, Sizning avtomobilingizning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.

3

AVTOMOBILNI BOSHQARISH

- AVTOMOBILNI CHINIQTIRISH 3-2
- YONILG'I 3-4
- DVIGATELNING ISHLANGAN GAZLARI 3-6
- MEXANIK UZATMALAR QUTISI 3-6
- AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI 3-7
- ISHGA TUSHIRISH VA QO'LLASH 3-13
- TORMOZ TIZIMI 3-19
- ATROF MUHITNI HIMOYALASH 3-22

AVTOMOBILNI CHINIQTIRISH

Yuqori foydalanish xususiyatlarini saqlab qolish uchun, shuningdek avtomobilning xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun, birinchi ming kilometr yurish davomida, quyidagi tavsiyalarga amal qiling:

- Joyidan qo'zg'alganda, akselerator pedalini oxirigacha bosmang.
- Faqat dvigatelni qizdirishdan keyin harakatlanishni boshlang.
- Dvigatelning aylanishlarini o'ta ko'p oshirmang.
- Favqulodda vaziyatlardan tashqari, keskin tormozlashga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling.
- Bu tormoz tizimi detallarining bir-biriga normal moslashuvini ta'minlashga imkon beradi.
- Dvigatel shikastlanishining oldini olish uchun va yonilg'ini tejash maqsadida joyidan keskin qo'zg'alishga va tezlashishlarga, shuningdek yuqori tezlikda uzoq yurishga yo'l qo'ymang.
- Past uzatmalarda tezlashish paytida akselerator pedalini oxirigacha bosmang.
- Boshqa avtomobillarni yoki tirkamalarni shatakka olishga yo'l qo'yilmaydi.

Avtomobilni boshqarishda ehtiyot choralari

Avtomobilga o'tirishdan avval

OGOHLANTIRISH!

- Tashqi yoritish asboblarning, turli chiroqlar, odatdagi va avariya signalizatsiya tizimlarining chiroqlari sozligi va tozaligiga ishonch hosil qiling.
Ushbu ehtiyot choralarini jarohatlarga yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan avariya larning oldini olishga ko'maklashadi.
- Barcha oynalar, ichki va tashqi orqaga qarash ko'zgulari, faralarning va chiroqlarning sozligi va tozaligini tekshiring.
- Avtomobilning ostida oqib ketish izlarining borligini tekshiring.
- Dvigateldagi moyning sathini, shuningdek motor bo'limidagi boshqa suyuqliklar/moylarning sathini tekshiring.
- Shinalarni shikastlanishlari borligi va havo bosimining muvofiqligi, shuningdek protektorlarda begona jismlar borligi yuzasidan ko'zdan kechiring.
- Zarur bo'lganda, aniqlangan nuqsonlarni bartaraf eting.

Harakatlanishni boshlashdan avval

OGOHLANTIRISH!

Asboblardan panelida va orqa tokchadagi begona buyumlar atrofni ko'rish imkoniyatini qiyinlashtirishi mumkin.

- Asboblardan panelidan va orqa tokchadan barcha begona buyumlarni olib qo'ying.

Keskin tormozlash yoki to'qnashuv paytida ushbu buyumlar inersiya bilan harakatlanib, jarohatlar yetkazishi yoki avtomobilni shikastlashi mumkin.

- Avtomobilni boshqarishni boshlashdan avval, avtomobilning va uning jihozlarning asosiy tuzilishi va ishlash tamoyillarini, shuningdek xavfsiz foydalanish qoidalarini o'zlashtirib olish lozim.
- O'rindiqni o'zingiz uchun qulay holatiga o'rnatting.
- Ichki va tashqi ko'zgularning holatini sozlab oling.
- Barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqib olganligiga ishonch hosil qiling.
- O't oldirish yoqilganda signalizatorlarning ishlashini tekshiring.
- Barcha ko'rsatkichlarning ishlashi va ko'rsatmalarini tekshiring.
- To'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va tormoz tizimi nosozligining signalizatori o'chganligiga ishonch hosil qiling.

▲ OGOHLANTIRISH!

- Harakatlanishni boshlashdan avval barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqib olganligiga ishonch hosil qiling.
- Barcha oynalar, orqaga qarash ko'zgulari, yoritish chiroqlarining va boshqa chiroqlarning sozligi va tozaligiga ishonch hosil qiling.

Avtomobilni boshqarish paytida

Avtomobilning haydovchisi sifatida Siz o'z xavfsizligingiz, shuningdek o'z yo'lovchilaringiz va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilarining xavfsizligi uchun javobgar bo'lasiz.

Noxush oqibatlarga yo'l qo'ymaslik uchun Siz o'z diqqatingizni yig'ib, avtomobilni boshqarishga to'liq qaratishingiz lozim.

Avtomobil avariylarining ko'pchiligi haydovchining e'tiborsizligi yoki diqqatining chalg'ishi tufayli yuz beradi. Harakatlanishi paytida haydovchining butun diqqati yo'lga, yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga va boshqa tegishli obyektlarga qaratilishi kerak.

Bugungi kunda harakatlanish paytida haydovchilarning diqqati chalg'ishining eng ko'p tarqalgan sabablardan biri sifatida mobil telefonlardan foydalanish tan olingan. Tadqiqotlar harakatlanish paytida mobil telefonlardan foydalanish yo'l hodisalarining xavfini oshirishini ko'rsatdi.

Kamida bitta ilmiy asoslangan tadqiqot, mobil aloqa tizimlaridan – ham oddiy, ham baland ovozli aloqa moslamalari (hands-free) bilan jihozlangan tizimlar - foydalanish to'qnashuvning xavfini **400%** ga oshirishini ko'rsatdi.

Telefonlarning boshqa turlari, radiouzatgichlar va boshqa elektron moslamalardan, masalan, kompyuterlar, organayzerlar, elektron o'yinlar, videomoslamalar, GPS va boshqa navigatsiya moslamalaridan foydalanish to'qnashuvning xavfini shunga teng darajada oshiradi.

Biz avtomobilni boshqarish paytida biror-bir moslamalardan foydalanmaslikni tavsiya etamiz.

Ko'pgina davlatlarda avtomobilni boshqarish paytida baland ovozli aloqa moslamalari bilan jihozlanmagan mobil telefonlardan foydalanishni taqiqlaydigan qonunchilik me'yorlari qabul qilingan yoki ko'rib chiqish bosqichida turibdi.

▲ OGOHLANTIRISH!

Avtomobilni boshqarish paytida diqqatning chalg'ishiga yo'l qo'ymang yoki uni imkoni boricha kamaytiring.

Quyidagi harakatlar diqqatni chalg'itadi:

▲ OGOHLANTIRISH!

- Uyali yoki avtomobil telefoni bo'yicha chaqiruvlarga javob berish;
- Sizning uyali yoki avtomobil telefoni bo'yicha chaqiruvlaringiz;
- O'rindiqni, rul g'ildiragini va ko'zgularni sozlash;
- Biror-bir elektron moslamalardan foydalanish;
- Xaritaga yoki boshqa axborot materiallariga murojaat qilish;
- Xavfsizlik kamarini yechib olish va taqish;
- O'tish (yurish) uchun haq to'lash joyiga yaqinlashganda pulni qidirish;
- Avtomobilni boshqarish xavfsizligini ta'minlash vazifasidan diqqatni chalg'ituvchi boshqa harakatlar.

Bunday harakatlar jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan yo'l hodisasining xavfini ancha oshiradi.

Imkoni boricha bunday harakatlarga yo'l qo'ymang va ularni harakatlanishni boshlashdan avval yoki avtomobilni xavfsiz joyda to'xtatgandan keyin amalga oshiring.

YONILG'I**Tavsiya etiladigan yonilg'i**

Oktan soni **91** bo'lgan, tegishli GOST ga muvofiq bo'lgan etillashtirilmagan benzindan foydalaning.

Yonilg'ining sifati va unda bo'lgan qo'shimchalar dvigatelning quvvatiga, avtomobilning dinamikasiga va dvigatelning zaxirasi va imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Past oktan soni bo'lgan yonilg'i dvigatelda detonatsiya yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

- Oktan soni 91 dan past bo'lgan yonilg'idan foydalanish dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Etillashtirilgan yonilg'idan foydalanish ishlangan gazlarni chiqarish tizimining shikastlanishiga va kafolatdan foydalanish huquqidan mahrum bo'lishiga olib keladi.

ESLATMA

Etillashtirilgan benzindan tasodifan foydalanishning oldini olish uchun Sizning avtomobilingizda etillashtirilgan benzin uchun mo'ljallangan yonilg'i quyish pistoleti uchining diametridan kichikroq diametrdagi bo'lgan yonilg'i quyish bakining og'zi ko'zda tutilgan.

Metanoldan (metil spirtidan) foydalanish mumkin emas

Tarkibida metanol (yog'och spirti) bo'lgan yonilg'idan avtomobilga quyish uchun foydalanish taqiqlanadi.

Bunday yonilg'idan foydalanish avtomobilning foydalanish xususiyatlari yomonlashuviga va yonilg'ining ta'minoti tizimining komponentlari shikastlanishiga olib keladi.

⚠️ DIQQAT!

Metanoldan foydalanish yonilg'ining ta'minoti tizimini shikastlashi mumkin. Avtomobildan foydalanish qoidalarining bunday buzilishi kafolatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Chet el davlatlarida foydalanish


- Avtomobilda boshqa davlatga borganda:
- Ro'yxatdan o'tish va sug'urtalashga oid barcha me'yorlarga amal qiling.
- Mos keladigan yonilg'ining borligiga ishonch hosil qiling.

Yonilg'i bakiga yonilg'ini quyish

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Haydovchi o'rindig'ining chap oldingi tomonida joylashgan yonilg'i bakining ustki qopqog'ining qulfini ochish dastagini tepaga torting.

ESLATMA

Agar sovuq paytida yonilg'i bakining ustki qopqog'i ochilmasa, qopqoqni sal taqillatib ko'ring. Keyin uni yana bir marta ochib ko'ring.



3. Yonilg'i quyish og'zining buraladigan qopqog'ini soat miliga qarshi yo'nalishda sekin burang.

Shivillagan ovoz chiqqan holda, qopqoqni to'liq burab ochishdan avval, uning tugashini kutib turing. Yonilg'i bakining ustki qopqog'i avtomobilning yon tomonida, orqa o'ng panelida joylashgan.

4. Qopqoqni yechib oling. Qopqoq avtomobilga mahkamlangan. Qopqoqni ustki qopqog'ining ichki tomonida ko'zda tutilgan tutqichning ichiga joylashtiring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Yonilg'ining bug'lari oson yonib ketadi.

- Benzinni alanga manbalaridan, uchqunlar va yonib turgan materiallardan uzoqroqda ushlab turing.
- Dvigatelni o'chiring.

Benzin bug'larining yonib ketishi og'ir kuyishlarga va avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Benzinning avtomobilning lak-bo'yoq qoplamiga tegishiga yo'l qo'ymang.

- Benzin avtomobilning yuzasiga tekanda imkoni boricha tezroq ushbu joyni toza sovuq suv bilan yuving. Benzin lak-bo'yoq qoplamiga shikast yetkazishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

ushbu tegib turish uzilmasligini ta'minlab turing.

- Benzinni alanga manbalaridan, uchqunlar va yonib turgan materiallardan uzoqroqda ushlab turing.

Bochkalar va kanistralardan yonilg'ini quyish


⚠ OGOHLANTIRISH!

Xavfisizlik maqsadida kanistralar, nasoslar va naylar tegishli tarzda yerga tutashtirilgan bo'lishi lozim.

Statik elektr razryadlari benzin bug'larining yonib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu kuyishlarga va avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Albatta quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:

- Yonilg'i bakiga yonilg'i quyish paytida yerga tutashtirilgan nasoslardan va ichida yerga tutashtirish bo'lgan naylardan foydalaning.
- Kanistradan avtomobilda yonilg'i quyish taqiqlanadi - kanistra avtomobildan tashqarida turishi kerak.
- Yonilg'ini uzatishdan avval yonilg'i quyish uchi va kanistraning ichki yuzasi bir-biriga tegib turganligiga ishonch hosil qiling. Kanistradan yonilg'i quyish tugaguncha



5. Yonilg'ini quyishdan keyin qopqoqni o'z joyiga o'rnatng. Qopqoqni tiqillamaguncha, soat milining yo'nalishida burab yoping.

6. Yonilg'i balking ustki qopqog'ini zich yoping.

DVIGATELNING ISHLANGAN GAZLARI

Dvigatelning ishlangan gazlari tarkibida rangi va hidi bo'lmagan uglerod oksid (**CO**) bo'ladi. CO dan uzoq vaqt davomida nafas olish hushidan ketishga va hatto o'lim oqibatiga olib keladi.

Ishlangan gazlar salonga kirib qolishidan shubha qilsangiz, zudlik bilan avtomobilni tekshirish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

CO salonga kirib qolishining oldini olish uchun, ishlangan gazlarni chiqarish tizimini va avtomobilning kuzovini quyidagi tavsiyalarga muvofiq tekshiring:

- Har bir moy almashtirish paytida.
- Ishlangan gazlarni chiqarish tizimida begona shovqinlar paydo bo'lganda.
- Ishlangan gazlarni chiqarish tizimi, avtomobil kuzovining tagi yoki orqa qismining shikastlanishi yoki korroziyasi yuzaga kelganda.
- Maydoni cheklangan joylarda va garaj kabi atrofi yopiq joylarda dvigatelni ishga tushirish taqiqlanadi. Ochiq havoga chiqing.
- Dvigateli ishlayotgan, joyida turgan avtomobilda uzoq qolmang.
- Avtomobil ochiq joyda to'xtatib turilganda, salonga tashqaridan havo uzatish uchun shamollatishni toza havo rejimiga o'tkazing. («RESIRKULYATSIYA» bo'limiga qarang)


⚠ OGOHLANTIRISH!

- Kapotning yoki yukxonaning qopqog'i ochiq bo'lganda yurish taqiqlanadi. Avtomobildan bunday foydalanish zarur bo'lganda, oynalarni yoping, shamollatish tizimini toza havo rejimiga o'tkazing va shamollatgichni maksimal aylanish soni bilan yoqing. («RESIRKULYATSIYA» bo'limiga qarang)

MEXANIK UZATMALAR QUTISI

Uzatmani o'tkazish uchun ilashish muftasining pedalini oxirigacha bosing, uzatmalarni o'zgartirish dastagini kerakli uzatma holatiga o'tkazing va ilashish muftasini sekin qo'yib yuboring.

Orqaga yurish uzatmasiga o'tkazish uchun avval avtomobilni to'xtatish, keyin orqaga yurish uzatmasini bloklash halqasini tepaga tortish va ayni paytda uzatmalarni o'zgartirish dastagini orqaga yurish uzatmasi holatiga o'tkazish kerak bo'ladi.

**⚠ DIQQAT!**

- Oldingi va orqaga yurish uzatmalari orasida o'tishdan avval albatta avtomobilni to'liq to'xtating. Harakatlanayotgan avtomobilda oldingi va orqaga yurish uzatmalari orasida o'tish uzatmalar qutisining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI

▲ **DIQQAT!**


- Harakatlanishi paytida zaruriyat bo'lmaganda ilashish muftasining pedalida oyog'ingizni ushlab turmang.
Bu ilashish muftasining komponentlari tezroq eskirishiga olib kelishi mumkin.

Avtomatik uzatmalar qutisi ham qo'lda o'zgartirish rejimida, ham avtomatik uzatmalarni o'zgartirish dastagi rejimida ishlashi mumkin.

Uzatmalar qutisining displeyi

Rejim yoki tanlangan uzatma uzatmalar qutisining displeyida ko'rsatiladi.

Selektorning dastagi



P = To'xtab turish uchun holati, g'ildiraklar bloklangan, faqat to'xtab turish tormozi yoqilgan, bir joyda turgan avtomobilda o'rnatish ruxsat etiladi

R = Orqaga yurish uzatmasi; bu uzatmani, faqat agar avtomobil tinch turgan bo'lsa, yoqish mumkin.

N = Neytral holati

D = Avtomatik rejim, barcha uzatmalar bilan
M = Qo'l rejimi.

Uzatmalarining ayrim diapazonlari o'rtasida o'tish uchun, o'zgartirish dastagining yon tomonidagi blokdan chiqarish tugmasini bosish lozim.


Dastakni **P** holatidan bo'shatish uchun, tormoz pedalini bosib va fiksatorning tugmasini bosib.

P, **M** va **R** holatlariga o'tish uchun, fiksatorning tugmasini bosib.

Dvigatelni ishga tushirish uchun, selektorning dastagi **P** yoki **N** holatida bo'lishi kerak.


Siz uzatmalar selektorini o'tkazgan paytingizda, akselerator pedalini bosmang. Hech qachon bir vaqtning o'zida akselerator pedalini va tormozni bosmang.

Uzatma yoqilganda, tormoz pedalini qo'yib yuborishdan keyin avtomobil sekin harakatlanib boshlaydi.



⚠ DIQQAT!

Avtomobilning harakatlanishi paytida neytral uzatmaga o'tmang. Bu uzatmalar qutisining shikastlanishiga olib kelishi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.

Qo'l rejimi

Uzatmalarni o'zgartirish dastagini **D** holatiga o'tkazing.

Uzatmalarni o'zgartirish dastagini haydovchi o'tirgan tomonga taqang.

TEPAGA (+): bitta uzatmaga yuqoriroq o'tish.

PASTGA (-): bitta uzatmaga pastroq o'tish.

Avtomobilning sozligini va xavfsizligini ta'minlash uchun, uzatmalarni o'zgartirish

dastagining holatini o'zgartirishda, tizim ba'zi uzatmalarga o'tkazmasligi mumkin.

Qo'l rejimida avtomobil sekinlashganda, pastroq uzatmalarga o'tish avtomatik tarzda bajariladi. Avtomobil to'xtaganda, 1-uzatmaga avtomatik o'tish amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarda dvigatelning aylanish momentini oshirish uchun, ba'zan akselerator pedalini to'liq bosganda pastki uzatmaga o'tish bajariladi. Shuningdek, agar dvigatelning aylanish tezligi maksimal yo'l qo'yiladigan qiymatiga yetganda, yuqoriroq uzatmaga o'tkazilishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Uzatmalarni yo'l sharoitiga muvofiq to'g'ri o'tkazing.

Dvigatel bilan tormozlash

Nishabli yo'lda pastga harakatlanish paytida dvigatel bilan tormozlash usulidan foydalanish uchun, pastroq uzatmani tanlash kerak.

Avtomobilni chayqatish

Avtomobilni faqat u qumda, loyda yoki qorda joyida sirpanib qolgan bo'lsa, chayqatish mumkin. Uzatmalarni o'zgartirish dastagini

navbati bilan **D** va **R** holatlariga o'tkazing. Dvigatelning o'ta yuqori aylanish tezligi bilan ishlashiga yo'l qo'ymang.

To'xtab turish

To'xtab turish tormozini yoqing, selektorni **P** holatiga o'tkazing va o't oldirish kalitini chiqarib oling.


Elektron boshqarish dasturlari

- Sovuq dvigatelni ishga tushirishdan keyin, ish haroratiga yetish dasturi katalitik neytralizatori talab etiladigan haroratigacha tez yetkazish uchun, dvigatelning aylanish tezligini oshiradi.
- Neytral holatiga avtomatik o'tish dasturi avtomatik tarzda oldinga yurish uzatmasi yoqilgan, joyida turgan avtomobilning dvigateli harakatsiz ishlashini yoqadi.

Pastroq uzatmaga majburiy o'tkazish

Akselerator pedaliga to'liq bosilganda, dvigatelning aylanish tezligiga qarab, uzatmalar qutisi pastroq uzatmaga o'tadi.

Nosozliklar


Uzilish bo'lganda, nosozlikning  indikatorini yonadi. Uzatmalar qutisi ma'lum uzatmada bloklanadi va avtomatik rejimda ham, qo'l rejimida ham o'tkazilmaydi. Nosozlikning sababini servis markazida bartarafeting.

Elektr ta'minotning uzilishi


Elektr energiyasini uzatish vaqtincha to'xtatilganda, uzatmalarni o'zgartirish dastagini **P** holatidan chiqarish mumkin emas. O't oldirish kalitini qulfdan chiqarib olish mumkin emas.

Agar akkumulyator batareyasi zaryadsizlangan bo'lsa, dvigatelni «boshqa avtomobildan tutatib» ishga tushiring. Qo'shimcha AKBdan ishga tushirish ⇨ 6-6. Agar akkumulyator batareyasi nosozlikning sababi bo'lmasa, uzatmalarni o'zgartirish dastagini bo'shatish va kalitni o't oldirish qulfdan chiqarib olish kerak.


Uzatmalarni o'zgartirish dastagini blokdan chiqarish



1. To'xtab turish tormozini yoqing.



2. Selektorning dastagidan o'ng tomondagi qopqoqni oching.



3. Dastakni blokdan chiqarish uchun o'vertkani tirqishga kiriting, selektorning dastagini **P** holatidan chiqaring va uni **N** holatiga o'tkazing.
4. Qopqoqni yoping.

Joyidan qo'zg'alish


1. Dvigatelni isitishdan keyin, tormoz pedalini bosishni davom etib, uzatmalarni o'tkazish dastagini harakat rejimlaridan birining diapazoniga o'tkazing.

DIQQAT!

- Avtomobilning harakatlanishi paytida D4 yoki D (oldinga yurish) va R (orqaga yurish) yoki P (to'xtab turish) holatlari orasida o'tmang.

Bu uzatmalar qutisining shikastlanishiga olib keladi va jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.


2. To'xtab turish tormozini va tormoz pedalini qo'yib yuboring.
3. Joyidan qo'zg'alish uchun, akselerator pedalini sekin bosing.



Qishki rejim

Muz qoplangan va sirpanchiq yo'lda harakatni boshlaganda yoki harakatlanishda qiyinchilik yuzaga kelganda, qishki rejimdan foydalaning. Ushbu rejim sirpanishni va yo'l qoplamasiga yopishish yo'qolishini kamaytiradi.

Qishki rejimni ishlatish uchun konsoldagi ushbu funksiyaga o'tish tugmasini bosing. Dvigatel uchinchi holatidan harakatni boshlaydi. Qishki rejim indikatorini asboblar panelida yonib turadi. «Qishki rejim signalizatori» bo'limiga qarang. Normal rejimga qaytish uchun, tugmani yana bosing. Indikator yonishi to'xtaydi.



Avtomatik uzatmalar qutisini o'tkazishning avariya dasturi

Avtomatik uzatmalar qutisi nosoz bo'lgan holda nosozligining signalizatori (**MIL**) yonadi. «NOSOZLIK SIGNALIZATORI» bo'limiga qarang.

Bu holda avtomatik uzatmalarni o'zgartirish o'chiriladi yoki o'tkazish odatdagidan qattiqroq amalga oshadi.

Imkoni boricha tezroq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun avtomobilni vakolatlangan dilerga yetkazing.

Avtomatik uzatmalar qutisidagi jiddiy nosozlik uzatmalarni o'zgartirishga imkon bermaydi.


Agar dvigatelni ishga tushirishdan keyin nosozlik indikatorini **MIL** yonib tursa, uzatmalar qutisi esa **P** holatidan o'tkazilmasa, quyidagilarni bajaring:

1. O't oldirishni o'chiring.
2. Kalitni o't oldirish qulfidan chiqarib oling.
3. Kalitni markaziy konsoldagi yoqilgan uzatmaning indikatorini oldidagi uzatmalarni o'tkazish dastagini blokdan chiqarish tiriqishiga ehtiyot bo'lib kiriting.
4. Uzatmalarni o'tkazish dastagini neytral holatiga o'rnatib.
5. Kalitni o't oldirish qulfiga kiriting va dvigatelni ishga tushiring.
6. Uzatmalarni o'tkazish dastagini kerakli holatiga o'tkazing va avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun avtomobilni vakolatlangan dilerga yetkazing.

Boshqarishga oid tavsiyalar

«KICK DOWN» rejimi – past uzatmani yoqib, maksimal tezlashish (avtomatik uzatmalar qutisi)

Maksimal tezlashish uchun akselerator pedalini oxirigacha bosing va shunday holatda ushlab turing. Bunda avtomatik uzatmalar qutisi pastroq uzatmaga o'tkaziladi, va quvvatning oshishini ta'minlaydi. Kerakli tezlikkacha tezlashganidan keyin akselerator pedalini qo'yib yuboring - avtomatik uzatmalar qutisi yuqoriroq uzatmaga o'tadi.



Dvigatel bilan tormozlash

Uzoq pastga tushish paytida, harakatlanishda dvigatelning kompressiyasi bilan tormozlash usulidan foydalanish uchun, qo'l rejimini tanlang va ketma-ket tartibda pastroq uzatmaga o'ting.

OGOHLANTIRISH!

- Mexanik uzatmalar qutisida uzatmalarni birato'la ikki yoki undan ortiq uzatmaga pasaytirmang.

Bu uzatmalar qutisining shikastlanishi yoki boshqarish imkoniyatining yo'qolishi, shuningdek ehtimoliy jarohatlarning oldini olishga imkon beradi.

ESLATMA

Uzoq pastga tushishda dvigatel bilan tormozlash usulidan foydalanish tormoz mexanizmlarining xizmat qilish muddatini uzaytirishga imkon beradi.

Avtomobilni to'xtatish

Avtomatik uzatmalar qutisi uchun uzatmalarni o'tkazish dastagini dvigatel ishlayotganda tanlangan diapazonda qoldirish mumkin.

Nishabli yo'lda to'xtaganda, to'xtab turish tormozini ishga tushiring yoki tormoz pedalini bosing. Avtomobilni akselerator pedaliga bosish orqali joyida ushlab turmang.

Uzoq to'xtab turganda, masalan, yo'l tiqilinch bo'lganda yoki temir yo'ldan o'tish joyida, dvigatelni o'chiring. Avtomobil to'xtatib qoldirilganda, uzatmalarni o'tkazish dastagini R holatiga (avtomatik uzatmalar qutisi) yoki neytral holatiga (mexanik uzatmalar qutisi) o'tkazing, to'xtab turish tormozini yoqing va kalitni o't oldirish qulfidan chiqarib oling.

Avtomobillarni to'xtatish joyiga qo'yish

Tormoz pedalini bosib, to'xtab turish tormozini ishonchli mahkamlang.

Mexanik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobil uchun:

1. Avtomobilni tekis gorizontaal maydonchada to'xtating va uzatmalarni o'zgartirish dastagini neytral holatiga o'tkazing.

2. Avtomobil pastga tushish joyida to'xtaganda, uzatmalarni o'tkazish dastagini orqaga yurish uzatmasi holatiga o'rnatib.

3. Avtomobil tepaga ko'tarilish joyida to'xtaganda, uzatmalarni o'tkazish dastagini birinchi uzatma holatiga o'rnatib.

Avtomatik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobil uchun:

1. Uzatmalarni o'tkazish dastagini **R** holatiga o'tkazing.

2. O't oldirish kalitini **LOCK** holatiga burang va kalitni chiqarib oling.

«TO'XTAB TURISH TORMOZI» bo'limiga qarang.

OGOHLANTIRISH!

Nishabli to'xtash joyida avtomobilning ko'zda tutilmagan siljib ketishining oldini olish uchun oldingi g'ildiraklarni to'g'riga harakatlanish uchun holatida qoldirmang.

- Agar avtomobil pastga tushish tomoniga qaratib qo'yilgan bo'lsa, g'ildiraklarni yo'ldan chetga qaratib burab qoldiring.
- Agar avtomobil ko'tarilish tomoniga qaratib qo'yilgan bo'lsa, g'ildiraklarni yo'lga qaratib burab qoldiring va to'xtab turish tormozini yoqing.

Tejamkor boshqarishga oid tavsiyalar

Yonilg'i tejamkorligi, asosan, boshqarish uslubiga bog'liq bo'ladi.

Bir litr yonilg'i bilan o'tish mumkin bo'lgan masofa, mashinadan foydalanish uslubiga, safarning yo'nalishiga va vaqtiga bog'liq bo'ladi. Maksimal yonilg'i tejamkorligini ta'minlash uchun:

- Avtomobilni sekin tezlashtiring.
- Dvigatelning ortiqcha harakatsiz ishlashiga yo'l qo'ymang.
- Dvigatelning tegishli sozlanishini nazorat qilib turing.
- Dvigatelning aylanishlari sonini me'yoridan oshirmang.
- Havo konditsioneridan faqat zarur bo'lganda foydalaning.
- Notekis yo'ldan yurganda tezlikni kamaytiring.
- Shinalarda tavsiya etilgan havo bosimini tutib turing.
- Keskin tormozlashda to'qnashuvning oldini olish uchun, qolgan avtomobillargacha xavfsiz masofani saqlab turing. Bu shuningdek tormoz kolodkalarining va nakladkalarining xizmat qilish muddatini uzaytirishga imkon beradi.
- Keraksiz yuklarni olib yurmang.
- Harakatlanish paytida, zarurat bo'lmaganda tormoz pedalida oyog'ingizni ushlab turmang.
- Texnik xizmat ko'rsatish qo'llanmasida keltirilgan avtomobilning texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga, va ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan texnik shartlarga amal qiling.

Xavfli harakatlanish sharoitlari

Suv, qor, muz, loy, qum va boshqalar borligi bilan bog'liq bo'lgan xavfli harakatlanish sharoitlarida, quyidagi qoidalarga amal qiling:

- Avtomobilning tezligini kamaytiring va tormozlash uchun masofani oshirib, o'ta ehtiyotkor bo'ling.
 - Tormozlash paytida, yo'nalishni o'zgartirishda va tezlashishda harakat yo'lini va yo'nalishini keskin o'zgartirmang.
 - ABT siz avtomobil uchun: avtomobil to'xtamaguncha, tormoz pedalini yengil kuch bilan vaqt-vaqti bilan (bosib-qo'yib yuborib) bosing.
 - ABT bo'lgan avtomobil uchun: harakatlanish uchun to'siqlar paydo bo'lganda, tormoz pedalini qattiq kuch bilan bosing.
 - Agar avtomobil qorda, loyda yoki qumda tiqilib qolgan bo'lsa, oldingi g'ildiraklarning joyida sirpanishining oldini olish uchun ikkinchi uzatmaga o'tkazing.
 - Qor, muz yoki loy bilan qoplangan yo'lda g'ildiraklar joyida sirpanishi holatida, oldingi g'ildiraklarning yo'l qoplamasiga yopishishini yaxshilash uchun qum, sirg'alishga qarshi zanjirlar yoki boshqa sirpanchiq bo'lmagan materiallardan foydalaning.
- «TIQILIB QOLGAN AVTOMOBILNI CHAYQATIB CHIQARISH» bo'limiga qarang.

Akvaplanerlash

Nam yo'l ustida akvaplanerlashda (suvli yuza ustidan sirpanishda) yo'lining yuzasi va

shinalarning orasida yopishish yo'qligi tufayli avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qoladi. Akvaplanerlash yuzaga kelishi yo'l sharoitlariga, protektorlar holatiga va shinalardagi havo bosimiga, shuningdek avtomobilning tezligiga bog'liq bo'ladi. Akvaplanerlash juda xavflidir.

Akvaplanerlashning oldini olishning eng yaxshi usuli - bu avtomobilning tezligini kamaytirish va nam yo'l ustida mashinadan foydalanishda diqqatini to'plab yurishdir.

Chuqur suv bo'lgan joylarda avtomobilni boshqarish

Suv ustidan o'tishdan avval ko'lmak yoki turib qolgan suv unchalik chuqur emasligiga ishonch hosil qilish kerak. Ko'lmak ustidan o'ta tez o'tganda, havo kiritish nayi orqali dvigatelga suv kirib qolishi va jiddiy shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

▲ DIQQAT!

Suv ustidan o'tishdan avval quyidagi ehtiyot choralariga qat'iy rioya qiling:

- Chuqurligi avtomobilning kuzovi tagidan ko'proq bo'lgan suvning ustidan o'tish taqiqlanadi.
- Imkoni boricha sekinroq, pastki uzatmaga o'tib va dvigatelning yuqori aylanishlari sonini tutib turgan holda yuring.

ISHGA TUSHIRISH VA QO`LLASH

Ko`zgular

Ko`zgularni sozlash

Tashqi orqaga qarash ko'zgulari


Tashqi orqaga qarash ko'zgularini avtomobilning ikkala yon tomoni va avtomobilning orqasida yo'lning ikkala tomoni ko'rinadigan qilib sozlab oling.

Har bir eshikning tashqi qoplamasidagi sozlash dastakchalari yordamida tashqi orqaga qarash ko'zgularini tepaga-pastga va o'ngga-chapga sozlash mumkin.

Avtomobilning ikkala tomonidagi tashqi ko'zgulardan qavariq yuzaga ega va ularda quyidagi yozuvi bo'lgan yoriqlar bor:

OBJECTS IN MIRROR ARE CLOSER THAN THEY APPEAR. (KO'ZGUDA AKS ETTIRILADIGAN OBYEKTLAR HAQIQATDAGI MASOFASIDAN UZOQROQ KO'RINADI.)

Avtomobilning ikkala tomonidagi tashqi ko'zgulardan orqa ko'rish imkoniyatini kengaytirish uchun foydalaning.



Ichki ko'zgudan yon orqaga qarash ko'zgularida aks ettiriladigan obyektlarning o'lchamlarini va ulargacha bo'lgan masofani aniqlash uchun foydalaning.

Ikkala (qavariq) ko'zgudan foydalanganda, avtomobilning orqasidagi obyektlarning o'lchamlarini va ulargacha bo'lgan masofani noto'g'ri baholash mumkin

⚠ OGOHLANTIRISH!

• Albatta ko'zgularni tegishli sozlashni nazorat qiling, va boshqarish paytida atrofda obyektlarni va avtomobillarni ko'rish imkoniyati uchun ulardan foydalaning.

Sizning avtomobilingiz va boshqa ob'ektlar orasidagi masofani noto'g'ri baholash yo'l-transport hodisasiga olib kelishi va Sizning avtomobilingizning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga, shuningdek jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Noto'g'ri parvarish qilish ko'zgularning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Ko'zguning yuzasidan muzni ko'chirishga va qirishga urinmang.
- Agar muz yoki boshqa material ko'zguning harakatlanishiga to'sqinlik qilsa, uni sozlashda qattiq kuch ishlatmang.


Muzni ketkazish uchun uning yuzasiga muzni erituvchi modda bilan yoki issiq havo oqimi bilan ishlov bering.

Shikastlangan ko'zgulardan ko'rish imkoniyatini yomonlashtirib, to'qnashuvning xavfini oshiradi.

Tashqi orqaga qarash ko'zgulari orqaga taxlab, ularni kuzovning yon tomonlariga yopishtirish mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Tashqi orqaga qarash ko'zgulari taxlangan avtomobildan foydalanish taqiqlanadi. Bu ko'rish imkoniyatini yomonlashtirib, to'qnashuvga olib kelishi mumkin.




Tashqi elektr orqaga qarash ko'zgulari *

Haydovchi eshigining tashqi qoplamasidagi sozlovchi yoqish moslamasi yordamida tashqi orqaga qarash ko'zguna tepaga-pastga va o'ngga-chapga sozlash mumkin. Ko'zguna sozlash o'tildirish yoqilganda bajariladi.

1. Sozlash uchun ko'zguni tanlash yoqish moslamasining tugmasini chap ko'zgu uchun «L» holatiga va o'z ko'zgu uchun «R» - holatiga o'tkazish orqali bajariladi.

2. Sozlash panelining tegishli tomonlarini bosib, tanlangan ko'zguning holatini tepaga-pastga va o'ngga-chapga sozlab oling.



⚠ OGOHLANTIRISH!

• Albatta ko'zguna tegishli sozlashni nazorat qiling, va boshqarish paytida atrofdagi obyektlarni va avtomobillarni ko'rish imkoniyati uchun ulardan foydalaning.

Sizning avtomobilingiz va boshqa obyektlar orasidagi masofani noto'g'ri baholash yo'l-transport hodisasiga olib kelishi va Sizning avtomobilingizning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga, shuningdek jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Noto'g'ri parvarish qilish ko'zguning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Ko'zguning yuzasidan muzni ko'chirishga va qirishga urinmang.
- Agar muz yoki boshqa material ko'zguning harakatlanishiga to'sqinlik qilsa, uni sozlashda qattiq kuch ishlatmang.
- Muzni ketkazish uchun uning yuzasiga muzni erituvchi modda bilan yoki issiq havo oqimi bilan ishlov bering.

Shikastlangan ko'zguna, ko'rish imkoniyatini yomonlashtirib, to'qnashuvning xavfini oshiradi.


Tashqi elektr yig'iladigan orqaga qarash ko'zgulari *

Yon orqaga qarash ko'zguni avtomobilning yon tomoniga yaqinlashtirib taxlash uchun asboblardan panelida elektr ko'zguning tegishli tugmasini bosing. Ushbu jarayonni bajarish uchun dvigatelni ishga tushirish kerak. Yon ko'zguni boshlang'ich holatiga qaytarish uchun ushbu tugmani yana bosing.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Avtomobilni boshqarish paytida orqaga qarash ko'zgularini taxlash tugmasini bosmang.
- Sizning avtomobilingiz orqaga qarash ko'zgulari taxlangan bo'lsa, uni boshqarib yurmang.

Yuqoridagi tavsiyalarni bajarmaslik to'qnashuvga olib kelishi mumkin.



Ichki orqaga qarash ko'zgusi

Ichki orqaga qarash ko'zgusini tepaga-pastga va o'ngga-chapga sozlash qo'lda bajariladi.

Kun-tunning qorong'i va yorug' paytida yurish uchun ichki orqaga qarash ko'zgusining holatini o'zgartirish sozlash dastakchasi yordamida bajariladi.


Bu haydovchining orqada kelayotgan avtomobillarning faralari tufayli ko'zining qamashtirilishi darajasini kamaytiradi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Ko'zguni tungi holatiga o'rnatishda ko'rish imkoniyatining aniqligi yomonlashishi mumkin.

- Ichki orqaga qarash ko'zgulari tungi holatida bo'lganda, ulardan foydalanganda ehtiyot bo'ling.

Orqa ko'rish imkoniyatining yaxshi bo'lmasligi to'qnashuvga olib kelishi va Sizning avtomobilingizning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga, shuningdek jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.



Rul g'ildiragini sozlash

⚠ OGOHLANTIRISH!

Avtomobilning harakatlanishi paytida haydovchi avtomobilning ustidan to'liq nazoratni saqlab turishi shart.

- Avtomobilning harakatlanishi paytida rul g'ildiragining holatini sozlash taqiqlanadi.

Avtomobilning harakatlanishi paytida rul g'ildiragining holatini sozlash avtomobilni boshqarish imkoni yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Rul g'ildiragini sozlashni faqat avtomobil to'xtatilganda va rul g'ildiragining fiksatori qo'yib yuborilganda amalga oshiring.


Rul g'ildiragini sozlash rul kolonkasi ostidagi dastakning yordamida bajariladi.

Rul g'ildiragining holatini sozlash uchun quyidagilarni bajaring:

1. Rul kolonkasi ostidagi dastakni asboblar panelining tomoniga torting, rul kolonkasining holatini sozlang.
2. Rul g'ildiragini talab etiladigan holatida mahkamlash uchun dastakni torting.
3. Rul g'ildiragining ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

▲ DIQQAT!

- Rul g'ildiragi eng yuqori holatida bo'lgan avtomobildan foydalanish taqiqlanadi. Bu holatidan faqat avtomobildan chiqish va unga o'tirishni osonlashtirish uchun foydalaning.




O't oldirishni yoqish moslamasi

O't oldirishni yoqish moslamasi rul kolonkasining o'ng tomonida joylashgan va quyidagi holatlariga ega: LOCK, ACC, ON va START.

• LOCK holati

Rul g'ildiragini bloklash uchun o't oldirish kalitini chiqarib oling va g'ildiragini bloklanguncha burang.

Blokdn chiqarishda kalitning buralishini osonlashtirish uchun rul g'ildiragini o'nggachga sal siljiting va kalitni ACC holatiga burang.



• ACC holati

Dvigatelni rul g'ildiragini bloklamagan holda ham, o't oldirish kalitini ACC holatiga burab, o'chirish mumkin. Kalitni ACC holatidan LOCK holatiga burash uchun kalitga sal bosing va LOCK holatiga burang.

O't oldirish kalitining ACC holatida ba'zi elektr moslamalar, masalan, radiopriyomnik va sigaret tutatgich ishlashi mumkin.

▲ DIQQAT!

- Kalitni ACC holatida 20 daqiqadan ortiqroq qoldirmang. Bu akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga olib keladi.

ON holati

O't oldirish tizimining ta'minotini va elektr moslamalarni yoqish uchun mo'ljallangan.

▲ DIQQAT!

- Kalitni dvigatel ishlamaganda ON holatida 20 daqiqadan ortiqroq qoldirmang. Bu akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga olib keladi.

• START holati

Dvigatelni ishga tushirish uchun mo'ljallangan. Dvigatelni ishga tushirishdan keyin kalitni qo'yib yuboring. U avtomatik tarzda ON holatiga qaytadi.

Kalitni START holatiga burashdan avval dvigatel o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.

▲ OGOHLANTIRISH!

• Harakatlanish paytida o't oldirish kalitini OFF holatiga burash taqiqlanadi.
Bu haydovchining avtomobilni boshqarish imkonini yo'qotishiga va tormoz kuchaytirgichining o'chirilishiga olib kelishi mumkin, hamda avtomobilning shikastlanishiga, jarohatlarga yoki hatto o'limga sabab bo'lishi mumkin.

▲ OGOHLANTIRISH!

• O't oldirish qulfiga rul g'ildiragi orqali qo'lingizni uzatmang.
Rul g'ildiragi to'satdan burilib ketishi mumkin, bu esa haydovchining avtomobilni boshqarish imkonini yo'qotishiga olib keladi va barmoqlaringiz yoki qo'lingizga jarohatlar yetkazadi.

Harakatsizlantirish tizimi *

Harakatsizlantirish tizimi o'zi o'rnatilgan avtomobilning o'g'irlashdan qo'shimcha himoyalashini ta'minlaydi, va begona shaxslar dvigatelni yoqishining oldini oladi.
Harakatsizlantirish tizimi bilan jihozlangan avtomobilning ishlaydigan kaliti, mexanik o't oldirish kaliti bo'lib, uning ichiga elektron kodiga ega bo'lgan retranslyator kiritilgan.

Faqat ishlaydigan o't oldirish kalitlari bilan dvigatelni ishga tushirish mumkin. Ulardan boshqa kalitlar bilan faqat eshiklarni ochish mumkin. Harakatsizlantirish tizimi o't oldirish tizimiga, yonilg'i nasosi va yonilg'i injektorlariga ta'minot uzatishni yopib qo'yadi.
Harakatsizlantirish tizimi avtomatik tarzda kalitni LOCK holatiga o'tkazish va o't oldirish qulfidan kalitni chiqarib olishdan keyin dvigatelni bloklaydi.
Qo'shimcha ma'lumot uchun "Kalitlari" bo'limiga qarang.

Agar Siz o't oldirish kalitini START holatiga o'tkazganingizda, harakatsizlantirish tizimi elektron kodini tanib olmasa, dvigatel ishga tushmaydi va xavfsizlik indikator yonib-o'chib turadi:

- Kalitni OFF holatiga o'tkazing va taxminan 5 soniyadan keyin dvigatelni qaytadan ishga tushiring.

Dvigatelni ishga tushirish

Dvigatelni ishga tushirishdan avval

- Avtomobil tagidagi yuzani oqib ketishlar yo'qligi jihatidan tekshiring.
- Barcha oynalar va chiroqlarning tozaligiga ishonch hosil qiling.
- Shinalarni shikastlanishlar borligi va havo bosimining muvofiqligi, shuningdek protektorlarda begona jismlar borligi jihatidan ko'zdan kechiring.
- O'rindiqlar va bosh tagliklarining holatini sozlang.

- Ichki va tashqi ko'zgularning holatini sozlang.
- Xavfsizlik kamarini taqing va barcha yo'lovchilarning kamari taqilganligini nazorat qiling.
- O't oldirish yoqilganda asboblardan panelida signalizatorlar va indikatorlarni ishlayotganini tekshiring.
- Vaqt-vaqti bilan, masalan, yonilg'i quyish paytida, ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan texnik xizmat ko'rsatish bandlariga muvofiq tekshirishlarni bajaring.

▲ DIQQAT!

- Dvigatel 5 daqiqadan ortiq harakatsiz ishlashiga yo'l qo'ymang.
Haroratning o'ta ko'tarilib ketishi ishlangan gazlarni chiqarish tizimining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

ESLATMA

Dvigatelni ishga tushirish tizimi tashqi havoning harorati -36 °C dan +40 °C bo'lganda, dengiz sathidan 2500 m bo'lgan balandlikda va havo namligi 95% dan oshmaganda, avtomobilda soz va to'liq zaryadlangan akkumulyator batareyasi mavjud bo'lganda, ishga tushirishni ta'minlaydi.
• Ishga tushirish tizimi -25°C dan past bo'lmagan haroratda qo'shimcha isitgichlarsiz ishga tushirishni ta'minlaydi.

⚠️ DIQQAT!

- Starterning 15 soniyadan ortiq uzluksiz ishlashiga yo'l qo'ymang.
- Agar dvigatel ishga tushmagan bo'lsa, takroran urinib ko'rishdan avval 10 soniya kutib turing.

Bu starterning shikastlanishi oldini oladi.

ESLATMA


Agar ishga tushirish paytida dvigatel yonilg'iga «tiqilib qolgan» bo'lsa, akselerator pedalini sekin oxirigacha bosing, va pedalni shu holatida ushlab turib, starter bilan dvigatelni ko'pi bilan 10 soniya aylantiring. Bunda dvigatelning silindrlaridan ortiqcha yonilg'i ketkaziladi. Agar bunda dvigatel ishga tushgan bo'lsa, akselerator pedalini zudlik bilan qo'yib yuboring va harakatlanishni boshlashdan avval dvigatelga ma'lum vaqt davomida harakatsiz ishlashga imkon bering. Agar pedal to'liq bosilganda dvigatelni ishga tushirish bajarilmasa, akselerator pedalidan oyog'ingizni oling va dvigatelni odatdagi tartibda ishga tushiring.

Mexanik uzatmalar qutisi

1. Xavfsizlik kamarini taqing va barcha yo'lovchilar kamarlarini taqqanligini tekshiring.
2. Agar to'xtab turish tormozi ishga tushirilmagan bo'lsa, uni ishga tushiring.
3. O'rindiqlar, bosh tagliklari va ko'zgulari to'g'ri

holatda ekanligiga ishonch hosil qiling, zarur bo'lganda, ularni sozlab oling.

4. Uzatmalar qutisining dastagi neytral holatida (**NEUTRAL**) joylashganligiga ishonch hosil qiling, va ilashish muftasining pedalini oxirigacha bosing.



5. Akselerator pedalini bosmagan holda, o't oldirish kalitini **START** holatiga burang va dvigatel ishga tushirilganidan keyin kalitni qo'yib yuboring. Agar dvigatel ishga tushirilsa, lekin yana tez o'chib qolsa, keyingi ishga tushirishga urinib ko'rishdan avval **10** soniya kutib turing.


6. Ishga tushirishdan keyin dvigatelning kamida **30** soniya harakatsiz ishlashini kutib turing.
7. To'xtab turish tormozini qo'yib yuboring.
8. Harakatlanish boshida yo'lning qisqa qismida, dvigatel normal ish haroratigacha qizib olmaguncha, ayniqsa sovuq ob-havoda, dvigatelning o'rtacha aylanish tezligini tutib turing.

Avtomatik uzatmalar qutisi *

1. Xavfsizlik kamarini taqing va barcha yo'lovchilar kamarlarini taqqanligini tekshiring.
2. Agar to'xtab turish tormozi ishga tushirilmagan bo'lsa, uni ishga tushiring.
3. O'rindiqlar, bosh tagliklari va ko'zgulari to'g'ri holatda ekanligiga ishonch hosil qiling, zarur bo'lganda, ularni sozlab oling.
4. Uzatmalar qutisining dastagi «**P**» holatida (to'xtab turish) joylashganligiga ishonch hosil qiling.

ESLATMA

Dvigatel, faqat agar uzatmalarni o'zgartirish dastagi «**P**» yoki «**N**» holatida joylashgan bo'lsa, ishga tushiriladi.



5. Akselerator pedalini bosmagan holda, o't oldirish kalitini **START** holatiga burang va dvigatel ishga tushirilganidan keyin kalitni

TORMOZ TIZIMI

qo'yib yuboring. Agar dvigatel ishga tushirilsa, lekin yana tez o'chib qolsa, keyingi ishga tushirishga urinib ko'rishdan avval **10** soniya kutib turing.

6. Ishga tushirishdan keyin dvigatelning kamida **30** soniya harakatsiz ishlashini kutib turing.

7. To'xtab turish tormozini qo'yib yuboring.

8. Harakatlanish boshida yo'lning qisqa qismida, dvigatel normal ish haroratigacha qizib olmaguncha, ayniqsa sovuq ob-havoda, dvigatelning o'rtacha aylanish tezligini tutib turing.

OGOHLANTIRISH!

Dvigatelni ishga tushirish uzatmalarini o'zgartirish dastagi «N» holatida joylashganda ham mumkin bo'lishiga qaramay, bu holatidan faqat normal ishga tushirish mumkin bo'lmaganda foydalaning. «Avtomatik transmissiya uzatmalarini avariya o'tkazish dasturi» bo'limiga qarang.

Tormoz tizimi turli sharoitlarda tormozlash uchun mo'ljallangan.

Sizning avtomobilingiz oldingi va orqa tormoz diskleri (yoki orqa baraban tormozlari) va ikki konturli tormoz tizimi bilan jihozlangan.

Agar bitta tormoz konturi ishdan chiqsa, avtomobil boshqa tormozlash konturi bilan to'xtatilishi mumkin, lekin tormozlashda o'tiladigan yo'l ortib ketadi va tormoz pedalini qattiqroq kuch bilan bosish kerak bo'ladi.

DIQQAT!

Agar tormozlash tizimining sikllaridan biri bajarilmasa, pedalni qattiqroq kuch bilan bosish kerak bo'ladi va tormozlash yo'li oshib ketadi.

- Zudlik bilan Sizning vakolatlangan dilingizga tormoz tizimini texnik ko'zdan kechirish va ta'mirlash uchun murojaat qiling.

DIQQAT!

Agar tormoz pedaliga odatdagi sharoitga qaraganda bosish uchun ko'proq kuch talab etiladigan bo'lsa, ehtimol, Sizga ta'mirlash talab etiladi.

- Zudlik bilan Sizning vakolatlangan dilingizga maslahat olish uchun murojaat qiling.

DIQQAT!

- Harakatlanish paytida zarurat bo'lmaganda tormoz pedalida oyog'ingizni ushlab turmang.

Bu tormoz mexanizmlari komponentlarining tezroq eskirishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu tormozlarning o'ta qizib ketishiga olib keladi, tormozlash yo'lining ortishiga va harakatlanish xavfsizligining kamayishiga sabab bo'ladi.

Tormoz mexanizmlaridagi namlik

Ko'lmaklar ustidan harakatlanganda yoki avtobillarni yuvish shoxobchasida tormoz mexanizmlarining komponentlariga namlik kirishi mumkin. Normal tormozlashni tiklash uchun quyidagilarni bajaring:

1. Orqadagi avtomobillar yuzasidan yo'dagi vaziyatni baholang.
2. Orqada va parallel ketayotgan avtomobillargacha yetarli masofani qoldirgan holda xavfsiz tezlik bilan harakatlanishni davom ettiring.
3. Normal tormozlash tiklanmaguncha tormoz pedalini ohista bosing.

Tormoz mexanizmlarining o'ta qizib ketishi

Katta nishabli uzoq tushishlar paytida kuchli tormozlashda tormoz mexanizmlari vaqtincha o'ta qizib ketishi mumkin.

Pastga tushishda pastroq uzatmaga o'tkazing. Uzoq vaqt tormozlashga yo'l qo'ymang. Quyida «DVIGATEL BILAN TORMOZLASH» bo'limiga qarang.

▲ DIQQAT!

Chuqur ko'lmaklardan o'tish, avtomobilni yuvish yoki katta nishabli tushishlar paytida kuchli tormozlashdan keyin tormozlash samaraliligi vaqtincha pasayishi mumkin. Bu tormoz mexanizmlarining komponentlarida namlik borligi yoki o'ta qizib ketishi bilan izohlanadi.

O'ta qizib ketish tufayli tormozlash samaraliligi vaqtincha pasayishi holatida quyidagilarni bajaring:

- Pastga tushishda pastroq uzatmaga o'tkazing. Uzoq vaqt tormozlashga yo'l qo'ymang. Quyida «DVIGATEL BILAN TORMOZLASH» bo'limiga qarang.

Tormoz mexanizmlarining komponentlarida namlik borligi tufayli tormozlash samaraliligi vaqtincha pasayishi holatida normal tormozlashni tiklash uchun quyidagilarni bajaring:

1. Orqadagi avtomobillar yuzasidan yo'ldagi vaziyatni baholang.
2. Orqada va parallel ketayotgan avtomobillargacha yetarli masofani qoldirgan holda xavfsiz tezlik bilan harakatlanishni davom ettiring.
3. Normal tormozlash tiklanmaguncha tormoz pedalini ohista bosing.

Tormoz kolodkalarining eskirishi indikatori

Diskli tormozlarning kolodkalari ichki qurilgan eskirish indikatorlari bilan jihozlangan, ular eskirgan kolodkalarni almashtirish talab etilganda kuchli chiyillash yoki g'ijirlash ovozini chiqaradi. Yurish paytida bunday ovozlarni paydo bo'lganda, zudlik bilan vakolatlangan dilerga tormoz kolodkalarini tekshirish va almashtirish uchun murojaat qilish lozim.

▲ OGOHLANTIRISH!

- Tormozli mexanizmlarda shovqin paydo bo'lganda avtomobildan foydalanish taqiqlanadi.

Bu tormoz kolodkalarini ta'mirlash yoki almashtirish zarurligini ko'rsatishi mumkin. Eskirgan tormoz kolodkalari bilan yurish to'qnashuvga va jarohatlarga olib kelishi mumkin.

To'xtab turish tormozi


To'xtab turish tormozi orqa g'ildiraklarga ta'sir etadi.

To'xtab turish tormozining dastagi oldingi o'rindiqlar orasida joylashgan.

To'xtab turish tormozini ishga tushirish uchun avtomobilni to'xtating, tormoz pedalini bosing va dastakni qattiq kuch bilan tepaga torting.

To'xtab turish tormozini qo'yib yuborish uchun tormoz pedalini bosing va:

1. Dastakni tepaga sal torting.
2. Dastakning uchidagi tugmani bosing.
3. Tugmani bosilgan holatida ushlab turib, dastagini pastga tushiring.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

To'xtab turish tormozi noto'g'ri yoqilganda avtomobil to'satdan yurib ketishi mumkin. Zarur bo'lganda, sozlashni bajarish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

▲ DIQQAT!

- Avtomobilning yoqilgan to'xtab turish tormozi bilan harakatlanishi taqiqlanadi. Bu orqa tormoz mexanizmlarining o'ta qizib ketishiga yoki ularning komponentlari muddatidan ilgari eskirishiga olib kelishi mumkin. Bu holda tormoz mexanizmlarini almashtirish talab etilishi mumkin, shuningdek avtomobilning boshqa qismlari shikastlanishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

- Avtomobilni yonuvchan materiallar ustiga qo'ymang va ularning ustida yurgizmang. Bunday materiallar ishlangan gazlarni chiqarish tizimining issiq qismlariga tekkanda, avtomobilning tagida yonib ketish yuzaga kelishi mumkin.

Qishda avtomobilni to'xtatib turishga oid tavsiyalar

Sovuq paytda to'xtab turish tormozining mexanizmi ishga tushirilgan holatida muzlab qolishi mumkin.

Bu ko'pincha tormoz mexanizmlarida namlik bo'lganligi tufayli yuzaga keladi. Nisbatan chuqur ko'lmaklardan o'tganidan keyin yoki avtomobilni yuvishdan keyin tormoz mexanizmlarida namlik borligi tufayli to'xtab turish tormozi ehtimoliy muzlab qotib qolgan holda, quyidagilarni bajaring:

1. To'xtab turish tormozini vaqtincha ishga tushirib, uzatmalarni o'tkazish dastagini «**P**» holatiga (avtomatik uzatmalar qutisi uchun), birinchi uzatma yoki orqaga yurish holatiga (mexanik uzatmalar qutisi uchun) o'rnatib.
2. Orqa g'ildiraklar tagiga tirkaklarni o'rnatib.
3. To'xtab turish tormozini qo''yib yuboring.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

- Avtomobilning harakatlanishi paytida to'xtab turish tormozini ishga tushirish yoki undan tormoz pedalining o'rniga foydalanish taqiqlanadi.

Bu avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qolishiga olib kelishi hamda to'qnashuvga va moddiy zarar yetkazilishiga yoki jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

**Antiblokash tormoz tizimi (ABT)
(Agar mavjud bo'lsa)**

Antiblokash tormoz tizimi - bu elektron boshqariladigan, takomillashtirilgan tormoz tizimidir. Ushbu tizim keskin yoki avariya tormozlash paytida harakatlanish uchun to'siqlar paydo bo'lganda avtomobilning boshqariluvchanligini saqlab qoladi va sirpanchiq yo'lda tormozlash yo'lini maksimal ravishda qisqartiradi. O't oldirish yoqilganda ABT nosozligining signalizatori 3 soniyaga yonadi. Agar keyin ushbu signalizator o'chmasa yoki harakatlanish paytida yonsa, bu ABT ning nosozligidan dalolat beradi. Zudlik bilan vakolatlangan dilerga murojaat qiling. «ABT NOSOZLIGINING SIGNALIZATORI» bo'limiga qarang.

ABT tizimining ishlash tamoyili tormozlash jarayonida har bir g'ildirakning tezligini

o'lchashga asoslangan. G'ildiraklardan birining bloklanishiga moyilligi aniqlanganda, kompyuter har bir oldingi g'ildirakning va ikkala orqa g'ildiraklarning tormoz mexanizmlarini alohida boshqarishni amalga oshirib, bloklanishining oldini oladi. Odatda ABT ishlaganda tormoz pedaliga ozgina tebranish uzatiladi, u ma'lum shovqin bilan amalga oshiriladi.

ESLATMA

ABT borligi tormozlarni ishga tushirish uchun reaksiyaning kerakli vaqti o'zgarishiga yordam bermaydi va tormozlash yo'lini doimo qisqartiravermaydi.

- Hatto ABT mavjud bo'lganda, albatta xavfsiz tormozlash ta'minlaydigan kerakli oraliq masofani tutib turing.
- Xavfli boshqarish usullari bilan o'z hayotingizni xavf ostida qoldirmang.

ABT bilan tormozlash

Yo'l sharoitlaridan qat'iy nazar, tormoz pedalini bir necha marta ketma-ket bosmang. Tormoz pedalini qattiq kuch bilan bosib va ushlab turing, ABT tizimi esa qolganini qiladi.

ATROF MUHITNI HIMOYALASH

 **OGOHLANTIRISH!**

Tormoz tizimining nosozligining signalizatori va ABT nosozligining signalizatori bir vaqtning o'zida yonishi tormoz tizimidagi nosozlikdan dalolat beradi.

- Zudlik bilan vakolatlangan dilerga tormoz tizimini tekshirish uchun murojaat qiling.

Ekologik texnologiyalar

Sizning avtomobilingizni ishlab chiqishda va ishlab chiqarishda biz ekologik va asosan qayta ishlash mumkin bo'lgan materiallardan foydalanganmiz.

Avtomobilni ishlab chiqarish jarayonlari ham to'liq ekologik bo'ladi.

Ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash materiallarni qayta ishlashning doimiy yopiq siklini ta'minlaydi. Energiya va suiste'mol qilishni qisqartirish ham tabiiy resurslar saqlanishiga yordam beradi.

Avtomobilning eng zamonaviy konstruksiyasi shuningdek, Sizning avtomobilingizni foydalanish muddati tugaganidan keyin, keyingi qayta ishlash uchun qismlarga ajratish va alohida materiallarga ajratish mumkinligini bildiradi.

Konstruksiyada asbest va kadmiy kabi materiallardan foydalanilmaydi. Konditsionerlash tizimidagi sovutish agenti* tarkibida xlorfftoruglerodlar yo'q.

4

AVTOMOBIL SALONIDA IQLIMNI BOSHQARISH

- SHAMOLLATISH PANJARALARI 4-2
- BOSHQARISH PANELI 4-3
- HAVONI KONDITSIONERLASH * 4-6
- ISITISH 4-7
- SHAMOLLATISH 4-8

SHAMOLLATISH PANJARALARI

Yon shamollatish panjaralari

Yon shamollatish panjaralarini ular orqali keluvchi havoning oqimi oldingi o'rindiqlarga to'g'ri yo'nalishi uchun, yoki yon oynalar tomoniga yo'naltirib, sozlash mumkin.

Old oynaga havo puflash tirqishlari

Old oynaga havo puflash tirqishlari old oynaga havoning oqimini yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

Markaziy shamollatish panjaralari

Markaziy sozlanadigan shamollatish panjaralari orqali kelib tushadigan havo oqimining yo'nalishini o'zgartirish mumkin.

Pastki shamollatish tirqishlari

Pastki shamollatish tirqishlari orqali havoning oqimi oldingi o'rindiqlarning oyoq turadigan tomoniga yo'naltiriladi.

Oldingi eshiklar oynalarining havo puflash tirqishlari


Oldingi eshik oynasining havo puflash tirqishi orqali kelib tushadigan havo oqimi yon oynalarga, asosan, tashqi ko'zgularga yo'naltiriladi.

Orqa shamollatish panjaralari*

Sovutilgan yoki isitilgan havo oldingi o'rindiqlar tagidan o'tadi va orqa o'rindiqlarga, oyoqlar qo'yiladigan joyga kelib tushadi.

Markaziy va yon shamollatish panjaralarini yopish uchun

Panjaralar orqali havo oqimining kelib tushishini bloklash uchun, har bir shamollatish panjarasining yonidagi g'ildirakchani pastga oxirigacha burang.




1. Yon shamollatish panjarasi

2. Old oynaga havo puflash tirqishlari

3. Markaziy shamollatish panjaralari

4. Pastki shamollatish tirqishi

5. Oldingi eshiklar oynalarining havo puflash tirqishlari



Markaziy shamollatish panjaralari



Yon shamollatish panjaralari

BOSHQARISH PANELI

1. Haroratni sozlash dastasi.
2. Havoni uzatishni sozlash dastasi.
3. Havoni taqsimlash rejimlarini o'zgartirish dastasi.
4. Konditsionerni yoqish tugmasi (A/C). Ushbu bo'limdagi quyida «HAVONI KONDITSIONERLASH» ga qarang.
5. Havo resirkulyatsiyasi rejimini yoqish moslamasi.
6. Oldingi, orqa oynalarning va tashqi ko'zgularning elektr isitgichlarini yoqish moslamasi. «OYNA ISITGICHINING TUGMASI» bo'limiga qarang.

Haroratni sozlash dastasi


Haroratni sozlash dastasi yordamida shamollatish panjaralari orqali kelib tushadigan havoning haroratini sozlash mumkin. Issiq havo uzatish uchun dastani ko'k zonaga o'tkazish, iliq havoni uzatish uchun – qizil zonaga o'tkazish kerak.



4-4 AVTOMOBIL SALONIDA IQLIMNI BOSHQARISH


Havoni uzatishni sozlash dastasi

Havoni uzatishni sozlash dastasi salonga kelib tushadigan havo oqimining intensivligini sozlash uchun foydalaniladi. Bu dasta soat milining yo'nalishida buralganda, havo oqimining intensivligi oshiriladi, soat miliga qarshi yo'nalishda buralganda - kamaytiriladi. Ushbu dastaning yordamida havo oqimi intensivligining 4 ta rejimini o'rnatish mumkin (1 dan 4 gacha).




Havoni taqsimlash rejimlarini o'zgartirish dastasi

Havoni taqsimlash rejimlarini o'zgartirish dastasi havo oqimining yo'nalishini o'zgartirish uchun foydalaniladi. Uning yordamida havo uzatishning beshta rejimidan birini o'rnatish mumkin:




Saloning oldingi qismi ()

Bu rejim o'rnatilganda havo markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali uzatiladi.



Ikki yo'nalishda havo puflash ()


Havo pastki shamollatish tirqishlari orqali hamda markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali kelib tushadi.



Oyoqlar turgan joyga havo uzatish ()

Havoning asosiy oqimi pastki shamollatish tirqishlari orqali kelib tushadi.


Havo old oynaga havo puflash tirqishlari, yon shamollatish panjaralari va orqa shamollatish panjaralari (mavjud bo'lganda) orqali kelib tushadi. Havo salonning orqa qismiga normal kelib tushishi uchun oldingi o'rindiqlar ostidagi o'tish joyi bo'sh bo'lishi kerak.



Oyoqlar turgan joyga havo uzatish /oynalarga havo puflash (↕)

Bu rejimda havoning asosiy qismi old oynaga havo puflash tirqishlari va oldingi eshiklarning oynalari orqali, shuningdek pastki shamollatish tirqishlari orqali kelib tushadi.


Havoning ozgina miqdori shuningdek yon shamollatish panjaralari orqali kelib tushadi.



Oynalarga havo puflash (↕)

Havoning asosiy qismi old oynaga havo puflash tirqishlari va oldingi eshiklarning oynalari orqali kelib tushadi.

Havoning ozgina miqdori shuningdek yon shamollatish panjaralari orqali kelib tushadi.




Havo resirkulyatsiyasi rejimining tugmasi

Ushbu tugma tashqaridan havoning kelib turishini bloklash imkonini beradi va salonga chang, chiqindi gazlar yoki noxush hidlar kirib qolishining oldini olish uchun, shuningdek zarur bo'lganda, salonni tez sovutish yoki isitish uchun foydalaniladi. Bu tugmani bosganda tegishli indikator yonadi va salonda havo resirkulyatsiyasi boshlanadi.

Havo resirkulyatsiyasi rejimining tugmasini takroriy bosish tashqaridan havo kirishi tiklanishiga olib keladi; havo resirkulyatsiyasining indikatorini o'chadi.

Havo resirkulyatsiyasi rejimidan uzoq vaqt davomida foydalanish avtomobilning oynalari terlashiga olib kelishi mumkin. Bu holda tashqaridan havo kelishini tiklash uchun, havo resirkulyatsiyasi rejimini yoqish moslamasini yana bir marta bosish.



▲ DIQQAT!

Havo resirkulyatsiyasining rejimi yoqilgan holda uzoq vaqt davomida yurish uyquga moyillikni keltirib chiqarishi mumkin.

- Tashqaridan havo kelishi uchun bu rejimni vaqt-vaqti bilan o'chirish kerak.

Havoni konditsionerlash tizimi (**A/C**) salonda havo haroratini va namligini kamaytiradi, shuningdek chang va boshqa uchuvchan zarralarni ketkazadi.

Lekin agar haroratni sozlash dastasi isitishga o'rnatilgan bo'lsa, salonga issiq havo uzatish hatto konditsioner yoqilganda amalga oshiriladi.

ESLATMA

Havo konditsioneri yoqilgan holda yurish paytida motor bo'limi ostida tomchilar paydo bo'lishi mumkin.

Bu normal holat, chunki avtomobilning sovutish tizimi salondan namlikni chiqarib yuboradi.

ESLATMA

Konditsionerlash tizimining kompressori avtomobilning dvigatelidan quvvatni olib

ESLATMA

turishi uchun, kompressor yoqilganda quvvati va dinamikasining ma'lum o'zgarishlari bo'lishi mumkin.


HAVONI KONDITSIONERLASH *

A/C tugmasi

▲ DIQQAT!

Avtomobildan tog'li joylarda yoki og'ir yo'l sharoitlarida foydalanishda, havoni konditsionerlash tizimining yoqish dvigatelning o'ta qizib ketishiga olib kelishi mumkin. («O'TA QIZIB KETISH» bo'limiga qarang)

- Haroratning ko'rsatkichlarini tekshiring.
 - Agar haroratning ko'rsatkichlari dvigatelning o'ta qizib ketishidan dalolat bersa, konditsionerni o'chiring.
- Aks holda dvigatel buzilishi mumkin.



Konditsionerni yoqish uchun:

1. O't oldirishni yoqing.
2. **A/C** tugmasini bosing (bunda tegishli indikator yonadi).

ISITISH

3. Shamollatgichning aylanish tezligini sozlang.

ESLATMA

Agar havoni uzatishni sozlash dastasi OFF holatida joylashgan bo'lsa, havoni konditsionerlash amalga oshirilmaydi.

Konditsionerni o'chirish uchun:

A/C tugmasini yana bosning. (Bunda tegishli indikator o'chadi).

Sovutish**Maksimal sovutish**

Issiq ob-havoda yoki avtomobilning quyoshda uzoq turgan holda, salondagi havoni maksimal sovutish uchun foydalaniladi.

1. Salondan issiq havoning chiqishi uchun oynalarni ochib qo'ying.
2. Konditsionerni yoqing (tegishli indikator yonadi).
3. Havo resirkulyatsiyasi rejimini yoqish moslamasini yoqing; (tegishli indikator yonadi).
4. Havoni taqsimlash rejimlari dastasini SALONNING OLDINGI QISMI holatiga o'tkazing (→).
5. Haroratni sozlash dastasini ko'k zonaning oxirigacha o'tkazing.
6. Havoni uzatishni sozlash dastasini maksimal tezlikka o'rnatning.

Normal sovutish

1. Konditsionerni yoqish tugmasini bosning (**A/C**) (tegishli indikator yonadi).
2. Havo resirkulyatsiyasi rejimini yoqish moslamasini yoqing; (tegishli indikator yonadi).
3. Havoni taqsimlash rejimlari dastasini SALONNING OLDINGI QISMI (→) yoki (↔) IKKI SATHLI holatiga o'tkazing.
4. Haroratni sozlash dastasini ko'k zonaga o'tkazing.
5. Havoni uzatishni sozlash dastasini talab etiladigan tezlikka o'rnatning.

Maksimal isitish

Maksimal isitish rejimi salondagi havoning haroratini maksimal tez oshirishga imkon beradi. Bu rejimni uzoq vaqt davomida yoqib qoldirish tavsiya etilmaydi, chunki bu vaqt ichida salonning ichidagi havo toza bo'lmay qolishi mumkin, oynalar esa terlab qolishi mumkin. Oynalardan kondensatni ketkazish uchun havo resirkulyatsiyasi rejimini o'chiring, shundan keyin salonga toza havo kira boshlaydi.

Maksimal isitish rejimini yoqish uchun:

1. Konditsionerni o'chiring (indikator o'chadi).
2. Havo resirkulyatsiyasi rejimini yoqish moslamasini yoqing; (tegishli indikator yonadi).
3. Havoni taqsimlash rejimlari dastasini IKKI SATHLI (↔) yoki OYOQLAR TOMONIGA HAVO UZATISH (↔) holatiga o'tkazing.
4. Haroratni sozlash dastasini qizil zonaning oxirigacha o'tkazing.
5. Havoni uzatishni sozlash dastasini maksimal tezlikka o'rnatning.

Normal isitish rejimi

1. Konditsionerni o'chiring (indikator o'chadi).
2. Havo resirkulyatsiyasi rejimini o'chiring (indikator o'chadi).
3. Havoni taqsimlash rejimlari dastasini

SHAMOLLATISH

OYOQLAR TOMONIGA HAVO UZATISH

- (🌀) yoki IKKI SATHLI (🌀🌀) holatiga o'tkazing.
4. Haroratni sozlash dastasini qizil zonaga o'tkazing.
 5. Havoni uzatishni sozlash dastasini talab etiladigan tezlikka o'rnatg.

Ikki sathli havo puflash

Ushbu rejimdan salqin, lekin quyoshli kunlarda foydalanish tavsiya etiladi. Issiqroq havo oyoqlar tomoniga kelib tushadi, tashqaridan salqin havo esa – salonning ustki qismiga kelib turadi.

Bu rejimni yoqish uchun:

1. Havo resirkulyatsiyasi rejimini yoqish moslamasini o'chiring (indikator o'chadi).
2. Havoni taqsimlash rejimlari dastasini IKKI SATHLI HAVO PUFLASH (🌀🌀) holatiga o'tkazing.
3. Haroratni sozlash dastasini talab etiladigan haroratga o'rnatg.
4. Havoni uzatishni sozlash dastasini talab etiladigan tezlikka o'rnatg.

Shamollatish

Markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havoni uzatish uchun:

1. Konditsionerni o'chiring (indikator o'chadi).
2. Havo resirkulyatsiyasi rejimini o'chiring (indikator o'chadi).
3. Havoni taqsimlash rejimlari dastasini SALONNING OLDINGI QISMI (🌀) yoki IKKI SATHLI (🌀🌀) holatiga o'tkazing.
4. Haroratni sozlash dastasini ko'k zonaga o'tkazing.
5. Havoni uzatishni sozlash dastasini talab etiladigan tezlikka o'rnatg.

Qirov va kondensatni ketkazish

Qirovni ketkazish rejimi konditsioner yoqilganda ham, o'chirilganda ham ishlaydi. Old oynadan qirovni ketkazish uchun:

1. Havo resirkulyatsiyasi rejimini o'chiring (indikator o'chadi), shundan keyin havoni taqsimlash rejimlari dastasini OYNALARGA HAVO PUFLASH (🌀🌀) holatiga o'tkazing.
2. Haroratni sozlash dastasini qizil zonaga o'tkazing.
3. Qirovni tez ketkazish uchun havoni uzatishni sozlash dastasini maksimal tezlikka o'rnatg.

ESLATMA

Konditsioner yoqilganda qirovni tozalash funksiyasi samaraliroq ishlaydi.

ESLATMA

Ba'zi modellarda konditsioner OYNALARGA HAVO PUFLASH (🌀🌀) yoki OYOQ TOMONIGA HAVO UZATISH/OYNALARGA HAVO PUFLASH (🌀🌀) rejimi tanlangan holda avtomatik tarzda yoqiladi.

Bu havo puflash samaradorligini oshiradi.

Old oyna terlashining oldini olish uchun havoni taqsimlash rejimlarini dastasini OYOQ TOMONIGA HAVO UZATISH/OYNALARGA HAVO PUFLASH () holatiga o'tkazing, shundan keyin issiq havoning oqimi salonga pastdan kelib turadi.


⚠️ DIQQAT!

Atrof muhitning va old oynaning haroratidagi farqi oynalarning terlashiga sabab bo'lishi mumkin, va u shu sababli atrofni ko'rish imkoniyatini cheklab qoladi.

- Shuning uchun juda yuqori namlik sharoitida, agar haroratni sozlash dastasi ko'k zonada o'rnatilgan bo'lsa, OYOQ TOMONIGA HAVO UZATISH /OYNALARGA HAVO PUFLASH () yoki OYNALARGA HAVO PUFLASH () rejimidan foydalanish tavsiya etilmaydi.
- Bu YTH ga, ehtimol, avtomobilning shikastlanishiga va yo'lovchilarning jarohatlar olishiga olib kelishi mumkin.


**Qo'lda nazorat qilish.
A/S tugmasi.**

Havo konditsionerini yoqadi va o'chiradi.
Havo konditsionerining A/C () indikatorini konditsioner yoqilganda yonib turadi.
Havoni konditsionerini o'chirish uchun A/C tugmasini yana bir marta bosib, yoki tizimni to'liq o'chirish uchun OFF tugmasini bosib. «A/C tugmasi» ga qarang.




Havoni taqsimlash rejimini o'zgartirish

Agar MODE tugmasini aylantirsangiz, havoni taqsimlash rejimi quyidagi ketma-ketlikda o'zgarib boradi.
SALONNING OLDINGI QISMI () – IKKI SATHLI HAVO PUFLASH () – OYOQ TOMONIGA HAVO UZATISH () – OYOQ TOMONIGA HAVO UZATISH/OYNALARGA HAVO PUFLASH (). Keyingi ma'lumot uchun «Havoni taqsimlash rejimi» bo'limiga qarang.



Havo resirkulyatsiyasi rejimining tugmasi.


Tashqi havoning yoki ichki havoning sirkulyatsiyasini tanlash mumkin. Ushbu bo'limda avvalroq keltirilgan "Resirkulyatsiya rejimining tugmasi" ga qarang.



4-10 AVTOMOBIL SALONIDA IQLIMNI BOSHQARISH

Shamollatgich rejimlarini sozlash

Ushbu sozlash moslamasini aylantirib, shamollatgichning tezligini sozlang.




Oynalarga havo puflash.

Oynalarga havo puflash uchun havoni taqsimlash rejimini o'zgartirish dastagini () rejimiga o'tkazing.

Havo resirkulyatsiyasi rejimi tashqi havoning rejimiga o'zgaradi va konditsioner yoqiladi. Konditsioner oynalarga havo puflash rejimini bekor qilmagan holda A/C tugmasini bosib, o'chirilishi mumkin.

Tezlikni sozlash dastasini sozlash orqali shamollatgichning tezligini sozlang. Ushbu rejim A/S tugmasini bosib, na havoni taqsimlash rejimini o'zgartirish tugmasini bosib o'chirilishi mumkin.

«Qirov va kondensatni ketkazish» ga qarang.



Shamollatish tizimidan foydalanishga oid tavsiyalar

Avtomobil uzoq vaqt quyoshda bo'lganidan keyin, konditsionerni yoqishdan avval oynalarni oching.

Yomg'ir paytida yoki yuqori namlik sharoitida oynalardan kondensatni ketkazish uchun konditsionerdan foydalanish mumkin.

Havoni konditsionerlash tizimini kamida haftada bir marta yoqish tavsiya etiladi (shu jumladan qishda yoki konditsionerdan muntazam foydalanmaslik holatida).

Bu kompressor va salniklarning moylanishi va tizimning xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun zarur bo'ladi.

Yo'l tiqilinch bo'lgan sharoitlarda avtomobilni boshqarish konditsionerlash samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Agar havoni uzatishni sozlash dastasi **OFF** holatida joylashgan bo'lsa, konditsionerning kompressori ishlamaydi.

Agar avtomobilda havo konditsionerining filtri o'rnatilgan bo'lsa, uni tegishli parvarish qilish talab etiladi. «HAVO KONDITSIONERINING FILTRI» bo'limiga qarang. Ushbu filtr yordamida avtomobilning saloniga tashqaridan kiradigan chang va boshqa uchuvchan zarralar to'xtatib qolinadi.

ESLATMA

Faqat mos keladigan sovutish agentidan foydalaning.

⚠ DIQQAT!

Iqlim nazorati tizimiga tajribali texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xizmat ko'rsatishi lozim. Texnik ko'zdan kechirishga o'zingiz urinib ko'rishingiz jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

5 AUDIOTIZIM *

Sizning avtomobilingizda o'rnatilgan audiotizim bu yerda ta'riflangan tizimlardan farq qilishi mumkin. Iltimos, Sizning audiotizimingiz bilan birga yetkazib beriladigan hujjatlarga murojaat qiling.

- **RADIO, BLUETOOTH,
USBLI AVTOMAGNITOLA** 5-2
- **RADIOPRIYOMNIK** 5-6

- **TELEFON** 5-10
- **MASOFADAN BOSHQARISH TIZIMI *** 5-11

RADIO, BLUETOOTH, USBLI AVTOMAGNITOLA

Kirish

Umumiy axborot

Sizning avtomobilingizning axborot-ko'ngil ochar tizimi eng zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va ko'ngil ochar imkoniyatlarni taqdim etadi.

Axborot-ko'ngil ochar tizimi to'rtta betning har biri uchun oltita funksional tugmalaridan foydalanib, jami 48 tagacha FM- va AM-diapazonlarning stansiyalariga oson sozlanishga imkoniyat yaratadi.

USB pleyer esa - USB-tashuvchilardan yozuvlarni qayta eshittirishga imkon beradi.

Tashqi moslamalar uyasiga portativ pleyerni ulash va axborot – ko'ngil ochar tizimining yuqori sifatli dinamiklar orqali, yozuvlarni tinglash mumkin.


Telefonni Bluetooth orqali ulash funksiyasi, baland ovozli aloqa rejimida telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, shuningdek telefon pleyeridan musiqani tinglash imkonini beradi.

Raqamli protsessor foydalanuvchilarga ovozning sifatini optimallashtirish uchun ekvalayzerning bir qator avvaldan belgilangan rejimlarini taklif etadi.

Puxta ishlab chiqilgan sozlash tizimi, aqliy displey va ko'p vazifali sozlash dastasi sozlashlarni va belgilashlarni oson bajarishga imkon beradi.

- “Sharh” bo'limida axborot - ko'ngil ochar tizimi funksiyalarining qisqacha sharhi va boshqarish organlarining ta'rifi keltiriladi.
- “Boshqarish” bo'limida axborot – ko'ngil ochar tizimining asosiy boshqarish organlari izohlanadi.

Sharh
Radio + Bluetooth + USB



1. KATALOG [DIR] tugmasi

Katalogni yoki barcha treklarni qayta eshittirishni tanlang.

2. FunkSIONAL tugmalar

Displayda aks ettiriladigan funksiyalarni tanlash Radio rejimida:

- Qisqa muddat ichida bosilganda, saqlangan radiostansiyani chaqirish.
- Bosib va ushlab turilganda, joriy radiostansiyani Tanlangan sahifasida saqlash.

Menyu rejimida:

- ushbu tugma uchun funksiyani tanlash uchun istalgan tugmani bosing.

3. MANBA/PAUZA [SRC/PAUSE] tugmasi

Audiosignal manbaini tanlash uchun bosing: USB, Bluetooth, audio yoki AUX.

4. AUX uyasi

- Tashqi audio signalning manbaini ulash uchun mo'ljallangan.

5. YO'L XABARLARI / AXBOROT [TP / INFO] tugmasi

- Bosish: Yo'llarning holati va tirbandligi darajasi haqidagi xabarlarni qabul qilish tizimini sozlash.
- Bosib ushlab turish: har bir rejimda, turli funksiyalar va uzatiladigan dasturlar uchun kerakli axborotni, shuningdek disk / tashqi moslama haqidagi ma'lumotni aks ettirish.

6. ◀ TUNE ▶ tugmasi

Radio qabul qilish rejimida:

- radiostansiyani tanlash (chastotasini kamaytirish / oshirish) Bluetooth rejimida:
- bosilganda avvalgi / keyingi trekni qayta eshittirish
- bosish va ushlab turish – qayta eshittirilayotgan treklar bo'yicha orqaga tez izlash.

7. BLUETOOTH [] tugmasi

• Displayda aks ettiriladigan BLUETOOTH funksiyalarini tanlash.

8. [POWER] (Ta'minot) [] tugmasi, VOLUME (Ovoz balandligi) dastasi bilan

Agar audio tizimning ta'minoti yoqilgan bo'lsa:

- Bosish: MUTE ovozni chiqarimaslik funksiyasini yoqish / o'chirish.
- Bosib ushlab turish : audio tizimning ta'minoti o'chiriladi.
- Ovoz balandligini yoki tembrini sozlash uchun dastani burang - Ovoz tembrini sozlash rejimida.

Agar audio tizimning ta'minoti o'chirilgan bo'lsa:

- Ta'minot tugmasini bosish audio tizimning ta'minotini yoqadi.

9. MEHO / OVOZ tugmasi

• FM radio rejimida RDS menyusiga kirish uchun bosing.

- Bosib ushlab turish: ushbu tugmani bosish orqali ovoz tembrini sozlash va balans (oldingi / orqa va chap / o'ng dinamiklarning nisbati) rejimlari orqali o'tish amalga oshiriladi.

10. ◀ SEEK ▶ (Izlash) tugmalari

Rejim radio dasturlarni qabul qilish

- Bosish: Chastotasi bo'yicha tepaga / pastga qabul qilish mumkin bo'lgan keyingi / avvalgi stansiyani izlash.
- Bosib ushlab turish: Avtomatik saqlash. USB, Bluetooth rejimi
- Keyingi / avvalgi mediafayllar kutubxonasini izlash.

11. TANLANGAN [FAV] tugmasi

Qat'iy belgilangan sozlashlarning betlari orasida o'tish.

12. DIAPAZON tugmasi

Ushbu tugmani FM yoki AM diapazonlarni tanlash uchun bosing.

13. AST tugmasi (Avto saqlash)


Avto saqlash jarayonini boshlash uchun AST tugmasini bosing.

Rul g'ildirigidagi masofadan boshqarish organlari ***(1) Ovoz balandligi [+/-] tugmalari**

- Ushbu tugmalarni bosish orqali ovoz balandligi bosqichma-bosqich oshiriladi / kamaytiriladi.
- Ovoz balandligi darajasini tez oshirish / kamaytirish uchun, ushbu tugmani bosib, 1 soniyadan uzoqroq ushlab turing.

(2) Ta'minot [POWER] tugmasi

- Kutish rejimida axborot-ko'ngil ochar tizimini yoqish uchun ushbu tugmani bosing.



- Istalgan musiqani qayta eshittirish rejimida, ovozchi qarmaslik funksiyasini yoqish/o'chirish uchun ushbu tugmani bosib.
- Ko'ngil ochar tizimini o'chirish uchun, ushbu tugmani bosib va 1 soniyadan uzoqroq ushlab turing.

(3) **MODE** tugmasi

- Audio tizimning ishlash rejimini tanlash uchun ushbu tugmani bosib: radio, AUX yoki USB / Bluetooth rejimi.
- Kiruvchi qo'ng'iroq rejimida qo'ng'iroqni qabul qilish uchun ushbu tugmani bosib.
- Faol qo'ng'iroqning rejimida suhbatni yakunlash uchun ushbu tugmani bosib.
- Oxirgi raqamni terish uchun ushbu tugmani bosib, 1 soniyadan uzoqroq ushlab turing.

(4) **SEEK** tugmasi

- Joriy radiostansiyadan boshqasiga (saqlangan ichida) o'tish yoki boshqa musiqiy kompozitsiyaga o'tish uchun ushbu tugmani bosib.
- Kiruvchi qo'ng'iroqqa javob bermaslik uchun ushbu tugmani bosib.
- Chastotalar diapazoni bo'ylab tepaga yoki joriy yozuvlar katalogi bo'ylab oldinga tez izlash uchun ushbu tugmani bosib, 1 soniyadan uzoqroq ushlab turing.

ESLATMA!

Agar qo'shimcha AUX uyasida (tashqi signalning manbai) shteker mavjud bo'lmasa, AUX rejimi yoqilmaydi.

Boshqarish

Tizimni yoqish / o'chirish

Ta'minotni yoqish uchun, TA'MINOT [⏻] tugmasini bosib.

- Ta'minotni yoqishdan keyin avtomagnitola avval tanlangan stansiyaning tinglashni yoki musiqa yozuvini qayta eshittirishni davom ettiradi.

Ta'minotni o'chirish uchun, TA'MINOT [⏻] tugmasini bosib ushlab turing.

Ovoz balandligini sozlash uchun, [⏮] dastasini burang.

- Ovoz balandligining joriy darajasi ekranda aks ettiriladi.

Ta'minot yoqilganda, [⏻] tugmasi bilan ovozni o'chirish mumkin.

- Ovoz balandligini tiklash uchun, [⏻] tugmasini yoki dastasini [⏮] bosib.

Ovozni sozlash (Bass/ Mid/ Treble)

Ovozni sozlash menyusini aks ettirish uchun, MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing.

Kerakli boshqarish rejimini tanlash uchun, Ovozni sozlash Menyusida funksional tugmani bosib.

Ovozni sozlash ko'rsatkichining kerakli qiymatini tanlash uchun, [⏮] dastasini burang.

Bass Past chastotalarni sozlash

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing.
2. Audio displeyda Bass aks ettirilganda, funksional tugmani bosib.
3. Chastotani -7 dan +7 gacha oralig'ida sozlash uchun, [⏮] dastasini burang.

Midrange O'rta chastotalarni sozlash

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing
2. Audio displeyda Mid aks ettirilganda, funksional tugmani bosib.
3. Chastotani -7 dan +7 gacha oralig'ida sozlash uchun, [⏮] dastasini burang.

Treble Yuqori chastotalarni sozlash

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing

2. Audio displeyda Treb aks ettirilganda, funksional tugmani bosib.
3. Chastotani -7 dan +7 gacha oralig'ida sozlash uchun, [Ⓞ] dastasini burang.

Dinamiklar orasidagi balansni sozlash (Balance/Fade)

Ovozni sozlash menyusini aks ettirish uchun, MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing.

Kerakli boshqarish rejimini tanlash uchun, ovozni sozlash menyusida funksional tugmani bosib.

Dinamiklar orasidagi kerakli balansni tanlash uchun, [Ⓞ] dastasini burang.

Stereo balansni sozlash (Balance)

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing.
2. Audio displeyda Bal aks ettirilganda, funksional tugmani bosib.
3. Chastotani -15 dan +15 gacha oralig'ida sozlash uchun, [Ⓞ] dastasini burang.

Feyderni sozlash Fad

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing.
2. Audio displeyda Fad aks ettirilganda, funksional tugmani bosib.
3. Chastotani -15 dan +15 gacha oralig'ida sozlash uchun, [Ⓞ] dastasini burang.

Ekvalayzerning sozlashlari EQ

Ekvalayzer rejimining sozlashlarini tanlang. Ovozni eshittirish uslubini (Pop / Rok / Kantri / Vokal / Jaz / Klassika) tanlash uchun

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosib va ushlab turing.
2. Audio displeyda "P-EQ" aks ettirilganda funksional tugmani bosib.
3. Displeyda Pop / Rok / Kantri / Vokal / Jaz / Klassika aks ettiriladi
4. Ovozni eshittirish uslubini tanlash uchun funksional tugmani bosib.
5. Tanlangan avvaldan belgilangan ekvalayzer rejimini bekor qilish uchun, "P-EQ" da funksional tugmani yana bir marta bosib va ushbu amallarni takrorlang.

RADIOPRIYOMNIK

Radio AM-FM

Radioning ishlash rejimini tanlash

FM/AM radioni tinglashga o'tish uchun, DIAPAZON (Band) tugmasini bosib.

Diapazon bo'ylab tepaga / pastga qo'lda sozlash (Tune)

◀◀ SOZLASH ▶▶ tugmalari sozlash chastotasini oshirish / kamaytirish imkonini beradi.

◀◀ SOZLASH ▶▶ tugmalari har bir bosilganda, chastotasi bir qadam darajasiga oshiriladi yoki kamaytiriladi.

Diapazon bo'ylab tepaga / pastga izlash (Seek)

◀◀ IZLASH ▶▶ tugmalari keyingi / avvalgi stansiyani avtomatik izlash uchun xizmat qiladi.

Tanlanganlarni saqlash uchun xotira (Seek)

Stansiyalarni avtomatik saqlash boshlanishi uchun ◀◀ IZLASH ▶▶ tugmasini bosib va ushlab turing.

1. BAND tugmasini bosib.
2. Avtomatik sozlash rejimidan foydalanish uchun, ◀◀ IZLASH ▶▶ tugmasini bosib va ushlab turing.
3. Displeyda "Skanerlash" aks ettiriladi.
4. Har bir A1 va A2 papkasida oltitadan, jami 12 ta stansiyalar avtomatik ravishda saqlanadi.

Radiostansiyalarni sozlash

Siz bir betda 6 ta sevimli radiostansiyani, va jami 36 tagacha AM va FM stansiyalarini saqlashingiz mumkin.

1. Kerakli radiostansiyani toping yoki uning chastotasiga qo'lda sozlaning.
2. Tanlangan betni tanlash uchun 1 dan 6 gacha TANLANGAN [FAV] tugmasini bosing.
3. Siz ushbu radiostansiyani xotiraga saqlab yozmoqchi bo'lgan raqam ostidagi funksional tugmasini bosib, 1 soniyadan uzoqroq ushlab turing.

Aks ettiriladigan sevimli betlarning sonini o'zgartirish uchun.

1. MENYU / OVOZ tugmasini bosing.
2. Audio displeyda aks ettirilganda, FAV 1 dan 6 gacha tugmasini bosing.
3. Sizga kerakli radiostansiya saqlab qoling tanlangan uyaning raqami ostidagi funksional tugmani bosing.
4. Radiostansiyani saqlab qolish uchun, FAV tugmasini bosing.

Xotirada saqlangan radiostansiyani tinglash

1. Audio displeyda aks ettirilganda, FAV 1 dan 6 gacha tugmasini bosing.
2. Audio displeyda aks ettirilganda, funksional tugmani bosing.

Radio ma'lumot tizimi (RDS)

AF (avtosozlanish) yoqilgan / o'chirilgan

AF funksiyasi doimo radiopriyomnikni eng aniq signali bo'lgan stansiyaga sozlab turadi.

MENYU / OVOZ rejimida "radio" tugmasini bosing, va radiopriyomnik radio menyusini aks ettiradi.

RDS ostidagi funksional tugmani bosing, axborot - ko'ngil ochar tizimi RDS menyusini aks ettiradi.

AF yozuvi ostidagi funksional tugmani bosing. Siz ushbu funksional tugmani bosganingizda, AF funksiyasi yoqiladi va o'chiriladi.

Mintaqaviy eshittirish yoqilgan / o'chirilgan

Mintaqaviy stansiya funksiyasi axborot-ko'ngil ochar tizimini mahalliy stansiyaga o'tkazadi ("Mintaqaviy stansiya o'chirilgan").

"Radio" rejimida MENYU / OVOZ tugmasini bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi radio menyusini aks ettiradi.

RDS ostidagi funksional tugmani bosing, axborot - ko'ngil ochar tizimi RDS menyusini aks ettiradi.

REG yozuvi ostidagi funksional tugmani bosing, mintaqaviy eshittirish funksiyasi Funksiya tugmasini har bir bosishda yoqiladi / o'chiriladi.

Yo'l vaziyati haqidagi xabarlarni qabul qilish

Yo'l yangiliklari kanalining xabarlarini tinglash uchun TP / INFO tugmasini bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi yo'l vaziyati haqidagi xabarlarni yoqadi.

Agar axborot-ko'ngil ochar tizimi yo'l vaziyati haqidagi xabarlar rejimida bo'lsa, yo'l vaziyati xabarlari kanalini o'chirish uchun TP / INFO tugmasini bosing.

Yo'l vaziyati haqidagi xabarlarni beruvchi stansiyani izlash

Yo'l vaziyati haqidagi xabarlar kanali bo'lmagan radiostansiyani tinglash paytida TP / INFO tugmasini bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi yo'l vaziyati xabarlarini uzatib turuvchi keyingi stansiyani izlashni amalga oshiradi.

Yordamchi moslamalar

USB-tashuvchilardan qayta eshittirish USB-tashuvchilar bilan ishlashda ehtiyot choralari

- USB-tashuvchilarning ichki o'rnatilgan qattiq disk bilan, shuningdek USB-adapter orqali ulangan CF yoki SD kartalar bilan ishlay olishi kafolatlanmaydi.
- Flesh-xotirasi bo'lgan USB-tashuvchidan foydalaning.
- USB-tashuvchini ulashda va o'chirishda statik elektr zaryadlariga yo'l qo'ymang. Moslama qisqa vaqt ichida ko'p marta yoqilganda va o'chirilganda, moslama bilan aloqa yuzasidan muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Metalldan yasalmagan uya orqali USB-moslamalarning ulanishi kafolat qilinmaydi.
- i-Stick turidagi USB-moslamalarning ulanishi avtomobilning tebranishi sababli ishonchli bo'lmasligi mumkin; bunday moslamalarning ishlashi kafolatlanmaydi.
- USB-uyaga tegmang, va unga begona buyumlar bilan tegmang.
- Faqat FAT 16/32 fayl tizimi bo'lgan USB-moslamalar tanib olinadi. Faqat sektor o'lchami 512 yoki 2048 bayt bo'lgan moslamalar qo'llab-quvvatlanadi. NTFS va boshqa fayl tizimlari tanib olinmaydi.
- Tanib olish payti USB-moslamaning tur va sig'imiga, va yozib olingan fayllarning turiga bog'liq bo'ladi. Bu tizimning nosozligiga bog'liq emas; uni tanib olishning tugashini kutib turing.
- Ba'zi USB-moslamalarda fayllar mos kelish muammolari tufayli tanib olinmasligi mumkin. Xotira kartalaridan axborot o'qish moslamalari va USB-konsentratorlar qo'llab-quvvatlanmaydi. Moslamadan foydalanishdan avval, avtomobilda uning ishlashini tekshiring.
- Tashqi disk rejimida ulangan MP3-pleyerlar, mobil telefonlar, raqamli fotoapparatlar va boshqa moslamalar tegishli ravishda ishlamasligi mumkin.
- USB-moslamani qayta eshittirish paytida ajratib olmag. Bu tizimning shikastlanishiga yoki USB-moslamaning nosozligiga olib kelishi mumkin.
- O't oldirish o'chirilganda, ulangan USB-moslamani o'chiring. USB-moslama ulanganda o't oldirish yoqilganda, moslama shikastlanishi mumkin yoki uning ishlashi buzilishi mumkin.

DIQQAT!

USB-tashuvchilarni tizimga faqat musiqa fayllarini qayta eshittirish uchun ulash mumkin.

USB tizimining uyasidan USB-moslamalarni zaryadlash uchun foydalanish kerak emas, chunki USB-uyaning qizishi ishlashning yomonlashuviga yoki tizimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Agar USB - tashuvchi mantiqiy disklarga bo'lingan bo'lsa, faqat birinchi mantiqiydiskdagi musiqa fayllari qayta eshittiriladi. Shuning uchun musiqa fayllarini moslamaning birinchi mantiqiy diskida saqlash kerak. Agar unda dasturiy ta'minot uchun alohida bo'lim ajratilgan bo'lsa, USB-tashuvchidan ovozli fayllarni qayta eshittirishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin.
- DRM himoyasi bo'lgan musiqa fayllarini qayta eshittirish mumkin emas.

USB rejimini tanlash

Boshqa rejimdan USB ga o'tish uchun, SRC/PAUSE tugmasini bosing.

USB moslamasini ulash

USB fayllarini avtomatik qayta eshittirish uchun, USB moslamasini USB uyasiga ulang.

USB moslamasini chiqarib oling

USB moslamasini USB-uyasidan chiqarib oling.

Pauza

USB moslamalaridan qayta eshittirish paytida pauzaga qo'yish uchun, SRC/PAUSE tugmasini bosing va ushlab turing.

Displayda "PAUSE" aks ettiriladi.

USB moslamalaridan yana qayta eshittirish uchun, SRC/PAUSE tugmasini bosing va ushlab turing.

- Agar axborot-ko'ngil ochar tizimiga AUX jihoz-uskunasi ulangan bo'lsa, bu holda pauza funksiyasi ishlamaydi.

Qayta eshittirilayotgan trekni o'zgartirish

Keyingi yoki avvalgi trekni qayta eshittirish uchun, ◀TUNE yoki ▶TUNE tugmasini bosing.

Qayta eshittirish joyini o'zgartirish

Oldinga yoki orqaga aylantirish uchun, ◀TUNE yoki ▶TUNE tugmasini bosing va ushlab turing, keyin esa qo'yib yuboring.

- Siz tugmani qo'yib yuborganingizda, fayl normal rejimda qayta eshittirila boshlaydi.

USB-moslamasida qayta eshittirish papkasini o'zgartirish

Keyingi yoki avvalgi papkaga o'tish uchun, ◀SEEK yoki ▶SEEK tugmasini bosing.

Qayta eshittirish rejimi (RPT/RDM/INT)

RPT (TAKRORLASH) yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi joriy trekni qayta eshittirishni doimiy takrorlab turadi.

Bu funksiyasini bekor qilish uchun, **RPT** belgisi ostidagi **funksional tugmani** yana bir marta bosing.

RDM (TASODIFIY TARTIB) yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi treklarni tasodifiy tartibda qayta eshittira boshlaydi.

Ushbu funksiyani bekor qilish uchun, **RDM** belgisi ostidagi **funksional tugmani** yana bir marta bosing.

INT yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi har bir trekning birinchi bir necha soniyasini ketma-ket qayta eshittira boshlaydi.

Ushbu funksiyani bekor qilish uchun, **INT** belgisi ostidagi **funksional tugmani** yana bir marta bosing.

Orqaga / odlinga tez aylantirish

Menyuning kerakli bandiga o'tish uchun, ◀IZLASH▶ belgisi ostidagi **funksional tugmani** bosing, keyin ENT belgisi ostidagi tugmani bosing.

Bekor qilish yoki avvalgi amal

Avvalgi amalga qaytish uchun, ◀ belgisi ostidagi tugmani bosing.

Tashqi audio signal manbai (AUX)

Axborot-ko'ngil ochar tizimining yuza panelining o'ng pastki tomonida bitta 3,5 mm diametrlil qo'shimcha kirish uyasi bor.

Bu audio chiqish emas, audio quloqliklarni oldingi qo'shimcha uyaga ulamang.

Boshqa moslamalarni ulash audio tizimning nosozligiga va shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Mashinani boshqarishning xavfsizligiga ta'sir qiladigan biror-bir moslamalardan foydalanmang.

TELEFON

AUX IN rejimini tanlash

Boshqa qayta eshittirish rejimida SRC/PAUSE tugmasini bosing.

Agar qo'shimcha uyada shteker borligi aniqlanmasa, bu rejim yoqilmaydi.

AUX rejimini tanlash:

1. AUX uyasiga moslamani ulang.
2. SRC/PAUSE tugmasini bosing.
3. Moslamani yoqing.
4. Ovoz balandligini oshirish yoki kamaytirish uchun, sozlash dastasini sozlang.

ESLATMA

Moslamani audio tizimning tugmalari yordamida boshqarish mumkin emas.

Telefonni Bluetoothga ulash

Moslamalarni bog'lash tartibi

BLUETOOTH [⌘] tugmasini bosing. Moslamalarni bog'lash amallari ishga tushiriladi.

1. Displeydagi "PAIRING" (BOG'LASH) yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosing.

2. Telefonda moslamalarni izlashni bajaring va "CAR AUDIO" (AVTOMOBIL AUDIO TIZIMI) nomi ostidagi moslamani tanlang.

Audio tizimning displeyida 3 soniya ichida ulangan moslamaning nomi aks ettirilishi kerak. Bog'lash yakunlanganidan keyin audio tizim Mode Selection (rejimni tanlash) rejimiga o'tadi va displeyda BT yozuvi aks ettiriladi.

Bluetooth ulanishi telefonning modeliga bog'liq holda, vaqt-vaqti bilan uzilishi mumkin.

Uni yana ulash uchun, ushbu yo'l-yo'riqlarga amal qiling.

- Telefon orqali Bluetooth funksiyalarini yoqing va o'chiring, va yana urinib ko'ring.
- Telefonni yoqing va o'chiring, va yana urinib ko'ring.
- Telefondan batareykani chiqarib oling, uni qayta yoqing va yana urinib ko'ring.
- Ushbu moslamani qayta yoqing va yana urinib ko'ring.
- Barcha ulangan moslamalarni, juftlarni yo'q qiling va yana urinib ko'ring.

Avtomatik ulanish

1. Ta'minot yoqilganda axborot-ko'ngil ochar tizimi Bluetooth orqali avval ulangan moslamaga avtomatik ulanishga urinib ko'radi.

2. Agar bog'langan moslama Bluetoothning ta'sir etish zonasidan tashqariga chiqib ketgan bo'lsa (10 m), keyin esa yana shu zonaga qaytgan bo'lsa, axborot-ko'ngil ochar tizimi avtomatik ravishda ular bilan aloqani tiklashga urinadi.

Ajratib olish tartibi

Axborot-ko'ngil ochar tizimi Bluetooth moslamasiga ulanganda, ⌘ (Bluetooth) tugmasini bosing.

Keyin Bluetooth menyusi paydo bo'ladi.

1. "UNPAIRING" yozuvi ostidagi tugmani bosing.

2. Bluetooth moslamasini ajratish uchun "YES" yozuvi ostidagi tugmani bosing.

"NO" tanlab olinganda, axborot-ko'ngil ochar tizimi Bluetooth moslamasi bilan ulanishni davom ettiradi.

Audio bluetooth

A2DP rejimi

AUDIO PLAY yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosing.

PLAY

Ulangan Bluetooth moslamasidan fayllarni qayta eshittirishni boshlash uchun,

displayda ►/|| belgisi ostidagi funksional tugmani bosib.

Pauza

Eshittirilayotgan MP3-faylni qayta eshittirishni to'xtatish uchun, displayda ►/|| belgisi ostidagi **funksional tugmani** bosib.

Keyingi / avvalgi trek

Displayda belgilari ▲/▼ ostidagi funksional tugmalarni bosib, va keyingi / avvalgi trekni qayta eshittirish boshlanadi.

Baland ovozli aloqa moslamasi bo'lgan telefon

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish

Qo'ng'iroq qilish

1. Displayda **Call (Chaqirish)** yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosib.
 2. Displayda **Last Call (Oxirgi chaqirish)** yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosib.
- Displayda audio tizimning "Dialing..." (raqam terilmoqda) va Connected (aloqa o'rnatildi) xabari aks ettiriladi.

Kiruvchi qo'ng'iroq

Audio tizimda 3 soniya davomida "Incoming Call" (Kiruvchi qo'ng'iroq) xabari aks ettiriladi, keyin displayda **JAVOB BERISH** yoki **JAVOB BERMASLIK** yozuvi ostidagi funksional

tugmasi bosilmaguncha "Kiruvchi qo'ng'iroqning raqami" aks ettiriladi.

1. Displayda **JAVOB BERISH** yozuvi ostidagi funksional tugmani bosib, va audio tizim abonentlarning ulanishini amalga oshiradi.
2. Displayda **JAVOB BERMASLIK** yozuvi ostidagi funksional tugmani bosib, va audio tizim boshlang'ich rejimga qaytadi.

Suhbat paytida

Telefon orqali suhbat paytida displayda **MIC MUTE (MIKROFONNI O'CHIRISH)** yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosib, va mikrofon o'chiriladi.

Telefon orqali suhbat paytida displayda **PRIVATE (Maxfiy rejim)** yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosib, va audio tizim maxfiy rejimga o'tadi.

Telefon orqali suhbat paytida displayda **HANG UP (SUHBATNI YAKUNLASH)** yozuvi ostidagi **funksional tugmani** bosib. Audio tizim boshlang'ich rejimga qaytadi.


MASOFADAN BOSHQARISH TIZIMI *

Rul chamberagidagi masofadan boshqarish organlari*

Audio tizimning asosiy amallari rul g'ildiragidagi o'tkazgichlarning yordamida ham bajarilishi mumkin.

ESLATMA

Agar qo'shimcha AUX uyasida (tashqi signalning manbai) shteker mavjud bo'lmasa, AUX rejimi yoqilmaydi.



N5G4001A

5-12 AUDIOTIZIM *

Tugmalar	Funksiyalar
PWR	Bu qismida elektr ta'minot yoqilganda: Qisqa vaqtga bosish: Ovozsiz rejimni yoqadi Uzoq bosish: Elektr ta'minotni uzatishni o'chiradi • Bu qismida elektr ta'minot o'chirilganda: Ushbu tugmani bosish bu qismida elektr ta'minotni yoqadi.
MODE	Audio rejimni tanlash uchun foydalaniladi. AM ® FM ® (AUX) ® AM ga qaytadi.
SEEK	• Radio rejimida Qisqa vaqtga bosish: Keyingi tanlangan stansiyaga o'tadi Uzoq bosish: Avtomatik sozlashni boshlaydi
VOLUME (+) (-)	+ tomoniga: Ovoz balandligini oshiradi - tomoniga: Ovoz balandligini kamaytiradi

6

AMALIY MASLAHATLAR

- ZAXIRA G'ILDIRAK, DOMKRAT VA ASBOBLAR TO'PLAMI 6-2
- SHIKASTLANGAN G'ILDIRAKNI ALMASHTIRISH 6-3
- BOSHQA AVTOMOBILNING AKKUMULYATOR BATAREYASIDAN DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH 6-6
- AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH 6-8
- TIQILIB QOLGAN AVTOMOBILNI CHAYQATISH ... 6-10
- DVIGATELNING O'TA QIZIB KETISHI 6-11
- ESLATMALAR 6-12

ZAXIRA G'ILDIRAK, DOMKRAT VA ASBOBLAR TO'PLAMI


Zaxira g'ildirak, domkrat va boshqa asboblari yukxona bo'limida saqlanadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Zaxira g'ildirak, domkrat va boshqa asboblari uchun maxsus mo'ljallangan joyda saqlanishi lozim.

- Zaxira g'ildirak, domkrat yoki boshqa asboblarni avtomobilning salonida qoldirmang.

Kerakli tarzda mahkamlanmagan asboblari avtomobilni shoshilinch tez tormozlash holatida yoki yo'l-transport hodisasi bo'lganda yo'lovchilar uchun xavfli bo'lishi mumkin.



Zaxira g'ildirakni yukxona bo'limining poli tagida saqlanishi shart.

Domkrat va boshqa asboblari yukxona bo'limida saqlanishi kerak.

Asboblarni oson topish mumkin bo'ladigan qilib joylashtirish kerak.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun «G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR» bo'limiga qarang.

ESLATMA

Avtomobilning harakatlanishi paytida begona shovqinlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun domkrat, domkratning dastasini va boshqa asboblarni yukxona bo'limining polni tagiga qo'yish kerak.

Domkratning xususiyatlari

Maksimal ish yuklanishi	700 kg
Moylash turi	Konsistentli litiyli moylash vositasi
Moylash vositasining sinfi	NLGI-1 yoki NGLI-2

⚠ OGOHLANTIRISH!

Bu domkrat avtomobilning ushbu modeli uchun maxsus ishlab chiqilgan.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Undan avtomobillarning boshqa modellari uchun foydalanish tavsiya etilmaydi.
- Domkrat bilan ishlaganda uning maksimal yo'l qo'yiladigan yuklanishidan ortib ketishiga yo'l qo'yish mumkin emas.

Ushbu domkratdan boshqa avtomobillar uchun foydalanish uning buzilishiga yoki avtomobilning buzilishiga olib kelishi, shuningdek tan jarohatlari yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin.

SHIKASTLANGAN G'ILDIRAKNI ALMASHTIRISH

Shikastlangan g'ildirakni almashtirishdan avval quyida keltirilgan xavfsizlikka oid yo'riqnoma bilan tanishib chiqish kerak.

G'ildirakni almashtirishda xavfsizlik choralari

1. Avariya yo'riqlig' signalizatsiyasini yoqing.
2. Avtomobilni asosiy yo'l xarakatidan yetarli masofada to'xtatib qoldiring.
3. Avtomobilni tekis va qattiq joyda to'xtatib qoldirish kerak. «AVTOMOBILNI TO'XTATISH» bo'limiga qarang.
4. Dvigatelni o'chiring va o't oldirish kalitini chiqarib oling.
5. To'xtab turish tormozini o'rnat.
6. Barcha yo'lovchilar avtomobilning salondan chiqishi va undan xavfsiz bo'lgan masofaga ketishi kerak.
7. Almashtiriladigan g'ildirakka nisbatan diagonali bo'yicha joylashgan g'ildirak ostiga ikki tomonidan ponalarni, yog'och bo'laklarini yoki katta toshlarni qo'ying.




Ushbu xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik avtomobil domkratdan sirg'alib ketishiga olib kelishi mumkin, bu o'z navbatida jiddiy tan jarohatlariga sabab bo'lishi mumkin.

Shikastlangan g'ildirakni almashtirish

1. Yukxona bo'limidan zaxira g'ildirakni, domkratni va boshqa asboblarni oling.

2. G'ildirak kaliti yoki yassi otvertka yordamida g'ildirakdan (mavjud bo'lganda) qalpoqni yechib oling.

3. G'ildirak kaliti bilan g'ildirakning har bir boltini bitta aylanaga burab bo'shat.





4. Domkratning dastasini va g'ildirak kalitini domkratga o'rnat.

5. G'ildirakni ko'tarish uchun domkratning dastasini soat milining yo'nalishida aylantiring.

6. Domkratni quyidagi rasmda ko'rsatilgan holatiga o'rnat. Avtomobilning oldingi va orqa eshiklari tagidagi yuzasining domkrat uchun mo'ljallangan maxsus kuchaytirilgan joylari mavjud.

7. Domkratni almashtirish lozim bo'lgan g'ildirakdan o'ng yoki chap tomondagi kuchaytirilgan joyi ostida vertikal holda o'rnat.



8. Domkratning dastasini soat milining yo'nalishida aylantirib, domkrat kuzovning kerakli joyida mustahkam mahkamlanmaguncha, g'ildirak esa kamida 3


sm balandlikka yer ustida ko'tarilmaguncha, avtomobilni ehtiyot bo'lib ko'taring.

⚠️ DIQQAT!

- Avtomobilni ko'tarish paytida domkratning ishonchli joylashganiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda u avtomobilning tagidan sirg'alib chiqib ketishi mumkin.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning tagida turmang va dvigatelni ishga tushirmang.
Domkrat sirg'alib chiqib ketishi mumkin, buning oqibatida jiddiy jarohatlar yoki o'lim yuzaga kelishi mumkin.



9. G'ildirak kalitini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantirib, barcha gaykalarni va boltlarni oxirigacha bo'shating, keyin esa ularni g'ildirakdan chiqarib oling.

10. G'ildirakni yechib oling.

11. G'ildirak o'qiga zaxira g'ildirakni o'rming.

⚠️ DIQQAT!

- Hech qachon g'ildirakning gaykalari yoki boltlarini moy yoki moylash vositasi bilan moylamang.
- Doimo faqat g'ildirakka mos keladigan gaykalar va boltlardan foydalaning.
- Asboblar to'pamining ichida yetkazib beriladigan g'ildirak kalitining yordamida, g'ildirakdagi gaykalarni va boltlarni ishonchli tortib mahkamlang.
- Gaykalarni va boltlarni spetsifikatsiyalarga muvofiq holda tortib mahkamlash uchun imkoni boricha tezroq vakolatlangan dilerga murojaat qilish lozim.

Agar gaykalar yoki boltlar noto'g'ri tortib mahkamlansa, ular vaqt o'tishi bilan bo'shab qolishi mumkin.


12. G'ildirakning gaykalari va boltlarini o'rming va g'ildirak kalitini soat milining yo'nalishida aylantirib, sal mustahkamlang.

13. Avtomobilni yerga qo'yish uchun, domkratning dastasini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.

14. G'ildirakning gaykalari va boltlarini **120 Nm** momenti bilan, «butsimon» sxemasidan foydalanib, 1 -> 2 -> 3 -> 4 ketma-ketligida ishonchli tortib mahkamlang (quyidagi rasmga qarang).

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Mos keladigan gaykalar va boltlardan foydalanilishini tekshiring, ular ishonchli tortib mahkamlanishi kerak. Tavsiya etilmagan detallardan foydalanish yoki boltlarni yetarlicha tortib mahkamlamaslik ularning buralib tushib ketishiga olib kelishi mumkin.



15. G'ildirak qalpog'ini yukxona bo'limiga qo'yib mahkamlang. U vaqtincha zaxira g'ildirakni odatdagi g'ildirakka almashtirishda kerak bo'ladi.

⚠️ DIQQAT!

G'ildirak qalpog'ini vaqtincha zaxira g'ildirakka qo'ymang. Qalpoq yoki g'ildirak shikastlanishi mumkin.

16. Domkratni, asboblarni va shinasining havosi chiqqan g'ildirakni ular uchun mo'ljallangan joyga olib qo'ying.

▲ OGOHLANTIRISH!

Domkratni yoki asboblarni avtomobilning salonida qoldirmang.
Kerakli tarzda mahkamlanmagan asboblarni avtomobilni shoshilinch tez tormozlash holatida yoki yo'l-transport hodisasi bo'lganda yo'lovchilar uchun xavfli bo'lishi mumkin.

ESLATMA

Vaqtincha zaxira g'ildirak faqat qisqa vaqt davomida foydalanish uchun mo'ljallangan. Zaxira g'ildirakni imkoni boricha tezroq odatdagi g'ildirak bilan almashtirish lozim.

▲ DIQQAT!

Domkratda ko'tarilgan avtomobil o'z barqarorligini yo'qotadi, bu esa avtomobilga zarar yetkazishi va kishilarning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Faqat yetkazib beriladigan, to'g'ri holatda o'rnatilgan domkratdan foydalanish kerak.
- Domkrat yerga perpendikulyar holda o'rnatilgan bo'lishi kerak.

▲ DIQQAT!

- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning tagida turish mumkin emas.
- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning dvigatelini ishga tushirish mumkin emas.
- Avtomobilni domkratga o'rnatishdan avval barcha yo'lovchilar avtomobilning salonidan chiqib ketishi va xavfsiz masofaga (shu jumladan boshqa transportdan) ketishi lozim.
- Domkratdan faqat g'ildiraklarni almashtirish uchun foydalanish lozim.
- Domkratni nishabli yoki sirpanchiq yuzga ustida turgan avtomobilning tagiga o'rnatish xavfli bo'ladi.
- Domkratni bevosita almashtirish lozim bo'lgan g'ildirakning yonida o'rnatish kerak.
- Almashtiriladigan g'ildirakka nisbatan diagonal bo'yicha joylashgan g'ildirakni bloklash kerak.
- Avtomobilni domkrat bilan ko'tarishdan avval to'xtab turish tormozini tortib ko'taring, birinchi yoki orqa uzatmani yoqing (mexanik uzatmalar qutisi) yoki uzatmalarni o'zgartirish dastagini «P» holatiga o'rnatish (avtomatik uzatmalar qutisi).
- G'ildirakni almashtirishni harakatlanayotgan transport yaqinida bajarmang.

▲ DIQQAT!

G'ildirakni almashtirish uchun sharoit bo'lmaganda yoki o'z kuchingiz va imkoniyatingizga ishonmasangiz, avtomobillar ustaxonasiga murojaat qiling.

BOSHQA AVTOMOBILNING AKKUMULYATOR BATAREYASIDAN DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH

⚠️ DIQQAT!

- Avtomobilni itarib yoki shatakka olib, dvigatelni ishga tushirishga urinmang. Bu katalitik neytralizator, avtomatik uzatmalar qutisining shikastlanishiga, shuningdek kishilarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanganda, dvigatelni ishga tushirish uchun boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan foydalanish mumkin.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Akkumulyator batareyalari portlashdan xavfli bo'ladi. Elektrolit tufayli kuyish yoki qisqa tutashuv bo'lishi mumkin, bu esa og'ir jarohatlar olishga yoki avtomobilning detallari shikastlanishiga olib keladi.

- Akkumulyator batareyalaridan alanga yoki uchunlar manbalaridan yaqin oyda foydalanmang.
- Boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishda, akkumulyator batareyasini chetga og'dirmang.
- Simlarning qisqa tutashuviga yo'l qo'ymang.
- Akkumulyator batareyasining yonida ishlaganda himoya ko'zoynakni taqish lozim.
- Elektrolitning ko'zga, teriga, kiyim ustiga yoki bo'yalgan yuzalarga tegishiga yo'l qo'ymang.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

- Ikkala avtomobilning akkumulyator batareyalari bir xil nominal ulanishga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Zaryadsizlangan akkumulyator batareyasini qismlarga ajratmang. Ushbu xavfsizlik choralarini bajarmaslik yoki boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan uzaytirish simlari yordamida dvigatelni ishga tushirish yuzasidan quyidagi yo'l-yo'riqlarga e'tibor bermaslik akkumulyator batareyasining portlashiga, elektrolit tufayli kuyishga yoki qisqa tutashuvga olib kelishi mumkin. Bularning barchasi ikkala avtomobilning elektr tizimlari jiddiy shikastlanishlariga olib kelishi, shuningdek og'ir tan jarohatlari olinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishdan avval:

1. To'xtab turish tormozini yoqing.
2. Avtomatik uzatmalar qutisi mavjud bo'lganda **PARK** uzatmasini yoqing, mexanik uzatmalar qutisi bo'lganda uzatmalar qutisining dastagini neytral holatiga o'tkazing.
3. Barcha elektr asboblarni o'chiring.

⚠️ DIQQAT!

- Boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishdan avval audiotizimni o'chirish kerak. Aks holda bu uning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday nosozliklarni bartaraf etish ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

⚠️ OGOHLANTIRISH!


- Uzaytirish simlari motor bo'limidagi aylanadigan detallarga tegmasligini nazorat qiling. Bu ushbu detallarning jiddiy buzilishlariga olib kelishi mumkin. Uzaytirish simlarini ulash.

Uzaytirish simlarini ulash.

Uzaytirish simlari quyidagi tartibda ulanadi:

1. Birinchi uzaytirish simining qisqichini zaryadlangan batareyaning musbat chiqishiga ulang (batareyasining korpusi ustidagi yoki chiqishning o'zidagi «+» belgisi qo'yilgan).
2. Bu simning boshqa uchi zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining musbat chiqishiga ulanadi («+» belgisi qo'yilgan)

3. Ikkinchi uzaytirish simining bir uchi zaryadlangan batareyaning manfiy chiqishiga ulanadi (batareyasining korpusi ustidagi yoki chiqishning o'zidagi «-» belgisi qo'yilgan).



⚠ OGOHLANTIRISH!

Ikkinchi uzaytirish simining qolgan uchini zaryadsizlangan batareyaning manfiy (-) chiqishiga ulamang.

- Bu qisqichni dvigatelning biror-bir metall kronshteyniga mahkamlash kerak.
- Bu kronshteyn akkumulyator batareyasidan imkoni boricha uzoqroq joylashishi kerak.

Oxirgi qisqichni zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining manfiy (-) chiqishiga ulash elektr yoyining hosil

⚠ OGOHLANTIRISH!

bo'lishiga yoki akkumulyator batareyasining portlashiga olib kelishi mumkin. Bu kishilarning jarohatlanishiga va avtomobilning detallari shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

ESLATMA

Akkumulyator batareyalarini ulashda ularning qutblariga alohida e'tibor bering. Noto'g'ri ulash oqibatida yuzaga kelgan avtomobilning shikastlanishlari ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

4. Manfiy simning ikkinchi bo'sh uchi yerga tutashtirish uchun xizmat qiladi va dvigatelning biror-bir metall kronshteyniga ulanadi.
5. Zaryadsizlangan batareyani zaryadlash davomida, dvigatelni ishga tushirish qaysi avtomobilning batareyasidan bajarilsa, uning dvigatelining ishlashiga yo'l qo'yiladi.

ESLATMA

Akkumulyator batareyasi zaryadsizlangan avtomobilning dvigatelni ishga tushirishga urinish orasidagi vaqt kamida bir daqiqa, har bir urinishning davomiyligi esa - ko'pi bilan 15 soniya bo'lishi kerak.

Dvigatel muvaffaqiyatli ishga tushirilganidan keyin:

1. Manfiy simning uchlarini (-) ehtiyot bo'lib ajratib oling. Akkumulyator batareyasi zaryadsizlangan avtomobilidan boshlash lozim. Avtomobilning dvigatelni o'chirmang.
2. Manfiy simning qisqichini boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasining manfiy chiqishidan ajratib oling.
3. Ikkala akkumulyator batareyasining musbat chiqishlaridan sim qisqichlarini ajratib oling. Uzaytirish simlarini yukxonaga, zaxira g'ildirakning yoniga qo'ying.
4. Dvigatelni ishga tushirishdan keyin avtomobil taxminan **20** daqiqa harakatlanishi kerak. Bu akkumulyator batareyasining zaryadlanishi uchun kerak bo'ladi.
5. Batareyasi takaroran zaryadsizlangan holda, vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Zarur bo'lganda, avtomobilni shatakka olishi tavsiya etiladi. Vakolatlangan dilerga yoki maxsus tashish xizmatiga murojaat qilish lozim.


⚠ OGOHLANTIRISH!

- Yo'lovchilarni shatakka olingan avtomobilida tashish taqiqlanadi.
- Avtomobilni shatakka olishda xavfsiz tezlik yoki ushbu holatlarda ruxsat etilgan tezlikdan oshib ketish taqiqlanadi.


AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH

▲ OGOHLANTIRISH!

- Detallari nosoz bo'lgan, avtomobilda yoki uning salonida to'liq mahkamlanmagan avtomobilni shatakka olish taqiqlanadi. Ushbu xavfsizlik choralariga rioya qilmaslik og'ir tan jarohatlariga olib kelishi mumkin.

**Avtomobilni qisman yuklash usuli bilan shatakka olish**

1. Avariya yorug'lik signalizatsiyasini yoqing.
2. O't oldirish kalitini **ACC** holatiga burang.
3. Mexanik uzatmalar qutisining dastagini yoki avtomatik uzatmalar qutisining o'tkazgichini neytral holatiga (**NEUTRAL**) o'rnatg.
4. Avtomobilda to'xtab turish tormozini pastga tushiring.
5. Oldingi g'ildiraklar ostiga shatakka olish aravachasini o'rnatishdan keyin avtomobilni shatakka olish mumkin bo'ladi.

**▲ DIQQAT!**

Avtomobilning orqa o'qini evakuatorga yuklash usuli bilan shatakka olishda, oldingi



▲ DIQQAT!

g'ildiraklar ostiga shatakka olish aravachasini o'rnatish lozim.

- Shatakka olish faqat ko'tarilgan oldingi g'ildiraklari bilan amalga oshirilishi mumkin. Oldingi g'ildiraklari yo'lga tayanadigan avtomobilni shatakka olish avtomobilning uzatmalar qutisining jiddiy shikastlanishlariga olib kelishi mumkin.

▲ DIQQAT!

- Avtomobilni shatakka olish uchun stropalardan foydalanish mumkin emas.
- Buning o'rniga yassi platformali ko'targichdan foydalaning.



Shoshilinch holatlarda shatakka olish


Evakuatorni chaqirish mumkin bo'lmaganda, avtomobilni shatakka olish avtomobilning bamperi ostidagi zo'g'otalarga biriktiriladigan avariyali shatakka olish trosining yordamida amalga oshiriladi.

Avtomobilning oldingi qismidagi shatakka olish zo'g'otalari

Shatakka olish zo'g'otalari avtomobilning bamperi ostida joylashgan. Shatakka olingan avtomobilning ruli va tormozlarini boshqarish uchun, unda haydovchi bo'lishi kerak.

Bunday usulda shatakka olish faqat qattiq qoplamali yo'lda, qisqa masofalarga va kichik tezlikda amalga oshirilishi mumkin.

Bunda avtomobilning g'ildiraklari, g'ildirak o'qlari, uzatmalar qutisi, rul boshqarishi va tormoz mexanizmlari ishlaydigan bo'lishi kerak.

**⚠️ DIQQAT!**

Avtomobilni shatakka olish trosining yordamida shatakka olish paytida avtomobilning ba'zi detallari buzilishining ehtimoli bo'ladi.

Buzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun:

- Oldingi zo'g'otalarga biriktirib shatakka olish faqat boshqa shatakka olish jihozlari bo'lmaganda amalga oshirilishi kerak.
- Avtomobilni uning oldingi qismiga biriktirib shatakka olish tavsiya etiladi.
- Shatakka olish trosi bamperga tegmasligi lozim.
- Shatakka olish trosining ikkala uchi zo'g'otalar ichida ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Buning uchun shatakka olish trosini tortib ko'ring.

- Shatakka olish trosining yordamida shatakka olish avtomatik uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin. Avtomatik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobilni shatakka olish uchun yassi platformali evakuatordan yoki ko'targichdan foydalanish tavsiya etiladi.
- Avtomobil o'rtacha tezlik bilan va keskin tortishlarsiz harakatlanishi kerak.

⚠️ DIQQAT!

Shatakka olish trosi bilan shatakka olish avtomatik uzatmalar qutisining jiddiy shikastlanishlariga olib kelishi mumkin. Avtomatik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobilni shatakka olishda g'ildiraklar uchun platformadan yoki maxsus ko'targichdan foydalaning.

- Mexanik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobil: avtomobil harakatlanishi yo'nalishiga qaratilgan oldingi tomoni bilan, ko'pi bilan 88 km/soat tezlik bilan shatakka olinishi lozim. Qolgan hollarda va uzatmalar qutisi shikastlanganda, oldingi ko'priker yerdan ko'tarilgan bo'lishi kerak.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Ehtiyot bo'ling, chunki tros bilan shatakka olishda shatakka olingan avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qotilishi mumkin.


- G'ildiraklari, o'qlari, uzatmalar qutisi, rul boshqarish tizimi va tormozlari shikastlangan avtomobilni shatakka olishni amalga oshirish mumkin emas.
- Avtomobilni shatakka olish paytida o't oldirishni yoqish moslamasini o'chirmang, chunki bu rul kolonkasining bloklanishiga va avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qotilishiga olib keladi.

TIQILIB QOLGAN AVTOMOBILNI CHAYQATISH

Orqa shatakka olish ilmog'i

Avtomobilning orqa qismidagi shatakka olish ilmog'i boshqa avtomobillarni shatakka olish uchun foydalaniladi. Undan faqat shoshilinch holatlarda, masalan, boshqa avtomobilni ariqdan, qor uyumidan yoki loydan olib chiqish uchun foydalanish kerak.


Shatakka olishda kuch yo'nalishi faqat avtomobilning markazi o'qi bo'ylab yo'naltirilishi kerak. Avtomobilning o'qiga biror burchak ostida kuch qo'yilishiga yo'l qo'ymang. Avariyalarga yo'l qo'ymaslik uchun tros tortilishining keskin bo'shashishiga yo'l qo'ymang.



Agar avtomobil qor, loy ichida yoki boshqa qattiq bo'lmagan yo'l qoplamasi ichida tiqilib qolgan bo'lsa, quyidagi harakatlarni bajaring.

1. Rul g'ildiragini avval o'ngga, keyin chapga oxirigacha burang. Bu oldingi g'ildiraklarning atrofidagi yo'l izini tozalashga imkon beradi.
2. Uzatmalarni orqaga yurishdan oldinga yurish uzatmalariga ketma-ket o'tkazib turing.
3. G'ildiraklarning joyida sirpanishini minimal darajada tutib turishga harakat qiling.
4. Uzatmalarni o'tkazish paytida akselerator pedalini qo'yib yuboring.
5. Uzatmalar yoqilganda, akselerator pedalini sal bosing.

Agar yuqorida ko'ratilgan harakatlar biror natija bermasa, balki, shatakka olishni amalga oshirish kerak bo'ladi. Ushbu bo'limdagi yuqorida «AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH» bandiga qarang.



▲ OGOHLANTIRISH!

Avtomobil tiqilib qolganda uni «oldinga-orqaga» chayqatish paytida:

- Avtomobilning yonida kishilar, binolar yoki boshqa obyektlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Chayqatish paytida avtomobil to'satdan yurib ketishi mumkin, bu esa atrofdagi obyektlarga zarar yetkazilishiga yoki yonida turgan kishilarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

ESLATMA

Avtomobilni «oldinga-orqaga» chayqatib olib chiqishga urinishda, uzatmalar qutisining yoki avtomobilning boshqa qismlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ma'lum ehtiyot choralariga amal qilish lozim.

- Uzatmalarni o'tkazishda, yoki talab etilgan uzatmaning to'liq yoqilishigacha akselerator pedalini bosmang.
- Avtomobilning dvigatelini ishga tushirmang va g'ildiraklarni aylantirmang.
- Agar o'z kuchingiz bilan avtomobilni chiqara olmagan bo'lsangiz, balki, shatakka olishni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Agar sovituvchi suyuqligi haroratining ko'rsatkichi dvigatelning o'ta qizib ketganligini ko'rsatsa, yoki o'ta qizib ketishning boshqa belgilari mavjud bo'lganda:

DVIGATELNING O'TA QIZIB KETISHI

1. Avtomobilni to'xtating.
2. Havoni konditsionirlash tizimini o'chiring.
3. Dvigatelning bir necha daqiqa davomida harakatsiz ishlashini kutib turing.
4. Dvigatelning sovutish tizimi shamollatgichining ishlashini tekshiring.

OGOHLANTIRISH!

Bug' paydo bo'lganda avtomobildan xavfsiz masofaga chiqib keting va dvigatelning sovishini kutib turing. Bug' jiddiy kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Hech qachon tizimda ortiqcha bosim yo'qolmaguncha, sovutish tizimining tiqinini ochmang! Aks holda Siz kuyib qolish xavfida qolasiz, avtomobilning sovutuvchi suyuqligi esa kamayib ketadi.

ESLATMA

Havoni konditsionirlash tizimi tog'li joyda harakatlanish paytida, yoki og'ir yo'l sharoitlarida yoqilgan bo'lsa, bu dvigatelning o'ta qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

Agar shamollatgich aylanmasa va bug' paydo bo'lsa:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Avtomobildan chiqib keting va kapotni ochmasdan, undan uzoqroq turing.
3. Dvigatelning sovishi uchun ma'lum vaqt kutib turing.
4. Kapotning ostidan bug' chiqishi to'xtaganidan keyin kapotni ehtiyot bo'lib oching. Sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring va zarur bo'lganda, uning sathini me'yorigacha yetkazing.
5. Imkoni boricha tezroq vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Agar shamollatgich ishlaydigan bo'lsa va bug' paydo bo'lmasa:

1. Kapotni ehtiyot bo'lib oching.
 2. Dvigatelni sovimaguncha harakatsiz ishlashini qoldiring.
 3. Sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring. Zarur bo'lganda, sovutuvchi suyuqligining sathini me'yorigacha yetkazing.
- Agar shamollatgich ishlaydigan bo'lsa, lekin dvigatelning harorati kamaymasa:
1. Dvigatelni o'chiring.
 2. Kapotni ehtiyot bo'lib oching.
 3. Dvigatelning sovishini kutib turing.
 4. Sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring. Zarur bo'lganda, sovutuvchi suyuqligining sathini me'yorigacha yetkazing.

Sovituvchi suyuqlikning sathi past bo'lganda quyidagi joylarda oqib ketishi bor-yo'qligini tekshiring:

1. Radiator.
 2. Radiatorning naylari.
 3. Radiatorning ulanishlari.
 4. Isitgichning naylari.
 5. Isitgichning ulanishlari.
 6. Sovutish tizimining suvli nasosi.
- Zarur bo'lganda, sovutuvchi suyuqlikning sathini me'yoriga keltiring.
- Suyuqlikning oqib ketishi yoki boshqa nosozligi aniqlanganda, yoki sovutuvchi suyuqligining sathi pasayishdan davom etganda, zudlik bilan vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Nosozliklar bartaraf etilmaguncha avtomobildan foydalanish taqiqlanadi. Dvigatelning o'ta qizib ketishi oqibatida yuzaga kelgan shikastlanishlari ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydi.

OGOHLANTIRISH!

Sovitish tizimi ichida issiq sovutuvchi suyuqligi va bug' yuqori bosim ostida bo'ladi. Sovituvchi suyuqlikning yoki bug'ning chiqib ketishi jiddiy jarohatlar olinishiga olib kelishi mumkin.

- Dvigatel issiq bo'lganda kengaytiruvchi bakning yoki radiatorning qopqog'ini ochmang.

7

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- XAVFSIZLIK CHORALARI7-2
- AVTOMOBILNI TEKSHIRISH 7-3
- G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR 7-21
- ERUVCHAN SAQLAGICHLAR 7-24
- YORITISH ASBOBLARI7-28
- AVTOMOBILNI PARVARISH QILISH 7-31
- O`T O`CHIRGICH UCHUN JOY 7-35
- ESLATMALAR 7-36

XAVFSIZLIK CHORALARI

Avtomobilni har qanday tekshirishni yoki texnik xizmat ko'rsatishni bajarganda, jarohatlar olish yoki detallarning shikastlanishi oldini olish uchun ehtiyot choralari amalga oshiring. Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish paytidagi umumiy xavfsizlik choralari:

- Dvigatel sovimaganda ta'mirlashni bajarmang.

▲ OGOHLANTIRISH!


Ishlangan gazlarning katalitik neytralizatori va ishlangan gazlarni chiqarish tizimining boshqa komponentlari dvigatelning ishlagan paytida juda issiq bo'lishi mumkin. Dvigatel ishlagan paytida tegishli qismlarga tegib ketish og'ir kuyishlarga olib kelishi mumkin.

- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning tagida turmang. Zarur bo'lganda, avtomobilning tagi ostida ta'mirlashni o'tkazish uchun xavfsiz tayanchlar o'rnatilgan bo'lishi lozim.
- Akkumulyator batareyasiga, yonilg'i va yonilg'i apparaturasining detallariga tutuni chiqayotgan, yonib turgan moddalar va uchqunlarning tushishiga yo'l qo'ymang.
- Akkumulyator batareyasini yoki har qanday elektron/elektr komponentlarni o't oldirish yoqilganda o'rnatmang va demontaj qilmang.

- Akkumulyator batareyasining simlarini ulashda ularning qutblariga alohida e'tibor bering. Musbat simni manfiy chiqishiga va aksincha ulamang.
 - Avtomobilning akkumulyator batareyasi, o't oldirish simlari va elektr ulanishlari yuqori tok yoki kuchlanish ostida bo'lishini unutmaslik lozim.
- Tok zarbasiga yo'l qo'ymaslik uchun ehtiyot choralariga amal qiling.

▲ OGOHLANTIRISH!

- Kapotni ochishdan avval o't oldirish o'chirish va kalitni chiqarib oling. Tok o'tadigan qismlarga o't oldirish yoqilganda tegish tok zarbasi urishiga yoki kuyishlarga olib kelishi mumkin



▲ OGOHLANTIRISH!

Motor bo'limi bilan ishlaganda, dvigatelning harakatlanuvchi detallari bilan tortilib ketishi mumkin bo'lgan bo'shroq turuvchi kiyimni va bezaklarni yechib oling, va shamollatgichga, kamarlarga yoki boshqa harakatlanuvchi detallarga yaqinlashmang.

- Dvigatel atrofi yopiq joylarda, masalan, garajda ishlaganda, yetarli shamollatishni ta'minlang.
- Ishlangan moyni, sovutuvchi suyuqlikni va boshqa texnik suyuqliklarni bolalar va uy hayvonlari yeta olmaydigan joyda saqlang.
- Moy va boshqa suyuqliklardan qolgan bo'shagan, yoki ichida ishlangan moyi yoki suyuqligi bo'lgan konteynerlarni maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang.
- Faqat ushbu mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utillashtirish usullaridan foydalaning.
- Agar Siz dvigatel ishlayotganda kapotni ochishingiz kerak bo'lsa, avtomobilning kutilmaganda yurib ketishining oldini olish uchun choralarni ko'ring. Avtomatik uzatmalar qutisi bo'lganda, uzatmalar qutisining selektori dastagini **P** yoki **N** holatiga o'tkazing va to'xtab turish tormozini yoqing. Mexanik uzatmalar qutisi bo'lganda, dastagini neytral holatiga o'tkazing va to'xtab turish tormozini yoqing.

AVTOMOBILNI TEKSHIRISH

Tekshirish

Avtomobildan xavfsiz va ishonchli foydalanish uchun, uning tashqi detallarining, salon va motor bo'limining davriy tekshiruvini bajarish kerak.

Tashqi detallar

Shinalar

- Shinalar ichida havo bosimi tavsiya etilgan qiymatiga yetkazilganligini tekshirish kerak. («G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR» bo'limiga qarang)
- Protektorning va shinalar yon tomonlarining (jumladan yon tomonida) darzlari, kesilgan joylari va boshqa shikastlanishlari yo'qligini tekshiring.
- Protektorda tiqilib qolgan begona jismlarning yo'qligini tekshiring.

G'ildiraklar

- G'ildirak gaykalari va boltlari to'g'ri tortb mahkamlanganligini tekshiring. («SHIKASTLANGAN G'ILDIRAKNI ALMASHTIRISH» bo'limiga qarang)

Yoritish asboblari

- Oldingi va orqa faralarning, gabarit chiroqlari, burilish ko'rsatkichlari, stop-signalalar va tumanga qarshi faralarning to'g'ri ishlashini tekshiring.

Suyuqliklar

- Motor bo'limida joylashgan barcha sig'imlardagi suyuqliklarning sathini tekshiring.

- Jarohatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, alohida holatlardan tashqari, motor bo'limida ishlarni bajarishdan avval, doimo o't oldirishni o'chiring va kalitni chiqarib oling. Agar texnik xizmat ko'rsatish maqsadida dvigatel ishlayotganda motor bo'limida ishlarni bajarish kerak bo'lsa, dvigatelning harakatlanuvchi detallari bilan tortilib ketishi va jarohatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan bo'shroq turuvchi kiyimni va bezaklarni yechib oling.

Dvigatelning sovutish tizimining shamollatgichi

DIQQAT!

Motor bo'limida joylashgan sovutish tizimining elektr shamollatgichlari datchiklar bilan boshqariladi.

Ushbu shamollatgichlar istalgan paytda ishlay boshlashi mumkin.

- Sizning qo'lingiz, barmoqlaringiz, kiyimingiz va hokazo shamollatgichlarning parraklaridan yetarlicha uzoqda bo'lishini nazorat qiling.

OGOHLANTIRISH!

O't oldirish yoqilganda avtomobilning tok o'tadigan qismlariga tegish o'ta xavfli bo'ladi.

- Dvigatelni har qanday ko'zdan kechirishni yoki motor bo'limida texnik xizmat ko'rsatishni bajarishdan avval, o't

OGOHLANTIRISH!

oldirish o'chirilganligi va kalit chiqarib olinganligiga ishonch hosil qiling.


Aks holda bu kuyishlarga, tok zarbalariga yoki boshqa tan jarohatlariga olib kelishi mumkin.

Sovutish tizimining shamollatgichi parraklaridan jarohatlar olinishiga yo'l qo'ymaslik uchun, motor bo'limida ishlashdan avval shamollatgichning yoqilishiga yo'l qo'ymaslik uchun, o't oldirishni o'chiring. Bundan tashqari, elektron o't oldirish tizimi standart tizimlarga nisbatan yuqoriroq tok kuchlanishiga ega ekanligini unutmaslik kerak. Shuning uchun o't oldirish yoqilganda avtomobilning tok o'tadigan qismlariga tegish o'ta xavfli bo'ladi.

Oyna tozalagichlar

- Oyna tozalagichlar va rezina zichlagichlarning (shu jumladan orqa oynaning tozalagichi, mavjud bo'lganda) holatini tekshiring.


Motor bo'limi Dvigatel 1.5 DOHC



1. Havo filtri.
2. Dvigatelning moy quyish og'zining qopqog'i
3. Asosiy tormoz silindrining baki / ilashish muftasi gidroyuritmasining baki
4. Sovutish tizimining kengaytirish baki
5. Eruvchan saqlagichlar bloki


6. Akkumulyator batareyasi
7. Oyna yuvish moslamasining baki
8. Rul kuchaytirgichining ish suyuqligining baki
9. Dvigatel moyining o'lchov tayoqchasi
10. Avtomatik uzatmalar qutisida suyuqligining sathini tekshirish uchun o'lchov tayoqchasi (agar ushbu opsiya o'rnatilgan bo'lsa)

Motor moyi

Dvigatelning normal ishlashini ta'minlash uchun motor moyining sathini kuzatib turish lozim. Dvigateldan foydalanganda motor moyining ma'lum miqdori sarflanadi. Shuning uchun moyning sathini muntazam ravishda, masalan, har bir yonilgi quyishda tekshirish kerak. Agar dvigatelning moylash tizimida bosim pasayishining signalizatori  yonsa, motor moyining sathini zudlik bilan tekshirish kerak.

Motor moyining sathini tekshirish


1. Avtomobilni tekis gorizontaal mydonchada to'xtatib qoldiring.
2. Dvigatelning to'xtaganidan keyin moy karterga oqib tushishi uchun bir necha daqiqa kutib turing. Dvigatel sovuq bo'lganda, moyning oqib tushishi vaqti ortadi.
3. Moyning o'lchov tayoqchasini chiqarib oling va uni arting.
4. Moyning o'lchov tayoqchasini shtutserga oxirigacha kiriting.
5. Moyning o'lchov tayoqchasini yana chiqarib oling.



6. Moyning o'lchov tayoqchasidagi suyuqlik shaffofligini tekshiring.
7. Moyning o'lchov tayoqchasidagi moyning sathini tekshiring. Moyning sathi **MIN** va **MAX** belgilari orasida bo'lishi kerak.

ESLATMA


Dvigateldagi moyning sathi maksimal darajasidan yuqori yoki minimal darajasidan past bo'lgan avtomobildan foydalanish avtomobilning shikastlanishiga va keyinchalik ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydigan qimmat turuvchi ta'mirlashga olib kelishi mumkin.



8. Agar moyning sathi MIN belgisidan past bo'lsa, moyning sathini maksimal darajasigacha ko'tarish uchun dvigateldagi moy bilan bir xil rusumli va quyishqoqlikdagi moyning kerakli miqdorini qo'shing. **MAX** belgisidan oshib ketish mumkin emas. Dvigatelning moy quyish og'zining qopqog'i silindr kallagining qopqog'ida joylashgan (quyidagi rasmga qarang). Motor moyining xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Dvigatel moyining sathini tekshirishdan keyin o'lchov tayoqchasini oxirigacha bosib, joyiga kiriting. (agar Siz o'lchov tayoqchasini o'z joyiga oxirigacha kiritmasangiz, harakatlanish paytida moy tirqish orqali sachrab ketishi mumkin va uning tomchilari chiqarish kollektorining issiq qismlariga va katalizatorga tegishi mumkin, bu esa detallarning ishdan chiqishiga yoki avtomobilning yonib ketishiga va yong'inga olib kelishi mumkin)



Moy quyish og'zining qopqog'i

J20069A

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Motor moyi zaharli suyuqlik bo'lib, uni yutganda zaharlanishga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.
- Motor moyini bolalar yeta olmaydigan joyda saqlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Motor moyining teriga muntazam yoki uzoq tegishiga yo'l qo'ymang.
- Motor moyi bilan ishlashdan keyin terining ochiq joylarini sovun yoki maxsus oyna tozalagich bilan yuvib tashlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Motor moyining o'ta ko'p miqdorini qo'shish dvigatelning ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Moy sathining moy o'lchov tayoqchasidagi MAX belgisidan oshib ketishiga yo'l qo'ymang.
- Motor moyining maksimal sathidan oshib ketishi quyidagi oqibatlariga ega bo'lishi mumkin:
- Moy sarfining ortishi.
 - O'toldirish svechalarining ifloslanishi.
 - Dvigatelda ortiqcha kuyindining hosil bo'lishi.

Motor moyini va moy filtrini almashtirish**⚠ OGOHLANTIRISH!**

- Bu ishlar maxsus tayyorgarlik, vositalar va jihozlar bo'lishini talab qiladi.
- Bu ishlar faqat malakali xodimlar tomonidan bajarilishi mumkin.
- O'z kuchingizga ishonmasangiz, vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Aks holda jarohatlar olinishi yoki avtomobilning detallari shikastlanishi mumkin.

Ifloslanganda motor moyi o'zining moylash qobiliyatini yo'qotadi. Motor moyini almashtirish texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga muvofiq bajarilishini nazorat qiling.

Motor moyini har bir almashtirishda shuningdek filtrni ham almashtirish kerak bo'ladi. Og'ir sharoitlarda foydalanilganda moy va moy filtrini almashtirish odatdagi texnik xizmat ko'rsatish reglamentida tavsiya etilganidan ikki baravar tezroq bajarilishi kerak.

Og'ir foydalanish sharoitlari deganda, shu jumladan, quyidagilar tushuniladi:

- Dvigatel qizdirilmaganda tez-tez harakatni boshlash.
- Yo'l tiqilinch bo'lgan sharoitda katta masofalarni o'tish.
- Kichik masofalarga tez-tez yurish.
- Manfiy tashqi haroratda tez-tez foydalanish.
- Dvigatelning uzoq vaqt harakatsiz ishlashi.
- Past tezlikda tez-tez yurish.
- Changi ko'p yo'llarda yurish.
- Tirkama bilan foydalanish yoki shatakka olish.
- Tashqi havoning harorati **35°C** dan yuqoriroq bo'lganda foydalanish.

- Katta nishabli yo'llari bo'lgan tog'li yoki tepalikli joylarda foydalanish.
- Avtomobildan taksi, politsiyaning yoki boshqa navbatchi xizmatning avtomobili sifatida foydalanish.
- Xizmat avtomobili sifatida foydalanish.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Motor moyi va moy idishlari ehtimoliy xavfli bo'ladi.

- Motor moyining teriga muntazam yoki uzoq tegishiga yo'l qo'ymang.
- Motor moyi bilan ishlashdan keyin terini va tirnoqlarni sovun yoki maxsus oyna tozalagich bilan tozalang. Motor moyini va boshqa zaharli moddalarni bolalar yeta olmaydigan joyda saqlang.

Motor moyi terining achishishiga olib keladi, uni yutganda zaharlanishga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

ESLATMA

Texnik xizmat ko'rsatish oraliqlarini qisqartirish og'ir sharoitlarda foydalanish holatida avtomobilning uzoq vaqt buzilmay ishlab xizmat qilishini ta'minlash uchun zarur bo'ladi.

⚠ DIQQAT!

Tavsiya etilmagan motor moyidan yoki kimyoviy qo'shimchalardan (maxsus qo'shimchalardan) foydalanish dvigatelning buzilishiga olib kelishi mumkin. Tavsiya etilmagan quyishqoqlik sinfidagi va/yoki sifati bo'yicha darajasidagi motor moylaridan, shuningdek avtomobilning ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etilmagan motor moyiga biror-bir qo'shimchalardan foydalanish qat'iyan taqiqlangan, ushbu moylar va/yoki qo'shimchalardan foydalanish oqibatida avtomobilni ta'mirlash ishlab chiqaruvchining kafolatlari bilan qoplanmaydi.

⚠ DIQQAT!

- Ishlangan moyni va filtrlarni maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang.
 - Faqat ushbu mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilashtirish usullaridan foydalaning.
- Ishlangan motor moyi va moy filtrlari tarkibida bo'lgan zaharli moddalar kishilarning sog'lig'iga va atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Tavsiya etiladigan motor moyi va texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

Tavsiya etiladigan motor moyi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

Sovituvchi suyuqlik


Sizning avtomobilingizning sovutish tizimida qizil rangli Dex-cool sovutuvchi suyuqligidan yoki etilenglikol asosidagi ko'k rangli sovutuvchi suyuqligidan foydalanish lozim. Sovituvchi suyuqliklarnig ushbu ikkita turi bir-biriga mutlaqo to'g'ri kelmaydi va aralashtirilishi mumkin emas. Shuning uchun, agar Sizning avtomobilingizdagi sovutish tizimining boshlang'ich sovutuvchi suyuqligi qizil rangli bo'lsa, avtomobildan foydalanishning butun muddati davomida faqat Dex-cool sovutuvchi suyuqligidan foydalanish shart. Agar Sizning avtomobilingizdagi sovutish tizimining boshlang'ich sovutuvchi suyuqligi ko'k rangli bo'lsa, avtomobildan foydalanishning butun muddati davomida faqat etilenglikol asosidagi sovutuvchi suyuqligidan foydalanish kerak. Hatto agar to'ldirilishidan avval sovutish tizimi to'liq bo'shatilgan holda ham, sovutuvchi suyuqligining turini o'zgartirish taqiqlanadi.

⚠️ DIQQAT!

- Dex-cool sovutuvchi suyuqligini va etilenglikol asosidagi suyuqligini aralashtirish taqiqlanadi. Bu sovutish tizimini shikastlashi mumkin.

Tarkibiy moddalarining nisbati to'g'ri bo'lganda, bu suyuqlik isitish va sovutish tizimini korroziyadan va muzlashdan samarali himoya qiladi.

Dvigatel sovuq bo'lganda kengaytirish bakidagi sovutuvchi suyuqligining sathi **MIN** va **MAX** belgilari orasida bo'lishi kerak. Sovituvchi suyuqlikning sathi dvigatelning harorati oshganida ortadi va uning soviganida pasayadi.

**⚠️ DIQQAT!**

Sovutish tizimiga ichimlik suvini yoki noto'g'ri tarkibiy moddalarni qo'shish sovutish tizimini shikastlashi mumkin.

- Sovituvchi suyuqlikning sifatida ichimlik suvidan, tarkibida spirt bo'lgan yoki metanolli antifrizda foydalanmang.
 - Faqat ushbu avtomobil uchun mos keladigan tegishli antifriz va distillangan suvning 50:50 nisbatidagi aralashmasidan foydalanishga yo'l qo'yiladi.
- Aks holda dvigatel o'ta qizib ketishi yoki yonib ketishi mumkin.

Agar sovutuvchi suyuqlikning sathi **MIN** belgisidan ham pasayib qolsa, kengaytirish bakiga to'g'ri nisbatda tayyorlangan tegishli sovutuvchi suyuqligini, lekin faqat dvigatel sovuq bo'lganda to'ldirib qo'ying. Sizing avtomobilingizni sovuq ob-havo sharoitida himoyalash maqsadida, quyidagi nisbati tavsiya etiladi: 48% suv va 52% antifriz.

Sovituvchi suyuqliklarning konsentratsiyasi

Iqlim	Antifriz (%)	Suv (%)
O'rtacha sharoit	50%	50%
O'ta sovuq havo sharoiti	52%	48%

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Issiq sovutuvchi suyuqligi va bug' dvigatelning sovutish tizimidan yuqori bosim ostida chiqib ketishi mumkin, bu esa jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

- Dvigatel issiq bo'lganda kengaytirish bakining yoki radiatorning qopqog'ini yechib olmang.

⚠️ DIQQAT!

Sovituvchi suyuqlik zaharli texnik suyuqlik hisoblanadi.

- Sovituvchi suyuqlikning teriga muntazam yoki uzoq tegishiga yo'l qo'ymang.
- Sovituvchi suyuqlik bilan ishlashdan keyin terini va tirnoqlarni sovun yoki maxsus oyna tozalagich bilan tozalang.
- Sovituvchi suyuqlikni bolalar yeta olmaydigan joyda saqlang.
- Sovituvchi suyuqlikka tegish terining achishishiga olib keladi, uni yutganda ushbu suyuqlik zaharlanishga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Sovituvchi suyuqlikning xususiyatlari va texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

Tavsiya etiladigan sovituvchi suyuqlik va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

⚠️ DIQQAT!

Sovituvchi suyuqlikni to'ldirib quyish ko'pi bilan yiliga to'rt marta bajarilishi kerak. Sovituvchi suyuqlikni undan ham tez-tez quyish zarur bo'lgan holda, bu dvigatelnig sovitish tizimining nosozligidan dalolat berishi mumkin. Sovutish tizimini tekshirish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Tormoz suyuqligi va ilashish muftasi yuritmasining suyuqligi

Avtomobilida ham tormoz suyuqligi uchun, ham ilashish muftasining yuritmasi suyuqligi uchun bitta rezervuar bor.


Tormoz suyuqligi va ilashish muftasining yuritmasi suyuqligi namlikni singdirishi mumkin. Tormoz suyuqligi ichida namlikning o'ta ko'p bo'lishi tormoz mexanizmi va ilashish muftasining gidravlik tizimining samaraliligini kamaytirishi mumkin. Gidravlik tizimning korroziyasini oldini olish uchun suyuqlikni

ushbu yo'riqnomada keltirilgan yo'l-yo'riqlarga muvofiq almashtirish kerak.

Faqat tavsiya etiladigan tormoz suyuqligi va ilashish muftasining yuritmasi suyuqligidan foydalanish kerak. Rezervuar kerakli sathigacha to'ldirilgan bo'lib turishi kerak.

Ushbu suyuqlik sathining **MIN** belgisidan pastroq tushishiga yoki **MAX** belgisidan yuqoriroq ortishiga yo'l qo'ymang. Tormoz suyuqligining rezervuarida suyuqlikning past sathi tormoz tizimidagi oqib ketish borligini yoki tormoz kolodkalarining yoki nakladkalarining yeyilib eskirganligini ko'rsatishi mumkin.

Gidravlik tormoz tizimi ta'mirlashga muhtoj ekanligini yoki yo'qligini aniqlash uchun, vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Ta'mirlash bajarilganidan keyin tizim ichiga tormoz suyuqligini to'ldirib quyung (agar bu talab etilsa). Tormoz suyuqligining sathi yo'l qo'yiladigan pastroq kamayganda, tormoz tizimining nosozligi () signalizatori yoqiladi.


«TORMOZ TIZIMINING NOSOZLIGI SIGNALIZATORI» bo'limiga qarang.

Tormoz suyuqligini va ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligini to'ldirib quyish

1. Rezervuar qalpoqchasi atrofidagi barcha ifloslanishlarni tozalang.

⚠️ DIQQAT!

- Rezervuarining qopqog'ini yechib olishdan avval, qopqoqning atrofidagi yuzasi to'liq tozalanganligiga ishonch hosil qiling.
- Tormoz suyuqligi havodagi namlikni faol singdirib oladi, shuning uchun bakni faqat zarur bo'lganda, va qisqa vaqtga oching. Tormoz suyuqligining va ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligining ifloslanishi tizimning ishlashini buzishi mumkin, bu esa qimmat turuvchi ta'mirlashga olib keladi.



2. Bakning qopqog'ini burab yechib oling.
3. Rezervuarini **MAX** belgisigacha tavsiya etilgan tormoz suyuqligi/ ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligi bilan to'ldiring. Suyuqlikni bo'yalgan yuzalarga to'kib yubormaslik uchun ehtiyot bo'ling. Suyuqlik

bo'yalgan yuzalarga tekanda ularni zudlik bilan sovuq suv bilan yuvib tashlang.

⚠️ DIQQAT!

Tormoz suyuqligining/ ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligining ortiqcha miqdori yonib ketishga olib kelishi mumkin. Rezervuarni o'ta to'ldirib yubormang. Dvigatelning yonib ketishi jarohatlanishga, avtomobilning detallari va boshqa mol-mulkning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Rezervuarning qopqog'ini burab yoping.

⚠️ DIQQAT!

- Ishlangan tormoz suyuqligini/ ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligini maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang.
- Faqat ushbu mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilashtirish usullaridan foydalaning.

Ishlangan tormoz suyuqligi / ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligi va ulardan qolgan idishlar ehtimoliy xavfli bo'ladi.

Ular kishilarning sog'lig'iga va atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

Tormoz suyuqligi va ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligi zaharli moddalar deb hisoblanadi hamda terining va ko'zning shilliq pardasining achishishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Tormoz suyuqligining va ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligining teriga yoki ko'zga tegishiga yo'l qo'ymang. Ular tekkan holda, zudlik bilan shikastlangan joyni sovun yoki maxsus oyna tozalagich bilan puxta yuvib tashlang.

Tavsiya etiladigan tormoz suyuqligi va ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligi, va texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

Tavsiya etiladigan tormoz suyuqligi va ilashish muftasining gidroyuritmasi suyuqligi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

Mexanik uzatmalar qutisining moyi

Mexanik uzatmalar qutisida moyning sathini tekshirish

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Bu ishlar maxsus tayyorgarlik, vositalar va jihozlar bo'lishini talab qiladi.

Bu ishlar faqat malakali xodimlar tomonidan bajarilishi mumkin.

- O'z kuchingizga ishonmasangiz, vakolatlangan dilerga murojaat qiling.
- Aks holda jarohatlar olinishi yoki avtomobilning detallari shikastlanishi mumkin.

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Uzatmalar qutisining sovsini kutib turing. Uzatmalar qutisining harorati unga tegish mumkin bo'ladigan darajada bo'lishi kerak.
3. Uzatmalar qutisi karterining moy quyish tirqishining tiqinini oching.

⚠️ DIQQAT!

Dvigatelning issiq detallariga, uzatmalar qutisiga tegish yoki issiq suyuqlikning sachrashi jiddiy kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

• Ishlarni bajarishdan avval, uzatmalar qutisining harorati unga tegish xavfsiz bo'lishi uchun yetarlicha past ekanligiga ishonch hosil qiling.
Dvigatelning yetarlicha sovishidan avval uni ta'mirlash tan jarohatlariga olib kelishi mumkin.

4. Moyning sathi moy quyish og'zining pastki chetiga yetganligiga ishonch hosil qiling.
5. Agar moyning sathi pastroq bo'lsa, moyni tirqishdan oqib chiqqa boshlamaguncha, to'ldirib quyung.
6. Uzatmalar qutisining karteri kerakli sathigacha to'lganidan keyin, tiqinini ishonchli burab yoping.

⚠️ DIQQAT!

Suyuqlikning o'ta ko'p miqdori avtomobilning foydalanish ko'rsatkichlari pasayishiga olib keladi.
• Mexanik uzatmalar qutisiga moyning o'ta ko'p miqdorini quymang.
Bu uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin.

7. Uzatmalar qutisini oqib ketish yoki shikastlanishlar bor-yo'qligi jihatidan ko'zdan kechiring.

Tavsiya etiladigan mexanik uzatmalar qutisining moyi va texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

Tavsiya etiladigan mexanik uzatmalar qutisining moyi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

Avtomatik uzatmalar qutisining ish suyuqligi *

Avtomatik uzatmalar qutisining normal ishlashi va uzoq xizmat qilishini ta'minlash uchun uzatmalar qutisi ish suyuqligining kerakli sathini tutib turish lozim.
Ish suyuqligining o'ta yuqori yoki o'ta past sathi nosozlikning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.
Ish suyuqligining sathini dvigatel ishlaganda tekshirish kerak.
Avtomatik uzatmalar qutisining selektori **P** holatida bo'lishi kerak. Dvigatel va uzatmalar qutisi normal ish haroratigacha qizdirilgan bo'lishi lozim.
Avtomobil tekis gorizontal maydonchada to'xtatib qoldirilgan bo'lishi lozim.

Suyuqlikning normal ish haroratiga taxminan 10 daqiqa harakatlanishidan keyin erishiladi.

Avtomatik uzatmalar qutisida ish suyuqligining sathini tekshirish

Agar suyuqlik shaffof bo'lmasa yoki o'z rangini o'zgartirgan bo'lsa, uni almashtirish lozim. Suyuqlik sathining pasayishi avtomatik uzatmalar qutisida oqib ketish borligini ko'rsatadi. Bu holda imkoni boricha tezroq vakolatlangan dilerga ta'mirlash uchun murojaat qilish lozim.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Bu ishlar maxsus tayyorgarlik, vositalar va jihozlar bo'lishini talab qiladi.
Bu ishlar faqat malakali xodimlar tomonidan bajarilishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

• Uzatmalar qutisining ish suyuqligiga ifloslanish yoki begona moddalar kirib qolmasligini nazorat qiling.
Ifloslangan ish suyuqligi avtomatik uzatmalar qutisining jiddiy buzilishiga sabab bo'lishi va qimmat turuvchi ta'mirlashga olib kelishi mumkin.

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Avtomatik uzatmalar qutisi ish suyuqligining harorati taxminan **40°C** ga yetishi uchun dvigatelni qizdiring.
3. Uzatmalarni o'tkazish selektorining dastagini «**P**» holatidan «**1**» holatiga va yana «**P**» holatiga o'tkazing. Har bir holatida bir necha soniya davomida tanlangan uzatma to'liq yoqilishini kutib turing.

 **DIQQAT!**

- Dvigatelning issiq detallariga, uzatmalar qutisiga tegish yoki issiq suyuqlikning sachrashi jiddiy kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin.
- Ish suyuqligining sathini tekshirishda ehtiyot bo'ling.

 **DIQQAT!**

Suyuqlikning o'ta ko'p miqdori avtomobilning foydalanish ko'rsatkichlari pasayishiga olib keladi.

- Avtomatik uzatmalar qutisiga ish suyuqligining o'ta ko'p miqdorini quyvang.

Bu uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tavsiya etiladigan avtomatik uzatmalar qutisining ish suyuqligi va texnik xizmat ko'rsatish reqlamenti

Tavsiya etiladigan avtomatik uzatmalar qutisining ish suyuqligi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reqlamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

Rul kuchaytirgichining ish suyuqligi

Rul kuchaytirgichining ish suyuqligining sathini tekshirish

Rul kuchaytirgichining ish suyuqligining sathini muntazam tekshiring.
Rul kuchaytirgichining ish suyuqligining rezervuari akkumulyator batareyasining yonida joylashgan.

 **DIQQAT!**

- Rul kuchaytirgichining ish suyuqligining yetarlicha miqdori bo'lmaganda, avtomobildan foydalanmang. Bu kuchaytirgichli rul yuritmasining tizimini shikastlashi, va qimmat turuvchi ta'mirlashga olib kelishi mumkin.
- Gidrokuchaytirgichdagi ish suyuqligining sathi yetarli bo'lmaganda avtomobildan foydalanish, xuddi shuningdek gidrokuchaytirgichning ish suyuqligi oqib

 **DIQQAT!**


ketishi mavjud bo'lganda undan foydalanish **QAT'IY TAQIQLANGAN!**

- Gidrokuchaytirgichning nosozligi avtomobilni boshqarish imkoniyatining to'satdan yo'qolishiga va og'ir oqibatti yo'l-transport hodisasiga olib kelishi mumkin.

 **DIQQAT!**

- Hatto ifloslantiruvchi moddalarning ozgina miqdori ham rul boshqaruvining shikastlanishiga olib kelishi va noto'g'ri ishlashiga sabab bo'lishi mumkin. Bakning qopqog'iga / o'lchov tayoqchasiga yoki bak ichiga ifloslantiruvchi moddalarning tushishiga yo'l qo'ymang.

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Ish suyuqligining sathini tekshiring. Rezervuardagi ish suyuqligining sathi **MIN** va **MAX** belgilari orasida bo'lishi lozim. Agar suyuqlik sathi **MIN** belgisidan pastroq joylashgan bo'lsa, quyida keltirilgan amallarga muvofiq ish suyuqligini to'ldirib quyung.



Rul kuchaytirgichining ish suyuqligini to'ldirib quyish

1. Rezervuarning qalpoqchasini va ustki qismini tozalang.
2. Qalpoqchani yechib oling.
3. Rul kuchaytirgichining ish suyuqligini to'ldirib quying. **MIN** va **MAX** belgilari orasidagi sathiga erishilganligiga ishonch hosil qiling.
4. Qalpoqchani burab yoping.

⚠️ DIQQAT!

Ish suyuqligining o'ta ko'p miqdori yonib ketishga yoki lak-bo'yoq qoplamining qat-qat ajralishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Rezervuarni o'ta to'ldirib yubormang.

Dvigatelning yonib ketishi jarohatlanishga, avtomobilning detallari va boshqa mol-mulkning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tavsiya etiladigan rul kuchaytirgichining ish suyuqligi va texnik xizmat ko'rsatish reglamenti


Tavsiya etiladigan rul kuchaytirgichining ish suyuqligi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun «MOYLASH KARTASI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

Old oynaning yuvish moslamasining suyuqligi

Harakatni boshlashdan avval old oynaning yuvish moslamasi suyuqligining rezervuari tegishli suyuqlik bilan kerakli sathigacha to'ldirilganligini tekshiring.



Ob-havo sovuq bo'lganda old oynaning yuvish moslamasi suyuqligining rezervuarini to'rtidan uch qismidan oshmagan miqdorda to'ldiring.

Past harorat bo'lganda oyna yuvish moslamasining suyuqligi muzlashi va hajmi ortishi mumkin.

Rezervuar o'ta to'lib ketganda suyuqlikning kengayishi uchun joy bo'lmaydi, bu esa rezervuarning yorilib ketishiga yoki shaklining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

ESLATMA

Old oynaning yuvish moslamasi suyuqligini to'ldirib quyish uchun:

- Ushbu maqsadlarda faqat foydalanish uchun tayyor bo'lgan oyna yuvish moslamasining suyuqliklaridan foydalaning.
- Ichimlik suvidan foydalanish mumkin emas. Oyna yuvish moslamasining forsunkalari tiqilib qolishi tufayli ishlamay qolishi bakka sifatsiz yoki mos kelmaydigan suyuqlikni to'ldirib quyish bilan bog'liq bo'ladi va ishlab chiqaruvchining kafolatlari bilan qoplanmaydi.
- Manfiy tashqi harorat bo'lganda suyultirilmagan, muzlab qolmaydigan, mos keluvchi sifattdagi suyuqliklardan foydalanish kerak.

⚠️ DIQQAT!

- Old oynaning yuvish moslamasining rezervuariga suvni yoki radiatorning sovutuvchi suyuqligini to'ldirib quyvang. Bu suyuqlikning muzlab qolishiga va old oynaning yuvish moslamasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Radiatorning sovutuvchi suyuqligi old oynaning yuvish moslamasini va avtomobilning bo'yoq qoplamini shikastlashi mumkin.

Old oynaning tozalagichi

To'g'ri ishlaydigan oyna tozalagichlar yaxshi ko'rish imkoniyati bo'lishi va xavfsiz boshqarish uchun zarur bo'ladi.

Oyna tozalagichlar cho'tkalarining holatini muntazam tekshiring. Qattiq, darz ketgan, shikastlangan yoki o'ta ifloslangan cho'tkalarni almashtiring.


Old oynadagi yoki oyna tozalagichning cho'tkalari ustidagi begona moddalar tozalash samaradorligini kamaytiradi. Agar cho'tkalar kerakli darajada ifloslanishlarni tozalamaydigan bo'lsa, old oynani va cho'tkalarni oyna tozalagich bilan yoki undan yumshoqroq yuvish vositasi bilan tozalang. Ularni suv bilan puxta yuvib tashlang. Zarur bo'lganda, bu jarayonni takrorlang.

Oynaning yuzasidan silikonning izlarini ketkazish mumkin emas. Shuning uchun avtomobilning old oynasida silikonli silliqlash vositalarini ishlatmang; aks holda oynaning

ustida ko'rish imkoniyatini yomonlashtiradigan yo'l-yo'li izlar qoladi. Oyna tozalagichlarni tozalash uchun erituvchilardan, benzin, kerosin yoki bo'yoqlar uchun suyultiruvchilardan foydalanmang. Ular kuchli ta'sir etuvchi moddalar bo'lib, cho'tkalarni va bo'yalgan yuzalarni shikastlashi mumkin.

Oyna tozalagichning cho'tkalarini almashtirish

1. Oyna tozalagichning cho'tkalari tutqichini bosing va ushlab turing.
2. Oyna tozalagichning cho'tkasini tutqichdan yechib oling.
3. Yangi oyna tozalagich cho'tkasini o'rninging.


**Havo filtri**

Havo filtrini texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga binoan, ushbu qo'llanmada ta'riflangan amallarga muvofiq muntazam ko'zdan kechiring va almashtiring.

⚠️ DIQQAT!

Dvigatelnig normal ishlashi uchun toza havo kerak bo'ladi.

- Sizing avtomobilingizdan havo filtri o'rnatilmaganda foydalanmang. Avtomobildan to'g'ri o'rnatilgan havo filtrisiz yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilmagan havo filtri bilan foydalanish dvigatelnig buzilishiga va keyingi qimmat turuvchi, ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydigan ta'mirlashga olib kelishi mumkin.


**Havo tozalagichni tozalash**

Agar havo tozalagichning elementi ifloslangan bo'lsa, uni almashtiring yoki quyidagi usulda tozalang:

1. Ustidagi changni ketkazish uchun havo tozalagichning elementini silkitib chayqating.

2. Havo tozalagichni ichidan tozalang.
3. Elementni tozalash paytida filtrning ochiq korpusini nam mato bilan yoping.
4. Havo filtrini tozalash uchun siqilgan havoning oqimini filtr orqali odatdagi havoning harakatiga teskari yo'nalishda yuboring.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti
«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH»
bo'limiga qarang.



O't oldirish svechalari

O't oldirish tizimi

▲ OGOHLANTIRISH!

Elektron o't oldirish tizimlari odatdagi tizimlarga nisbatan yuqoriroq kuchlanish ostida bo'ladi.

- O't oldirish tizimining elementlariga tegmang. O't oldirish tizimining elementlariga tegish tok zarbasini keltirib

▲ OGOHLANTIRISH!

chiqarishi va jiddiy tan jarohatlariga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Agar Siz unumdorligining pasayishini yoki yonilg'ining sarfi oshganligini sezgan bo'lsangiz, iltimos, o't oldirish svechalarini ko'zdan kechirish va tozalash amallarini bajaring.

▲ DIQQAT!

O't oldirish svechalari o'ta yuqori haroratgacha qizib ketishi va jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

- Issiq o't oldirish svechalariga tegmang.

O't oldirish svechalarini tekshirish va almashtirish.

1. Dvigatel yetarlicha soviganidan keyin, simlar o'ramlarining elektr uyalarini o't oldirish g'altaklaridan ajratib oling.
2. 16 mm lik svecha kalitidan foydalanib, o't oldirish svechalarini dvigateldan chiqarib oling. Svechani o'rnatiladigan joyiga ifloslantiruvchi moddalar tegmaganligiga ishonch hosil qiling.
3. O't oldirish svechasining izolyatori butunligini tekshiring. Agar izolyatsiyasida darzlar bo'lsa, yoki u buzilgan bo'lsa, svechani almashtiring. Aks holda, izolyatorni tozalang.

4. Ingichka simli cho'tka yordamida ustki tegib turuvchi uchligini va elektrodni tozalang. Tozalashdan keyin, tirqishini spetsifikatsiyaga muvofiq sozlang.

«AVTOMOBILNING SPETSIFIKATSIYASI», o't oldirish svechalarining spetsifikatsiyalari bo'limiga qarang.

5. Har bir o't oldirish svechasini imkoni boricha zichroq o'rnatang.

ESLATMA


Svechalarning hammasini birga almashtirish kerak.

6. Har bir svecha uchun aylantirish momenti 20 Nm gacha bo'ladi.

7. O't oldirish svechalarinig simlarini har bir o't oldirish svechasining uchiga tekis va zich o'rnatang, ular o'z joyiga kirganligini sezmaguncha kiriting. O't oldirish svechalarinig simlari to'g'ri tartibda turganligiga ishonch hosil qiling.

ESLATMA

Agar Siz avtomobilning quvvati pasayishini yoki yonilg'ining sarfi oshganligini sezgan bo'lsangiz, buning ehtimoliy sabablaridan biri sifatsiz yonilg'idan foydalanish tufayli svechalarning ishdan chiqqanligi bo'lishi mumkin. Tekshirish va muammolarni bartaraf qilish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.



▲ OGOHLANTIRISH!

- O't oldirish svechasini o'ta kuchli tortib mahkamlash silindr kallagidagi rezbagga shikast yetkazishi mumkin.
- O't oldirish svechasini yetarlicha tortib mahkamlamaslik o't oldirish svechasining o'ta qizib ketishiga olib kelishi mumkin.
- O't oldirish svechasini o'ta kuchli tortib mahkamlash yoki yetarlicha tortib mahkamlamaslik dvigatelni shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

O't oldirish svechalarining xususiyatlari va texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

O't oldirish svechalarining turi va tirqishi haqida ma'lumot olish uchun «AVTOMOBILNING TEXNIK XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti
«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

Yuritmaning kamari

O'zgaruvchan tok generatori, rul boshqaruvi kuchaytirgichining nasosi va konditsionerning kompressori normal ishlashi uchun yuritmaning kamari yaxshi holatida bo'lishi va tegishli ravishda sozlangan bo'lishi lozim. Eskirgan, darz ketgan yoki ishqalanib yeyilgan yuritma kamarini almashtirish lozim.

▲ DIQQAT!

- O't oldirish qulfida kalit bo'lganda dvigatelni ko'zda tutilmaganda ishga tushirish xavfi bo'ladi.
- Yuritma kamarini tekshirish paytida o't oldirish qulfida kalitni qoldirmang. Motor bo'limidaga harakatlanuvchi detallar jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Yuritmaning kamarini tekshirish


Yuritma kamarining tortilishini tekshirish uchun:

1. Yuritma kamarining ikkita val orasidagi eng uzun qismining o'rtasida bosh barmog'ingiz bilan sal bosing. Unga qo'yilgan kuch taxminan **10 kgs** bo'lishi kerak.
2. Unga qo'yilgan kuch tufayli yuritma

kamarining osilib ketishi taxminan **10 mm** bo'lishi lozim.

3. Agar kamarining tortishi yetarlicha bo'lmasa, uni sozlash uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti
«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.



Akkumulyator batareyasi

▲ OGOHLANTIRISH!

Akkumulyator kislotasi jiddiy kuyishlarga olib kelishi, portlashi va bo'yoqqa zarar yetkazishi mumkin.

- Akkumulyator kislotasi teriga va kiyimlarga tegishiga yo'l qo'ymang. Agar kislotaga teriga tekkan bo'lsa, terining shikastlangan qismini zudlik bilan suv bilan

⚠ OGOHLANTIRISH!

yuvib tashlang, va eng yaqin tibbiyot markaziga murojaat qiling.

- Tekshirish paytida akkumulyator batareyasiga yonib turgan, tutuni chiqayotgan moddalar yoki uchqunlar tegishiga yo'l qo'ymang. Portlashdan xavfli gazning chiqishi mumkinligi tufayli, portlash yuz berishi va o'limga olib keluvchi jarohatlarni yetkazishi mumkin.
- Akkumulyator batareyani bolalar yeta olmaydigan joyda saqlang, batareyaning ichida bo'lgan zaharli zararli moddalar jarohatlarni yetkazishi mumkin.
- Akkumulyator batareyasini ochmang va yoniga og'dirmang.

Avtomobil maxsus xizmat ko'rsatishni talab qilmaydigan akkumulyator batareyasi bilan jiozlangan.

Akkumulyator batareyasining qutbli chiqishlarini tozalash

1. O't oldirishni o'chiring va o't oldirish kalitini chiqarib oling.
2. Gayka kaliti bilan batareya simlarining qisqichlarini bo'shating va yechib oling. Birinchi navbatda doimo manfiy (-)simni o'chirish kerak.
3. Qutbli chiqishlarni qattiq cho'tka yoki maxsus asbob bilan tozalang.

4. Akkumulyator batareyasining qutbli chiqishlarida korroziyaning belgisi bo'lgan oq yoki ko'kish rangli kukuni borligi yuzasidan tekshiring.

5. Korroziyaning izlarini osh sodasi va suvning eritmasi bilan tozalang. Soda eritmasida pufaklar ajralishi boshlanib, jigarrang bo'lib qolishi lozim.

6. Eritmada pufaklar chiqishi to'xtaganda, uni suv bilan yuvib tashlang va akkumulyator batareyasini mato bilan yoki qog'oz sochiq bilan arting.

7. Simlarni avval musbat (+), keyin manfiy chiqishiga ulang (-). Oxirgi navbatda doimo manfiy simni ulash lozim (-).

⚠ DIQQAT!

- Akkumulyator batareyasiga simlarni ulashda qisqichlar to'g'ri o'rnatilganligi, keyin esa mahkamlash boltlari bilan ishonchli mahkamlanganligini nazorat qiling.
- Simlarni ulash tartibini nazorat qiling: qizil sim batareyaning musbat chiqishiga (+), qora sim esa – manfiy chiqishiga (-) ulanadi.

Simlarni qutbli chiqishlarga noto'g'ri ulash jarohatlar olinishiga hamda avtomobilning detallari va boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

8. Korroziyaning oldini olish uchun qutbli chiqishlarni texnik vazelin yoki maxsus moylash vositasi bilan qoplang.

ESLATMA

Ulash paytida musbat (+) chiqish, o'chirish paytida esa - manfiy(-) chiqish birinchi bo'lishini unutmang.

Akkumulyator batareyasiga texnik xizmat ko'rsatish

Akkumulyator batareyasining xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun:

- Akkumulyator batareyasi to'g'ri o'rnatilgan bo'lishi kerak.
- Akkumulyator batareyasining ustki qismi toza va quruq bo'lib qolishi lozim.
- Qutbli chiqishlari va simlarning qisqichlari toza, ishonchli mahkamlangan bo'lishi va ustiga maxsus moylash vositasi yoki vazelin qoplanishi lozim.
- Har qanday to'kilgan elektrolitni darhol suv va osh sodasining eritmasi bilan yuvib tashlash kerak.
- Agar avtomobil uzoq vaqt davomida foydalanilmasa, batareyaning manfiy chiqishidan simni ajratib olish lozim (-).
- Avtomobilidan yechib olingan akkumulyator batareyasini har olti haftada zaryadlab turish kerak. Akkumulyator batareyasini zaryadsizlangan holatida saqlash mumkin emas. Zaryadsizlangan batareya saqlash

davomida tez va tuzatib bo'lmaydigan ravishda ishdan chiqishi mumkin. Ushbu nosozlik ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

ESLATMA

Akkumulyator batareyalari tarkibida zaharli moddalar bor. Ishlangan akkumulyator batareyalari kishilarning sog'lig'i uchun va atrof muhit uchun xavfli bo'lishi mumkin.

- Akkumulyator batareyalarini maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang.

Faqat ushbu mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilashtirish usullaridan foydalaning.

ESLATMA

Avtomobilning 20 kundan ortiq to'xtab turishi uzoq deb hisoblanadi. Bu holda akkumulyator batareyasining manfiy klemmasini ajratib olish talab etiladi. Ajratib olingan batareya ham sekin zaryadsizlanishini unutmazlik lozim, shuning uchun uni kamida har 1,5-2 oyda mos keladigan zaryadlash moslamasining yordamida to'liq zaryadlash kerak. Avtomobilga ulangan zaryadsizlangan batareyani saqlash avtomobilning elektr jihozlarining elementlari ham, akkumulyator batareyasining o'zi ham ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu nosozlik ishlab

ESLATMA


chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Tormoz pedali

Tormozlash pedalini erkin yurish davomida tekshirish.

Tormozlash pedalining erkin yurishi: 1~8mm bo'lishi lozim.

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Tormoz tizimining vakuumini to'ldirish uchun tormoz pedalini bir necha marta bosing.
3. Pedalning harakatlanishi masofasini baholash uchun, pedalning yengil qarshiligini sezmaguncha, pedalni qo'lingiz bilan bosing.
4. Agar pedalning erkin yurishi davomida spetsifikatsiyada ko'rsatilgan xususiyatlaridan farq qiladigan bo'lsa, tormoz pedalini sozlash uchun Sizning dilingizga murojaat qiling.




Ilashish muftasining pedali.

Ilashish muftasining pedali erkin yurish davomida tekshirish.

Ilashish muftasining pedalining erkin yurishi: 6~12mm bo'lishi lozim.

Ilashish muftasining pedali erkin yurishini tekshirish uchun quyidagilarni bajarish lozim:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Pedalning harakatlanishi masofasini baholash uchun, pedalning yengil qarshiligini sezmaguncha, pedalni qo'lingiz bilan bosing.
3. Agar pedalning erkin yurishi davomida spetsifikatsiyada ko'rsatilgan xususiyatlaridan farq qiladigan bo'lsa, ilashish muftasining pedalini sozlash uchun Sizning dilingizga murojaat qiling.



To'xtab turish tormozi

To'xtab turish tormozi avtomobilni yetarlicha kuchli nishabi bo'lgan joyda ushlab turishi lozim.

To'xtab turish tormozining harakatlanishini tekshirish

To'xtab turish tormozi dastagining harakatlanishi: **7~10** tiqillash, taxminan **20 kgs** kuchi bilan, bo'lishi kerak.

To'xtab turish tormozining harakatlanishini tekshirish uchun:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Tirqishlar tiqillashlarini sanab, to'xtab turish tormozini o'rnatg. Agar tiqillashlarning soni yuqoridagidan farq qilsa, to'xtab turish tormozini sozlash uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

«DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH» bo'limiga qarang.

⚠ *DIQQAT!*


Avtomobil katalitik neytralizator bilan jihozlangan.

- Ushbu avtomobil uchun yonilg'i sifatida etillashtirilgan benzindan foydalanmang.

Katalitik neytralizatori bo'lgan avtomobillarda yonilg'i bakining to'ldirib quyish og'zi tor bo'lib, bu etillashtirilgan benzinni to'ldirib quyish uchun foydalaniladigan pistoletni kiritishga imkon bermaydi.

⚠ *DIQQAT!*

Ishlangan gazlarning katalitik neytralizatori agar dvigatelni ishga tushirishda muammolar bo'lganda, dvigatel akselerator pedali bosilgan holda ishga tushirilgan bo'lsa, yonilg'ining to'liq yonmasligi oqibatida buzilishi mumkin.



Katalitik neytralizator

⚠ *DIQQAT!*

- Dvigatelning ishlashi qiyinlashganda yoki quvvati yetmaganda, avtomobilingizdan foydalanmang. Bu jiddiy muammolar borligini ko'rsatishi mumkin.

Avtomobildan bunday sharoitlarda foydalanish katalitik neytralizatorning va avtomobilning boshqa qismlarining jiddiy shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Quyida sanab o'tilgan holatlardan istalgan biri bo'lganda, imkoni boricha tezroq vakolatlangan dilerga murojaat qiling:

- O't oldirishning uzilishlari.
- Dvigatelning ishlashi past haroratda qiyinlashgan.
- Dvigatelning quvvati kamayib boradi.
- Avtomobilning ishlashi odatdagidek bo'lmaydi, bu esa o't oldirish tizimidagi uzilishlardan dalolat berishi mumkin. Dvigatel ishlaganda **MIL** chirog'i doimiy yonadi yoki yonib-o'chib turadi.

⚠ *DIQQAT!*

Katalitik neytralizator yuqori haroratlarga qizib ketishi mumkin. (600° S dan ortiq)

To'xtab turish paytida avtomobilning tagida quruq o'tlar yoki yonuvchan materiallar bo'lmashligini nazorat qiling.

▲ DIQQAT!

Qizigan neytralizatorga bevosita tegib ketish Sizning qo'lingiz va boshqa joylaringiz kuyishiga olib kelishi mumkin. Qizigan neytralizatorga begona buyumlar yoki yonilg'i-moylash vositalari tegishiga yo'l qo'ymang, chunki bu avtomobilning yonib ketishiga va yong'inga olib kelishi mumkin.

▲ DIQQAT!

- Dvigatel hali qizimaganida harakatni boshlash imkoni boricha kamroq bo'lishiga harakat qiling.
- Avtomobilni ishga tushirishga uringanda, o't oldirish kalitini yoqilgan holatida 15 soniyadan uzoqroq ushlab turmang.
- Avtomobildan yonilg'i baki to'liq bo'shaguncha foydalanishga yo'l qo'ymang.

Avtomobilni itarib yoki shatakka olib, dvigatelni ishga tushirishga urinmang. Dvigatelni qo'shimcha akkumulyator batareyasidan ishga tushirib ko'ring. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik avtomobilning dvigateli, yonilg'i va/yoki ishlangan gazlarni chiqarish tizimining buzilishiga olib kelishi mumkin, ular ishlab chiqaruvchining kafolatlari bilan qoplanmaydi.

Sizning avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha ishlarning bajarilganligiga ishonch hosil qiling.

Vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Bu quyidagilarni kafolatlaydi:

- **Avtomobilning barcha detallari soz va normal ishlaydi;**
- **Avtomobilning zararli chiqindilarining miqdori minimal bo'ladi;**
- **Avtomobilning katalitik neytralizatorining tizimi yana uzoq vaqt xizmat qilishi mumkin bo'ladi.**

Zavoddan yetkazib beriladigan shinalar ushbu avtomobil uchun maxsus tanlangan, ular boshqarishning qulay sharoitlarini va protektorlarning uzoq xizmat qilishini taminlaydi.

▲ DIQQAT!

Mos kelmaydigan shinalardan va/yoki g'ildiraklardan foydalanish YTH ga olib kelishi mumkin.

- Original shinalarni yoki g'ildiraklarni almashtirishdan avval vakolatlangan diler bilan maslahatlashing.

Aks holda bunday almashtirish jarohatlar olinishiga, avtomobilning buzilishiga va boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish

▲ OGOHLANTIRISH!

- Avtomobilga o'ta ko'p yukni yuklamang
- Avtomobilning shinalarida havo bosimi doimo kerakli darajasigacha yetkazilgan bo'lishi kerak.
- Havo bosimini shinalar qiziganda (atrof muhitning haroratida) tekshirish kerak.

Havoni konditsionerlash tizimining filtri

Bu filtrning yordamida avtomobilning saloniga isitish va shamollatish tizimi orqali kiradigan chang va boshqa uchuvchan zarralar yo'q qilinadi.

▲ DIQQAT!

Tiqilib qolgan filtrlovchi element bilan avtomobilni boshqarib yurish dvigatelning shamollatgichi o'ta qizib ketishiga va uning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu holda shamollatgichning ishdan chiqishi ishlab chiqaruvchining kafolatlari bilan qoplanmaydi.

- Filtrni almashtirish davriyligi «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI» da keltirilgan.


Filtrni almashtirish

1. Qo'lqop yashigi ostidagi filtrning qopqog'idan **4** ta vintni burab yechib oling.
2. Filtrning qopqog'ini yechib oling.

⚠ DIQQAT!

Filtrning atrofidagi o'tkir detallarga qo'lingiz tegib yaranishi mumkin.


- Havo konditsionerining filtrini almashtirishda albatta himoya qo'lqoplarini taqib oling.



3. Havo konditsionerining filtrini almashtiring.

ESLATMA

Yangi filtni o'rnatishda u havoning oqimiga perpendikulyar yo'nalishda joylashganligini nazorat qilib turing.



G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR


Shinalarda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan kerakli havo bosimini tutib turish, boshqarishning eng qulay sharoitlarini, xavfsizlikni va yuqori foydalanish ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

Shinalarda havo bosimini o'lchash uchun aniq manometrdan foydalaning. Shinadagi havo bosimini tekshirishdan keyin himoyalovchi qalpoqchalarni ishonchli burab mahkamlang.

ESLATMA

Havo bosimini shinalar qizimaganida tekshirish kerak. Shinalar qiziganda ular ichidagi havo bosimi oshadi. Shinalarning qizishi 1,6 km yo'l o'tilganidan keyin yuz beradi; ularning sovishi uchun uch soat talab etiladi (avtomobilning to'xtaganidan keyin).

Shinalarda normal havo bosimi haqida ma'lumot olish uchun «AVTOMOBILNING TEXNIK XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.



Shinalarning holatini dvigatelni ishga tushirishdan avval, shinalardagi havoning bosimini esa - yonilg'i bakiga har bir yonilg'i quyishda yoki, hech bo'lmasa, oyda bir marta (manometrdan foydalanib) tekshirish kerak.

Shinadagi havoning yetarli bo'lmagan bosimi:

- shinalarga tushadigan yuklanishni oshiradi;
- avtomobilning boshqariluvchanligini va boshqarish havfsizligini yomonlashtiradi;
- boshqarishning qulayligiga ta'sir etadi;
- yonilg'ining sarfini oshiradi.

Shinalarda o'ta past havo bosimi bo'lganda, shinalarning o'ta qizib ketishi, ichki shikastlanishlar yuzaga kelishi, protektor yorilishi va hatto yuqori tezlikda shinaning yorilishi ham yuzaga kelishi mumkin. Havo bosimi past bo'lgan shinalardan foydalanish hatto keyingi normal havo bosimi bilan foydalanish holatida ham shinalarning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shinalar va g'ildiraklarning holatini diqqat bilan kuzatib turing

Shinalar va g'ildiraklarni shikastlashi mumkin bo'lgan o'tkir buyumlarni aylanib o'ting. Agar ba'zi obyektlarni aylanib o'tish mumkin bo'lmasa, ularning ustidan sekin va imkoni boricha to'g'ri burchak ostida o'ting. To'xtab turish paytida bordyurga chiqmaslikka harakat qiling.

Vaqt-vaqti bilan shinalarni quyidagilar bor-yo'qligi jihatidan tekshiring:

- ko'rinadigan shikastlanishlar;
- protektordagi begona elementlar;
- teshiklar;
- kesilgan joylar;
- darzlar;
- yon tomonlarida qavariqlar borligi.

G'ildiraklarni shikastlanishlar borligi jihatidan tekshiring.

Shinalarning nuqsonlari, shu jumladan yuqorida ta'riflangan nuqsonlari, avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qolishiga, buning natijasida esa YTH ga olib kelishi mumkin. Avtomobilning shinalari yoki g'ildiraklari shikastlanganda yoki protektorning holati yomon bo'lganda, vakolatlangan diler bilan maslahatlashing. Ushbu avtomobilda radial shinalar o'rnatilgan. Xuddi shunday o'lchamdagi, turdagi, protektorlarning xuddi shunday naqshlari, harorat va tezlik xususiyatlari bo'lgan radial shinalardan foydalaning.

▲ DIQQAT!

O'lchamlari avtomobilda avvaldan o'rnatilgan shinalarning o'lchamlaridan farq qiladigan shinalardan foydalanish avtomobilning shinalari va detallarining bir-biriga mos kelmasligiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa avtomobilning buzilishiga va shinalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.


Protektorning eng yuqori yeyilib eskirishining ichki qurilgan indikator

Shinalar protektorlarining chuqurligini shina protektorining eng yuqori yeyilib eskirishining ichki qurilgan indikatorlari yordamida muntazam tekshirib turing. Protektorning eng yuqori yeyilib eskirishining ichki qurilgan indikatorlari joylashuvi yon tomonlaridagi maxsus tamg'alash bilan ko'rsatilgan.

▲ DIQQAT!

- Sizning avtomobilingizdan shinalari yeyilib eskirgan yoki shikastlangan bo'lsa, foydalanmang.

Bu avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qolishiga olib kelishi mumkin, buning natijasida to'qnashuv yuz berishi va kishilar jarohat olishi, avtomobil yoki boshqa mol-mulk shikastlanishi mumkin.




Protektorning eng yuqori yeyilib eskirishining indikatorlari paydo bo'lganda shinalarni almashtiring. Indikatorlar, agar protektorning chuqurligi 1,6 mm yoki undan kamroq qiymatini tashkil etsa, protektorlarning chuqurliklari orasida paydo bo'ladi.

ESLATMA
Eyilib eskirgan shinalarni faqat mahalliy atrof muhitni himoya qilish bo'yicha qoidalarga muvofiq utilashtiring.

Shinalarning o'rnini o'zgartirish

Oldingi va orqa shinalar turli funksiyalarni bajaradi va har xil darajada yeyilib eskiradi. Odatda, oldingi shinalar orqa shinalardan tezroq yeyilib eskiradi. Shinalarning xizmat qilish muddatini uzaytirish va shinalar protektorlarining ntekis yeyilib eskirishiga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Agar oldingi shinalar orqa shinalardan ko'proq eskirgan bo'lsa, ikkala oldingi shinani orqa shinalar bilan o'rnini almashtirish kerak.
2. Shinalarda normal havo bosimini tutib turing.
3. Shinalarda g'ildirak gaykalari/boltlari yaxshi tortib mahkamlanganligini tekshiring. «SHIKASTLANGAN G'ILDIRAKNI ALMASHTIRISH» bo'limiga qarang.


 OGOHLANTIRISH!
<ul style="list-style-type: none"> • O'lchamlari avtomobilda avvaldan o'rnatilgan shinalarning o'lchamlaridan farq qiladigan shinalardan foydalanish avtomobilning shinalari va detallarining bir-biriga mos kelmasligiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa avtomobilning buzilishiga va shinalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin, ular avtomobilning ishlab chiqaruvchisining kafolatlari bilan qoplanmaydi. <p>Mos kelmagan shinalar bo'lganda, bu avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qolishiga olib kelishi mumkin, buning natijasida to'qnashuv yuz berishi va kishilar jarohat olishi, avtomobil yoki boshqa mol-mulkular shikastlanishi mumkin.</p>

Qishki shinalar

Qishki shinalarni o'rnatish zarur bo'lganda:

- Qishki shinalar barcha to'rta g'ildiraklarda o'rnatilishi kerak.
- Shinalarni ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan ko'rsatilgan maksimal tezlikdan oshib ketmang.

- Shinalarda havoning bosimi ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan bosimga mos kelishi lozim.



Shinalarning sirg'alishga qarshi zanjirlari

Shinalarda sirg'alishga qarshi zanjirlarni mahkamlashdan avval g'ildiraklardan qalpoqlarni (mavjud bo'lganda) tirmalishiga yo'l qo'ymaslik uchun yechib oling.

- Zanjirlarni ishlab chiqaruvchi zavodning yo'riqnomalarini bajaring.
- Sirg'alishga qarshi zanjirlarni oldingi g'ildiraklarga maksimal ishonchli qilib mahkamlang.
- 10 km yo'l o'tilgandan keyin sirg'alishga qarshi zanjirlarning mahkamlanishini tekshiring.

Sirg'alishga qarshi zanjirlarni orqa g'ildiraklarga o'rnatish tavsiya etilmaydi.

Shinalarning o'lchami 205/45R16 bo'lganda sirg'alishga qarshi zanjirlardan foydalanish mumkin emas.

▲ DIQQAT!

Sirg'alishga qarshi zanjirlardan foydalanish avtomobilning boshqariluvchanligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

- 50 km/soat tezlikdan yoki zanjirlarni ishlab chiqaruvchi zavodning tavsiya etgan tezlik cheklanishidan, agar u bundan ham pastroq bo'lsa, oshib ketmang.
- Keskin burilishlarga, zarbalarga va chuqurlarga urilishga yo'l qo'ymang.
- Bloklangan g'ildiraklarda tormozlashga yo'l qo'ymang.

ESLATMA

- Ushbu avtomobil uchun tavsiya etiladigan sirg'alishga qarshi zanjirlar – SAE sinfi, S turidagi zanjirlar.
- G'ildiraklarda shinalarning sirg'alishga qarshi zanjirlari mavjud bo'lganda past tezlikni saqlab turish tavsiya etiladi.
- Agar avtomobilning kuzoviga zanjirlarning tegib turgan ovozi eshitilsa, to'xtang va sirg'alishga qarshi zanjirlarni yana bir marta mahkamlang.
- Agar ovoz chiqishi to'xtamasa, bu ovoz to'liq yo'qolmaguncha harakatlanishni sekinlashtirib boring.

Vaqtincha zaxira g'ildirak

Vaqtincha zaxira g'ildirakka yangi avtomobilni sotib olish paytida havo bosimi to'liq kiritilgan

bo'lsa ham, vaqt o'tgan sari undan havo chiqishi mumkin. Shinadagi havo bosimini muntazam tekshirib turing.

Normal havo bosimi haqida ma'lumot olish uchun «AVTOMOBILNING TEXNIK XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.

▲ DIQQAT!

- Standart g'ildirakning o'rniga vaqtincha zaxira g'ildirak o'rnatilganda, avtomatik yuvish shoxobchalaridan foydalanmang.

▲ DIQQAT!

- Vaqtincha zaxira g'ildirakka sirg'alishga qarshi zanjirlarni taqming
Ularni to'g'ri montaj qilish mumkin bo'lmaydi.
Vaqtincha zaxira g'ildirakdan sirg'alishga qarshi zanjirlar bilan birga foydalanish avtomobilning va zanjirlarning shikastlanishiga olib keladi.

ERUVCHAN SAQLAGICHLAR**Eruvchan saqlagichni almashtirish:**


1. Eruvchan saqlagichlar blokining qopqog'ini oching.
2. Kuygan saqlagichni toping (saqlagichning ichidagi tolasi erib tushgan).
3. Kuygan saqlagichni saqlagichlar uchun pinset yordamida olib tashlang. Saqlagich uchun pinset motor bo'limida joylashgan saqlagichlarning blokida turadi.

▲ DIQQAT!

- Kuygan saqlagichni olib tashlash uchun elektr o'tkazmaydigan asboblardan foydalanmang. Faqat saqlagichlar uchun maxsus pinsetdan foydalanish lozim.
Metall asboblardan foydalanish qisqa tutashuvga sabab bo'lishi, elektr tizimini shikastlashi yoki yonib ketishga olib kelishi mumkin.
Jiddiy jarohat olish mumkin.

▲ OGOHLANTIRISH!

Asl GM saqlagichlarining texnik xususiyatlariga mos kelmaydigan saqlagichlarni o'rnatish yoki ishlatish xavflidir. Saqlagichlar ishlaymay qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki o'limiga olib kelishi mumkin, shuningdek, avtomobilga shikast yetishi mumkin.



4. Eruvchan saqlagichning kuyishi sababini aniqlang va ushbu muammoni bartaraf eting.
5. Yangi eruvchan saqlagichni o'rnatib, u ushbu qo'llanmada bayon etilgan spetsifikatsiyalarga mos kelishi lozim. (Quyida «Saqlagichlar blokining tuzilishi» ga qarang)

⚠ DIQQAT!

Eruvchan saqlagichning o'rnini bosuvchi moslamani, noto'g'ri turdagi yoki tokning boshqa nominal qiymati bo'lgan o'rnatish elektr sxemalarning shikastlanishiga yoki hatto yonib ketishga olib kelishi mumkin.


- Faqat tavsiya etilgan, ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan saqlagichlardan foydalanish, va boshqa turdagi yoki maksimal tokning boshqa qiymatlari bo'lgan saqlagichlarni o'rnatmaslik lozim.

⚠ DIQQAT!

Ushbu talabni bajarmaslik jarohatlar olinishiga, avtomobilning buzilishiga yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

ESLATMA


Motor bo'limidagi saqlagichlar blokida 3 ta zaxira saqlagich bor. (10 A, 15 A u 25 A)



Motor bo'limidagi saqlagichlar bloki

ESLATMA

Ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan saqlagichlar bloklarining barcha ta'riflari Sizing transport vositangizning saqlagichlar bloklariga mos kelavermaydi. Ushbu axborot qo'llanmaning chop etilgan vaqtida to'g'ri bo'lgan. Transport vositasining saqlagichlar blokini ko'zdan kechirib, saqlagichlar blokining ustida joylashgan yorlig'iga qarang.




Ichki saqlagichlar bloki

Ichki saqlagichlar bloki

10A XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI	25A OYNA TOZALAGICH	10A AUDIOTIZIM SOAT
10A ELEKTRON BOSHQARISH MODULI		15A QO'SHIMCHA DOMKRAT
15A BURLISH KO'RSATKICHI	10A ABT*	15A SIGARET TUTATGICH
10A ASBOBLAR PANELI	10A HARAKAT- SIZLANTIRISH TIZIMI	10A OROAGA YURISH CHIROG'I
	10A TCM	15A ORQA TUMANGA QARSHI CHIROQ
10A MOTOR BO'LMIDA SAQLAGICH	15A AVARIYALI SIGNALIZATSIYA	15A ATC/SOAT
20A HVAC	15A O'G'IRLASHGA QARSHI HIMOYA	15A AUDIOTIZIM
15A TUYNUK	10A DIAGNOSTIKA	10A HARAKAT- SIZLANTIRISH TIZIMI
DIQQAT: FAQAT TAVSIYA ETILGAN ERUVCHAN SAQLAGICHLARDAN FOYDALANISH LOZIM. ANJOMLAR*		

Motor bo'limidagi saqlagichlar bloki



YORITISH ASBOBLARI**▲ OGOHLANTIRISH!**

Galogen chiroqlari ichida bosim ostidagi gaz bor. Galogen chiroqlari bilan ishlashda va ularni demontaj qilishda maxsus ehtiyot choralarini qo'llash lozim bo'ladi.

- Ko'zingizni asrang.
- Chiroq yuzasining ishqalanishiga va tirnalishlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymang.
- Patronsiz yonib turgan ichiroqqa suyuqlik tegishiga yo'l qo'ymang.
- Chiroqni faqat uning o'rnatilganidan keyin yoqish kerak.
- Nosoz chiroqlarni almashtirish lozim.
- Galogen chiroqni almashtirishda chiroqning shisha detallariga himoyasiz qo'lingiz bilan TEGMANG.
- Bolalar yeta olmaydigan joyda saqlang.
- Chiroqlarni o'ta ehtiyotlik bilan utillashtiring. Chiroqlar portlashdan xavfli.

ESLATMA

Kuchli yomg'irda yurgandan keyin yoki avtomobilni yuvishdan keyin, tashqi yoritish faralarining ba'zi linzalari terlashi mumkin. Bu holat chiroqning ichidagi harorat va tashqaridagi havo haroratining farqi tufayli yuzaga keladi.


Bu yomg'ir paytidagi avtomobilning salonida oynalarda namlik kondensatsiyalanishiga o'xshaydi, va Sizning avtomobilingizda muammolar borligini bildirmaydi.

ESLATMA

Agar chiroq kolbasining ichiga suv kiradigan bo'lsa, avtomobil Sizning Vakolatlangan servis markazingizda tekshirish kerak.

Faralar**Chiroqni almashtirish**

1. Kapotni oching.
2. Ikkita bolti (1) va bitta gaykani (2) yechib oling.
3. Simning shtepselli uyasini chiroqdan ajratib oling.
4. Faraning qopqog'ini yechib oling.
5. Chiroqni ushlab turgan prujinani ajratib oling.
6. Chiroqni chiqarib oling.
7. Kerakli turdagi soz chiroqni o'rnatng. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.




N4W6503A

8. Yangi chiroqni prujinaga o'rnatng.
9. Faraning qopqog'ini o'rnatng.
10. Simning shtepselli uyasini ulang.

▲ DIQQAT!

- Galogen chiroqlarini tozalash zarur bo'lganda, spirt bilan yoki tarkibida spirt bo'lgan mineral vositalar bilan namlangan tuksiz matodan foydalaning. Chiroqqa himoyalanmagan qo'lingiz bilan tegmang. Barmoq izlari galogen chiroqlarining xizmat qilish muddatlarini ancha qisqartirishi mumkin.




N4W6504A

To'xtab turish chiroqlari**Chiroqni almashtirish**

1. Kapotni oching.
2. Butun faralarning blokini yechib oling.

3. Faraning qopqog'ini yechib oling.
4. Fara chirog'ining yonida joylashgan chiroqning tutqichini chiqarib oling.
5. Chiroqni patronidan bevosita o'zingizga qarab tortib, chiqarib oling.
6. Patron ichiga soz chiroqni o'rnatib. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
7. Faraning qopqog'ini o'rnatib.
8. Simning shtepselli uyasini ulang.




Oldingi burilish ko'rsatkichlarining chiroqlari

Chiroqni almashtirish

1. Kapotni oching.
2. Butun faralarning blokini yechib oling.
3. Burilish ko'rsatkichi chirog'ining patronini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.
4. Burilish signali chirog'ining oldingi patronini faradan chiqarib oling.
5. Chiroqni patronidan chiqarib oling. Buning

- uchun uni ozgina bosib turing va soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.
6. Yangi chiroqni patroniga o'rnatib. Buning uchun uni ozgina bosib turing va soat milining yo'nalishida aylantiring. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
 7. Patronni soat milining yo'nalishida aylantirib, uni faraning ichiga o'rnatib.
 8. Faralarning blokini o'rnatib.



Oldingi kunduzgi yoritish faralari /tumanga qarshi faralar*

⚠ OGOHLANTIRISH!

Bu ishlar maxsus tayyorgarlik, vositalar va jihozlar bo'lishini talab qiladi.


- O'z kuchingizga ishonmasangiz, vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Aks holda jarohatlar olinishi yoki avtomobilning detallari shikastlanishi mumkin.

Chiroqni almashtirish


1. Kunduzgi yoritish chirog'idan / oldingi tumanga qarshi faraning chirog'idan simning shtepselli uyasini ajratib oling.
2. Kunduzgi yoritish chirog'ini / oldingi tumanga qarshi faraning chirog'ini olib tashlash uchun, uni soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.
3. Chiroqni almashtiring. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
4. Kunduzgi yoritish chirog'iga / oldingi tumanga qarshi faraning chirog'iga simning shtepselli uyasini ulang.



Burilish ko'rsatkichlarining yon takrorlash chiroqlari

Chiroqni almashtirish


1. Burilish ko'rsatkichining yon takrorlash chirog'ining butun blokini chiqarib oling (o'zingizga qaratib torting).
2. Chiroqning patronini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.
3. Chiroqni patronidan bevosita o'zingizga qaratib tortib, chiqarib oling.
4. Yangi chiroqni patroniga o'rnatng. Buning uchun uni ozgina bosib turing va patronni soat milining yo'nalishida aylantiring. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
5. Burilish ko'rsatkichining yon takrorlash chirog'ining butun blokini boshlang'ich holatiga o'rnatng.



Orqaga yurish chirog'i, gabarit chiroqlari, tormoz chirog'i, orqa burilish ko'rsatkichi va orqa tumanga qarshi chiroq

Chiroqni almashtirish (Sedan)


1. Yukxonaning qopqog'ini oching.
2. Salon qoplamasining panelini oching.
3. Chiroqning patronini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantirib, burab yechib oling.
4. Chiroqni bosib va soat miliga qarshi yo'nalishda aylantirib, chiroqni patronidan chiqarib oling.
5. Yangi chiroqni patroniga o'rnatng.
6. Patronni faralar blokining ichiga o'rnatng. Chiroqning patronini soat milining yo'nalishida aylantiring.
7. Salon qoplamasining panelini o'rnatng va yukxonaning qopqog'ini yoping.



Yuqori tormozlash signali

Chiroqni almashtirish (Sedan)

1. Yukxonaning qopqog'ini oching.
2. Ikkita vintni burab yeching va chiroqning blokini yechib oling. Faralar blokini yechib olishdan avval simning shtepselli uyasini ajratib oling.
3. Ikkita vintni burab yeching va aks ettirish moslamasi blokini yechib oling.
4. Chiroqni patronidan bevosita o'zingizga qaratib tortib, chiqarib oling.
5. Yangi chiroqni o'rnatng. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
6. Faralarning blokini joyiga o'rnatng.




Davlat ro'yxat raqami belgisini yoritish chirog'i

Chiroqni almashtirish

1. Ikkita vintni burab yeching va chiroqning qopqog'ini yechib oling.

AVTOMOBILNI PARVARISH QILISH


2. Chiroq ichidan patronni chiqarib olish uchun uni soat milining yo'nalishida aylantiring.
3. Chiroqni patronidan tortib chiqarib oling.
4. Chiroqni almashtiring. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
5. Chiroqning patronini soat milining yo'nalishida aylantirib, joyiga o'rnatng.
6. Chiroqning qopqog'ini o'rnatng.



Ustki plafon/kichik yoritish chirog'i

Chiroqni almashtirish


1. Avtomobilning salonidagi chiroqdan plafonni yechib olish uchun shlitsali otvertkadan foydalaning.
2. Chiroqni chiqarib oling.
3. Chiroqni almashtiring. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
4. Plafonni joyiga o'rnatng.



Yukxona bo'limini yoritish plafoni

Chiroqni almashtirish

1. Plafonni tutqichdan yechib olish uchun shlitsali otvertkadan foydalaning.
2. Chiroqni almashtiring. «CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI» bo'limiga qarang.
3. Plafonni joyiga o'rnatng.



Tozalash vositalari

Avtomobilning kuzovini yoki salonini tozalash paytida ishlab chiqaruvchining tozalash vositalaridan va boshqa kimyoviy vositalardan foydalanishga oid tavsiyalariga amal qiling.

OGOHLANTIRISH!

Ba'zi tozalash vositalari zaharli, o'yuvchan yoki olovdan xavfli bo'lishi mumkin.

- Bu vositalardan noto'g'ri foydalanish xavfli bo'lishi mumkin. Jarohatlar olinishi va avtomobilning detallari shikastlanishi mumkin.

- Avtomobilning kuzovini yoki salonini tozalash paytida quyidagi xavfli erituvchilardan foydalanmang:
 - Atseton.
 - Lak suyultiruvchilari.
 - Emalni tiklovchi moddalar.
 - Lakni tozalash uchun suyuqliklar.
- Avtomobilning kuzovi detallarini yoki salonini tozalash paytida quyidagi tozalash vositalaridan foydalanmang (quyida ko'rsatilgan dog'larni tozalash holatidan tashqari):
 - Xo'jalik sovuni.
 - Oqartiruvchi vositalar.
 - Tiklovchi vositalar.

Tozalash paytida hech qachon quyidagi vositalardan foydalanmang:

- To'rt-xlorli uglerod.
- Benzin.
- Benzol.
- Kerosin va boshqa neft mahsulotlari.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Tozalash vositalari va boshqa kimyoviy vositalar bug'laridan nafas olmaslikka harakat qiling.

Bunday bug'lar, ayniqsa yetarli shamollatish bo'lmagan kichik xonalarda, kishining sog'lig'i uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Avtomobilning salonida tozalash vositalari va boshqa kimyoviy vositalardan foydalanganda, shamollatishni yaxshilash uchun eshiklarni oching.

Salonning och rangli qoplamalarining ehtimoliy ifloslanishining oldini olish uchun, barqaror bo'lmagan bo'yoqli materiallar o'rindiqlarning qoplamasiga tegmasligini nazorat qiling.

Ba'zi barqaror bo'lmagan bo'yoqli materiallar:

- Turti kiyimlar.
- Rangli ip-gazlama mato.
- Velvet.
- Charm.
- Zamsha.
- Gazetalar.
- Rangli qog'oz.

⚠ DIQQAT!

Bo'yoq rangi chiqib turadigan materialning, agar ushbu materiallar mutlaqo quruq bo'lmasa, salonning ichki qoplamasiga tegishiga yo'l qo'ymang.

Salonni parvarish qilish va tozalash**⚠ DIQQAT!**

- Avtomobilning saloni qoplamasini tozalash faqat tavsiya etilgan usullarini va vositalar bilan bajarilishi kerak.

Aks holda, ayniqsa birinchi tozalashda, suv dog'lari, izlar va ketkazilmaydigan dog'lar paydo bo'lishi mumkin.

Bu salonning tashqi ko'rinishi yomonlashuviga olib keladi.

Avtomobilning tashqi detallarini va salonini tozalashda faqat tavsiya etilgan usullarini va tozalash vositalarini qo'llash juda muhim bo'ladi.

Salonda yig'iladigan chang va ifloslanishni, changyutgich yoki yumshoq tukli cho'tka yordamida muntazam tozalab turing.

Salonning vinil va charm qoplamalarini toza nam mato bilan muntazam arting.

Salonning qoplamasidan ifloslanish va dog'larni mos keluvchi tozalash vositalari bilan ketkazing.

Xavfsizlik kamarlarini parvarish qilish**⚠ DIQQAT!**

Xavfsizlik kamarlarining tegishli darajada samaralligini ta'minlash uchun, ular yaxshi holatda saqlanishi kerak.

Xavfsizlik kamarlari doimo toza va quruq bo'lishi kerak. Xavfsizlik kamarining polirollar, moylar va kimyoviy moddalar bilan, ayniqsa akkumulyator kislotasi, oqartiruvchi moddalar va bo'yoqlar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymang. Bu ifloslanish xavfsizlik kamarining materiali mustahkamligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Vaqt-vaqti bilan xavfsizlik kamarlarining barcha qismlarini ko'zdan kechiring. Shikastlangan kamarlar yoki mahkamlashlarni zudlik bilan almashtiring.

YTH natijasida tortilib uzaygan xavfsizlik kamarlarini, hatto agar shikastlanishi yaxshi ko'rinmasa yoki umuman ko'rinmasa ham, almashtirish kerak.

Almashtirish uchun faqat yangi kamarlardan foydalanish lozim.

YTH dan keyin xavfsizlik kamarlarini va ularning mahkamlashlarini to'liq almashtiring. Agar maxsus ta'lim olgan mutaxassis YTH natijasida xavfsizlik kamarlari shikastlanmaganligini, va ular ish hoatida ekanligini aniqlagan holda, kamarlarni almashtirish shart emas. Vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Oynalarning yuzalari

▲ DIQQAT!

Abraziv oyna tozalash vositalari oynani tirnab yuborishi va orqa oyna isitgichining tolalarini shikastlashi mumkin.

- Avtomobilning oynalarini abraziv tozalash vositalari bilan tozalamang.

Bu atrofni ko'rish imkoniyatini yomonlashtirishi mumkin.

Toza oynalar kamroq yaltiraydi va shaffofligi ko'proq bo'ladi.

▲ DIQQAT!

Yopishtiriladigan yorliqlar yoki qoraytiruvchi qoplama orqa oynaning isitgichini shikastlashi mumkin.

Yopishtiriladigan yorliqlar yoki qoraytiruvchi qoplama tufayli orqa oyna yoki isitgich o'tkazgichlarining shikastlanishi ishlab chiqaruvchining kafolatlari bilan qoplanmaydi.

- Yorliqlarni orqa oynaga ichidan yopishtirmang.

Bu atrofni ko'rish imkoniyatini yomonlashtirishi mumkin.

Old oynaning tashqi yuzasini tozalash

Old oynadagi mum yoki boshqa moddalar, yoki oyna tozalash vositalari oyna tozalagichlarning cho'tkalari titrashiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday materiallar shuningdek old oynani tozalashga to'sqinlik qilishi mumkin. Vaqt-

vaqti bilan abraziv bo'lmagan oyna tozalash vositalari bo'lmagan old oynani tashqi tozalashni bajaring. Old oyna, agar uni suv bilan yuvishda tomchilar hosil bo'lmasa, toza deb hisoblanadi.

Avtomobilning tashqi detallarini parvarish qilish va kuzovni yuvish

Avtomobilni yuvish

Avtomobildan foydalanish muddatini uzaytirishning eng yaxshi yo'li - bu uning tozaligini saqlash va muntazam yuvishdir.

- Avtomobilni to'g'ri quyosh nurlari ostida to'xtatib qoldirmang.
- Avtomobillarni yuvish uchun mo'ljallangan yumshoq yuvish vositasidan, sovuq yoki iliq suv bilan, foydalaning.
- Yuvishdan keyin yuzalarnig ustida sovun va oyna tozalash vositalari qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

▲ OGOHLANTIRISH!

- Avtomobilni yuvish uchun idish-tovoqlarni yuvish uchun xo'jalik suyuqligidan foydalanmang.
- Bunday suyuqlikdan foydalanish mumli qoplamaning shikastlanishiga olib keladi.

▲ DIQQAT!

- Avtomobilni yuqori bosim bilan yuvmaslikka harakat qiling.
- Aks holda avtomobilning ichiga suv kirib qolishi va salonning detallari shikastlanishi mumkin.

Avtomobil normal iqlimiy sharoitlarda ishlash uchun mo'ljallangan va atrof muhitning tabiiy ta'sir etishi uchun loyihalashtirilgan.

▲ DIQQAT!

Avtomatik yuvish shoxobchasida antenna shikastlanishi mumkin.

- Audiotizimni o'chirib, antennani taxlang.
- Machtani yoki antennani tomdan qo'lda yechib oling.

Silliqlash va mum bilan qoplash

Avtomobilni uning yuzalaridagi notekisliklarni bartaraf etish uchun muntazam silliqlab turing.

Silliqlashdan keyin bo'yoqni himoyalash uchun avtomobilni yuqori sifatli mum bilan qoplang.

Avtomobil kuzovining yaltiroq metall detallarini himoyalash

Yaltiroq metall detallarni muntazam tozalang. Odatda, faqat suv bilan yuvish talab etiladi.

Avtomobilni mum bilan qoplashda, shuningdek barcha yaltiroq metall qismlarga ham mumni surting.

▲ DIQQAT!

- Alyuminiyli moldinglarni tozalash yoki silliqlash uchun, avtomobil uchun yoki xromli silliqlash vositalaridan, bug' yoki ishqorli sovundan foydalanmang. Bu materiallar yetarli darajada abraziv bo'lishi hamda avtomobilning moldinglari va g'ildiraklarini shikastlashi mumkin.

G'ildiraklarning alyuminiyli disklari va qalpoqlarini tozalash

G'ildiraklarning alyuminiyli disklari va qalpoqlarining avvalgi ko'rinishini saqlab qolish uchun, ularni yo'ldagi loy va changlardan tozalang, va tormoz disklarida chang yig'ilmasligini nazorat qiling.

▲ DIQQAT!

G'ildiraklarning alyuminiyli disklari va qalpoqlarini tozalash uchun abraziv oyna tozalash vositalaridan yoki cho'tkalardan foydalanmang.

G'ildiraklarning disklarini/qalpoqlarini, yuzalarni shikastlashi mumkin bo'lgan abraziv oyna tozalash vositalaridan va cho'tkalardan foydalanmay, muntazam tozalab turing.

Korroziyaga qarshi himoyalash

Avtomobilingizda korroziyaga qarshi himoyalash mavjud. Avtomobilning ko'pchilik qismlarida foydalaniladigan maxsus materiallar va himoya qoplamalari avtomobilning yaxshi tashqi ko'rinishi, mustahkamligi va ishonchligini tutib turishga yordam beradi. Dvigatelning ma'lum qismlarida yoki avtomobilning tagida yuzaki zang paydo bo'lishi mumkin, lekin u ushbu elementlarning ishonchligiga yoki ishlashiga ta'sir etmaydi.

Metall listlarining shikastlanishi

Agar kuzov detalini ta'mirlash yoki almashtirish kerak bo'lsa, ta'mirlash ustaxonasi korroziyadan himoyalashni tiklash uchun tegishli korroziyaga qarshi materialdan foydalanishiga ishonch hosil qiling. «YUZALARNING SHIKASTLANISHI» bo'limiga qarang.

Zararli moddalar

Ko'pgina tabiiy yoki sun'iy kelib chiqishdagi o'yuvchan moddalar avtomobilning lak-bo'yoq qoplamalarini va boshqa yuzalarini shikastlashi mumkin, shu jumladan:

- Kalsiy xlorid va boshqa tuzlar.
- Muzni erituvchi vositalar.
- Moylar va qatronlar.
- Daraxtlarning shirasi.
- Qushlarning go'ngi.
- Sanoat chiqindilari.

Avtomobildan zararli moddalarni imkoni boricha tezroq yuvib tashlang. Agar sovun va

suv yordamida cho'kmalarni yuvish mumkin bo'lmasa, maxsus oyna tozalash vositalaridan foydalaning.

▲ DIQQAT!

- Bo'yalgan yuzalarni tozalash uchun mo'ljallangan oyna tozalash vositalaridan foydalanish kerak. Boshqa oyna tozalash vositalari bo'yoqni shikastlashi mumkin.

Qoplamalarning shikastlanishi

Qoplama ustidagi toshlar tegishidan qolgan o'yiqlar, darzlar va chuqur timalishlarni imkoni boricha bo'yab yopish kerak. Usti ochiq metall tez korroziyaga uchraydi.

Kichik o'yiqlarni va timalishlarni bo'yab yopish uchun nuqsonlarni bartaraf etish vositalaridan foydalanish mumkin. Kuzovni ta'mirlash va bo'yash ustaxonalari katta shikastlangan joylarni ta'mirlashni ham bajarishi mumkin.

Avtomobilning tagiga texnik xizmat ko'rsatish

Qor va muzni ketkazish uchun yoki changga qarshi kurash uchun foydalaniladigan o'yuvchi moddalar avtomobilning tagida yig'ilib qolishi mumkin. Agar bu moddalarni yuvib tashlamasangiz, bu korroziya va zang paydo bo'lishini tezlashtirishi mumkin. Avtomobilning tagini shu moddalardan tozalash uchun oddiy suvdan muntazam foydalaning. Loy va boshqa gardlar yig'ilishi mumkin bo'lgan barcha joylarni puxta

tozalang. Yuvidan avval, qiyin yetib boriladigan joylarda bo'lgan loy qumoqlarini yumshating. Servis ishlariing ushbu turini vakolatlangan diler bajarishi mumkin.

▲ OGOHLANTIRISH!

Dvigatelnig qismlarini yuvishda yonilg'i, moylash vositasi va moyning qoldiqlari atrof muhitga chiqishi mumkin.

Dvigatelni vakolatlangan dilernig yuvish shoxobchasida yoki boshqa moy filtri bilan jihozlangan joyda yuving.

Ishlangan motor moyi, tormoz suyuqligi, uzatmalar qutisining moyi, antifriz, akkumulyator batareyalari va shinalarni utilizatsiya qilish ruxsat etilgan joylarga yoki yangi materiallarni sotish paytida ishlangan materiallarni qabul qiluvchi sotuvchiga topshiring.

Bularning hammasini maishiy chiqindilar bilan birga tashlab yubormang, va ularni oqava quvurlariga to'kmang.

Bunday ehtimoliy xavfli moddalar bilan noto'g'ri muomala qilish atrof muhitning ifloslanishiga olib kelishi mumkin.

O`T O`CHIRGICH UCHUN JOY

O't o'chirgichning joylashish joyi sifatida, avtomobilning yukxona bo'limida joylashgan yukxaltani ishlatish kerak.

O't o'chirgichni Chevrolet dilerlaridan xarid qilishingiz mumkin.

O't o'chirgich yukxona bo'limining chap qismida saqlanishi kerak.

O't o'chirgichdan quyidagi kabi foydalanish lozim:

1. Avtomobilni keyingi xavfsiz joyda to'xtating va darhol dvigatelni o'chiring.
2. Qulfn bo'shatib o't o'chirgichni yukxalta ichidan chiqaring
3. O't o'chirgichni mos ravishda qo'llash uchun ko'rsatmalariga rioya qiling.

Eslatma:

Transport vositasining egasi o't o'chirgich holati uchun javobgardir, shuning uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan davrda yorliqdagi ko'rsatmalarga asosan texnik tekshirish amalga oshirilishi kerak.



8

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI

- UMUMIY MA'LUMOT 8-2
- GBU BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILGA
TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI 8-6
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI 8-3

UMUMIY MA'LUMOT

Ushbu bo'limda avtomobildan uzoq vaqt davomida normal foydalanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnik xizmat ko'rsatish reglamenti keltirilgan.

Haydovchi mazkur foydalanish qo'llanmasida ta'riflangan yo'l-yo'riqlarga muvofiq avtomobildan to'g'ri foydalanish va uni parvarish qilish uchun javobgar bo'ladi. Bu yo'l-yo'riqlarga rioya qilmaslik avtomobil bo'yicha kafolatni bekor qilishga olib keladi. Haydovchining vazifalariga avtomobilni to'g'ri parvarish qilish va undan foydalanish qoidalariga rioya qilish kiradi.

Texnik xizmat ko'rsatish reglamentida ko'zda tutilgan muddatlarga, va ushbu servis ishlari bo'yicha qo'llanmada bayon etilgan foydalanishga oid umumiy yo'riqnomalarga amal qiling.

Haydovchi shuningdek majburiy texnik xizmat ko'rsatishdan muntazam o'tganligini tasdiqlovchi belgilari qo'yilgan servis kitobchasini saqlashi kerak. Texnik xizmat ko'rsatishdan o'tganligi haqidagi belgilari bilan servis kitobchasi, Foydalanish qo'llanmasi bilan birga, avtomobilning keyingi egasiga berilishi lozim.

Yaxshi ta'lim olgan texnik xodimlari va original ehtiyot qismlari bo'lgan vakolatlangan dilerda texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Original bo'lmagan ehtiyot qismlari va anjomlar tekshirishdan o'tmaydi va ma'qullanmaydi. Biz ushbu detallarning va anjomlarning yaroqliligini va xavfsizligini tasdiqlay olmaymiz va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan zarar uchun javobgar bo'lmaymiz. Mos kelmaydigan, to'liq bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan servis xizmat ko'rsatish avtomobilning foydalanishda muammolar paydo bo'lishiga, shu jumladan hatto avtomobilning buzilishiga, YTH va tan jarohatlariga olib kelishi mumkin.

Foydalanish sharoitlari

Majburiy davriy texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga amal qilish lozim. Ushbu bo'limdagi «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI» ga qarang.

Normal foydalanish sharoitlari

Normal foydalanish sharoitlari– bu odatdagi, kundalik sharoitlardir. Odatdagi texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga amal qilish lozim.

Og'ir foydalanish sharoitlari

Avtomobildan quyida sanab o'tilgan sharoitlarda foydalanilganda, ba'zi texnik xizmat ko'rsatish amallari ikki baravar tezroq o'tkazilishi lozim.

Batafsil ma'lumotni «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI» da qarang.

- Qisqa masofaga (**10 km dan kam**) tez-tez yurish.
 - Uzoq vaqt davomida harakatsiz ishlash va/yoki yo'l tiqilinch bo'lgan sharoitda past tezlikda boshqarish.
 - Tuproqli yo'llarda yurish.
 - Tepalikli yoki tog'li joylarda yurish.
 - Tirkama bilan yurish.
 - Murakkab shahar sharoitida, ko'chadagi havo harorati muntazam tarzda **32°C** yoki undan yuqoriroq darajaga yetganda boshqarish.
 - Taksi, militsiya mashinasi yoki maxsus xizmat mashinasi sifatida foydalanish.
 - Manfiy tashqi haroratda tez-tez foydalanish.
 - O'quv-mashq maqsadida foydalanish.
 - Avtomobildan mos kelmaydigan xususiyatli yonilg'i bilan, yomon sifatli yonilg'i bilan va/yoki past oktan sonli yonilg'i bilan foydalanish.
- "YONILG'I" bo'limiga qarang.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Generator, konditsionerning kompressori va RBG nasosining yuritmasi tasmasi			I	I	I	I	I	R	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatelning moyi va moy filtri (1) (2)	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Sovutish, yonilg'i ta'minot, moylash va konditsionirlash tizimining germetikligi (*)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatelning sovituvchi suyuqligi (2) (3)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yonilg'i filtri (1) (2)		R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
Yonilg'i naylari va ulanishlari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Havo tozalagichning filtrlovchi elementi (LYD havo filtri) (1) (2)	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
O't oldirish svechalari (2)		I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	I	R	I
EVAP bachok (yonilg'i bug'lanishini tutib qolish tizimi) va bug' naylari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
PCV tizimi (karterni shamollatishni boshqarish tizimi)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(3) Har bir 150 000 km. yoki 5 yil dan keyin almashtirish.

* Mazkur qo'llanmadagi yulduzcha bilan asosiy butlanishga kirmaydigan va Sizning avtomobilingizda bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan jihozlar belgilangan.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Shinalarning holati va shinalardagi ichki bosim	Quyidagi (7) havolaga qarang														
G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari	Tekshirish, normadan chetlanishlar mavjud bo'lsa														
Rul g'ildiragi va rul mexanizmi															
Rul gidrokuchaytirgichining ish suyuqligi, naylar va ulanish naylari	(2)														
Xavfsizlik tasmalari, ularni kuzovga mahkamlash to'qalari va tugunlari															
Qulflar, oshiq-moshiqlar, kapot qulfini moylash, kuzovni tekshirish															
Avtomobilning diagnostikasi, ko'rsatkichlarini sozlash															
Elektr jihozlar, faralar, tozalagichlar, yuvish moslamalari, AKBni tekshirish															
Ilashish muftasi va tormoz pedallarining erkin yurishi															
Yonilg'i bakini tekshirish va tozalash															

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(7) Shinalarning holatini dvigatelni ishga tushirishdan avval, shinalardagi havo bosimini esa-yonilg'i bakiga har bir yonilg'i quyishda yoki, hech bo'lmasa, oyda bir marta (manometrdan foydalanib) tekshirish kerak.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Gaz taqsimlash mexanizmining yuritma zanjiri			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Salonning havo filtri (havo konditsioneri) (*)	(1)		I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
Ishlangan gazlarni chiqarish tizimi va uni mahkamlash			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz suyuqligi (ilashish muftasi va tormoz tizimi)	(1) (2) (4)	I	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I
Oldingi tormoz kolodkalari va diskleri	(5)		I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I
Orqa tormoz kolodkalari va diskleri, yoki barabanlari va ustki qoplamlari	(5)		I	I	I	I	I	I	I	R	I	I	I	I	I
To'xtab turish tormozi		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormozlarning naylari, ularning ulanishlari (shu jumladan tormoz kuchaytirgichi)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatel, harakat qismi, shassi va kuzovning rezbalari ulanishlarini tortib mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Mexanik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(2)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Avtomatik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(1) (2)	Quyidagi (6) havolaga qarang													

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tartib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(4) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa, har bir 15 000 km dan keyin yoki bir yildan s'ong foydalanish materiallarini almashtirish kerak bo'ladi:

- tepalikli yoki tog'li joylarda yurish yoki

- tirkama bilan tez-tez yurish;

(5) Og'ir sharoitlarda foydalanilganda, tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: qisqa masofalarga yurish, uzoq vaqt davomida dvigatelni salt ishlash rejimida yurgizish, tez-tez yo'lda tirbandlikda tiqilib qolish sharoitida past tezlikda yurish, tuproqli yo'llarda yurish.

(6) Avtomatik uzatmalar qutisida moyini almashtirish quyidagi sharoitlarda foydalanishda:

- normal sharoitlarda har bir 140 000 km dan keyin;

- og'ir sharoitlarda har bir 70 000 km dan keyin talab etiladi;

* Mazkur qo'llanmadagi yulduzcha bilan asosiy butlanishga kirmaydigan va Sizning avtomobilingizda bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan jihozlar belgilangan.

GBU BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

GBU ga (gaz ballon uskunasi) ega bo'lgan avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini texnik xizmat ko'rsatish tartibiga binoan amalga oshirish tavsiya etiladi, chunki bunda o'rnatish ishlarining to'liq samaradorligi ta'minlab beriladi. Albatta, avtomobilning servis kitobchasida ko'zda tutilganidek, bu har qanday vaziyatda ham vaqti-vaqti bilan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomobilga xizmat ko'rsatishning o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun ham quyida keltirilgan jadvalga muvofiq gaz tizimini nazorat qilish tavsiya etiladi.

Avtomobilga vaqti-vaqti bilan texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun va tegishli hujjatlarning yuritilishi uchun javobgarlik avtomobil egasi zimmasida bo'ladi. Siz avtomobil o'z vaqtida ishlab chiqaruvchi tartib-qoidalariga muvofiq ravishda to'liq texnik ko'rikdan o'tkazilganini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lishingiz kerak. Buning uchun har bir texnik ko'rikdan so'ng "Texnik xizmat ko'rsatishni qayd etish jurnali"da bu haqda qayd qilinishi lozim.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Bosim rostlagichining isish tizimi germetikligini tekshirish	(2)														
Gaz apparaturasi germetikligini tekshirish (suv, gaz)															
Gaz yoqilg'i tizimini mahkamlash joylarida kuzov holatini tekshirish	(2)														
Yoqilg'i uzatish boshqaruvi blokining tartibga solinadigan o'lchamlarini tekshirish (gaz va benzin)															
Yoqilg'i ballonini va yuqori bosim quvurlarini mahkamlovchi boltlarning tortilganini tekshirish	(2)														
Gaz yoqilg'i tizimining elektr uskunalarini tekshirish (simlar, ulanishlar, izolyatsiya)	(2)														
Gaz filtrini almashtirish (past bosim tizimida)	(1)	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatilgandan so'ng belgilangan amallarni bajarish tavsiya etiladi.

9


TEXNIK MA'LUMOT

- IDENTIFIKATSIYALASH RAQAMLARI 9-2
- MOYLASH KARTASI 9-3
- MOTOR MOYI 9-3
- CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI 9-5
- AVTOMOBILNING TEXNIK TAVSIFI 9-6
- ESLATMALAR 9-9

IDENTIFIKATSIYALASH RAQAMLARI

Avtomobilning identifikatsiyalash raqami (VIN)


Avtomobilning identifikatsiyalash raqami VIN motor bo'limining qopqog'ida o'yib yozilgan.



J20082A


Dvigatel raqami

Dvigatel raqami silindrlar blokining oldingi o'ng tomonida o'yib yozilgan.




Mexanik uzatmalar qutisining identifikatsiyalash raqami

Bu raqam dvigatel yonidagi transmissiya korpusining qopqog'iga yozilgan.



Avtomatik transmissiyaning identifikatsiyalash raqami

Bu raqam transmissiya korpusining oldingi ustki tomoniga yozilgan.



MOYLASH KARTASI

Nomi		Hajmi	Tasnifi
Motor moyi (shu jumladan moy filtri)	1.5B DOHC	3,75 l	Dexos1 5W30
Dvigatelning sovituvchi suyuqligi		7,2 l	DEX-COOL
Avtomatik uzatmalar qutisining moyi		8,365 l	DEXRON VI
Mexanik uzatmalar qutisining moyi		1,8 l	SAE 75W-90
Tormoz suyuqligi / ilashish muftasi yuritgichining suyuqligi		0,5 l	DOT 3
Rul kuchaytirgichining ish suyuqligi		1,1 l	DEXRON IID

MOTOR MOYI

Motor moyini tanlash

Motor moyini tanlashda ham moyning texnikaviy shartlarga muvofiqligini, ham uning quyishqoqligi darajasini hisobga olish lozim.

Motor moyning sifati

- dexos1, dexos2

Texnikaviy shartlar

dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lgan litsenziyalangan motor moylarini sotib oling. Ushbu avtomobilning talablariga javob beradigan motor moylarida dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lishi lozim. Bu belgi moy sifatining dexos™ spetsifikatsiyasi talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Sizing avtomobilingizning motoriga ishlab chiqaruvchi zavodda dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lgan motor moyi quyilgan.

Faqat dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lgan moylardan yoki tegishli quyishqoqligi darajasi bo'lgan shunga o'xshash sinfidagi moylardan foydalaning. Lekin, ma'lum sharoitlarda bunday moylardan foydalanish tortish-dinamik xususiyatlarining pasayishiga va motorning shikastlanishiiga olib kelishi mumkin.

Agar Siz moy dexos™ ning talablarga muvofiqligiga ishonch hosil qilmasangiz, o'z yetkazib beruvchingizga murojaat qiling.

Agar Siz o'z avtomobilingiz dvigatelining turini bilmasangiz, vakolatlangan servis markaziga murojaat qiling.

Motor moyining quyishqoqligi

SAE bo'yicha quyishqoqligi, moyning quyuuqligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Universal moy ikkita kod bilan belgilanadi:

Undan so'ng W harfi keladigan birinchi kod, past haroratdagi quyishqoqligini, ikkinchi kod esa - yuqori haroratdagi quyishqoqligini belgilaydi.

Sizing avtomobilingiz uchun SAE 5W-30 quyishqoqligi bo'lgan moy eng mos keladigani. Boshqa quyishqoqlik sinfidagi, masalan, SAE 10W-30, 10W-40, 20W-50 sinfidagi moylardan foydalang.

Past haroratda foydalanish uchun

Havo harorati -25C dan pasayadigan sovuq mintaqalarda avtomobilidan foydalanishda SAE 0W-xx quyishqoqligi bo'lgan moydan foydalanish lozim. Bu moy juda sovuq harorat sharoitida sovuq dvigatelni ishga tushirishni yengillashtiradi.

Kerakli quyishqoqlikdagi moyni tanlashda dexos™ tamg'alanishi mavjudligiga e'tibor bering.

- -25-C gacha: 0W-20, 5W-30.
- -25-C gacha va undan past: 0W-20, 0W-30.

Motor moyiga qo'shimchalar / Yuvish uchun mo'ljallangan moylar

Moyga hech nima qo'shmang.

dexos spetsifikatsiyasiga mos bo'lgan va dexos sertifikatlash belgisiga ega bo'lgan tavsiya etilgan moylar – dvigatelning yaxshi ishlashi va himoyalaniishi uchun kerakli bo'lgan narsalarning hammasidir.

Yuvish uchun mo'ljallangan moylaridan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular kafolat bilan qoplanmaydigan dvigatelning buzilishini keltirib chiqarishi mumkin.

Motor moyini to'ldirib quyish



Agar ular kerakli texnik talablarga mos bo'lsa (va talab etiladigan quyishqoqlik darajasiga ega bo'lsa), turli ishlab chiqaruvchilarning, turli rusumlardagi motor moylarini aralashtirishga yo'l qo'yiladi.

Talab etiladigan sifatdagi motor moyi bo'lmaganda, API SM/SN, ACEA A3/B4, ACEA A3/B3 yoki ACEA C3 sinfidagi moyning ko'pi bilan 1 litridan foydalanish mumkin (har bir moy almashtirishga ko'pi bilan bir marta).

Moy tegishli quyishqoqligiga ega bo'lishi lozim. Faqat ACEA A1/B1 sinfidagi yoki faqat ACEA A5/B5 sinfidagi motor moyidan foydalanish qat'iy taqiqlanadi, chunki ma'lum foydalanish sharoitlarida bu dvigatelning jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin.

CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI

Chiroqlar		Quvvati x Soni	Eslatmalar	
Oldi	1	Uzoq va yaqin yoritish chiroqlari	60/55 Vt x 2	Galogen chiroq
	2	To'xtab turish chiroqlari	5 Vt x 2	
	3	Burilish ko'rsatkichlari	21 Vt x 2	Sariq rang
	4	Kunduzgi yoritish chiroqlari *	21 Vt x 2	
	5	Tumanga qarshi fara ¹⁾	35 Vt x 2	Galogen chiroq
	6	Burilish ko'rsatkich takrorlov chirog'i *	5 Vt x 2	
Orqa	7	Orqa chiroqlar	21 Vt x 2	Sariq rang
	8	Stop-signal / orqa gabarit chiroqlari	21/5 Vt x 4	
	9	Orqaga yurish chirog'i	21 Vt x 2	
	10	Tumanga qarshi chiroq *	21 Vt x 2	
	11	Yuqori stop-signal *	5 Vt x 5	
	12	Davlat ro'yxat raqami belgisini yoritish chirog'i	5 Vt x 2	
Salon	Ustki plafon		10 Vt x 1	
	Kichik yoritish chirog'i		7,5 Vt x 2	
	Yukxona bo'limini yoritish plafoni		10 Vt x 1	



¹⁾Ba'zi modellarda chiroqlarning xususiyatlari jadvalda keltirilganlaridan farq qilishi mumkin. Nosoz chiroqni almashtirishdan avval chiroqda ko'rsatilgan quvvatini tekshiring.

AVTOMOBILNING TEXNIK TAVSIFI

Dvigatel (1.5 DOHC)		
Turi	4-silindrli/qatorli	
Klapanlari	DOHC 16 klapan	
Dvigatel hajmi (kub.sm)	1485	
Silindr diametri va porshenning yurishi (mm)	74,7 x 84,7	
Siqish darajasi	10,2 : 1	
MAX quvvati (kVt/ayl.daq.) Yevro II	77,5 / 5800	
MAX quvvati (kVt/ ayl.daq.) Yevro V	79 / 5800	
MAX aylanish momenti (Nm/ ayl.daq.)	141 / 3800	
Yonilg'i ta'minoti tizimi	Yonilg'ini taqsimlab purkab kiritish	
Oktan soni		
O'zbekiston	RON 91va yuqorisi	
MDH va Rossiya	RON 91va yuqorisi	
O't oldirish svechalari	Tirqishi (mm) 0,8 ~ 0,9	
Akkumulyator batareyasi	Seriya (V-A-ch)	12 - 55
	Past haroratda qisqa vaqtda sovuq ishga tushirish toki (CCA)	610
Generator (V-A)	12 - 100	
Starter (V-kVt)	12 - 1,2	

Shassi			
Oldingi podveska		Makferson tirgagi	
Orqa podveska		Tirgovich va ikkitalik sharnirlar	
Podveska burchaklari (yuklanishsiz)	Razval	Oldingi shinalar	-0° 20' ± 45'
		Orqa shinalar	-1° 00' ± 45'
	G'ildirak burilishi o'qining bo'ylama og'ish burchagi		4° 00' ± 45'
	Musbat og'ish burchagi	Oldingi shinalar	0° 00' ± 10'
Orqa shinalar		0° 12' ± 10'	
Rul boshqaruvi	Turi		Gidravlik, reykali
	Rul/mexanizmning umumiy uzatma soni		16:1
	Ø rul g'ildiragi (mm)		380 (xavfsizlik yostiqchasi bilan) 370 (xavfsizlik yostiqchasisiz)
	Minimal burilish burchagi (m)		5,2

Tormoz tizimi		
Turi	Ikki konturli	
Oldingi tormozlar	Diskli shamollatiladigan	
Orqa tormozlar	Diskli	
Kuchaytirgich	oddiy (dyuym) [mm]	9,5" [241,3]
	ikkitalik (dyuym) [mm]	7"+8" [177,8+203,2]

Yonilg'i va suyuqlik quyish hajmi	
Yonilg'i baki (l)	60
Dvigatel moyi (l)	3.75 (shu jumladan moy filtri)
Sovituvchi suyuqlik (l)	7.2

Tashqi gabarit o'lchamlari		
Umumiy uzunligi (mm)	4 515	
Umumiy eni (mm)	1 725	
Umumiy balandligi (mm)	1 445	
G'ildirak bazasi (mm)	2 600	
Yo'l oralig'i (mm)	Oldingi shinalar	1 480
	Orqa shinalar	1 480

Dinamik xususiyatlari			
Maksimal tezligi (km/soat)	1.5 DOHC	Mexanik uzatmalar qutisi	180
		Avtomatik uzatmalar qutisi	171

G'ildiraklar va shinalar (sedan va xetchbek)			
Shinalar o'lchami	G'ildiraklar o'lchami	Shinalarda havo bosimi (kPa) [psi]	
		3 tagacha yo'lovchi	
		Oldingi	Orqa
185/65 R14	5,5J x 14	210 [30]	210 [30]
195/55 R15	6J x 15	210 [30]	210 [30]

6-uzatmali avtomatik uzatmalar qutisi (1.5 DOHC)		
Yuritma tizimi		Oldingi yuritma
Uzatmalar qutisining uzatma sonlari	1-uzatma	4,449
	2-uzatma	2,908
	3-uzatma	1,893
	4-uzatma	1,446
	5-uzatma	1,000
	6-uzatma	0,742
	Orqaga yurish	-2,871
	Asosiy uzatma	4,110

Ilashish muftasi	
Turi	Bir diskli, quruq ilashish muftasi
Tashqi diametri (mm)	215
Ichki diametri (mm)	145
Qalinligi (mm)	8,3

5-uzatmali mexanik uzatmalar qutisi (1.5 DOHC)		
Yuritma tizimi		Oldingi yuritma
Uzatmalar qutisining uzatma sonlari	1-uzatma	3,727
	2-uzatma	1,952
	3-uzatma	1,276
	4-uzatma	0,971
	5-uzatma	0,763
	Orqaga yurish	3,545
	Asosiy uzatma	4,467

Vazni (1.5 DOHC)		
Jihozlangan vazni (kg)	Mexanik uzatmalar qutisi	1170~1225
	Avtomatik uzatmalar qutisi	1190~1245
Avtomobilning to'liq vazni (kg)	Mexanik uzatmalar qutisi	1660
	Avtomatik uzatmalar qutisi	1680
Oldingi o'qqa maksimal yuklanish (kg)		920
Orqa o'qqa maksimal yuklanish (kg)		845

10 GAZ-BALLON ASBOB-USKUNALARI *

- MUHIM MA'LUMOT 10-2
- MOTOR BO'LIMI TAVSIFI 10-4
- YUKXONA BO'LIMI TAVSIFI 10-5
- GAZ YOQILG'ISI BILAN TO'LDIRISH 10-6
- GAZ YOQILG'I TIZIMINING ISHLASHI 10-9
- MUAMMOLAR YUZAGA KELGAN
HOLATDAGI HARAKATLAR 10-10
- ESLATMALAR 10-12

MUHIM MA'LUMOT

Gaz yoqilg'i tizimi bilan jihozlangan avtomobilingiz talab darajasida ishlashi uchun ushbu Yo'riqnomada keltirilgan ko'rsatmalar hamda Ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalariga rioya eting.

Davriy texnik tekshiruv davomida gazli yoqilg'i tizimi bilan ta'minlangan avtomobildan ishlatib chiqarilgan gazlar tarkibidagi zararli moddalar tekshiriladi.

Gaz balloni belgilangan muddatlarga muvofiq tarzda hamda amaldagi qonunlarga mos holda muntazam ravishda tekshiruvdan o'tkazilishi shart ("Texnik xizmat ko'rsatish" bo'limiga q.).

Tabiiy gaz yoki metan

Tabiiy gazning asosiy qismini metan tashkil etib, uning miqdori tabiiy gaz umumiy hajmining 98–99%ni tashkil etadi. Tabiiy gaz - yonilg'i hisoblanib, atrof-muhitni ifloslamaydi. Tabiiy gaz tarkibida oltingururt birikmalari kabi zararli aralashmalar deyarli bo'lmaydi. Uning tarkibida qo'rg'oshin va politsiklik uglevodorodlar umuman yo'q. Shunday ekan, tabiiy gazdan foydalanish nafas yo'llari va ko'zlarimizga ziyon yetkazuvchi troposfera ozonining yuzaga kelishini cheklaydi. Tabiiy gazning xususiyatlari undan avtomobil yoqilg'isi sifatida foydalanish uchun yaroqli qiladi. Gazning oktan sonining yuqoriligi va tarkibida cho'kindilarning yo'qligi

sababli yuqori darajada siqilgan holda to'rt taktili benzin dvigatellarida ishlatishga yaroqlidir. Tabiiy gazning energiya miqdori juda yuqori va undan foydalanish dvigatelning foydali faoliyat koeffitsiyentini oshiradi. Tabiiy gaz yonish kamerasida qurum qoldirmaydi. Tabiiy gaz motor moyini suyuq yoqilg'iga nisbatan kamroq ifloslantiradi, shuningdek o'z xususiyatlarini uzoproq saqlab qolgan holda, dvigatelning xizmat ko'rsatish muddatini cho'zadi.

ESLATMA

Ushbu Foydalanish va xizmat ko'rsatish bo'yicha Yo'riqnomada keltirilgan suratlar Sizning tushunishingizni yengillashtirishga xizmat qiladi.

DIQQAT!

Gaz yoqilg'i tizimi bilan ta'minlangan avtomobildan foydalanishdan avval ushbu Yo'riqnoma bilan tanishib chiqishingizni tavsiya etamiz. Sababi unda tizimning ishlashi, unga texnik xizmat ko'rsatish, shuningdek ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur Yo'riqnomani hamda avtomobil hujjatlari bilan birga servis kitobchasini ham saqlab qo'ying.

Gazli yoqilg'i tizimi haqida umumiy ma'lumotlar

Gazni ketma-ket yuborish tizimi ishlatib chiqarilgan gazlarning zahariligi va turli sharoitlarda yoqilg'i iste'moli ustidan nazoratni ta'minlashga atayin mo'ljallangan.

Tabiiy gazda ishlaydigan dvigatelning quvvati benzinda ishlaydigan dvigatel kuchining 85 dan 90%gachasini tashkil etadi.

Ballon(lar)ning jami massasi avtomobilning to'liq og'irligini oshiradi. Avtomobildan foydalanganda uning qayd etish hujjatlarida ko'rsatilgan ruxsat etilgan to'liq massasini ushlab turish talab etiladi. Ishlab chiqaruvchiga bog'liq ravishda bir xil hajmdagi ballonlarning og'irligi turlicha bo'lishi mumkin.

Avtomobilingizdagi gaz yoqilg'i tizimi to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun uni muntazam ravishda ixtisoslashgan servis markazlarida texnik xizmat ko'rsatish ko'rigidan o'tkazib turing.

Avtomobilning yoqilg'i bakida har doim $\frac{1}{4}$ dan kam bo'lmagan miqdorda benzin bo'lishi talab etiladi, sababi dvigatel benzin orqali ishga tushadi. Faqat mana shundagina avtomobilingizning benzin tortuvchi nasosi buzilmasdan ishlaydi.

Agar baktagi benzin 3 oydan ziyod turib qolsa, uning ustiga albatta yangi benzin quyish kerak bo'ladi.

Har safar gazda taxminan 5000 km masofa bosib o'tilgandan so'ng kichikroq masofalarda (5–10 km) dvigatelni benzinda to'g'ri ishlayotganini tekshirib turish lozim.

⚠️ DIQQAT!

Gaz hidini sezishingiz bilan darhol dvigatelni benzinda ishlash rejimiga o'tkazing va "Muammolar yuzaga kelgan holatlardagi harakatlar" bo'limidagi ko'rsatmalarni bajaring.

Bort kompyuterli avtomobillar

Bort kompyuteriga ega avtomobillarda gazdan foydalanilganda avtomobilning shtatdagi bort kompyuteri avtomobilga taalluqli ba'zi bir ma'lumotlarni noto'g'ri ko'rsatishi mumkin, masalan, benzindan foydalanganda bosib o'tilishi mumkin bo'lgan masofani, yoqilg'ining joriy yoki o'rtacha iste'molini.

- Qolgan bosib o'tiladigan masofa va/yoki bakdagi benzin sathi dvigatelni o'chirib-qayta ishga tushirilgandan so'ng to'g'ri ko'rinadi.

- Kompyuter yoqilg'i sarfini avtomobil xuddi benzinda ishlayotganidek ko'rsatadi, chunki kompyuter ikki turdagi yoqilg'i zichligidagi farqni hisoblab chiqi olmaydi.

⚠️ DIQQAT!

Gaz ballonlari bilan jihozlangan avtomobillarni shamollatiladigan xonalarda saqlash talab etiladi.

Ehtiyotkorlik choralari

Quritish kamerasidan foydalanib kuzovni ta'mirlash

Avtomobilingiz ta'mirlanadigan ATXKSga mashinangiz tabiiy gazda ishlaydigan gaz yoqilg'i tizimi bilan jihozlangani haqida xabar bering.

⚠️ DIQQAT!

Sizning avtomobilingizga o'rnatilgan ballon 82°C gacha haroratga chidamli. Agar avtomobilingiz yanada yuqoriroq haroratgacha qiziydigan bo'lsa, ballonni avvaldan demontaj qilish talab etiladi.

Yo'l-transport hodisasi yuz bersa

Muhim ehtiyotkorlik choralariga dvigatel benzinda ishlagan holatlardagidek amal qilinadi:



1. To'xtab turish tormozini yoqing, dvigatel va faralarni o'chiring; saqlagich qurilmasi dvigatelga gaz uzatilishini avtomatik tarzda to'xtatadi;
2. Har bir ballondagi qo'lda boshqariladigan jo'mraklarni yopib, imkon darajasida ballonlarni izolyatsiya qiling.

⚠️ DIQQAT!

OCHIQ yoki YOPIQ ligini bilish uchun, kran dastasining xolatini tekshiring.


Gaz ballon jo'mragi dastasining holati

Agar gaz ballon jo'mragi dastasi yo'nalish bo'yicha qaratilgan bo'lsa - jo'mrak ochiq. Agar gaz ballon jo'mragi dastasi yo'nalishga qarama - qarshi bo'lsa - jo'mrak yopiq.



MOTOR BO'LIMI TAVSIFI

1.5 DOHC dvigateli



1. Gaz injektori yig'ilgan holatda;
2. Manometr;
3. Gaz to'ldiriluvchi klapan;

4. Gaz reduktori;
5. Gazni elektron boshqarish bloki.

Gaz yoqilg'i tizimining tarkibiy qismlari

Bosim rostlagichi - Ballondagi gaz bosimini gazni yuborish uchun muvofiq bo'lgan bosimgacha pasaytirib beradi. Rostlagich gaz filtri va saqlovchi elektromagnit klapani bilan ta'minlangan. Yoqilg'i uzatish tizimida yoqilg'i sathi o'lchagichi ko'zda tutiladi. O'sha yerga manometr ham o'rnatish mumkin.

Harorat o'lchagichi – Dvigatel ishga tushirilgandan so'ng gazdan foydalanishga o'tish eng maqbul lahzalarda bajarilishi uchun gaz yoqilg'isini yuborishni boshqarish blokiga dvigatelni sovituvchi suyuqlik harorati haqida signal uzatadi.

Gaz filtri – Gaz tarkibidagi qo'shimchalarni past bosimlarda filtdan o'tkazadi.

Bosim/harorat o'lchagichlariga ega gaz injektorlari (birgalikda yoki alohida) – Gaz yuborish bloki boshqaruvi ostida ishlaydi. Injektorlar blokiga kiruvchi injektorlar soni dvigatel me'yorida ishlashi uchun zarur bo'lgan, ular yoqilg'i uzatadigan silindrlar soniga teng bo'ladi.

Shtutserlar – gaz injektorlarini dvigatelning gaz chiqaruvchi kollektorining mutanosib kanali bilan bog'lab turadi.

YUKXONA BO'LIMI TAVSIFI


Elektron boshqaruv bloki - benzin yuborilishini boshqaruvchi blokdan olinadigan elektron o'lchamlarni qayta ishlaydi, tegishli ravishda ularni o'zgartiradi va gaz injektorlari ishini boshqarish uchun ulardan foydalanadi.

Almashtirgich-ko'rsatkich - Dvigatelni benzindan gazga va aksincha gazdan benzingga o'tkazish ishlarini bajaradi, ballondagi gaz sathini, shuningdek gaz yoqilg'i tizimini avtomatik diagnostika qilish tizimi signallarini ko'rsatadi.

Yoqilg'i klapani - ballonni gaz bilan to'ldirish vaqtida foydalaniladi. Qaytish klapani bilan jihozlangan. Bu klapan motor bo'limida joylashgan.

Gaz balloni klapani - Ballonni gaz bilan to'ldirishda qo'llaniladi va gazni to'g'ri bosim rostlagichiga uzatib beradi. Har bir ballon qo'lda sozlanadigan berkitish kraniga ega klapan bilan jihozlanadi va amaldagi qonun talab etsa yana bir elektromagnit klapan bilan ham ta'minlanadi.

Gaz balloni -Yuqori bosimdagi gazni saqlaydi. Gaz ballonining xizmat ko'rsatish muddati ballonda o'yib yozilgan uning ishlab chiqarilgan sanasidan boshlanib, ECE/ONU R110 me'yoriga muvofiq sertifikatatsiya qilingan. Gaz ballonlarini muntazam tarzda sinovdan o'tkazish talab etiladi.



1. Harorat saqlagichli klapan;
2. Shamollatish naychasi;
3. Gaz balloni uchun rama;

4. Gaz balloni;
5. Gaz balloni jo'mragi;
6. Gaz ballonini mahkamlash uchun kamar.

GAZ YOQILG'ISI BILAN TO'LDIRISH

Yoqilg'i quyishda bir qator oddiygina ehtiyotkorlik choralariga rioya qilish talab etiladi:

- Chekmang;
- To'xtab turish tormozini yoqing;
- Dvigatelni o'chiring;
- Asboblar panelidagi yoritish chirog'ini va yoritish asboblarini o'chiring.
- Agar yoqilg'i quyish stansiyasi talab qilsa, barcha yo'lovchilar avtomobildan tushib, ularga ajratilgan maxsus zonalarga o'tishlari kerak.
- Yoqilg'i saqlash kolonkalari yonida uyali telefondan foydalanmang.

Yoqilg'i quyish stansiyalarida yoqilg'i turli bosimlarda uzatilishi va turli o'lcham birliklarida hisoblanishi mumkin. Har xil yoqilg'i turlari nisbatini quyidagi taxminiy qoida bo'yicha hisoblash mumkin:

- 1 kg tabiiy gaz chamasi 1,5 litr benzina to'g'ri keladi;
- 1 m³ tabiiy gaz chamasi 1,1 litr benzina to'g'ri keladi.

Yoqilg'i to'ldirish so'ngida erishilgan bosim ballondagi gazning miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Olingan gaz bilan ballondagi gaz miqdori o'rtasidagi tafovut quyidagilarga bog'liq bo'lishi mumkin:

- Ballondagi gaz qoldig'iga;
- Yoqilg'i to'ldirish so'ngida erishilgan uzatish bosimiga;
- Kelib chiqishiga bog'liq ravishda nisbatan past yoki yuqori zichlikdagi gazning yoqilg'i to'ldirish quvur yo'li bo'yicha uzatilishiga.

Odatda, gazning energiya tarkibi uning zichligiga bog'liq bo'ladi. Gaz qanchalar zich bo'lsa, avtomobilning aynan o'sha gazda bosib o'tadigan masofasi yuqori bo'ladi.

Gaz bilan to'ldirilgandan so'ng balloning atrof muhit haroratiga nisbatan birmuncha qiziganini sezish mumkin. Buni gazning qisilishi natijasidagi jismoniy ta'sir orqali tushuntirish mumkin va bu xavf tug'dirmaydi.

⚠️ DIQQAT!

Yonilg'i quyish stansiyasida qayd etilgan ehtiyotkorlik choralariga rioya qiling. Har bir kolonkada gaz nasosini o'chiruvchi avariya to'xtatish tugmasi o'rnatilgan bo'ladi. Avtomobilingizning CNG (siqilgan tabiiy gaz - metan) gaz ballonini 20 MPa dan ortiq bosim bilan to'ldirmang.

Yoqilg'i ko'rsatkichining almashlab-lagichi

A. benzindan gazga o'tkazish tugmasi

Bu tugmani bosish orqali dvigatel benzindan gazga va orqaga o'tadi.

B. Yashil yorug'lik diodi

Agar bu yorug'lik diodi muntazam ravishda yonib tursa, dvigatel gazda me'yoriy tartibda ishlayotganini anglatadi.


C. Sariq yorug'lik diodi

Agar bu yorug'lik diodi muntazam ravishda yonib tursa, dvigatel benzinda me'yoriy tartibda ishlayotganini bildiradi.

D. 5 yorug'lik diodidan iborat qator (4 yashil va 1 qizil). Ballondagi gaz sathini ko'rsatadi. (Har bir yonib turgan yashil yorug'lik diodi to'la balloning taxminan 1/4 ga to'g'ri keladi). Ballonda gaz sathi minimal darajaga tushib qolganda qizil yorug'lik diodi yonadi.

⚠️ DIQQAT!

Svetodiod gaz ballon gaz bilan qayta to'ldirilgandan so'ng bosimni ko'rsatadi (3 daqiqa o'tgandan so'ng).



Dvigatelnin avariya holatida ishga tushish tartibi

Agar dvigatelni benzinda ishga tushirishning imkoni bo'lmasa (benzin tugab qolganda, benzonasos ishdan chiqqanda va h.k.), dvigatelni avariya tartibida gaz yordamida quyidagi tarzda ishga tushirish mumkin:

- O't oldirish kalitini shunday burangki, bunda asboblar paneli chiroqlari yonsin;

- O'zgartirgichning "A" tugmasini bosib, 5 soniyadan kam bo'lmagan vaqt ushlab turing (yashil yorug'lik diodi yonib-o'chishdan to'xtab, doimiy yonishga o'tadi);
 - Dvigatelni ishga tushiring.
 Bu holatda dvigatel gaz yordamida ishga tushiriladi.

▲ DIQQAT!

YOQILG'INI KETMA-KET UZATUVCHI GAZ YOQILG'I TIZIMLARINING BARCHASI HAM DVIKATELNI AVARIYA HOLATIDA ISHGA TUSHIRISH FUNKSIYASIGA EGA EMAS. Gaz yoqilg'i tizimi bo'yicha rasmiy servis markazidan Sizning gaz-ballon jihozlaringiz dvigatelni avariya holatida ishga tushirish tizimi bilan ta'minlanganmi yoki yo'qmi, bu yo'l bilan dvigatelni necha marta ketma-ket ishga tushirishga urinib ko'rish mumkinligini aniqlab oling. Dvigatelni ishga tushirishning yuqorida keltirilgan tartibdan dvigatelni odatiy ishga tushirishda foydalanib bo'lmaydi. Undan faqat avariya holatlari yuz berganda, dvigatelni odatdagi tartibda ishga tushirishning imkoni bo'lmaganda

▲ DIQQAT!


foydalanish mumkin. Dvigatelni avariya holatida ishga tushirish tizimidan foydalanilgach, imkon qadar tezlik bilan avtomobilni tekshiruvdan o'tkazish uchun servis markaziga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

▲ DIQQAT!


Agar yashil yorug'lik diodi yonib-o'chib tursa, sariq yorug'lik diodi esa muntazam yonib tursa, bu tizim dvigatelni gazga o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni kutayotganini anglatadi.
 Agar yashil yorug'lik diodi muntazam yonib tursa, sariq yorug'lik diodi esa yonmasa, dvigatel gazda me'yoriy tartibda ishlayotganini anglatadi.
 Agar yashil yorug'lik diodi muntazam yonib tursa, sariq yorug'lik diodi ham doim yonib tursa va bir vaqtning o'zida tovush signali (har soniyada 2 marta) chiqarsa, bu yonilg'i sathi pastligini bildiradi.
 Agar yashil yorug'lik diodi yonib-o'chib tursa, sariq yorug'lik diodi muntazam yonib tursa va bir vaqtning o'zida tovush signali (har soniyada 1 marta) chiqarsa, bu gaz yonilg'i tizimida nosozlik mavjud ekanini anglatadi. Har qanday holatda ham, faqat yashil yorug'lik diodi muntazam yonib turib, sariq yorug'lik diodi esa yonmasa, dvigatel gazda ishlaydi.

Gaz quyish klapanidan foydalanish


1. Gaz quyish klapani qo'lda yopilsin. Changdan himoyalash klapanini yechishdan oldin gaz quyish klapanining dastasi yopiq holatda turganiga ishonch hosil qiling. Agar gaz quyish klapanining dastasi yopiq holatda bo'lmasa, dastani soat strelkasi bo'ylab burab, klapani yoping



2. Ventilyatsiya vintini burab chiqarib oling. Gaz quyish klapanini yoping, qolgan gaz bosimini chiqarib tashlash uchun vinti burang. Gaz quyish klapanining vintini to'liq burab chiqarish shart emas.




3. Changdan himoyalaydigan shtokni yechib oling. Ortiqcha kuch ishlatmasdan, changdan himoyalaydigan shtokni qo'lda yechib oling.




4. Gaz quyish klapani ochilsin va gaz quyilsin. Gaz quyish pistoletini o'rnatng.

Gaz quyishdan oldin gaz quyish klapanini oching, buning uchun gaz quyish klapani dastasini soat strekasiga qarshi burang.



5. Gaz quyish klapani yopilsin. Gaz quyilgandan keyin gaz quyish pistoletini yechib olishdan oldin gaz quyish klapanini yoping.




6. Changdan himoyalaydigan shtok joyiga qo'yilsin.

Gaz quyish klapani yopilib, gaz quyish pistoleti olingandan so'ng qo'lda changdan himoyalaydigan shtokni joyiga qo'ying.



7. Ventilyatsiya vinti. Ventilyatsiya vintini oxirigacha burang.



GAZ YOQILG'I TIZIMINING ISHLASHI

Dvigatelni ishga tushirish

Ketma-ket uzatish tizimidan foydalanganda dvigatel ishlab chiqaruvchi tomonidan avtomobilga o'rnatilgan tartibda benzin orqali ishga tushadi. Dvigatel ishga tushishi bilan almashlab-ulagichning "C" sariq yorug'lik diodi muntazam yonib turadi, "B" yashil yorug'lik diodi esa tez-tez yonib-o'chadi. Benzindan gazga o'tish sezilarli tezlashish yoki sekinlashishda, ya'ni gaz yoqilg'i tizimining (dvigatel harorati, dvigatelning minimal aylanish chastotasi) to'g'ri ishlashini ta'minlab beruvchi zarur o'lchov miqdorlariga erishilishi bilan (elektron boshqaruv blokining kalibrlanishiga bog'liq ravishda) yuz beradi.

Gazga o'tilgandan so'ng "C" sariq yorug'lik diodi o'chadi, "D" yoqilg'i sathi displeyi yonadi, "V" yonib-o'chishdan to'xtab, muntazam yonib turadi. Agar endi dvigatel o'chirilsa, so'ngra qayta ishga tushirilsa, gazning harakatlanishini davom ettirish uchun almashlab-ulagich bilan hech qanday amalni bajarmaslik kerak.

Harakatlanish vaqtida gazdan benzina o'tish uchun:

- Akselerator pedalidan oyog'ingizni oling va "A" tugmasini bosing.

Dvigatel benzinda ish boshlashi bilan "C" sariq yorug'lik diodi doim yonib turadi, "B" yashil

yorug'lik diodi esa yonmaydi. Agar endi dvigatelni o'chirib, yana ishga tushirilsa, dvigatel benzinda ishlaydi. Benzindan gazga o'tish uchun esa "A" tugmasini bosing (pasta keltirilgan rasmni qarang).

Benzinga o'tish dastlabki tezlikni oshirishdayoq yuz beradi.


Agar yoqilg'i baki bo'sh bolsa

Agar gaz tugab qolsa, tizim avtomatik ravishda dvigatelni benzina o'tkazadi va haydovchi quyidagi tarzda xabardor qilinadi:

- "V" yashil yorug'lik diodi va "C" sariq yorug'lik diodi yonadi va muntazam ravishda yonib turadi;

- O'zgartirgich bir soniyada 2 ta tovush signali chiqaradi.

Agar bunda "A" tugmasi bosilsa, tovush signali o'chadi, "B" yashil yorug'lik diodi o'chadi. Ballon gazga to'ldirilgandan so'ng dvigatelni gazga o'tkazish uchun "A" tugmasini bosing.



B

A

C

Nosozliklarni avtomatik diagnostikasi

Ketma-ket uzatish tizimi nosozliklarni avtomatik diagnostika qilish tizimi bilan ta'minlangan bo'lib, haydovchini "B" yashil yorug'lik diodi (dvigatel gazda ishlayotganini ham ko'rsatib turuvchi) yordamida ehtimoli bor nosozliklar yoki tizim tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar uzatilishi haqida xabardor qilib turadi.

Dvigatelning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qiladigan nosozliklar yuzaga keladigan bo'lsa, boshqaruv bloki avtomatik ravishda dvigatelni gazdan benzina o'tkazadi. O'zgartirgich bu haqida quyidagi tarzda xabar beradi:

- "C" sariq yorug'lik diodi yonadi va doim yonib turadi;

- "B" yashil yorug'lik diodi bir soniyada bir marta yonib-o'chib turadi;

- Tovush signali har soniyada ovoz beradi.

Agar bunday holatda "A" tugmasi bosilsa, tovush signali to'xtaydi, "B" yashil yorug'lik diodi esa o'chadi. Nosozliklarni avtomatik diagnostika tizimi signali yuzaga keladigan bo'lsa, zudlik bilan gaz yoqilg'i tizimini tekshirtirish uchun ixtisoslashgan servis markazlariga murojaat qiling.

MUAMMOLAR YUZAGA KELGAN HOLATDAGI HARAKATLAR

Agar dvigatel gazda ishlamasa, birinchi navbatda, quyidagilarni tekshiring:

- ballonda gaz borligini tekshiring;
- harakatlanish uchun yetarli miqdorda benzin borligini tekshiring.

Havo harorati past bo'lganda benzindan gazga o'tish odatdagidan ko'proq vaqt talab etishi mumkin.


Agar dvigatel gazda yomon ishlayotgan bo'lsa, uning benzinda qanday ishlashini tekshirib ko'ring. Agar benzinda ishlayotganda ham xuddi shunday muammolar yuzaga keladigan bo'lsa, demak, gaz yoqilg'i tizimining bunga aloqasi yo'q. O'zingiz mustaqil ravishda hech narsani tuzatishga urinmang, eng yaqin servis markaziga murojaat qiling. Gaz tizimini mustaqil ravishda tuzatishga harakat qilish xavfli oqibatlarga olib kelishi, gaz yoqilg'i tizimi ishlab chiqaruvchisi esa kafolat majburiyatlarini bekor qilishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

Gaz sistemasidan yupqa tozalash filtrisasi foydalanish taqiqlanadi, aks holda gaz forsunkasining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin

⚠️ DIQQAT!

OCHIQ yoki YOPIQ ligini bilish uchun, kran dastasini xolatini tekshiring.



Tabiiy gaz o'ziga xos hidga ega bo'ladi va gaz chiqqanda uni darhol sezish mumkin. Agar siz avtomobilda gaz hidini sezsangiz darhol dvigatelni benzinda ishlashga o'tkazing, avtomobilni o'chiring va chekmang. Avtomobil yaqinida hech qanday issiqlik manbai va ochiq olov yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Har bir ballondagi qo'lda buraladigan jo'mraklarni (jo'mragini rasmda qarang) yopgan holda, imkon qadar ballonlarni izolyatsiya qilishga harakat qiling.

Benzinda harakatlanishni gaz hidi umuman yo'qolganidan va gaz ballonlari izolyatsiya qilingandan so'ng davom ettirish mumkin.

Avtomobildan gaz yordamida foydalanishdan avval uni tekshirtirish uchun rasmiy servis markazlariga murojaat qiling. Agar dvigatelni o'chirib va gaz ballonlarini qo'lda burab

yopilgandan keyin ham gaz isi yo'qolmasa, dvigatelni ishga tushirish tavsiya qilinmaydi, zudlik bilan ixtisoslashgan servis markazlariga murojaat qilish talab etiladi.

Texnik xizmat ko'rsatish

Gazda ishlaydigan avtomobildan foydalanganda, avtomobildan foydalanilayotgan mamlakat qonunlarida ko'zda tutiladigan qoidalarga muvofiq ravishda texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga rioya qilish talab etiladi.

Optimal sharoitlarda gaz yoqilg'i tizimidan foydalanish uchun ishlab chiqaruvchi talablariga muvofiq tarzda avtomobil dvigateliga xizmat ko'rsatish lozim; gaz yoqilg'i tizimining mexanik va elektr tarkibiy qismlarini ham muntazam ravishda texnik ko'ruvdan o'tkazish talab etiladi. Shuningdek, avtomobilga umumiy texnik xizmatlar ham ko'rsatilishi, xususan: o't oldirish shamchalari, yuqori voltli simlar va o't oldirish tizimiga avtomobil ishlab chiqaruvchisi ko'rsatmalariga binoan texnik xizmatlar ko'rsatiladi.

Kafolat majburiyatlari

Mazkur avtomobilga birlashtirilgan va servis markazida tegishli tartibda to'ldirilgan servis kitobchasini ehtiyot qilib saqlang.

Ishlab chiqaruvchi agar gaz yoqilg'i tizimida buning uchun ruxsatnomasi bo'lmagan shaxslar tomonidan muayyan bir ishlar bajarilgan taqdirda o'z kafolat majburiyatlarini bekor qiladi.

ESLATMA

Kafolat muddati amal qilishi davomida mijozdan tizimning muayyan bir tarkibiy qismini almashtirish uchun to'lov talab etilishi mumkin, agar bunday almashtirish ishlari tizim o'rnatilgan markazdan boshqasida amalga oshiriladigan bo'lsa.

Agar gaz yoqilg'i tizimi ishdan chiqishi bilan bog'liq holda mijoz faqat benzin ishlatib avtomobildan foydalanadigan bo'lsa, tabiiy gaz bilan benzin narxi o'rtasidagi farq kompensatsiyasi ko'zda tutilmaydi.

Tabiiy gazda dvigatelning to'g'ri ishlashi agar uning tarkibida metan konsentratsiyasi 85%dan kam bo'lmagan taqdirda kafolatlanadi.

DIQQAT!

Gaz yoqilg'i tizimiga texnik xizmatlar faqat ixtisoslashgan servis markazlarida amalga oshirilishi kerak, bunda avtomobilga texnik xizmat ko'rsatib bo'lingach, servis vakili tomonidan servis kitobchasidagi muvofiq

DIQQAT!

talon to'ldirilishi zarur. Agar tizimga talab darajasida xizmat ko'rsatilmasa, ishlab chiqaruvchi o'z kafolat majburiyatlarini bekor qiladi.

Gaz yoqilg'i tizimining asl tarkibiy qismlariga tegmang, ayniqsa dvigatel ishlab turganda yoki asboblardan paneli chiqroqlari yonib turganda.

Tarkibiy qismlarga aralashishga urinishlar yoki ularni demontaj qilish natijasida insonlarning salomatligiga yoki ularning mulkiga zarar yetkazishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday holatlarda, ya'ni ruxsati bo'lmagan shaxslar tomonidan gaz yoqilg'i tizimining tarkibiy qismlariga nisbatan noto'g'ri harakatlar bajarilishi oqibatida ishlab chiqaruvchi moddiy va jismoniy yo'qotishlar bilan bog'liq barcha kafolat majburiyatlarini o'zidan soqit qiladi.

Avtomobil ishlab chiqaruvchisi tomonidan to'ldirish talab etiladigan servis kitobchasidagi qaydlar quyida keltirib o'tilgan texnik xizmat ko'rsatish davriy amallari bajarilgandan so'ng yoziladi.

Quyidagilarni yoddan chiqarmang:

- Ishlab chiqaruvchi ko'rsatgan davriylik bilan havo filtri va o't oldirish shamchalarini almashtirish;

- Gaz ballonini amaldagi qonun talablariga rioya etgan holda qaytadan ko'rikdan o'tkazish zarur.

Utilizatsiya qilish

Gaz yoqilg'i tizimini demontaj qilish uchun mana shunday tizim bilan ish olib boradigan rasmiy servis markazlariga murojaat qiling. O'sha yerda Sizning avtomobilingizdan bu tizimni amaldagi qonunlarga rioya etilgan holda olib tashlaydilar.

DIQQAT!

Gaz balon qurilmasi va gaz balon bilan jihozlangan, hamda barcha 5-ta yo'lovchisi bo'lgan avtomobilning yukxonasidagi yukning og'irligi 40 kg dan oshmasligi kerak.

